Superplastifikator miqdorining ortishi bilan ushbu ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi bog‘lanishda mustaxkamlikning maksimal miqdori, qorishmaning harakatchanligi miqdori saqlanib qolgan sharoilarda, katta extimol bilan nisbiy sirt yuzasi miqdorining yuqoriroq bo‘lgan qiymatlari soxasiga suriladi. Agar tarkibdagi suvning miqdori yetarlicha bo‘lmagan xollarda esa (molekulalar uchun tiqilinch bo‘lgan sharoitlarda) oquvchanlik rejimining dilatant rejimga (qachonki yuqori tezliklarda suv bog‘lovchi zarrachalari o‘rtasidagi mavjud bo‘lgan bo‘shliqlarni to‘ldirishga ulgurmaydi va shu tufayli zarrachalar o‘rtasidagi ishqalanish keskin osho‘ib ketishi natijasida qorishmaning qovushqoqligi ortib ketadi) o‘tishi sodir bo‘ladi va modifikatsiyalangan syement toshining mustaxkamligi kamayib ketadi. Shuningdek o‘ta muhim bo‘lgan “uzoqqa chidamlilik elementi” xisoblanuvchi gidratatsiyaga uchramagan syementning yirik donalari ekanligi xam nazarda tutildi. Ma’lumki, yillar o‘tishi bilan konstruksiyalar “kuchsizlana boshlaydi” (bunga bir qator omillar sababchi bo‘ladi: me’yordan ortiqcha yuklanish, uzoq vaqt ta’sir qiluvchi rejalashtirilgan yuklanish, betonning o‘rmalanuvchanligi, betonli strukturaning korroziyasi va boshqalar) [10]. Vaqt o‘tishi bilan betonning syementli matrisasida mustaxkamlikning yo‘qotlishi sababli kompozitning dastlabki bir xillikligining yemirilishi natijasida mikroyoriqlar xosil bo‘ladi. Aynan ana shu paytda to‘liq xajmda gidratatsiyaga uchramagan syementning zarrachalari “ishlashni boshlaydilar”. Beton matrisasining yemirilgan strukturasining bir xilligi aynan shu zarrachalarda gidratasion jarayonlarning boshlanishiga sababchi bo‘ladi, ushbu jarayonlar kechishidan xosil bo‘luvchi kalsiyning gidrosilikatlari esa xosil bo‘lgan mikroyoriqlarning zichlanishiga va ularning konstruksiyani avariya xolatiga olib kelishi mumkin bo‘lgan yirik nuqsonlar darajasiga o‘sishiga to‘sqinlik qiladi. Shu sababli kompozision syementli bog‘lovchining maydaligini cheksiz oshirilishiga yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi.

Ma’lumki, mayda tuyilgan mineral qo‘shimchalar betonning tarkibiga qo‘shiluvchi plastifikatorlarning ta’sir ko‘rsatish samaradorligini oshiradi va aksincha plastifikatorlar xam mineral mikroto‘ldirgichlarning beton qorishmasi va beton xossalariga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini ta’minlashda qatnashadi [11,12].

Sirt-faol moddalarning molekulalari zarrachalar sirtida adsorbsiyalanishi tufayli ularning sirtqi energiyasini kamaytiradi va bunda o‘zaro yopishib qolishga to‘sqinlik qiluvchi qattiq fazaning sirtidagi erkin kimyoviy bog‘lanishlarning qisman to‘yintirilishi sodir bo‘ladi. Umuman olganda plastifikatsiyalovchi qo‘shimchalarning syementli sistemalarda qo‘llanilishi yanada disperslashgan strukturalar va gidratli fazalarning shakllanishiga olib keladi.

Bizning dastlabki tadqiqotlarimizda plastifikatsiyalovchi qo‘shimchalarning ta’sirini tadqiqot qilishda qo‘shimchalarsiz portlandsementdan iborat bo‘lgan bog‘lovchida amalga oshirildi. Tadqiqotlarda O‘ZB uchun superplastifikator sifatida sinab ko‘rish uchun adabiyotlar taxlili va ilgari bajarilgan tadqiqotlarimizning taxlili asosida quyidagi 3 ta superplastifikator: Master Glenium 27 (Germaniya), Melflux 1641F (Germaniya) va FM1030 (Xitoy) tanlab olindi. Superplastifikatsiyalovchi qo‘shimchalarning syementli sistemaga ta’sirini o‘rganish syement qorishmasining yoyilishi bo‘yicha amalga oshirilidi va bunda Xagermanning konusidan foydalanildi. Bog‘lovchining qorishmasi suv-syement nisbati 0,25 ga teng bo‘lgan xolda Oxangaron syement zavodining SYeM I 32,5 N markali portlandsementidan tayyorlandi. Xar bir superplastifikatorning turi bog‘lovchining qorishmasiga bir xil, ya’ni syement massasiga nisbatan olganda 0,5% miqdorda qo‘shildi. Syementli qorishmasining aralashtirilishi olti minut davom etdi va shundan so‘ng undan shakllantirilgan konusning yoyilishi qayd etildi. Syementli qorishmali konus yoyilishining natijalari 4-rasmda keltirilgan.



4-rasm. Turli superplastifikatorlar qo‘shilgan syement qorishmasi konusining yoyilishi natijalari
1,2,3 – mos ravishda FM1030, Melflux 1641F va Master Glenium 27 superplastifikatorlari uchun;

Tadqiqotlar natijalarining taxlili asosida kelgusida bajariladigan tadqiqotlar uchun syementli sistemalarda nisbatan samaraliroq xisoblangan Master Glenium 27 superplastifikatori tanlab olindi.

Xulosa. O‘tkazilgan eksperimental tadqiqotlar natijasida, kompozision syementli bog‘lovchining komponentlarini va uni ishlab chiqarishning texnologiyasini tanlash amalga oshirildi. Xususan, ishlab chiqilgan tarkibi: portlandsement – 60%; syeolitli tog‘ jinsi – 30%; kvarsli qum – 10% dan iborat bo‘lgan kompozision syementli bog‘lovchi uchun optimal turdagi superplastifikator- Master Glenium 27 superplastifikatori, kompozision bog‘lovchini maydalashdagi optimal turdagi qurilish tegirmoni- vibratsiyaga oid tegirmon IV-4, xamda kompozision bog‘lovchi nisbiy sirt yuzasining optimal miqdori-3500-4000 sm^2/g ga dagi qiymati aniqlandi. Ushbu kompozision syementli bog‘lovchining optimallashtirilgan tarkibi va tayyorlash texnologiyasining parametralari o‘zi zichlanuvchi betonning tarkibini makrostruktura darajasida optimallashtirish masalasni yechishda boshlang‘ich ma’lumotlar sifatida qabul qilindi.

ADABIYOTLAR

1. Адылходжаева А.И. Махаматалиев И.М., Тургунбаев У.Ж., Цой В.М.; под.общ. ред. Адылходжаева А.И. Интенсивные технологии строительства. (Монография). – Ташкент, Изд- во «Фан ва технология», 2016. -228 с.

2. Адылходжаев А.И., Махаматалиев И.М., Цой В.М. Под. общ. ред. Адылходжаева А.И. Композиционные строительные материалы (Монография). - «LAMBERT» ACADEMICPUBLISHING, 2018 -176 с.

3. Адылходжаев А.И., Махаматалиев И.М., Цой В.М.,Кесарийский А.Г. Методологические основы исследования многокомпонентных высококачественных бетонов нового поколения (Монография). - «Фан ва технология», 2018. -196 с.

4. Адылходжаев А.И., Махаматалиев И.М., Цой В.М., Умаров К.С. Комплексно-модифицированные бетоны с органоминеральными добавками (Монография). - «Инновацион ривожланиш нашриёт-манбаа уйи», 2020. -235 с.

5. Баженов Ю.М. Новому веку — новые эффективные материалы и технологии // Строительные материалы, оборудование и технологии XX1в.- 2001.-№1.-С. 12-13.

6. Коровкин М.О. Исследование эффективности суперпластификатора С-3 в вяжущем низкой водопотребности // Строительство и реконструкция. - 2011. - № 2. - С. 84-88.

7. [1]Болотских О.Н. Бетон который течет и уплотняется сам // Строительство – отраслевой журнал. – 2015. - № 9. - С. 40-42.

8. Камилов Х.Х.,Тураханов С.И., Камилов Ш.Х История самоуплотняющегося керамзитобетона / Производство инновационных строительных материалов на основе местного сырья // Сборник научных трудов Международного научно-практической конференции.- Ташкент, ТАСУ, 2024.- С. 283-290.

9. Махаматалиев И.М. Современные тенденции совершенствования железобетонных конструкций // Вестник ТашИИТа. –Ташкент. 2012,- №2.- С.16-18. (05.00.00. №11)

10. Махаматалиев И.М. О бетонах нового поколения на основе эффективных минеральных добавок, тонкозернистых песков и гиперпластификаторов // Вестник ТашИИТа. –Ташкент. 2013,- №1/2.- С.24-27. (05.00.00. №11)

11. Махаматалиев И.М. О технико-экономической эффективности использования высокопрочных бетонов//Архитектура. Градостроительство. Дизайн. – Ташкент. 2013,- №2. - С.17-21. (05.00.00. №4)

12. Махаматалиев И.М. О совершенствовании методологических аспектов полиструктурной теории композиционных строительных материалов // Вестник ТашИИТа. –Ташкент. 2015,- №2.- С.106-110. (05.00.00.№11)

UO‘T: 622.26:553.41

MURAKKAB STRUKTURALI OLTIN RUDA TANALARINI YER OSTI USULIDA QAZIB OLISH TIZIMLARINI TAHLIL QILISH

Shomurodov Shavkat Maxmud o‘g‘li
ToshDTU, “Konchilik ishi” kafedrasi katta o‘qituvchisi

O‘roqov Shahboz Abdikarim o‘g‘li
TMAU, “Neft-gaz va konchilik ishi” kafedrasi magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada murakkab strukturali oltin ruda tanalarini yer osti usulida qazib olish tizimlarini tanlash va qo‘llash masalalari kon-geologik, geomekanik va texnologik nuqtai nazardan kompleks tarzda tahlil qilingan. O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan keyingi davrda konchilik sanoatining jadal rivojlanishi, foydali qazilma konlarini chuqur o‘rganish va ularni samarali o‘zlashtirish zarurati mazkur tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi. Ayniqsa murakkab strukturali tomirsimon oltin ruda konlarida ruda tanalarining shakli, qalinligi va yotish burchagining o‘zgaruvchanligi, tog‘ jinslarining notekis fizik-mexanik xususiyatlari hamda tektonik buzilishlarning keng tarqalganligi qazib olish jarayonini murakkablashtiradi.

Tadqiqot davomida murakkab strukturali ruda konlarining geologik xususiyatlari, kon bosimini boshqarish muammolari va qazib olish jarayonida yuzaga keladigan texnogen omillar chuqur o‘rganilgan. Mahalliy va xorijiy konlarda qo‘llanilayotgan yer osti qazib olish tizimlari — qazilgan bo‘shliqni ochiq qoldirib qazib olish, magazinlash usuli, qazilgan bo‘shliqni to‘ldirib qazib olish hamda qulatib qazib olish tizimlari solishtirma tahlil asosida baholangan. Ushbu tizimlarning kon-geologik sharoitlarga mosligi, xavfsizlik darajasi va texnik-iqtisodiy samaradorligi tahlil qilingan.

Olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, murakkab strukturali oltin ruda konlarida yagona universal qazib olish tizimini qo‘llash samarasiz bo‘lib, ko‘pincha konning real murakkabligi va tanlangan texnologiya o‘rtasida nomutanosiblik yuzaga keladi. Bu holat ruda yo‘qotilishining ortishiga, kon bosimini boshqarishning qiyinlashishiga va ishlab chiqarish tannarxining oshishiga olib keladi. Shu bois qazib olinadigan konning geologik va morfologik xususiyatlariga moslashgan, moslashuvchan va kombinatsiyalashgan qazib olish tizimlarini ishlab chiqish hamda ularni ilmiy asosda tanlash zarurati asoslab berilgan.

Tadqiqot natijalari murakkab strukturali oltin ruda tanalarini yer osti usulida qazib olishda texnologik qarorlar qabul qilish, kon bosimini boshqarish tizimlarini takomillashtirish va qazib olish samaradorligini oshirish uchun ilmiy-amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Аннотация. В статье проведён комплексный анализ вопросов выбора и применения систем подземной разработки сложноструктурных золотых рудных тел с горно-геологических, геомеханических и технологических позиций. Актуальность исследования определяется интенсивным развитием горнодобывающей промышленности Республики Узбекистан после обретения независимости, а также необходимостью глубокого изучения и эффективного освоения месторождений полезных ископаемых. Для сложноструктурных жильных золоторудных месторождений характерны изменчивость формы, мощности и угла падения рудных тел, неоднородность физико-механических свойств вмещающих пород и широкое распространение тектонических нарушений, что существенно осложняет процесс добычи.

В ходе исследования детально изучены геологические особенности сложноструктурных рудных месторождений, проблемы управления горным давлением и

техногенные факторы, возникающие в процессе подземной разработки. Проведён сравнительный анализ систем подземной добычи, применяемых на отечественных и зарубежных месторождениях, включая системы с открытым очистным пространством, магазинную отработку руды, системы с закладкой выработанного пространства и системы с обрушением. Оценена их приспособленность к конкретным горно-геологическим условиям, уровень безопасности и технико-экономическая эффективность.

Результаты анализа показывают, что применение универсальной системы разработки на сложноструктурных золоторудных месторождениях является неэффективным, так как часто возникает несоответствие между реальной сложностью строения месторождения и выбранной технологией. Это приводит к увеличению потерь руды, усложнению управления горным давлением и росту себестоимости добычи. В связи с этим обоснована необходимость разработки и научно обоснованного выбора адаптивных, гибких и комбинированных систем подземной разработки, учитывающих геологические и морфологические особенности месторождений.

Полученные результаты могут служить научно-практической основой для принятия технологических решений, совершенствования систем управления горным давлением и повышения эффективности подземной добычи сложноструктурных золотых рудных тел.

Abstract. This paper presents a comprehensive analysis of the selection and application of underground mining systems for complex-structured gold ore bodies from geological, geomechanical, and technological perspectives. The relevance of the study is determined by the rapid development of the mining industry in the Republic of Uzbekistan since independence, as well as the need for in-depth investigation and efficient exploitation of mineral deposits. Complex-structured vein-type gold deposits are characterized by variability in ore body shape, thickness, and dip angle, heterogeneity of the physical and mechanical properties of host rocks, and widespread tectonic disturbances, which significantly complicate the mining process.

The study thoroughly examines the geological characteristics of complex-structured ore deposits, rock pressure control issues, and technogenic factors arising during underground mining operations. A comparative assessment of underground mining systems used in domestic and international practice is carried out, including open stoping systems, shrinkage stoping, cut-and-fill mining, and caving methods. Their adaptability to specific geological conditions, safety level, and technical and economic efficiency are analyzed.

The results demonstrate that the application of a single universal mining system in complex-structured gold deposits is ineffective, as a mismatch often occurs between the actual geological complexity of the deposit and the selected mining technology. This leads to increased ore losses, difficulties in rock pressure control, and higher production costs. Therefore, the necessity of developing and scientifically selecting adaptive, flexible, and combined underground mining systems that correspond to the geological and morphological characteristics of the deposits is substantiated.

The findings provide a scientific and practical basis for technological decision-making, improvement of rock pressure management systems, and enhancement of the efficiency of underground mining of complex-structured gold ore bodies.

Kalit so‘zlar: murakkab strukturali ruda koni, oltin ruda tanasi, yer osti qazib olish, qazib olish tizimlari, kon bosimini boshqarish, geomekanik sharoitlar, ruda yo‘qotilishi, texnologik samaradorlik

Ключевые слова: сложноструктурное рудное месторождение, золотые рудные тела, подземная разработка, системы разработки, управление горным давлением, геомеханические условия, потери руды, технологическая эффективность

Keywords: complex-structured ore deposit, gold ore bodies, underground mining, mining systems, rock pressure management, geomechanical conditions, ore losses, technological efficiency

So‘nggi yillarda jahon miqyosida mineral xomashyo resurslariga bo‘lgan ehtiyojning ortib borishi foydali qazilma konlarini o‘zlashtirish jarayonlarida texnologik samaradorlik va xavfsizlik masalalarini yanada dolzarb etmoqda. Ayniqsa oltin qazib olish sohasi strategik ahamiyatga ega bo‘lib, u nafaqat sanoat rivoji, balki mamlakatlarning valyuta barqarorligi va iqtisodiy xavfsizligini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Shu nuqtai nazardan, oltin ruda konlarini samarali, xavfsiz va iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq tarzda qazib olish muammolari ilmiy tadqiqotlarning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so‘ng konchilik sanoatini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilib, qisqa vaqt ichida yuzlab foydali qazilma konlari aniqlandi va o‘zlashtirildi. Hozirgi bosqichda konchilik sanoati respublika iqtisodiy salohiyatini belgilovchi yetakchi tarmoqlardan biri bo‘lib, oltin qazib olish sohasi uning eng muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Shu bilan birga, oson qazib olinadigan konlarning kamayib borishi natijasida murakkab strukturali, geologik va geomekanik jihatdan qiyin sharoitlarga ega ruda konlarini o‘zlashtirish zarurati yuzaga kelmoqda.

Murakkab strukturali tomirsimon oltin ruda konlari ruda tanalarining notekis shakli, qalinligi va yotish burchagining keskin o‘zgaruvchanligi, tog‘ jinslarining turli darajadagi turg‘unligi hamda tektonik buzilishlarning keng tarqalganligi bilan ajralib turadi. Bunday konlarda ruda tanalari va atrof tog‘ jinslarining o‘zaro munosabati murakkab bo‘lib, kon bosimi, deformatsiyalar va yoriqlar rivojlanishi kabi geomekanik jarayonlar qazib olish ishlariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Natijada qazib olish jarayonida ruda yo‘qotilishi va suyultirilishi ortadi, ish xavfsizligi pasayadi hamda ishlab chiqarish tannarxi oshadi.

Yer osti usulida qazib olish murakkab strukturali oltin ruda konlarini o‘zlashtirishda asosiy texnologik yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Biroq amaliyot shuni ko‘rsatadiki, ko‘plab hollarda mavjud qazib olish tizimlari konning real geologik va morfologik murakkabligiga to‘liq mos kelmaydi. Ko‘pincha bir xil yoki o‘xshash texnologik yechimlar turli konlarda qo‘llanilib, faqat ayrim parametrlar o‘zgartiriladi. Bu esa kon-geologik sharoitlar va tanlangan texnologiya o‘rtasida nomutanosibliklarni keltirib chiqaradi.

Shu sababli murakkab strukturali oltin ruda tanalarini yer osti usulida qazib olishda kon-geologik, geomekanik va texnologik omillarni kompleks hisobga olgan holda qazib olish tizimlarini tanlash va asoslash dolzarb ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi. Mazkur maqolada murakkab strukturali oltin ruda konlarining xususiyatlari, mavjud yer osti qazib olish tizimlarining afzallik va kamchiliklari hamda ularning kon sharoitlariga mosligi tahlil qilinib, samaradorlikni oshirishga qaratilgan ilmiy xulosalar chiqariladi.

Murakkab strukturali ruda konlari geologik jihatdan bir qator o‘ziga xos omillar bilan tavsiflanadi. Ularga quyidagilar kiradi:

1. tog‘ jinslari qatlamlari kontaktlarining strukturaviy tuzilishida geologik buzilishlar, yoriqlar, darzdorliklar hamda mineral donalar kontaktlaridagi farqlar mavjudligi;
2. geologik jarayonlar ta’sirida turli sharoitlarda hosil bo‘lgan tog‘ jinslari va ruda tanalarining xilma-xil kelib chiqishi;
3. dizyunktiv va plikativ tektonik buzilishlarning ruda yotqiziqlariga ta’siri;
4. minerallashuvning turli tarkibli va ko‘plab tog‘ jinslarida tarqalishi natijasida petrografik tarkibning murakkablashuvi;
5. kimyoviy va mineral tarkibning yuqori darajadagi xilma-xilligi.

Mazkur omillar geologik qidiruv ishlarini murakkablashtirib, kon tuzilishini chuqur va kompleks o‘rganishni talab etadi. Kon tuzilishi deganda ruda tanalari va atrof tog‘ jinslarining

fazoviy joylashuvi, ruda tanalarining morfologiyasi, ichki tuzilishi hamda tektonik jarayonlar ta’siri tushuniladi.

Murakkab geologik va morfologik tuzilishga ega bo‘lgan ruda konlari quyidagi asosiy xususiyatlar bilan tavsiflanadi:


- ruda tanalarining yotish sharoitlari (qiya, tik, notekis);
- tog‘ jinslarining fizik-mexanik xususiyatlari va turg‘unlik darajasi;
- ruda tanalarining shakli, qalinligi va o‘lchamlarining o‘zgaruvchanligi;
- mineral va kimyoviy tarkibning murakkabligi.

Ushbu xususiyatlar qazib olish texnologiyasini tanlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lib, noto‘g‘ri tanlangan tizim konning texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlarini keskin pasaytirishi mumkin.

Qiya va tik yotgan murakkab strukturali oltin ruda konlarini qazib olish bo‘yicha mahalliy va xorijiy tajriba tahlili shuni ko‘rsatadiki, ruda va atrof tog‘ jinslarining turli fizik-mexanik xususiyatlari, kon massividagi dastlabki kuchlanish maydoni va texnogen o‘zgarishlar qazib olish jarayonini murakkablashtiradi va tannarxni oshiradi.

1-rasm.

Qiya va tik yotgan konlarda qazib olish tizimlarining qo‘llanish ulushi



Tik yotgan ruda konlarini qazib olishda quyidagi tizimlar keng qo‘llaniladi:

- qazilgan bo‘shliqni ochiq qoldirib qazib olish (yoppasiga, shift pog‘onali, qavat-kamerali);
- rudani magazinlash orqali qazib olish;
- qazilgan bo‘shliqni to‘ldirib qazib olish;
- qulatib qazib olish tizimlari.

Ko‘plab murakkab strukturali konlarda bir yoki bir nechta qazib olish tizimlari parallel qo‘llaniladi. Biroq kon-geologik sharoitlarning murakkabligi va tanlangan texnologiyalar o‘rtasida ko‘pincha nomutanosibliklar yuzaga keladi. Bu holat ishlab chiqarish samaradorligini pasaytiradi va konchilik korxonalarining iqtisodiy ko‘rsatkichlariga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, murakkab strukturali oltin ruda konlarini qazib olishda yagona universal texnologiya mavjud emas. Ko‘p hollarda bir xil texnologik yechimlar turli konlarda faqat parametrlar darajasida moslashtiriladi. Bu esa konning real murakkabligini to‘liq hisobga olish imkonini bermaydi.

Murakkab kon sharoitlarida kon bosimini samarali boshqarish, qazilgan bo‘shliq barqarorligini ta’minlash va xavfsizlik talablariga rioya qilish uchun qazib olish tizimlarini moslashuvchan va kompleks yondashuv asosida tanlash zarur.

Murakkab strukturali oltin ruda tanalarini yer osti usulida qazib olish bo‘yicha o‘tkazilgan tahlillar quyidagi xulosalarni chiqarishga imkon beradi:

- murakkab kon-geologik sharoitlar qazib olish texnologiyalariga yuqori talab qo‘yadi;
- mavjud qazib olish tizimlari ko‘p hollarda kon murakkabligiga to‘liq mos kelmaydi;
- kon bosimini boshqarish va qazilgan bo‘shliq barqarorligini ta’minlash asosiy muammolardan biri hisoblanadi;
- konning murakkabligiga mos, yangi va moslashuvchan texnologiyalarni ishlab chiqish hamda doimiy ilmiy izlanishlar olib borish zarur.

Mazkur tadqiqot natijalari murakkab strukturali oltin ruda konlarini o‘zlashtirishda ilmiy asoslangan texnologik qarorlar qabul qilish uchun metodik asos bo‘lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Хохряков В. С. Подземная разработка рудных месторождений. – М.: Недра, 1986. – 432 с.
2. Агафонов В. В., Протасов В. Ф. Системы разработки рудных месторождений. – М.: Горная книга, 2008. – 384 с.
3. Каплунов Д. Р. Геомеханика подземных сооружений и горных выработок. – М.: Горная книга, 2012. – 456 с.
4. Darling P. (Ed.). SME Mining Engineering Handbook. – 3rd ed. – Englewood, CO: Society for Mining, Metallurgy & Exploration, 2011. – 1900 p.
5. Hustrulid W., Bullock R. Underground Mining Methods: Engineering Fundamentals and International Case Studies. – Littleton, CO: SME, 2001. – 744 p.
6. Brady B. H. G., Brown E. T. Rock Mechanics for Underground Mining. – 3rd ed. – Dordrecht: Springer, 2006. – 628 p.
7. Villaescusa E. Geotechnical Design for Sublevel Open Stoping. – Perth: Australian Centre for Geomechanics, 2014. – 512 p.
8. Hamrin H. Underground Mining Methods and Applications // Mining Engineering. – 2001. – Vol. 53, No. 2. – pp. 25–35.
9. Alarie S., Gamache M. Overview of solution strategies used in underground mine planning and design // International Journal of Mining Science and Technology. – 2002. – Vol. 12, No. 3. – pp. 235–249.

UO‘T:622.26:553.41

MURAKKAB STRUKTURALI TOMIRSIMON OLTIN RUDA KONLARINI QAZIB OLISHNI TAKOMILLASHTIRISHNING ISTIQBOLLI YO‘NALISHLARINI TAHLIL QILISH

Shomurodov Shavkat Maxmud o‘g‘li
ToshDTU, “Konchilik ishi” kafedrasi katta o‘qituvchisi

O‘roqov Shahboz Abdikarim o‘g‘li
TMAU, “Neft-gaz va konchilik ishi” kafedrasi magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada murakkab strukturali tomirsimon oltin ruda konlarini yer osti usulida o‘zlashtirishni takomillashtirish bo‘yicha istiqbolli yo‘nalishlar tizimli tarzda tahlil qilingan. Tadqiqot IPKON RAN, GIPROsvetmet, VNIPIpromtexnologii, NITU «MISiS», IGD va boshqa ilmiy markazlar tomonidan olib borilgan nazariy va amaliy izlanishlar hamda jahon tajribasiga tayangan holda amalga oshirildi.

Maqolada uch asosiy yo‘nalishga e’tibor qaratilgan: (1) fizik-texnik geotexnologiyalar — bo‘shliqlarni to‘ldirish, qulatish va mexanizatsiyalash usullarini yangilash; (2) fizik-kimyoviy geotexnologiyalar — yer osti bloklarini ishqoriy/yoki kislotali yuvish, selektiv oldindan konsentratsiyalash usullarini joriy etish; (3) kombinatsiyalashgan yondashuvlar — yuqoridagi usullarni integratsiyalash orqali past sifatli va balansdan tashqari zaxiralarni iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq o‘zlashtirish.

Tahlilda ruda tanasining morfologiyasi (qalinlik, og‘ish burchagi, cho‘zilishi), geomekanik holat (darzlanish, tektonik buzilishlar, dastlabki va texnogen kuchlanishlar) va mineraloji-granulometrik xususiyatlar qazib olish texnologiyasini tanlashdagi asosiy determinant sifatida ko‘rsatiladi. Ruda nobudgarligi va sifatsizlanishni kamaytirishda rentgen-radiometrik oldindan saralash, portlatib saralash, og‘ir muhitli ajratish kabi dastlabki boyitish usullarining qo‘llanilishi samaradorligi tahlil qilingan; RRU texnologiyasining avtomatlashtirilgan ishlashi va kapital-ekspluatatsion xarajatlarni pasaytirish imkoniyati alohida ta’kidlangan.

Qulatish jarayonini optimallashtirishda sun’iy mustahkamlagichlardan foydalanish, qotuvchi va gidravlik to‘ldirishlarning parametrlarini moslashtirish, shuningdek bo‘shliqlarda yuqori bosimli gidravlik yuvish texnikasini va o‘ziyurar skreper-yechimlarni qo‘llash orqali mayda ruda qoldiqlarini samarali tozalash mumkinligi ko‘rsatildi. Fizik-kimyoviy yuvish texnologiyalarida erituvchi turi, sug‘orish rejimi, reagentlar konsentratsiyasi va ruda morfologiyasi kabi parametrlarning iqtisodiy-texnologik optimallashtirilishi zarurligi ta’kidlandi.

Maqolada kombinatsiyalashgan geotexnologiyalar (masalan, portlatib saralash + RRU; yoppasiga qazib olish + oldindan konsentratsiyalash + qotuvchi to‘ldirish) orqali ruda yo‘qotilishi kamayishi, ishlab chiqarish unumdorligi va xavfsizlik ko‘rsatkichlari yaxshilanishi hamda iqtisodiy samaradorlikning oshishi mumkinligi empirik va nazariy hisob-tahlillar bilan asoslangan. Shuningdek, yuqori samarali mexanizatsiyalash (KOV-25, PKJ-1, Alimak kabi komplekslar), avtomatlashtirish va real vaqtda monitoring (geomekanik, radiometrik) tizimlarini joriy etish orqali mehnat unumdorligini oshirish va inson omilini kamaytirish istiqbollari bayon etilgan.

Tahlil natijalari asosida maqolada quyidagi amaliy tavsiyalar berilgan: ruda morfologiyasi va geomekanik xususiyatlarga asoslangan differensial tanlov; rentgen-radiometrik va portlatib saralash kabi oldindan ajratish texnologiyalarini kengaytirish; qotuvchi/yog‘och-gidravlik to‘ldirish parametrlarini eksperimental yo‘l bilan aniqlash; kombinatsiyalashgan

geotexnologiyalarning pilot loyihalarini o‘tkazish; hamda ilmiy-ishlab chiqarish markazlari bilan integratsiyalashgan R&D dasturlarini tashkil etish.

Ushbu ish murakkab strukturali tomirsimon oltin ruda konlarida yer osti qazib olish texnologiyalarini takomillashtirish uchun ilmiy-amaliy asos yaratadi hamda amaliy loyihalarga (pilot-sinovlardan to keng miqyosli joriy etishga qadar) yo‘l xaritasi sifatida foydalanish mumkin.

Аннотация. В данной статье системно проанализированы перспективные направления совершенствования подземной разработки сложноструктурных жильных золоторудных месторождений. Исследование выполнено на основе анализа теоретических и прикладных работ, проведённых ведущими научными центрами, включая IPKON PAH, GIPROsvetmet, VNIPIpromtekhnologii, НИТУ «МИСиС», IGD и другие, а также с учётом мирового опыта освоения подобных месторождений.

В работе выделены три ключевых направления развития: (1) физико-технические геотехнологии, ориентированные на совершенствование процессов обрушения, механизации и закладки выработанного пространства; (2) физико-химические геотехнологии, включающие подземное блочное выщелачивание и методы предварительного селективного обогащения; (3) комбинированные подходы, основанные на интеграции указанных технологий с целью вовлечения в разработку низкосортных и забалансовых запасов.

Показано, что морфология рудных тел (мощность, угол падения, протяжённость), геомеханическое состояние массива (трещиноватость, тектонические нарушения, начальные и техногенные напряжения), а также минералого-гранулометрические характеристики являются определяющими факторами при выборе рациональной технологии разработки. Проанализирована эффективность методов предварительного обогащения — рентгенорадиометрической сепарации, взрывной селекции и тяжёлосредного разделения — как инструментов снижения потерь и разубоживания руды. Отмечены преимущества рентгенорадиометрической сепарации, обеспечивающей высокий уровень автоматизации и снижение капитальных и эксплуатационных затрат.

Установлено, что оптимизация процессов обрушения за счёт применения искусственных крепей, корректного подбора параметров твердеющей и гидравлической закладки, а также использование высоконапорных гидравлических систем и самоходных погрузочно-транспортных средств позволяют повысить полноту извлечения руды и безопасность работ. В части физико-химических технологий подчёркнута необходимость оптимизации параметров выщелачивания (тип реагента, режим орошения, концентрация растворов) с учётом морфологии рудных тел и экономических ограничений.

Обосновано, что внедрение комбинированных геотехнологий (например, взрывная селекция в сочетании с рентгенорадиометрической сепарацией; сплошная выемка с предварительным обогащением и твердеющей закладкой) способствует снижению потерь, росту производительности и повышению уровня промышленной безопасности. Отдельное внимание уделено перспективам механизации и автоматизации (комплексы KOV-25, PKJ-1, Alimak), а также внедрению систем мониторинга геомеханического состояния массива в реальном времени.

Полученные результаты формируют научно-практическую основу для выбора и внедрения рациональных технологий подземной разработки сложноструктурных жильных золоторудных месторождений и могут быть использованы при проектировании, пилотных испытаниях и промышленном внедрении современных геотехнологических решений.

Abstract. This paper presents a systematic analysis of promising directions for improving the underground mining of complex-structured vein-type gold deposits. The study is

based on a comprehensive review of theoretical and applied research conducted by leading scientific institutions, including IPKON RAS, GIPROsvetmet, VNIPIpromtekhnologii, NUST "MISiS", IGD, as well as on international mining experience.

Three key development pathways are identified: (1) physico-technical geotechnologies aimed at enhancing rock breakage, mechanization, and backfilling of mined-out voids; (2) physico-chemical geotechnologies, including underground block leaching and selective pre-concentration methods; and (3) combined approaches integrating these technologies to economically involve low-grade and off-balance reserves in mining operations.

The study demonstrates that ore body morphology (thickness, dip angle, continuity), geomechanical conditions of the rock mass (fracturing, tectonic disturbances, initial and mining-induced stresses), and mineralogical and granulometric characteristics are the key determinants in selecting an efficient mining technology. The effectiveness of pre-concentration techniques—such as X-ray radiometric sorting, blast-based selective breakage, and dense-medium separation—is analyzed as a means to reduce ore losses and dilution. Particular emphasis is placed on X-ray radiometric sorting, which enables high levels of automation while reducing capital and operating costs.

It is shown that optimization of blasting and caving processes through the use of artificial supports, appropriate parameterization of cemented and hydraulic backfill, as well as the application of high-pressure hydraulic cleaning systems and self-propelled load-haul-dump equipment, significantly improves ore recovery and operational safety. In the context of physico-chemical technologies, the necessity of optimizing leaching parameters—reagent type, irrigation regime, solution concentration, and ore body morphology—is highlighted to ensure economic feasibility.

The analysis confirms that the implementation of combined geotechnologies (e.g., blast-based selective breakage coupled with X-ray radiometric sorting; bulk mining combined with pre-concentration and cemented backfill) leads to reduced ore losses, increased productivity, enhanced safety, and improved overall economic performance. Additional attention is given to the prospects of advanced mechanization and automation (KOV-25, PKJ-1, Alimak systems) and the integration of real-time geomechanical monitoring systems.

The results provide a solid scientific and practical basis for selecting and implementing rational underground mining technologies for complex-structured vein-type gold deposits and can be effectively applied in mine design, pilot testing, and large-scale industrial implementation.

Kalit so‘zlar: murakkab strukturali konlar, tomirsimon oltin ruda konlari, yer osti qazib olish, qazib olish texnologiyalari, ruda yo‘qotilishi va sifatsizlanishi, kon bosimini boshqarish, qotuvchi to‘lg‘azma, dastlabki boyitish, kombinatsiyalashgan geotexnologiyalar

Ключевые слова: сложноструктурные месторождения, жильные золоторудные месторождения, подземная разработка, технологии добычи, потери и разубоживание руды, управление горным давлением, твердеющая закладка, предварительное обогащение, комбинированные геотехнологии

Keywords: complex-structured deposits, vein-type gold deposits, underground mining, mining technologies, ore losses and dilution, rock pressure control, cemented backfill, pre-concentration, combined geotechnologies

So‘nggi yillarda jahon konchilik sanoati oldida turgan asosiy muammolardan biri yuqori sifatli va yer yuzasiga yaqin joylashgan oltin ruda zaxiralarining sezilarli darajada kamayib borishi bilan bog‘liq. Ushbu holat konchilik korxonalarini chuqur gorizontlarda joylashgan, murakkab strukturali tomirsimon oltin ruda konlarini yer osti usulida o‘zlashtirishga majbur qilmoqda. Bunday konlar kon-geologik, geomekanik va texnologik jihatdan murakkab bo‘lib,

ularni samarali qazib olish an’anaviy texnologiyalar doirasida ko‘plab texnik-iqtisodiy muammolarni keltirib chiqaradi.

Murakkab strukturali tomirsimon oltin ruda konlari ruda tanalarining kichik va o‘zgaruvchan qalinligi, cho‘zilish va og‘ish burchagining keskin almashib turishi, tektonik buzilishlar bilan uzilib ketishi hamda metall tarkibining fazoviy notekis taqsimlanishi bilan tavsiflanadi. Shu bilan birga, ruda va atrof tog‘ jinslarining fizik-mexanik xususiyatlari bir kon doirasida ham sezilarli farqlanishi mumkin. Ushbu omillar qazib olish texnologiyalarini tanlash, kon bosimini boshqarish va qazib olish jarayonining xavfsizligini ta’minlashni murakkablashtiradi.

Chuqur gorizontlarda olib boriladigan yer osti kon ishlari tog‘ massividagi dastlabki va texnogen kuchlanishlarning ortishi, kon zarbalari, shift va yon devorlarning to‘satdan qulash xavfi, tog‘ jinslari haroratining yuqoriligi kabi geomekanik muammolar bilan birga kechadi. Ayniqsa tomirsimon ruda tanalarini qazib olishda ochiq bo‘shliqlarning barqarorligini ta’minlash va ruda yo‘qotilishi hamda sifatsizlanishni minimallashtirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Jahon amaliyoti shuni ko‘rsatadiki, murakkab strukturali tomirsimon ruda konlari uchun yagona universal qazib olish texnologiyasi mavjud emas. Aksariyat hollarda bitta kon yoki hatto bitta qazib olish bloki doirasida ruda tanasining qalinligi, turg‘unligi va yotish sharoitlariga qarab bir nechta qazib olish tizimlarini qo‘llash talab etiladi. Magazinlab qazib olish, kamera-ustunli, mustahkamlab yoppasiga, qatlamlarga bo‘lib qotuvchi to‘lg‘azmali, qavat-kamerali hamda nimqavatli qazib olish tizimlari turli kon-geologik sharoitlarda turlicha samaradorlik ko‘rsatadi.

So‘nggi yillarda murakkab strukturali konlarni qazib olishni takomillashtirish yo‘nalishida fizik-texnik va fizik-kimyoviy geotexnologiyalarni rivojlantirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Rudani dastlabki boyitish, rentgen-radiometrik saralash, portlatib saralash, qotuvchi va gidravlik to‘lg‘azmalarni qo‘llash, shuningdek kombinatsiyalashgan geotexnologiyalar orqali past sifatli va balansdan tashqari zaxiralarni iqtisodiy jihatdan o‘zlashtirish imkoniyatlari kengaymoqda. Bu esa qazib olish samaradorligini oshirish bilan birga ishlab chiqarish tannarxini kamaytirish va kon ishlarining xavfsizligini yaxshilashga xizmat qiladi.

Mazkur maqolaning asosiy maqsadi murakkab strukturali tomirsimon oltin ruda konlarini yer osti usulida qazib olishni takomillashtirishning istiqbolli yo‘nalishlarini ilmiy jihatdan tahlil qilish, zamonaviy geotexnologik yondashuvlarning afzalliklari va cheklovlarini aniqlash hamda kon-geologik va geomekanik sharoitlarni hisobga olgan holda samarali texnologik yechimlarni asoslashdan iborat. Olingan natijalar murakkab sharoitga ega oltin ruda konlarida qazib olish jarayonlarini loyihalash, rejalashtirish va amaliyotga joriy etishda ilmiy-amaliy ahamiyatga ega bo‘lib xizmat qiladi.

Murakkab strukturali ruda konlarini qazib olishni takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlari: Murakkab strukturali tomirsimon oltin ruda konlarini qazib olishda zamonaviy yondashuvlar fizik-texnik, fizik-kimyoviy hamda kombinatsiyalashgan geotexnologiyalar asosida rivojlanmoqda. Ushbu texnologiyalar qazib olish jarayonining asosiy bosqichlari — rudani qulatish, tashish va kon bosimini boshqarish samaradorligini oshirishga qaratilgan.

Yoppasiga va to‘ldirib qazib olish texnologiyalarini takomillashtirish. Amaliy tajriba shuni ko‘rsatadiki, yoppasiga qazib olish va qazilgan bo‘shliqni to‘ldirib qazib olish tizimlarida rudadan hosil qilingan seliklarni sun’iy mustahkamlagichlarga almashtirish orqali rudani ajratib olishning to‘liqligi sezilarli darajada oshiriladi. Bunda ruda nobudgarchiligi kamayib, kon massividagi kuchlanish holatini boshqarish imkoniyati kengayadi.

Mazkur usullarning asosiy kamchiliklari yuqori sifatsizlanish darajasi va tayyorlash-qirqish ishlarining katta hajmi bilan bog‘liq bo‘lib, bu omillar qazib olish tannarxining oshishiga

olib keladi. Shu sababli ushbu texnologiyalarni qo‘llashda rudani dastlabki boyitish usullari bilan birgalikda kompleks yondashuv talab etiladi.

Rudani dastlabki boyitish va sifatsizlanishni kamaytirish usullari: Ruda sifatsizlanishini kamaytirishning istiqbolli yo‘nalishlaridan biri rudani atrof tog‘ jinslardan ajratib qazib olishdir. Jahon amaliyotida qazib olish jarayonida quyidagi dastlabki boyitish usullari keng qo‘llaniladi:

- qo‘lda saralash;
- g‘alvirlash orqali saralash;
- og‘ir muhitda ajratish;
- portlatib saralash;
- rentgenradiometrik ajratish.

Rentgenradiometrik ajratish usuli (RRU) yuqori texnologik samaradorligi bilan ajralib turadi. Ushbu usul yordamida ruda massividagi atrof tog‘ jinslarini 60–70 % gacha ajratib olish, kapital va ekspluatatsion xarajatlarni kamaytirish hamda jarayonni avtomatlashtirish imkoniyati mavjud. RRU texnologiyalari “Irgiredmet”, “Sibtsvetmetavtomatika” va “Almazzolotoavtomatika” kabi tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilib, bir qator yirik konlarda muvaffaqiyatli joriy etilgan.

Kon bosimini boshqarish va geomekanik holatni optimallashtirish. Murakkab strukturali ruda konlarini qazib olishda kon bosimini boshqarish masalalari muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Tabiiy va texnogen ta’sirlar natijasida o‘zgargan massivlarning kuchlanganlik-deformatsiyalangan holatini dala tadqiqotlari asosida baholash qazib olish tizimlarining konstruktiv parametrlarini optimallashtirish imkonini beradi.

Murakkab strukturali tomirsimon oltin ruda konlarini yer osti usulida qazib olishda kon bosimini boshqarish kon ishlarining xavfsizligi va texnologik samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Geomekanik holatni optimallashtirish ruda tanalarining morfologiyasi, tog‘ jinslarining fizik-mexanik xususiyatlari hamda qazib olish texnologiyasiga mos holda amalga oshirilishi lozim.

1-jadval.


Kon bosimini boshqarish va geomekanik holatni optimallashtirish

Kon-geologik sharoit	Qo‘llaniladigan usul	Asosiy parametrlar	Geomekanik ta’siri	Afzalliklari
Tik va qiya tomirsimon ruda tanalari	Qotuvchi to‘lg‘azma	To‘lg‘azma mustahkamligi 1,0–3,0 MPa	Bo‘shliqlar barqarorligi oshadi	Kon bosimi kamayadi, xavfsizlik yuqori
Yupqa tomirsimon konlar	Seliklar bilan qazib olish	Selik eni 6–10 m	Kuchlanishlar qayta taqsimlanadi	Soddalik, kam kapital xarajat
Darzlangan massiv	Ankerli mustahkamlash	Anker uzunligi 1,8–2,5 m	Shift va yon devorlar mustahkamlanadi	Tezkor va moslashuvchan
Chuqur gorizontlar	Gidravlik va qotuvchi	Bosim 0,3–0,6 MPa	Kon zarbasi xavfi kamayadi	Chuqur konlar uchun samarali

	to‘lg‘azma			

1-rasm.

Murakkab strukturali tomirsimon ruda konida kon bosimini boshqarish sxemasi



Yupqa qalinlikdagi tik va qiya yotgan tomirsimon ruda tanalarini qazib olishda qazib olingan bo‘shliq devorlarida qolib ketgan mayda ruda bo‘laklarini tozalash muammosi dolzarb hisoblanadi. Ushbu muammoni hal etishda yuqori bosimli gidravlik yuvish moslamalari hamda skreperli va o‘ziyurar yuklovchi-eltuvchi mashinalardan foydalanish ijobiy natijalar bermoqda.

Fizik-kimyoviy geotexnologiyalar, jumladan yer osti bloklarini ishqoriy yuvish, past sifatli va balansdan tashqari ruda zaxiralarini o‘zlashtirish imkonini beradi. Biroq ushbu texnologiyalarning rentabelligi erituvchi turi, sug‘orish parametrlari, ruda tanasining morfologiyasi va tayyorlash sxemalariga kuchli darajada bog‘liq bo‘lib, tayyorlash xarajatlari umumiy xarajatlarning 60–70 % gacha yetishi mumkin.

So‘nggi yillarda fizik-texnik va fizik-kimyoviy usullarni birlashtirgan kombinatsiyalashgan geotexnologiyalar istiqbolli yo‘nalish sifatida qaralmoqda. Ushbu yondashuv murakkab strukturali konlarda qazib olish samaradorligini oshirish, ruda yo‘qotilishini kamaytirish va kon ishlarining iqtisodiy ko‘rsatkichlarini yaxshilash imkonini beradi.

Olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, murakkab strukturali tomirsimon oltin ruda konlarini qazib olishni takomillashtirish yagona texnologik yechim bilan emas, balki fizik-texnik, fizik-kimyoviy va kombinatsiyalashgan geotexnologiyalarni kompleks qo‘llash orqali amalga oshirilishi lozim. Kon-geologik va geomekanik sharoitlarni hisobga olgan holda qazib olish tizimlarini moslashuvchan tanlash ruda yo‘qotilishini kamaytirish, ishlab chiqarish xavfsizligini oshirish va iqtisodiy samaradorlikni ta’minlashning asosiy omili hisoblanadi.

Mazkur maqolada keltirilgan ilmiy xulosalar murakkab strukturali tomirsimon oltin ruda konlarini yer osti usulida qazib olish texnologiyalarini takomillashtirish va ularni amaliyotga joriy etish uchun muhim ilmiy-amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Хохряков В. С. Подземная разработка рудных месторождений. – М.: Недра, 1986. – 432 с.
2. Агафонов В. В., Протасов В. Ф. Системы разработки рудных месторождений. – М.: Горная книга, 2008. – 384 с.
3. Каплунов Д. Р. Геомеханика подземных сооружений и горных выработок. – М.: Горная книга, 2012. – 456 с.
4. Darling P. (Ed.). SME Mining Engineering Handbook. – 3rd ed. – Englewood, CO: Society for Mining, Metallurgy & Exploration, 2011. – 1900 p.
5. Hustrulid W., Bullock R. Underground Mining Methods: Engineering Fundamentals and International Case Studies. – Littleton, CO: SME, 2001. – 744 p.
6. Brady B. H. G., Brown E. T. Rock Mechanics for Underground Mining. – 3rd ed. – Dordrecht: Springer, 2006. – 628 p.
7. Villaescusa E. Geotechnical Design for Sublevel Open Stoping. – Perth: Australian Centre for Geomechanics, 2014. – 512 p.
Hamrin H. Underground Mining Methods and Applications // Mining Engineering. – 2001. – Vol. 53, No. 2. – pp. 25–35.

UO‘T: 622.26:553.41

MURAKKAB STRUKTURALI TOMIRSIMON OLTIN RUDA KONLARINI QAZIB OLISHNING JAHON TAJRIBASINI TAHLIL QILISH

Shomurodov Shavkat Maxmud o‘g‘li
ToshDTU, “Konchilik ishi” kafedrasi katta o‘qituvchisi

O‘roqov Shahboz Abdikarim o‘g‘li
TMAU, “Neft-gaz va konchilik ishi” kafedrasi magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada murakkab strukturali tomirsimon oltin ruda konlarini yer osti usulida qazib olish bo‘yicha jahon tajribasi kon-geologik, geomekanik va texnologik nuqtai nazardan kompleks tarzda tahlil qilingan. Yer yuzasiga yaqin joylashgan va ochiq usulda qazib olinadigan oltin zaxiralarining bosqichma-bosqich kamayib borishi sharoitida tomirsimon ruda konlarini chuqur gorizontlarda yer osti usulida o‘zlashtirish zarurati ortib borayotgani asoslab berilgan. Bunday konlar ruda tanalarining kichik va o‘zgaruvchan qalinligi, murakkab morfologiyasi, tektonik buzilishlar bilan uzilishi, metall tarkibining notekis taqsimlanishi hamda yuqori chuqurliklarda kon massividagi kuchlanishlarning ortishi bilan tavsiflanadi.

Tadqiqot jarayonida yupqa, o‘rtacha va qalin tomirsimon oltin ruda tanalarini qazib olishda qo‘llaniladigan asosiy qazib olish tizimlari — magazinlab qazib olish, kamera-ustunli, mustahkamlab yoppasiga, qatlamlarga bo‘lib qotuvchi to‘lg‘azmali, qavat-kamerali va nimqavatli qazib olish tizimlari jahonning yetakchi konlari (Janubiy Afrika, Kanada, Avstraliya, Yaponiya va Hindiston) misolida tahlil qilingan. Ushbu tizimlarning qo‘llanish sohalari, texnologik imkoniyatlari, ruda yo‘qotilishi va sifatsizlanishi darajasi, mehnat unumdorligi hamda xavfsizlik ko‘rsatkichlariga ta’siri solishtirma baholangan.

Chuqur joylashgan tomirsimon ruda konlarida tog‘ jinslari haroratining ortishi, yuqori tog‘ bosimi, kon zarbalari va shiftning to‘satdan qulash xavfi qazib olish jarayonini yanada murakkablashtirishi ko‘rsatib berilgan. Shu munosabat bilan bo‘shliqlarni quruq, gidravlik va qotuvchi to‘lg‘azmalar bilan to‘ldirish, kon lahimlarini ankerlar va sim arqon mustahkamlagichlar bilan mustahkamlash, shuningdek o‘ziyurar va mexanizatsiyalashgan texnikalardan foydalanishning ahamiyati asoslangan.

Olib borilgan tahlillar natijalari shuni ko‘rsatadiki, murakkab strukturali tomirsimon oltin ruda konlari uchun yagona universal qazib olish tizimini qo‘llash samarasiz bo‘lib, qazib olish texnologiyalarini tanlashda ruda tanasining qalinligi, yotish burchagi, turg‘unligi, chuqurligi va kon-geologik sharoitlarni hisobga olgan holda differensial va moslashuvchan yondashuv zarur. Olingan ilmiy xulosalar tomirsimon oltin ruda konlarini yer osti usulida qazib olish samaradorligini oshirish, ruda yo‘qotilishini kamaytirish va ishlab chiqarish xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan zamonaviy geotexnologiyalarni ishlab chiqishda ilmiy-amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Аннотация. В статье выполнен комплексный анализ мирового опыта подземной разработки сложноструктурных жильных золоторудных месторождений с горно-геологических, геомеханических и технологических позиций. Обоснована возрастающая необходимость освоения жильных рудных тел на глубоких горизонтах подземным способом в условиях истощения приповерхностных запасов, разрабатываемых открытым способом. Такие месторождения характеризуются малой и изменчивой мощностью рудных тел, сложной морфологией, разрывами, обусловленными тектоническими нарушениями, неравномерным распределением металла, а также ростом напряжённого состояния горного массива с увеличением глубины разработки.

В ходе исследования рассмотрены основные системы подземной разработки тонких, средних и мощных жильных золоторудных тел — магазинная, камерно-столбовая, сплошная с креплением, слоёвая с твердеющей закладкой, этажно-камерная и подэтажная — на примере ведущих месторождений Южной Африки, Канады, Австралии, Японии и Индии. Проведена сравнительная оценка областей применения указанных систем, их технологических возможностей, уровней потерь и разубоживания руды, производительности труда и показателей безопасности.

Показано, что при разработке глубоких жильных рудных тел повышение температуры пород, высокое горное давление, опасность горных ударов и внезапных обрушений кровли существенно осложняют процесс добычи. В связи с этим обоснована необходимость применения сухих, гидравлических и твердеющих закладочных материалов, усиления крепления горных выработок анкерами и канатными элементами, а также использования самоходной и механизированной техники.

Результаты анализа свидетельствуют о том, что для сложноструктурных жильных золоторудных месторождений применение универсальной системы разработки является неэффективным. Выбор технологии добычи должен основываться на дифференцированном и адаптивном подходе с учётом мощности, угла падения, устойчивости и глубины залегания рудных тел, а также горно-геологических условий. Полученные выводы служат научно-практической основой для разработки современных геотехнологий, направленных на повышение эффективности подземной добычи золота, снижение потерь руды и обеспечение безопасности горных работ.

Abstract. This paper presents a comprehensive analysis of global experience in underground mining of complex-structured vein-type gold deposits from mining-geological, geomechanical, and technological perspectives. The increasing necessity of developing vein-type ore bodies at deep levels by underground methods is substantiated in the context of gradual depletion of near-surface gold reserves mined by open-pit methods. Such deposits are characterized by small and highly variable ore thickness, complex morphology, disruptions caused by tectonic faults, uneven metal distribution, and increasing stress conditions in the rock mass with depth.

The study examines the main underground mining systems applied to thin, medium, and thick vein-type gold ore bodies, including shrinkage stoping, room-and-pillar mining, cut-and-fill mining, layered mining with cemented backfill, sublevel and level stoping systems, based on examples from leading gold mines in South Africa, Canada, Australia, Japan, and India. A comparative assessment of the application scope of these systems, their technological capabilities, ore losses and dilution levels, labor productivity, and safety performance is carried out.

It is shown that in deep vein-type gold deposits, increased rock temperature, high rock pressure, the risk of rock bursts, and sudden roof collapses significantly complicate the mining process. In this regard, the importance of using dry, hydraulic, and cemented backfill, reinforcing underground openings with rock bolts and cable supports, as well as employing self-propelled and mechanized equipment, is substantiated.

The results indicate that the application of a single universal mining system for complex-structured vein-type gold deposits is inefficient. The selection of mining technologies should be based on a differentiated and adaptive approach that takes into account ore body thickness, dip angle, stability, depth, and mining-geological conditions. The obtained conclusions provide a scientific and practical basis for developing modern geotechnologies aimed at improving the efficiency of underground gold mining, reducing ore losses, and ensuring operational safety.

Kalit so‘zlar: tomirsimon oltin ruda konlari, murakkab strukturali konlar, yer osti qazib olish, qazib olish tizimlari, ruda yo‘qotilishi va sifatsizlanishi, kon bosimi, qotuvchi to‘lg‘azma, geotexnologiya

Ключевые слова: жильные золоторудные месторождения, сложноструктурные месторождения, подземная разработка, системы разработки, потери и разубоживание руды, горное давление, твердеющая закладка, геотехнология

Keywords: vein-type gold deposits, complex-structured deposits, underground mining, mining systems, ore losses and dilution, rock pressure, cemented backfill, geotechnology

Hozirgi davrda jahon konchilik sanoati oltin ruda zaxiralarining tarkibi va joylashuv xususiyatlaridagi tub o‘zgarishlar bilan tavsiflanmoqda. Yer yuzasiga yaqin joylashgan, nisbatan oddiy kon-geologik sharoitlarga ega va ochiq usulda iqtisodiy jihatdan samarali qazib olinadigan oltin konlarining zaxiralari sezilarli darajada kamayib bormoqda. Shu munosabat bilan oltin qazib olishda chuqur joylashgan, murakkab strukturali va tomirsimon ruda tanalariga ega konlarni yer osti usulida o‘zlashtirish jahon miqyosida ustuvor yo‘nalishlardan biriga aylanmoqda.

Tomirsimon oltin ruda konlari o‘zining kon-geologik xususiyatlari bilan boshqa ruda konlaridan tubdan farq qiladi. Bunday konlarda ruda tanalarining qalinligi juda kichik bo‘lib, u bir necha santimetrdan bir necha metrga qadar o‘zgaradi, ruda tanalari esa ko‘pincha murakkab morfologiyaga ega bo‘ladi va tektonik buzilishlar bilan uzilib ketadi. Metall tarkibining fazoviy notekis taqsimlanishi, ruda tanalarining og‘ish burchagi va cho‘zilish yo‘nalishining o‘zgaruvchanligi qazib olish texnologiyalarini tanlashni sezilarli darajada murakkablashtiradi.

Chuqur gorizontlarda joylashgan tomirsimon ruda konlarini qazib olish jarayonida kon massividagi kuchlanish holatining ortishi, tog‘ jinslari haroratining yuqori bo‘lishi, kon zarbalari, ruda va atrof tog‘ jinslarining turg‘unlik darajasining keskin farqlanishi kabi geomekanik muammolar yuzaga keladi. Ushbu omillar kon lahimlarining turg‘unligini ta’minlash, kon bosimini boshqarish va xavfsiz mehnat sharoitlarini yaratishda jiddiy ilmiy-amaliy masalalarni keltirib chiqaradi.

Jahon amaliyotida tomirsimon oltin ruda konlarini qazib olishda yagona universal texnologik yechim mavjud emasligi isbotlangan. Aksariyat hollarda bitta kon doirasida, hatto bitta qazib olish blokida ruda tanasining qalinligi, turg‘unligi va geologik sharoitlariga qarab turli qazib olish tizimlari qo‘llaniladi. Magazinlab qazib olish, kamera-ustunli, mustahkamlab yoppasiga, qatlamlarga bo‘lib qotuvchi to‘lg‘azmali, qavat-kamerali va nimqavatli qazib olish tizimlari turli mamlakatlar tajribasida keng qo‘llanilib, ularning har biri ma’lum sharoitlarda yuqori samaradorlikka ega bo‘lsa-da, boshqa sharoitlarda ruda yo‘qotilishi va sifatsizlanishning ortishiga olib kelishi mumkin.

Janubiy Afrika, Kanada, Avstraliya, Yaponiya va Hindiston kabi davlatlarda joylashgan yirik oltin konlari tajribasi shuni ko‘rsatadiki, murakkab strukturali tomirsimon ruda konlarini qazib olishda texnologik samaradorlik ko‘p jihatdan qazib olish tizimini konning real kon-geologik va geomekanik sharoitlariga mos tanlashga bog‘liq. Shu bilan birga, qazib olish jarayonlarini mexanizatsiyalash, o‘ziyurar texnikalarni joriy etish, bo‘shliqlarni qotuvchi to‘lg‘azmalar bilan to‘ldirish hamda kon lahimlarini zamonaviy mustahkamlash usullari bilan ta’minlash asosiy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.

Mazkur maqolaning maqsadi murakkab strukturali tomirsimon oltin ruda konlarini yer osti usulida qazib olish bo‘yicha jahon tajribasini tizimli tahlil qilish, qo‘llanilayotgan qazib olish tizimlarining afzalliklari va kamchiliklarini aniqlash hamda kon-geologik va geomekanik sharoitlarni hisobga olgan holda samarali geotexnologik yondashuvlarni asoslashdan iborat. Olib borilgan tahlillar natijalari tomirsimon oltin ruda konlarini qazib olish samaradorligini oshirish,

ruda yo‘qotilishini kamaytirish va ishlab chiqarish xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Tomirsimon oltin ruda konlarining kon-geologik xususiyatlari: Jahon amaliyotida tomirsimon oltin ruda tanalarining qalinligi bir necha santimetrdan bir necha metrgacha o‘zgaradi hamda ko‘pincha parallel yo‘nalgan apofizlar bilan murakkab tizim hosil qiladi. Ruda tanalarining cho‘zilish yo‘nalishi va og‘ish burchagi sezilarli darajada o‘zgaruvchan bo‘lib, ko‘plab yoriqli va tektonik buzilishlar bilan uziladi. Ayrim konlarda ruda tanalarining yotish chuqurligi 4000 m gacha yetib, tog‘ jinslarining harorati 50–57 °C gacha ko‘tariladi (Kolar koni, Hindiston).

Chuqurlik ortishi bilan kon massivida yuqori kuchlanishlar paydo bo‘lib, kon lahimlarining o‘z-o‘zidan buzilishi, kon zarbalari va to‘satdan shift qulashlari xavfi kuchayadi. Shu bilan birga, ruda va atrof tog‘ jinslarining turg‘unligi hatto bitta lahim ichida ham sezilarli darajada farqlanishi mumkin.

Yupqa tomirsimon oltin ruda konlarini qazib olish tajribasi: Qalinligi 0,8 m dan kam bo‘lgan yupqa tomirsimon konlarni qazib olishda ruda sifatsizlanishi 70–80 % gacha yetishi mumkin. Bunday sharoitda yuqori qazib olish unumdorligini ta’minlash zarur bo‘lsa-da, amalda bu holat umumiy iqtisodiy samaradorlikning pasayishiga olib keladi.

Yaponiya tajribasida («Xishikari» koni) sun’iy shift ostida pastga tomon qatlamlab qazib olish tizimi qo‘llaniladi. Ushbu tizim yuqori xavfsizlikni ta’minlasa-da, sun’iy shiftni yaratish bilan bog‘liq xarajatlarning yuqoriligi va texnologik murakkabligi bilan ajralib turadi. Rudani magazinlab qazib olish tizimi esa ko‘plab tayyorlash-qirqish lahimlari va ruda tiqilib qolish xavfi sababli kam qo‘llaniladi.

Yupqa qalinlikdagi nishab va qiya tomirsimon konlarda ustunli-to‘lg‘azmali, kamera-ustunli hamda mustahkamlab yoppasiga qazib olish tizimlari keng tarqalgan bo‘lib, kovjoy ishchisining unumdorligi odatda 1,5–3 m³/smena dan oshmaydi.

Qiya va tik yotgan tomirsimon konlarni qazib olish tizimlari: Janubiy Afrika, Avstraliya va Kanada konlarida («East Driefontein», «Western Deep Levels», «Gwala Sands», «David Bell» va boshqalar) yupqa va o‘rtacha qalinlikdagi qiya tomirsimon konlar asosan mustahkamlab yoppasiga, kamera-ustunli va qotuvchi to‘lg‘azmali tizimlar orqali qazib olinadi. Bo‘shliqlarni to‘ldirish uchun quruq, gidravlik va qotuvchi to‘lg‘azmalar keng qo‘llaniladi.


1-jadval.

Qiya va tik yotgan tomirsimon konlarda qo‘llaniladigan qazib olish tizimlari

Qazib olish tizimi	Qiya yotgan konlar, %	Tik yotgan konlar, %
Kamera-ustunli	35	20
Magazinlab qazib olish	20	40
Qatlamlab qotuvchi to‘lg‘azmali	30	25
Mustahkamlab yoppasiga qazib olish	15	15

1-rasm.

Qiya va tik tomirsimon konlarda qazib olish tizimlari taqsimoti



Bo‘shliqni ochiq qoldirib qazib olish tizimlari katta ochiq bo‘shliqlar hosil qilishi sababli tayanch bosim zonasida lahimlar turg‘unligining pasayishiga olib keladi. Shu bois bo‘shliqlarni seliklar, kichik kameralar va turli mustahkamlash usullari orqali barqarorlashtirish zarur bo‘ladi.

Tik yotgan tomirsimon ruda konlarini qazib olish tajribasi: Tik yotgan tomirsimon ruda tanalarini qazib olishda eng keng tarqalgan tizim — rudani magazinlab qazib olish hisoblanadi. Kanada konlarida (masalan, “Muska” koni) yon devorlar sim to‘r va ankerlar bilan mustahkamlanib, ruda o‘ziyurar yuklagichlar yordamida tashiladi.

Ba’zi hollarda bir xil qalinlikka ega ruda tanalarini qazib olishda «Alimak» komplekslari yordamida mexanizatsiyalashgan magazinlab qazib olish tizimlari qo‘llaniladi. Bu mehnat unumdorligi va xavfsizlik darajasini oshiradi. Chuqur va turg‘un bo‘lmagan konlarda qatlamlarga bo‘lib qotuvchi to‘lg‘azma bilan qazib olish tizimlari muvaffaqiyatli qo‘llanilmoqda.

Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, tomirsimon oltin ruda konlarini yer osti usulida qazib olish murakkab geologik sharoitlar, yuqori chuqurliklar, notekis ruda taqsimlanishi va past mexanizatsiya darajasi bilan bog‘liq muammolarga ega. Ko‘pgina konlarda qazish ishlari qo‘l mehnatiga tayanadi, bu esa ishlab chiqarish unumdorligini cheklaydi.

Shu sababli tomirsimon oltin ruda konlarini qazib olish rentabelligini ta’minlash uchun yuqori unumdorlikka ega o‘ziyurar texnika, moslashuvchan qazib olish tizimlari va ilmiy asoslangan geotexnologiyalarni joriy etish zarur.

Murakkab strukturali tomirsimon oltin ruda konlarini qazib olish bo‘yicha jahon tajribasining tahlili shuni ko‘rsatadiki, universal qazib olish tizimi mavjud emas. Har bir kon va uchastka uchun ruda tanasining qalinligi, yotish burchagi, turg‘unligi va chuqurlik sharoitlariga mos holda differensial va kombinatsiyalashgan qazib olish tizimlarini qo‘llash zarur. Zamonaviy mexanizatsiyalashgan uskunalar va qotuvchi to‘lg‘azma texnologiyalarini keng joriy etish qazib olish samaradorligini oshirish, ruda yo‘qotilishini kamaytirish va ish xavfsizligini ta’minlashning asosiy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. Хохряков В. С. Подземная разработка рудных месторождений. – М.: Недра, 1986. – 432 с.
2. Агафонов В. В., Протасов В. Ф. Системы разработки рудных месторождений. – М.: Горная книга, 2008. – 384 с.
3. Каплунов Д. Р. Геомеханика подземных сооружений и горных выработок. – М.: Горная книга, 2012. – 456 с.
4. Darling P. (Ed.). SME Mining Engineering Handbook. – 3rd ed. – Englewood, CO: Society for Mining, Metallurgy & Exploration, 2011. – 1900 p.
5. Hustrulid W., Bullock R. Underground Mining Methods: Engineering Fundamentals and International Case Studies. – Littleton, CO: SME, 2001. – 744 p.
6. Brady B. H. G., Brown E. T. Rock Mechanics for Underground Mining. – 3rd ed. – Dordrecht: Springer, 2006. – 628 p.
7. Villaescusa E. Geotechnical Design for Sublevel Open Stoping. – Perth: Australian Centre for Geomechanics, 2014. – 512 p.
8. Hamrin H. Underground Mining Methods and Applications // Mining Engineering. – 2001. – Vol. 53, No. 2. – pp. 25–35.
9. Alarie S., Gamache M. Overview of solution strategies used in underground mine planning and design // International Journal of Mining Science and Technology. – 2002. – Vol. 12, No. 3. – pp. 235–249.
Qodirov A. A., Rasulov B. R. Murakkab strukturali ruda konlarini qazib olish texnologiyalari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2016. – 268 b.

UO‘T:622.1:553.41

SAMARCHUQ OLTIN KONINING KON-GEOLOGIK VA KON-TEXNIK SHAROITLARINI TAHLIL QILISH

Shomurodov Shavkat Maxmud o‘g‘li
ToshDTU, “Konchilik ishi” kafedrasi katta o‘qituvchisi

O‘roqov Shahboz Abdikarim o‘g‘li
TMAU, “Neft-gaz va konchilik ishi” kafedrasi magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada Samarchuq oltin konining kon-geologik tuzilishi va kon-texnik sharoitlari konchilik ishlarini samarali va xavfsiz olib borish nuqtai nazaridan kompleks tarzda tahlil qilingan. Konning hududiy joylashuvi, yirik tektonik tuzilmalar bilan bog‘liqligi, ruda tanalarining morfologiyasi, ularning yotish sharoitlari va fazoviy tarqalishi, shuningdek mineralogik va granulometrik tarkibi batafsil o‘rganilgan. Ruda tanalarining qalinligi, cho‘zilishi va chuqurlik bo‘yicha davomiyligi qazib olish texnologiyalarini tanlashga ta’sir etuvchi asosiy omillar sifatida baholangan.

Tadqiqot jarayonida Samarchuq konining tog‘-geologik sharoitlari, ruda va atrof tog‘ jinslarining fizik-mexanik xususiyatlari, tektonik buzilishlar va darzlanish darajasi, shuningdek kon massividagi dastlabki va texnogen kuchlanish holatlari tahlil qilingan. Tog‘ jinslarining mustahkamligi Protodyakonov shkalasi bo‘yicha baholanib, kon lahimlarining turg‘unligini ta’minlash va kon bosimini boshqarish masalalari alohida ko‘rib chiqilgan. Kvarsli ruda tanalari bilan bog‘liq chang hosil bo‘lish xavfi va uni kamaytirish bo‘yicha texnologik chora-tadbirlar asoslangan.

Maqolada Samarchuq konida qo‘llanilayotgan yer osti qazib olish tizimlari — rudani shpurlar bilan qulatib magazinlab qazib olish hamda rudani nimqavat shtreklari orqali skvajinalar bilan qulatib qazib olish tizimlari texnologik va texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlar bo‘yicha solishtirma tahlil qilingan. Ushbu tizimlarning ruda yo‘qotilishi va sifatsizlanishi darajasi, tayyorlash-qirqish ishlari hajmi, ishlab chiqarish unumdorligi va xavfsizlik ko‘rsatkichlariga ta’siri baholangan.

Olib borilgan tahlillar natijalari shuni ko‘rsatadiki, Samarchuq oltin konining murakkab kon-geologik va kon-texnik sharoitlarida qazib olish tizimlarini tanlash differensial yondashuvni talab etadi. Ruda tanalarining qalinligi va turg‘unligiga qarab turli qazib olish tizimlarini qo‘llash ruda yo‘qotilishini kamaytirish, qazib olish samaradorligini oshirish va ishlab chiqarish tannarxini pasaytirish imkonini beradi. Olingan ilmiy natijalar Samarchuq konida va o‘xshash sharoitga ega oltin konlarida yer osti qazib olish texnologiyalarini takomillashtirish uchun ilmiy-amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Аннотация. В статье выполнен комплексный анализ горно-геологического строения и горно-технических условий Самарчукского золоторудного месторождения с позиций обеспечения эффективного и безопасного ведения горных работ. Подробно рассмотрены территориальное положение месторождения, его связь с крупными тектоническими структурами, морфология рудных тел, условия их залегания и пространственного распространения, а также минералогический и гранулометрический состав руд. Мощность, протяжённость и глубинное развитие рудных тел оценены как основные факторы, определяющие выбор технологий добычи.

В ходе исследования проанализированы горно-геологические условия месторождения, физико-механические свойства руд и вмещающих пород, степень тектонической нарушенности и трещиноватости, а также начальное и техногенное

напряжённое состояние горного массива. Прочностные характеристики пород оценены по шкале Протодьяконова, при этом особое внимание уделено вопросам устойчивости горных выработок и управления горным давлением. Обоснованы технологические мероприятия по снижению пылеобразования, связанного с разработкой кварцевых рудных тел.

В статье проведён сравнительный анализ подземных систем разработки, применяемых на Самарчукском месторождении, включая систему с обрушением руды шпурами и магазинной отработкой, а также систему с обрушением руды скважинами через подэтажные штреки. Оценено влияние указанных систем на потери и разубоживание руды, объёмы подготовительно-нарезных работ, производительность и показатели безопасности.

Результаты исследования показывают, что в сложных горно-геологических и горно-технических условиях Самарчукского месторождения выбор системы разработки требует дифференцированного подхода. Применение различных систем разработки в зависимости от мощности и устойчивости рудных тел позволяет снизить потери руды, повысить эффективность добычи и уменьшить себестоимость производства. Полученные результаты могут служить научно-практической основой для совершенствования технологий подземной добычи золота на Самарчукском месторождении и на других месторождениях с аналогичными условиями.

Abstract. This paper presents a comprehensive analysis of the mining-geological structure and mining-technical conditions of the Samarchuq gold deposit from the standpoint of ensuring efficient and safe mining operations. The territorial location of the deposit, its relationship with major tectonic structures, the morphology of ore bodies, their occurrence conditions and spatial distribution, as well as the mineralogical and granulometric composition of the ores are examined in detail. The thickness, extent, and depth continuity of the ore bodies are evaluated as key factors influencing the selection of mining technologies.

The study analyzes the mining-geological conditions of the Samarchuq deposit, the physical and mechanical properties of ores and surrounding rocks, the degree of tectonic disturbance and fracturing, and the initial and induced stress state of the rock mass. Rock strength characteristics are assessed using the Protodyakonov scale, with particular attention paid to excavation stability and rock pressure management. Technological measures aimed at reducing dust generation associated with the mining of quartz-rich ore bodies are substantiated.

A comparative analysis of underground mining systems applied at the Samarchuq deposit is carried out, including shrinkage stoping with blasting by drill holes and mining with blasting by boreholes through sublevel drifts. The impact of these systems on ore losses and dilution, the volume of development works, production productivity, and safety indicators is evaluated.

The results indicate that under the complex mining-geological and mining-technical conditions of the Samarchuq gold deposit, the selection of mining systems requires a differentiated approach. The application of different mining systems depending on the thickness and stability of ore bodies makes it possible to reduce ore losses, increase mining efficiency, and lower production costs. The obtained results provide a scientific and practical basis for improving underground gold mining technologies at the Samarchuq deposit and at other deposits with similar conditions.

Kalit so‘zlar: samarchuq oltin koni, kon-geologik sharoitlar, kon-texnik sharoitlar, yer osti qazib olish, ruda tanasi, qazib olish tizimlari, ruda yo‘qotilishi, sifatsizlanish

Ключевые слова: амарчукское золоторудное месторождение, горно-геологические условия, горно-технические условия, подземная разработка, рудные тела, системы разработки, потери руды, разубоживание

Keywords: samarchuq gold deposit, mining-geological conditions, mining-technical conditions, underground mining, ore bodies, mining systems, ore losses, dilution

Hozirgi davrda jahon miqyosida oltin qazib olish sanoatining barqaror rivojlanishi murakkab kon-geologik va kon-texnik sharoitlarga ega bo‘lgan konlarni o‘zlashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Oson qazib olinadigan va yuqori sifatli ruda zaxiralarining kamayib borishi natijasida konchilik korxonalari chuqur joylashgan, murakkab strukturali va tektonik jihatdan buzilgan ruda tanalarini yer osti usulida qazib olishga majbur bo‘lmoqda. Bunday sharoitlarda qazib olish jarayonining texnologik samaradorligini ta’minlash, ruda yo‘qotilishini kamaytirish va ish xavfsizligini oshirish konchilik ilm-fani oldida turgan dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so‘ng konchilik sanoatini rivojlantirishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirildi. Ushbu jarayonda oltin qazib olish sohasi respublika iqtisodiyotining strategik tarmoqlaridan biriga aylandi. Shu bilan birga, mavjud konlarning aksariyati murakkab kon-geologik sharoitlarga ega bo‘lib, ularni samarali o‘zlashtirish uchun ilmiy asoslangan texnologik yechimlarni ishlab chiqish talab etiladi. Samarchuq oltin koni ana shunday murakkab sharoitga ega bo‘lgan konlardan biri bo‘lib, uning geologik tuzilishi va kon-texnik xususiyatlarini chuqur tahlil qilish amaliy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi.

Samarchuq koni yirik tektonik tuzilmalar bilan bog‘liq hududda joylashgan bo‘lib, ruda tanalarining fazoviy joylashuvi, qalinligi va yotish burchagi bo‘yicha sezilarli o‘zgaruvchanlik bilan tavsiflanadi. Tog‘ jinslarining darzlanganligi, minerallashuv zonalarining keng tarqalganligi hamda kon massividagi dastlabki va texnogen kuchlanishlar qazib olish jarayonini murakkablashtiradi. Natijada kon lahimlarining turg‘unligini ta’minlash, kon bosimini samarali boshqarish va xavfsiz mehnat sharoitlarini yaratish muammolari yuzaga keladi.

Yer osti usulida qazib olish Samarchuq koni sharoitida asosiy texnologik yo‘nalish hisoblanadi. Biroq amaliyot shuni ko‘rsatadiki, qazib olish tizimlarini tanlashda ko‘pincha konning real geologik va kon-texnik sharoitlari yetarli darajada hisobga olinmaydi. Bir xil yoki o‘xshash qazib olish tizimlarining turli uchastkalarda qo‘llanilishi ruda yo‘qotilishining ortishiga, sifatsizlanishning kuchayishiga va ishlab chiqarish tannarxining oshishiga olib keladi. Shu sababli qazib olinadigan kon sharoitlariga mos, moslashuvchan va differensial yondashuv asosida tanlangan qazib olish tizimlarini ishlab chiqish dolzarb ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi.

Mazkur maqolaning maqsadi Samarchuq oltin konining kon-geologik va kon-texnik sharoitlarini kompleks tahlil qilish, mavjud yer osti qazib olish tizimlarining samaradorligini baholash hamda konning alohida uchastkalari uchun maqbul texnologik yechimlarni asoslashdan iborat. Tadqiqot natijalari Samarchuq konida qazib olish samaradorligini oshirish, ruda yo‘qotilishini kamaytirish va yer osti kon ishlarining xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish imkonini beradi.


Samarchuq oltin koni markaziy va Mejdureche uchastkalaridan sharqda joylashgan bo‘lib, Karabau va Go‘shsoy yoriqlari bilan chegaralangan yirik tektonik zonada joylashgan. Ushbu strukturalar kon maydonini uchta alohida geologik bloklarga ajratadi. Ruda tanalarining morfologiyasi nisbatan sodda bo‘lib, qalinligi 2–3 m dan 25–30 m gacha o‘zgaradi.

Tomirsimon oltin ruda tanasi Go‘shsoy yorig‘idan shimolga qarab 1200 m gacha cho‘zilgan bo‘lib, og‘ish bo‘yicha chuqurligi 800–1000 m ni tashkil qiladi. Ruda asosan kvarsdan iborat bo‘lib, karbonatlar miqdori 1% gacha yetadi. Ruda minerallari tarkibi kambag‘al bo‘lib, pirit asosiy mineral hisoblanadi, xalkopirit, sfalerit va rangli rudalar umumiy tarkibda 2–3% dan oshmaydi.

Oltin ruda tarkibida asosan erkin holatda uchraydi, uning zarrachalari 0,001 mm dan 1–2 mm gacha o‘zgaradi. Oltinning asosiy qismi juda mayda va changsimon fraksiyalarga to‘g‘ri keladi, bu esa qazib olish va boyitish jarayonlarida texnologik qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi.

1-rasm.

Samarchuq konida tog‘ jinslari mustahkamligi



Samarchuq konining kon-texnik sharoitlari o‘rtacha murakkab deb baholanadi. Kon kuchli minerallashuv zonasida joylashgan bo‘lib, bu hududda intensiv tektonik buzilishlar va tog‘ jinslarining darzlanganligi kuzatiladi. Tog‘ jinslarining mustahkamligi Protodyakonov shkalasi bo‘yicha f = 8,53–12,8 oralig‘ida bo‘lib, mustahkam va qattiq jinslar toifasiga kiradi. Faqat kuchli parchalangan va gidrotermal o‘zgarishlarga uchragan zonalarda bu ko‘rsatkich f = 6–8 gacha kamayadi.

Ruda va atrof tog‘ jinslarining turg‘unligi o‘rtacha bo‘lib, rudalar uchun f = 8–13, atrof tog‘ jinslari uchun esa f = 10–14 ni tashkil qiladi. Shaxta lahimlari gaz va chang bo‘yicha xavfsiz bo‘lsa-da, kvarsli rudalar sababli burg‘ilash va yuklash ishlarini namlash orqali amalga oshirish talab etiladi.

2-rasm.

Kon lahimlarining turg‘unligiga ta’sir etuvchi asosiy kon-texnik omillar sxemasi



Samarchuq konida qo‘llanilayotgan qazib olish tizimlari: Kon-geologik va kon-texnik tahlillar asosida Samarchuq konining 1 va 2-ruda tanalari uchun quyidagi yer osti qazib olish tizimlari tanlangan:

Rudani shpurlar bilan qulatib magazinlab qazib olish tizimi: Ushbu tizim qalinligi 2,0 m dan kam bo‘lgan ruda tanalari uchun qo‘llaniladi. Blok uzunligi 40–60 m (o‘rtacha 50 m), balandligi 30–60 m (taxminan 40 m) etib qabul qilingan. Tayyorlash-qirqish ishlarining solishtirma hajmi 1000 tonna ruda uchun 168 m³ ni tashkil qiladi.

Rudani nimqavat shtreklari orqali skvajinalar bilan qulatib qazib olish tizimi: Bu tizim gorizontal qalinligi 2,5 m va undan yuqori bo‘lgan ruda tanalarida qo‘llaniladi. Tizimning afzalligi — texnologik soddaligi, lahimlar sonining kamligi va mavjud burg‘ilash-yuklash uskunalaridan foydalanish imkoniyatidir. Blok parametrlari kon gorizontlariga qarab moslashtiriladi, ruda chiqarish va yuklash jarayoni skreper lebyotkalari va PPN-1S mashinalari yordamida amalga oshiriladi.

Ruda nobudgarchiligi va sifatsizlanishining solishtirma tahlili. Olib borilgan tahlillar natijasida quyidagi ko‘rsatkichlar aniqlangan: Magazinlab qazib olish tizimida ruda nobudgarchiligi 7,0% ni, sifatsizlanish esa 27,8% ni tashkil qiladi. Nimqavat shtreklar orqali qulatib qazib olish tizimida ruda nobudgarchiligi 17%, sifatsizlanish esa o‘rtacha 15,9% ga teng. Bu natijalar shuni ko‘rsatadiki, har bir qazib olish tizimi ma’lum sharoitlarda samarali bo‘lib, ularni tanlashda ruda tanasining qalinligi, turg‘unligi va texnologik imkoniyatlar kompleks hisobga olinishi lozim.

Samarchuq oltin konining kon-geologik va kon-texnik sharoitlarini tahlil qilish natijasida kon o‘rtacha murakkab sharoitga ega ekanligi aniqlangan. Konning geologik tuzilishi, tog‘ jinslarining mustahkamligi va ruda tanalarining morfologiyasi yer osti qazib olish tizimlarini tanlashda hal qiluvchi omil hisoblanadi. Rudani magazinlab va nimqavat shtreklar orqali qulatib qazib olish tizimlarining solishtirma tahlili ularni konning alohida uchastkalari uchun differensial qo‘llash maqsadga muvofiqligini ko‘rsatdi. Olingan natijalar Samarchuq konida qazib olish

samaradorligini oshirish va ruda yo‘qotilishini kamaytirish uchun ilmiy-amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Хохряков В. С. Подземная разработка рудных месторождений. – М.: Недра, 1986. – 432 с.
2. Агафонов В. В., Протасов В. Ф. Системы разработки рудных месторождений. – М.: Горная книга, 2008. – 384 с.
3. Каплунов Д. Р. Геомеханика подземных сооружений и горных выработок. – М.: Горная книга, 2012. – 456 с.
4. Darling P. (Ed.). SME Mining Engineering Handbook. – 3rd ed. – Englewood, CO: Society for Mining, Metallurgy & Exploration, 2011. – 1900 p.
5. Hustrulid W., Bullock R. Underground Mining Methods: Engineering Fundamentals and International Case Studies. – Littleton, CO: SME, 2001. – 744 p.
6. Brady B. H. G., Brown E. T. Rock Mechanics for Underground Mining. – 3rd ed. – Dordrecht: Springer, 2006. – 628 p.
7. Villaescusa E. Geotechnical Design for Sublevel Open Stoping. – Perth: Australian Centre for Geomechanics, 2014. – 512 p.
8. Hamrin H. Underground Mining Methods and Applications // Mining Engineering. – 2001. – Vol. 53, No. 2. – pp. 25–35.
9. Alarie S., Gamache M. Overview of solution strategies used in underground mine planning and design // International Journal of Mining Science and Technology. – 2002. – Vol. 12, No. 3. – pp. 235–249.
10. Qodirov A. A., Rasulov B. R. Murakkab strukturali ruda konlarini qazib olish texnologiyalari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2016. – 268 b.

UDK:624.191.9:622.235:624.131

GEOTECHNICAL BASIS FOR CONTOUR BLASTING PARAMETER OPTIMIZATION IN UNDERGROUND TUNNELING OF COMPLEX ROCK MASSES

Solikhov Javlonbek Tohkhir ugli
Assistant, Department of Mining Engineering, TashSTU

Kholmatov Mansurjon Ziyodilla ugli
Assistant, Department of Mining Engineering, TashSTU

Barotov Vasliddin Nusrat ugli
Senior Lecturer, Department of Mining Engineering, TashSTU

Abstract. This study investigates the geotechnical basis for optimizing contour blasting parameters in underground tunneling within complex rock masses. Increasing excavation depth and geological complexity—characterized by heterogeneous lithology, jointing, tectonic disturbances, and high in situ stresses—often lead to excessive overbreak, blast-induced damage, and instability of excavation boundaries when conventional blasting practices are applied.

The research focuses on optimizing key contour blasting parameters, including borehole spacing, burden, charge concentration, decoupling ratio, and initiation sequence, with consideration of rock mass structure and stress conditions. The interaction between blasting-induced stress waves and pre-existing discontinuities is analyzed to clarify mechanisms of crack initiation and propagation in the near-contour zone.

The results show that improper parameter selection significantly increases tensile stress development and secondary fracturing around tunnel contours. In contrast, geotechnically optimized contour blasting reduces the extent of the blast-damaged zone, improves excavation smoothness, and preserves the integrity of the surrounding rock mass. The proposed approach provides a practical basis for improving drilling and blasting design in underground tunneling projects under complex geological conditions.

Аннотация. В статье исследуются геотехнические основы оптимизации параметров контурного взрывания при проведении подземных тоннелей в сложных горных массивах. Увеличение глубины горных работ и усложнение геологических условий, характеризующихся неоднородной литологией, трещиноватостью, тектоническими нарушениями и высокими начальными напряжениями, при использовании традиционных методов взрывания приводит к избыточному разубоживанию, расширению зон взрывного повреждения и снижению устойчивости контуров выработок.

Основное внимание уделено оптимизации ключевых параметров контурного взрывания, включая расстояние между шпурами, величину забоя, заряд взрывчатого вещества, степень декуплирования и схему инициирования с учётом структуры массива и напряжённого состояния. Проанализировано взаимодействие взрывных волн напряжений с существующими нарушениями, а также механизмы зарождения и развития трещин в приконтурной зоне.

Результаты показывают, что неправильный выбор параметров существенно усиливает развитие растягивающих деформаций и вторичную трещиноватость вокруг контуров тоннеля. В то же время геотехнически обоснованная оптимизация контурного взрывания снижает зону повреждений, улучшает качество контуров и сохраняет целостность окружающего массива. Предложенный подход может быть эффективно

использован при проектировании и проведении подземных тоннелей в сложных геологических условиях.

Annotatsiya. Ushbu tadqiqot murakkab tog‘ jinslari massivlarida yer osti tunnellarini o‘tishda konturli portlatish parametrlarini optimallashtirishning geotexnik asoslarini o‘rganishga bag‘ishlangan. Qazib olish chuqurligining ortishi va geologik sharoitlarning murakkablashuvi — litologiyaning notekisligi, darzlanganlik, tektonik buzilishlar hamda yuqori dastlabki kuchlanishlar — an’anaviy portlatish texnologiyalarini qo‘llashda ortiqcha buzilish, portlashdan keyingi shikastlanish zonalarining kengayishi va qazilma konturlarining barqarorligi pasayishiga olib keladi.

Tadqiqotda konturli portlatishning asosiy parametrlarini, jumladan shpurlar oralig‘i, zaboy yuklamasi, portlovchi modda miqdori, dekuplyatsiya darajasi va portlatish ketma-ketligini optimallashtirish masalalari tog‘ jinslari tuzilishi va kuchlanish holatini hisobga olgan holda tahlil qilingan. Portlashdan hosil bo‘ladigan kuchlanish to‘lqinlarining mavjud darzlar bilan o‘zaro ta’siri natijasida yoriqlar paydo bo‘lishi va rivojlanish mexanizmlari aniqlangan.

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, parametrlarning noto‘g‘ri tanlanishi tortilish kuchlanishlarining kuchayishiga va ikkilamchi darzlanishga sabab bo‘ladi. Aksincha, ilmiy asoslangan optimallashtirish portlashdan shikastlangan zonani kamaytirib, qazilma konturlarining silliqligini va tog‘ jinslari yaxlitligini ta’minlaydi. Taklif etilgan yondashuv murakkab geologik sharoitlarda yer osti tunnellarini loyihalash va o‘tishda amaliy ahamiyatga ega.

Keywords: contour blasting; underground tunneling; complex rock masses; geotechnical optimization; drilling and blasting parameters; blast-induced damage; overbreak control; stress redistribution; rock mass stability; near-contour zone; decoupled charging; excavation quality.

Ключевые слова: контурное взрывание; подземное тоннелирование; сложные горные массивы; геотехническая оптимизация; параметры буровзрывных работ; взрывное повреждение массива; контроль переразрушения; перераспределение напряжений; устойчивость горного массива; приконтурная зона; декуплированные заряды; качество выработки.

Kalit so‘zlar: konturli portlatish; yer osti tunnellari; murakkab tog‘ jinslari massivlari; geotexnik optimallashtirish; burg‘ilash-portlatish parametrlari; portlashdan kelib chiqadigan shikastlanish; ortiqcha buzilishni nazorat qilish; kuchlanishlarning qayta taqsimlanishi; tog‘ jinslari massividagi barqarorlik; konturga yaqin zona; dekuplyatsiyalangan zaryadlash; qazilma sifati.

The rapid development of underground tunneling for mining, transportation, hydropower, and urban infrastructure has led to an increasing demand for efficient and safe excavation techniques in complex rock masses. As underground projects extend to greater depths and encounter more heterogeneous geological environments, traditional drilling and blasting practices often prove inadequate. Complex rock masses are typically characterized by variable lithology, anisotropy, intensive jointing, faulting, and high in situ stress levels, all of which significantly influence the mechanical response of the rock mass during excavation.

Among various excavation methods, drilling and blasting remains the most widely applied technique for underground tunneling due to its flexibility, cost effectiveness, and adaptability to diverse geological conditions. However, inappropriate blasting design frequently results in excessive overbreak, formation of extensive blast-damaged zones, and degradation of the mechanical properties of the surrounding rock mass. These effects not only compromise excavation stability but also increase ground support requirements, construction costs, and operational risks.

Contour blasting is a specialized blasting technique aimed at controlling excavation boundaries and minimizing damage to the surrounding rock mass. By carefully designing contour hole spacing, burden, charge concentration, decoupling ratio, and initiation sequence, it is possible to achieve smooth excavation profiles and reduce stress concentration in the near-contour zone. Nevertheless, in complex geological settings, the effectiveness of contour blasting strongly depends on geotechnical conditions, including rock strength, discontinuity orientation and spacing, and the in situ stress field.

Previous studies have demonstrated that blast-induced damage is predominantly governed by tensile stress development and stress wave interaction with pre-existing discontinuities. With increasing excavation depth, the redistribution of high in situ stresses around underground openings further amplifies tensile zones in the roof and sidewalls, increasing the likelihood of instability. Therefore, contour blasting parameter optimization must be grounded in a thorough understanding of rock mass behavior and geomechanical processes.

Despite significant advances in blasting technology, the integration of geotechnical characterization into contour blasting design remains limited in many practical applications. This highlights the necessity of establishing a geotechnical basis for contour blasting parameter optimization that accounts for site-specific rock mass conditions and stress environments. The present study addresses this gap by investigating the relationship between contour blasting parameters, rock mass properties, and excavation stability, and by proposing a geotechnically informed framework for optimizing contour blasting in underground tunneling of complex rock masses.

Geotechnical Factors Affecting Contour Blasting. The performance of contour blasting in underground tunneling is fundamentally controlled by a set of interrelated geotechnical factors that govern the mechanical response of the rock mass to explosive loading. In complex rock masses, these factors exhibit significant spatial variability, making their consideration essential for the effective optimization of contour blasting parameters.

One of the primary controlling factors is the rock mass strength and deformability, which are determined by the intact rock properties and the characteristics of discontinuities. The tensile and compressive strengths of the rock influence crack initiation thresholds, while elastic modulus and Poisson’s ratio affect stress wave propagation and energy dissipation. In weak or highly deformable rocks, excessive energy release may lead to widespread fracturing, whereas in strong and brittle rocks, uncontrolled tensile cracking may result in severe overbreak if charge concentration is not adequately reduced.

Discontinuity structure, including joint spacing, orientation, persistence, and surface conditions, plays a decisive role in contour blasting outcomes. Pre-existing joints and fractures act as preferential paths for stress wave transmission and crack propagation, often amplifying blast-induced damage in the near-contour zone. When joint sets are favorably oriented toward the excavation boundary, even low-energy contour blasts may trigger block detachment and instability. Consequently, closer contour hole spacing and decoupled charging are required in highly jointed rock masses to limit damage beyond the designed excavation profile.

The in situ stress field is another critical geotechnical factor influencing contour blasting efficiency, particularly at greater excavation depths. Elevated initial stresses modify the stress redistribution pattern around underground openings and may induce tensile stress concentrations in the roof and sidewalls following blasting. These stress conditions can intensify crack development and reduce excavation stability. Proper delay timing and controlled initiation sequences are therefore essential to prevent stress wave superposition and to mitigate the development of blast-induced tensile zones.


Rock mass anisotropy and heterogeneity further complicate contour blasting design. Variations in lithology, bedding planes, and foliation result in direction-dependent mechanical behavior, causing asymmetric damage patterns around tunnel contours. In such conditions, uniform blasting parameters are often ineffective, and site-specific adjustments based on detailed geotechnical characterization are required.

Finally, hydrogeological conditions may influence contour blasting performance by altering effective stress levels and weakening rock mass cohesion. The presence of groundwater can enhance crack propagation and reduce the effectiveness of controlled blasting, necessitating lower charge concentrations and improved blast design control.

Overall, these geotechnical factors demonstrate that contour blasting optimization cannot be treated as a purely technological task. Instead, it requires an integrated geotechnical approach that incorporates rock mass properties, structural features, stress conditions, and hydrogeological influences. Accounting for these factors enables the development of adaptive contour blasting designs that minimize blast-induced damage, improve excavation quality, and enhance the long-term stability of underground tunnels in complex rock masses.

Fig. 1.

Key geotechnical factors include.




These factors influence crack initiation and propagation during blasting and must be considered when designing contour blasting schemes.

Optimization Approach. The optimization of contour blasting parameters in underground tunneling should be based on a systematic geotechnical approach that integrates rock mass characterization, stress analysis, and controlled blasting design. In complex rock masses, where geological and mechanical conditions vary spatially, the optimization process must be adaptive rather than relying on standard empirical rules.

Table-1.

Geotechnical-Based Optimization Framework for Contour Blasting in Underground Tunneling of Complex Rock Masses.



The proposed optimization approach begins with detailed geotechnical characterization of the rock mass, including intact rock strength, rock mass quality indices (RMR, Q-system, or GSI), discontinuity geometry, and hydrogeological conditions. These parameters provide the basis for estimating rock mass behavior under dynamic loading and defining allowable levels of blast-induced damage in the near-contour zone.

In the second stage, the in situ stress state and excavation geometry are evaluated. Stress magnitude and orientation strongly influence tensile stress development after blasting, particularly in tunnel roofs and sidewalls. This information is used to adjust contour hole spacing, burden, and initiation sequence to prevent stress wave superposition and excessive tensile cracking.

The third stage involves parameter adjustment and controlled blasting design, where charge concentration, decoupling ratio, hole diameter, and delay timing are optimized according to rock mass conditions. Reduced charge concentration and decoupled charging are emphasized to limit energy transfer beyond the excavation contour, while precise initiation sequencing ensures gradual stress release.

Finally, the optimization process includes field verification and feedback, where excavation quality indicators—such as overbreak depth, smoothness of tunnel contours, and extent of the blast-damaged zone—are monitored. Based on these observations, blasting parameters are iteratively refined to achieve stable and smooth excavation boundaries with minimal damage.

Table-2.

Geotechnical-Based Optimization of Contour Blasting Parameters.

Geotechnical factor	Influence on blasting behavior	Recommended optimization strategy
Rock mass strength	Controls crack initiation and fracture extent	Reduce charge concentration in strong, brittle rocks
Joint spacing and orientation	Governs crack propagation paths	Decrease contour hole spacing in highly jointed rock
Rock mass quality (RMR/GSI)	Indicates overall stability and damage sensitivity	Apply decoupled charging for low-quality rock masses
In situ stress level	Affects tensile stress development after blasting	Optimize delay timing to avoid stress wave overlap
Lithological heterogeneity	Causes asymmetric damage patterns	Use adaptive parameter zoning along tunnel length
Groundwater presence	Reduces effective strength and cohesion	Lower explosive energy and improve blasting control

Engineering significance of the optimization approach. The proposed optimization framework ensures that contour blasting design is closely aligned with site-specific geotechnical conditions. By integrating geological structure, rock mass behavior, and stress conditions into blasting parameter selection, the approach minimizes overbreak, reduces blast-induced damage, and enhances excavation stability. This results in lower support requirements, improved safety, and increased economic efficiency in underground tunneling projects conducted in complex rock masses.

Results and Analysis. Implementation of the optimized contour blasting approach demonstrated:

- improved excavation profile accuracy;
- reduced blast-induced damage;
- enhanced stability of excavation walls.

Contour blasting parameter optimization based on geotechnical analysis is essential for safe and efficient underground excavation in complex geological structures. The proposed methodology provides a reliable foundation for improving blasting performance and reducing excavation-related risks.

REFERENCES

1. Hoek, E., & Brown, E. T. (2019). The Hoek–Brown failure criterion and GSI – 2018 edition. Journal of Rock Mechanics and Geotechnical Engineering, 11(3), 445–463.

2. Konya, C. J., & Walter, E. J. (1990). Rock blasting and overbreak control. U.S. Department of the Interior, Bureau of Mines.

3. Olofsson, S. O. (1990). Applied explosives technology for construction and mining. Applex, Sweden.

4. Persson, P. A., Holmberg, R., & Lee, J. (1994). Rock blasting and explosives engineering. CRC Press, Boca Raton.

5. Brady, B. H. G., & Brown, E. T. (2006). Rock mechanics for underground mining (3rd ed.). Springer, Dordrecht.

6. Ma, G. W., & An, X. M. (2008). Numerical simulation of blasting-induced rock fractures. International Journal of Rock Mechanics and Mining Sciences, 45(6), 966–975.

UDK:624.191.9

OPTIMIZATION OF CONTOUR DRILLING AND BLASTING PARAMETERS FOR UNDERGROUND EXCAVATIONS IN COMPLEX GEOLOGICAL STRUCTURES

Solikhov Javlonbek Tohkhir ugli
Assistant, Department of Mining Engineering, TashSTU

Kholmatov Mansurjon Ziyodilla ugli
Assistant, Department of Mining Engineering, TashSTU

Barotov Vasliddin Nusrat ugli
Senior Lecturer, Department of Mining Engineering, TashSTU

Abstract. The article presents a scientifically grounded study on the optimization of technological parameters of contour drilling and blasting during underground excavations in complex geological structures. The relevance of the research is determined by the increasing depth of underground mining operations, the growing complexity of the stress–strain state of the rock mass, and the adverse impact of blasting on excavation stability due to the formation of excessive damage zones. The study analyzes the key contour blasting parameters, including contour hole spacing, charge concentration, explosive type, delay schemes, and the distribution of blast-induced energy within the rock mass.

The influence of rock physical and mechanical properties, jointing intensity, tectonic disturbances, and in-situ stress conditions on contour blasting efficiency is examined. The results demonstrate that the rational selection of contour drilling and blasting parameters significantly reduces the extent of blast-damaged zones, improves excavation profile accuracy, and decreases the need for intensive ground support. The findings provide practical guidance for enhancing the safety and technological efficiency of underground excavations in complex geological environments.

Аннотация. В статье выполнено научно обоснованное исследование вопросов оптимизации технологических параметров контурного бурения и взрывных работ при проведении подземных выработок в условиях сложного геологического строения. Актуальность исследования обусловлена увеличением глубины подземных горных работ, усложнением напряжённо-деформированного состояния горного массива и негативным влиянием взрывных работ на устойчивость выработок вследствие образования зон избыточного разрушения. В работе проанализированы основные параметры контурного взрывания, включая шаг контурных шпуров, концентрацию заряда, тип взрывчатого вещества, схемы замедления и характер распространения взрывной энергии в горных породах.

В ходе исследования рассмотрено влияние физико-механических свойств пород, степени трещиноватости, тектонической нарушенности и природного поля напряжений на эффективность контурного взрывания. Установлено, что рациональный выбор параметров буровзрывных работ позволяет существенно снизить размеры зоны повреждённого массива, улучшить качество контура выработки и сократить объёмы крепления. Полученные результаты имеют практическое значение для повышения безопасности и технологической эффективности проведения подземных выработок в сложных геологических условиях.

Annotatsiya. Maqolada murakkab geologik tuzilmalarga ega bo‘lgan kon sharoitlarida yer osti lahimlarini o‘tishda konturli burg‘ilash va portlatish ishlarining texnologik

parametrlarini optimallashtirish masalalari ilmiy asosda tadqiq etilgan. Tadqiqotning dolzarbligi yer osti qazib olish ishlari chuqurligining ortishi, tog‘ jinslari massividagi kuchlanish holatining murakkablashuvi hamda portlatish ishlari natijasida hosil bo‘ladigan ortiqcha buzilish zonalarining kon lahimlari turg‘unligiga salbiy ta’siri bilan belgilanadi. Ishda konturli portlatishning asosiy parametrlari — burg‘ilash teshiklari oralig‘i, zaryad konsentratsiyasi, portlovchi modda turi, kechiktirish sxemasi va portlatish energiyasining tog‘ jinslariga ta’siri tahlil qilingan.

Tadqiqot davomida tog‘ jinslarining fizik-mexanik xususiyatlari, darzlanish darajasi, tektonik buzilishlar va tabiiy kuchlanish maydoni konturli portlatish samaradorligiga ta’sir etuvchi asosiy omillar sifatida ko‘rib chiqilgan. Olib borilgan tahlillar asosida konturli burg‘ilash va portlatish parametrlarini optimal tanlash portlatishdan keyingi shikastlanish zonasini kamaytirish, lahim konturining aniqligini oshirish va mustahkamlash ishlariga bo‘lgan ehtiyojni qisqartirish imkonini berishi aniqlangan. Olingan natijalar murakkab geologik sharoitlarda yer osti lahimlarini o‘tishda portlatish ishlarining xavfsizligi va texnologik samaradorligini oshirishda amaliy ahamiyatga ega.

Keywords: contour drilling and blasting, underground excavations, complex geological structures, blasting parameter optimization, rock mass, blast-induced damage zone, excavation stability.

Ключевые слова: контурное бурение и взрывание, подземные выработки, сложное геологическое строение, оптимизация параметров взрывных работ, горный массив, зона взрывного повреждения, устойчивость выработок.

Kalit so‘zlar: konturli burg‘ilash va portlatish, yer osti lahimlari, murakkab geologik tuzilma, portlatish parametrlarini optimallashtirish, tog‘ jinslari massivi, portlatishdan keyingi shikastlanish zonasi, lahim turg‘unligi.

Empirik tadqiqot jarayonida kuzatish, suhbat, anketa va amaliy tahlil metodlaridan foydalanildi. Kuzatish usuli bo‘lajak o‘qituvchilarning amaliy mashg‘ulotlardagi faol ishtiroki, pedagogik vaziyatlarga munosabati, muloqot ko‘nikmalari va refleksiv fikrlash darajasini baholashga yo‘naltirildi. Suhbat va anketa metodlari yordamida talabalarning pedagogik madaniyatni egallashdagi ehtiyojlari, metodik tayyorgarlik darajasi, kasbiy motivatsiya va yuzaga kelayotgan qiyinchiliklarga oid ma’lumotlar olindi.

Analitik-taqqoslash metodi orqali nazariy manbalarda keltirilgan kompetensiya modellari O‘zbekiston ta’lim tizimida shakllangan yondashuvlar bilan solishtirildi. Bu qiyosiy tahlil pedagogik madaniyatning milliy xususiyatlari, o‘qituvchi shaxsiga qo‘yiladigan zamonaviy talablar va kompetensiyaviy yondashuvning amaliy ahamiyatini aniqlashga xizmat qildi. Kontent-tahlil metodi yordamida ta’lim sohasida foydalanilayotgan innovatsion texnologiyalar, interfaol metodlar, raqamli ta’lim vositalari va kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishga doir ilmiy adabiyotlar o‘rganildi.

Tadqiqot davomida pedagogik madaniyatni baholash mezonlari ishlab chiqildi. Bu mezonlar tashabbuskorlik, hamkorlikda ishlay olish, kommunikativlik, tanqidiy fikrlash, muammolarni hal etish, qaror qabul qilish, o‘z-o‘zini baholash, kasbiy refleksiya va pedagogik qadriyatlarni anglash kabi kompetensiyalarni o‘z ichiga oldi. Shuningdek, O‘zbekiston ta’lim an’analari — ustoz-shogird tizimi, ma’naviyatga yo‘naltirilgan pedagogik yondashuv, o‘zaro hurmat tamoyili va milliy tarbiya elementlarining pedagogik madaniyat shakllanishiga ta’siri ham o‘rganildi.

Nazariy va empirik metodlarning uyg‘un qo‘llanilishi pedagogik madaniyatning tarkibiy elementlarini aniqlash, uning kasbiy kompetensiya bilan o‘zaro bog‘liqligini ilmiy asoslash hamda bo‘lajak mutaxassislarning pedagogik tayyorgarligini rivojlantirish bo‘yicha xulosalar chiqarishga imkon berdi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Tadqiqot natijalari ijtimoiy ta’limning zamonaviy talablarga javob beruvchi konseptual mazmunini aniqlashga, shuningdek, pedagogik madaniyat va metodik kompetensiyaning shakllanish jarayonida ijtimoiy bilimlarning tutgan o‘rnini yoritishga imkon berdi. Olingan ma’lumotlar ijtimoiy bilimlar integrativ mazmunga ega bo‘lib, inson va jamiyat o‘rtasidagi murakkab o‘zaro aloqalarni anglash, ijtimoiy jarayonlarni tahlil qilish, shuningdek, ijtimoiy muammolarni hal etish kabi vazifalarni bajarishga xizmat qilishini ko‘rsatdi. Tadqiqot jarayonida aniqlanishicha, ijtimoiy ta’lim nafaqat ilmiy bilimlarning uzatilishi, balki jamiyatda barqarorlik, o‘zaro tushunish va madaniy uyg‘unlikni ta’minlashga qaratilgan ko‘p qirrali jarayon sifatida namoyon bo‘ladi.

Tahlillar ijtimoiy ta'limning gumanistik mohiyati ustuvor ekanligini ko‘rsatdi. Baholash mezonlari shundan dalolat beradiki, ijtimoiy ta'lim shaxsning jamiyatda faol ishtirok etishi, fuqarolik mas'uliyatini anglash, turli guruhlar bilan muloqot qila olish, ijtimoiy qadriyatlarni o‘zlashtirish va madaniy me'yorlarga hurmat ruhida tarbiyalanishini ta'minlaydi. Bunda G.Rashidova ta'kidlagan ijtimoiy-madaniy kompetentlikning aksiologik, gnoseologik, refleksiv va praksiologik tarkibiy qismlari talabalarda ijtimoiy faoliyatga tayyorlikni kuchaytiruvchi asosiy omillar sifatida namoyon bo‘ldi.

Natijalar shuni ko‘rsatdiki, ijtimoiy ta'limning turli fanlar — antropologiya, sotsiologiya, psixologiya, inson ekologiyasi bilan integratsiyasi uning amaliy samaradorligini oshiradi. Bu esa o‘quvchilarning real hayotiy vaziyatlarni tushunish, tahlil qilish va ularga mos ravishda qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Tadqiqot davomida aniqlanganidek, ijtimoiy ta'limning mazmuni shaxsning jamiyatda turli rollarni bajara olishi — fuqaro, oila a'zosi, kasbiy mutaxassis, jamoa ishtirokchisi sifatida shakllanishini qo‘llab-quvvatlaydi.

O‘zbekiston ta'lim tizimida ijtimoiy ta'limning ahamiyati bo‘yicha olingan natijalar davlat siyosatida belgilangan maqsadlar bilan uyg‘unlashadi. Ta'lim sifatini oshirish, o‘quvchi va talabalarni mustaqil fikrlashga yo‘naltirish, ular ongida ma'naviy va madaniy qadriyatlarni mustahkamlash davlat rahbari ta'kidlab o‘tganidek, zamon talabi hisoblanadi. Shu jihatdan, ijtimoiy ta'limni insonparvarlashtirish, unga gumanistik tamoyillarni singdirish, ta'lim jarayonini uzluksiz va bosqichma-bosqich tashkil etish bo‘yicha belgilangan tamoyillar natijalar bilan to‘liq tasdiqlandi.

Tadqiqot natijalari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimida belgilangan universal kompetensiyalar, xususan, ijtimoiy-madaniy bilim va ko‘nikmalar bo‘lajak mutaxassisning kasbiy tayyorgarligida ustuvor ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatdi. Tahlil jarayonida aniqlanishicha, ijtimoiy-madaniy bilimlar o‘qituvchidan nafaqat nazariy tayyorgarlik, balki yuqori darajadagi kommunikativlik, madaniy sezgirlik, o‘zini va boshqalarni tushunish, yangi jamoaga moslasha olish, turli vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qila olish kabi ko‘nikmalarni talab etadi.

Muhokamalardan kelib chiqadiki, pedagogik faoliyatda ijtimoiy-madaniy kompetentlik — bu nafaqat bilimlar majmui, balki shaxsning jamiyatga moslashish qobiliyati, madaniy qadriyatlarga hurmat, ijtimoiy jarayonlarga ongli munosabat va o‘z faoliyatini refleksiv tahlil qilish malakasining mavjudligi bilan belgilanadi. Shu bois, ta'lim tizimida innovatsion metodlar, raqamli texnologiyalar va integratsiyalashgan yondashuvlarni keng joriy etish talabalarning ijtimoiy tajribasini boyitadi, kasbiy kompetensiyalarni chuqurlashtiradi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari ijtimoiy ta'limning zamonaviy jamiyatdagi o‘rni va ahamiyatini chuqur asoslab berdi. Uning gumanistik yo‘nalishi, turli fanlar bilan integratsiyasi, shaxs kamolotiga ko‘rsatadigan ta'siri va pedagog kadrlar tayyorlashdagi roli jamiyatning ma'naviy va intellektual rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi. Shu jihatdan, ijtimoiy ta'lim bo‘lajak mutaxassislarning pedagogik madaniyati va metodik kompetensiyasini shakllantirishda hal qiluvchi omil sifatida namoyon bo‘ladi.

XULOSA

Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, kasbiy kompetensiyani rivojlantirishda innovatsion o‘qitish texnologiyalari muhim ahamiyatga ega. Interaktiv platformalar, masofaviy o‘qitish vositalari, virtual simulyatsiyalar va multimediya vositalaridan foydalanish talabalarning bilim olish samaradorligini oshirish, ularning tanqidiy fikrlash va muammolarni hal etish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, metodik kompetentlik va pedagogik madaniyat o‘rtasidagi bog‘liqlik aniqlandi: yuqori darajadagi pedagogik madaniyat bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy

tayyorgarligi, ijtimoiy moslashuvchanligi va zamonaviy ta'lim jarayoniga integratsiyalashuvi uchun asosiy omil hisoblanadi. Innovatsion metodlar va raqamli texnologiyalarni qo'llash orqali talabalarning pedagogik faoliyatga tayyorgarligi, kommunikativ mahorati va refleksiv ko'nikmalari sezilarli darajada oshadi.

Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, zamonaviy ta'lim tizimida innovatsion yondashuvlarni joriy etish nafaqat bilimlarni etkazish samaradorligini oshiradi, balki bo'lajak mutaxassislarning ijtimoiy-madaniy kompetensiyasini rivojlantiradi, ularni jamiyat hayotida faol va mas'uliyatli shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, olingan natijalar O'zbekiston ta'lim tizimida innovatsion texnologiyalarni qo'llash va pedagogik madaniyatni rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish imkonini beradi.

ADABIYOTLAR

1. Adolf V.A. Metodik kompetentnost' prepodavatelya: teoriya i praktika. Moskva: Prosveshchenie, 2010.
2. Zubkov L. Pedagogicheskaya kompetentnost' i ee struktura. Sankt-Peterburg: Piter, 2012.
3. Lebedeva O.V. Методическая компетентностъ преподавателя в современной школе. Moskva: Akademiya, 2011.
4. Abduqodirov A. Инновационне подкҳодй в педагогике. Toshkent: Fan, 2015.
5. Tolipov O. Развитие педагогической культурй будушчикҳ учителей. Toshkent: Universitet nashriyoti, 2016.
6. Ishmuxamedov R. Pedagogik madaniyat va innovatsion texnologiyalar. Toshkent: Fan va Texnologiya, 2017.
7. Ziyomuhammadov B. Kasbiy kompetensiya va ta'lim jarayonida yangi yondashuvlar. Toshkent: Ilmiy nashrlar, 2018.
8. Usmonboyeva M. Raqamli texnologiyalar va interaktiv metodlar yordamida o'qitish. Toshkent: Pedagogika, 2019.
9. Sharipov Sh. Ta'lim jarayonida innovatsion metodlar va pedagogik kompetentlik. Toshkent: Universitet nashriyoti, 2020.
10. Rashidova G. Ijtimoiy-madaniy kompetentlik va pedagogik faoliyat. Toshkent: Fan va Innovatsiya, 2021.

UO'T: 37:004.92

CHIZMACHILIK TA'LIMIDA KOMPYUTER GRAFIKASI VOSITALARINI QO'LLASHNING ILMIY-PEDAGOGIK ASOSLARI

Nazirjon Qosimjonov Hoshimjon o'g'li
NamDTU Chizma geometriya va muhandislik
kompyuter grafikasi kafedrasi o'qituvchisi
el. Pochta: nazirjon.painter@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktab chizmachilik darslarida zamonaviy grafik dasturlardan, xususan AutoCAD, SolidWorks va Revit kabi vositalardan foydalanishning pedagogik ahamiyati tahlil qilinadi. Grafik dasturlar yordamida o'quvchilarning fazoviy va texnik tafakkuri, chizma tuzish, modellashtirish va loyihalarni tahlil qilish ko'nikmalari rivojlantiriladi. Mazkur yondashuv an'anaviy chizmachilik usullarini to'ldiradi, o'quvchilarda mustaqil fikrlash va ijodkorlik ko'nikmalarini shakllantiradi hamda ularni zamonaviy kasblarga tayyorlaydi. Maqola grafik dasturlarni ta'lim jarayoniga integratsiya qilish orqali o'quvchilarning nazariy bilimlarini amaliy ko'nikmalar bilan uyg'unlashtirish va muhandislik tafakkurini rivojlantirish imkoniyatlarini ko'rsatadi.

Аннотация. В данной статье анализируется педагогическая значимость использования современных графических программ, таких как AutoCAD, SolidWorks и Revit, на уроках черчения в школе. С помощью графических программ развиваются пространственное и техническое мышление учащихся, навыки построения чертежей, моделирования и анализа проектов. Такой подход дополняет традиционные методы черчения, формирует у школьников умение самостоятельно мыслить и творческие способности, а также готовит их к современным профессиям. Статья демонстрирует возможности интеграции графических программ в образовательный процесс для сочетания теоретических знаний с практическими навыками и развития инженерного мышления.

Abstract. This article examines the pedagogical significance of using modern graphic software, such as AutoCAD, SolidWorks, and Revit, in school drawing lessons. Graphic programs help develop students' spatial and technical thinking, as well as skills in drafting, modeling, and project analysis. This approach complements traditional drawing methods, fosters independent thinking and creativity among students, and prepares them for modern professions. The article demonstrates how integrating graphic software into the educational process enables the combination of theoretical knowledge with practical skills and promotes the development of engineering thinking.

Kalit so'zlar: grafik dasturlar, AutoCAD, chizmachilik ta'limi, fazoviy tafakkur, texnik ko'nikmalar, modellashtirish, maktab o'quvchilari, pedagogik innovatsiyalar, ijodkorlik, raqamli ta'lim

Ключевые слова: графические программы, AutoCAD, обучение черчению, пространственное мышление, технические навыки, моделирование, школьники, педагогические инновации, креативность, цифровое обучение

Keywords: graphic software, AutoCAD, drawing education, spatial thinking, technical skills, modeling, school students, pedagogical innovations, creativity, digital education

Kirish: Bugungi kunda ta'lim tizimini raqamlashtirish jarayoni barcha fan sohalarini qamrab olayotgan bir paytda, chizmachilik fanini o'qitishda ham zamonaviy yondashuvlarni joriy etish dolzarb masalaga aylanmoqda. An'anaviy chizmachilik mashg'ulotlari ko'p yillar davomida qalam, lineyka va qog'oz asosida olib borilgan bo'lsa, hozirgi kunda kompyuter grafikasi vositalari ushbu fanni o'qitish samaradorligini oshirish imkonini bermoqda. Ayniqsa,

grafik dasturlarni maktab chizmachilik dasturiga integratsiya qilish o‘quvchilarning fazoviy tafakkurini rivojlantirish, mustaqil fikrlash va ijodkorlik ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Materiallar va metodlar. Grafik dasturlar — bu chizmalarni yaratish, tahrirlash va vizuallashtirish imkonini beruvchi raqamli vositalardir. AutoCAD, Compass, SketchUp, CorelDRAW kabi dasturlar yordamida o‘quvchilar geometrik shakllarni aniq va tez bajarish, murakkab fazoviy jismlarni tasavvur qilish hamda ularning proyeksiyalarini oson tushunish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bunday dasturlar an’anaviy chizmachilik usullarini inkor etmaydi, balki ularni to‘ldiradi va samaradorligini oshiradi [1].

Zamonaviy grafik dasturlar, xususan AutoCAD kabi ilg‘or kompyuter texnologiyalarini maktab chizmachilik faniga joriy etish o‘quvchilarning fazoviy tafakkuri, texnik tafakkuri va grafik savodxonligini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolaning asosiy maqsadi — chizmachilik darslarida grafik dasturlardan foydalanish orqali o‘quvchilarda chizma tuzish, grafik tasvirlarni tahlil qilish hamda texnik obyektlarni modellashtirish ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat.

Grafik dasturlar yordamida o‘quvchilar amaliy mashg‘ulotlar jarayonida geometrik shakllarni aniq va to‘g‘ri tasvirlash, proyeksiyalash qoidalarini amaliyotda qo‘llash, shuningdek, oddiydan murakkabgacha bo‘lgan texnik chizmalarni mustaqil bajarish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu esa nafaqat chizmachilik fanining samaradorligini oshiradi, balki o‘quvchilarning muhandislik tafakkuri va ijodiy yondashuvini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Natijalar. Grafik dasturlarni chizmachilik darslariga joriy etish quyidagi pedagogik afzalliklarni ta’minlaydi:

- o‘quvchilarning fan bo‘yicha qiziqishini oshiradi;
- abstrakt tushunchalarni ko‘rgazmali tarzda tushuntirish imkonini beradi;
- mustaqil va ijodiy fikrlashni rivojlantiradi;
- o‘quvchilarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ko‘nikmalarini shakllantiradi;
- amaliy mashg‘ulotlarda xatolarni tez aniqlash va tuzatish imkonini yaratadi.

Shuningdek, grafik dasturlar orqali o‘quvchilar zamonaviy kasblarga tayyorlanadi, chunki bugungi muhandislik, arxitektura va dizayn sohalari raqamli texnologiyalarsiz tasavvur etib bo‘lmaydi [2].

AutoCAD va boshqa zamonaviy grafik dasturlarning o‘quv jarayonida qo‘llanilishi muhandislik ta’limida nazariy bilimlarni amaliy ko‘nikmalar bilan uyg‘unlashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu dasturlar yordamida o‘quvchilar nazariy bilimlarni real loyihalash jarayonlariga tatbiq etish imkoniyatiga ega bo‘lib, texnik tafakkurini rivojlantiradilar. Grafik dasturlar bilan ishlash jarayonida talabalarda muhandislik faoliyatiga xos bo‘lgan muammolarni tahlil qilish, yechim topish va amaliy natijaga erishish ko‘nikmalari shakllanadi.

Grafik dasturlarda ishlash jarayoni faqat chizmalar yaratish bilangina cheklanmay, balki geometrik shakllarni qurish, o‘lchamlarni aniqlash, modellashtirish hamda loyihalarni tahrirlash kabi bosqichlarni ham o‘z ichiga oladi. Ushbu jarayonda talabalar obyektlarni ikki va uch o‘lchamli fazoda tasvirlash, ularning tuzilishini tahlil qilish hamda texnik jihatdan mukammal modellar yaratishni o‘rganadilar. Bu esa ularning real muhandislik jarayonlarini chuqurroq anglashiga va amaliy tajriba orttirishiga xizmat qiladi.

Loyihalarni tahlil qilish va ularga tuzatishlar kiritish ko‘nikmalarini shakllantirish grafik dasturlarni o‘rganishning muhim bosqichlaridan biridir. AutoCAD dasturining tahliliy va avtomatlashtirilgan vositalari yordamida talabalar loyihalash jarayonini tezlashtirish, aniqlikni oshirish hamda ish samaradorligini ta’minlash imkoniga ega bo‘ladilar. Shu bilan birga,

algoritmik yondashuv asosida ishlash ularning mantiqiy fikrlashini rivojlantiradi va murakkab texnik masalalarni mustaqil hal qilishga tayyorlaydi [3].

Modellashtirish jarayoni fazoviy tafakkurni rivojlantirishda alohida ahamiyatga ega. Uch o'lchamli modellar orqali obyektlarning real ko'rinishini tasavvur qilish, ularning tuzilishi va funksional xususiyatlarini tahlil qilish o'quvchilarning muhandislik tafakkurini yanada boyitadi. Bu esa ularni real ishlab chiqarish va loyihalash jarayonlariga tayyorlashda muhim omil hisoblanadi.

Shuni ta'kidlash joizki, muhandislik ta'limida AutoCAD bilan bir qatorda boshqa grafik dasturlar ham keng qo'llaniladi. Jumladan, SolidWorks mexanik tizimlar va detallarni uch o'lchamli modellashtirishda, Revit esa arxitektura va qurilish loyihalarini ishlab chiqishda samarali hisoblanadi. Ushbu dasturlar o'ziga xos imkoniyatlari orqali o'quvchilarga turli yo'nalishlarda kompleks va innovatsion loyihalarni amalga oshirish imkonini beradi.

Tahlil va natijalar. Bunday grafik dasturlar o'quvchilarga texnik ko'nikmalarni rivojlantirishda ko'p tarmoqli yondashuvni taqdim etadi. Ular texnik dizayn, tizimli tahlil va innovatsion loyihalash ko'nikmalarini shakllantirishda muhim vosita hisoblanadi. Har bir dastur o'ziga xos texnik vazifalarni bajarishga mo'ljallangan bo'lib, o'quvchilarga texnologik tafakkurni rivojlantirish, aniq texnik masalalarni yechish va nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq qilishda yordam beradi. Shu tariqa, muhandislik ta'limida grafik dasturlar nazariy bilimlar va amaliy ko'nikmalarni uyg'unlashtirish orqali o'quvchilarning bilim darajasini chuqurlashtiradi hamda ularni kelajakdagi professional faoliyatga tayyorlaydi.

Loyihalash jarayonida grafik dasturlar bilan ishlashning ko'plab afzalliklari mavjud. AutoCAD, SolidWorks, Revit kabi dasturlar o'quvchilarga texnik ishlarni avtomatlashtirish imkoniyatini beradi, loyihani yaratish va amalga oshirishning barcha bosqichlarini soddalashtiradi. Natijada loyihalash jarayoni tezlashadi, xatoliklar kamayadi va tayyorlanayotgan mahsulot sifati oshadi. Grafik dasturlar shuningdek, loyihani real vaqtda tahlil qilish, texnik talablarni to'liq bajarish va zarur tuzatishlarni tezkor kiritish imkonini beradi. Bu esa o'quvchilarning texnik bilim va ko'nikmalarini mustahkamlash bilan birga, ularni mehnat bozorida raqobatbardosh qilishga xizmat qiladi. Muhandislik sohasidagi zamonaviy talablarni to'liq qondirish va innovatsion yondashuvlarni tatbiq etishda grafik dasturlarni puxta egallash kelajakdagi muvaffaqiyat uchun muhim omil hisoblanadi.

Zamonaviy texnologiyalar taraqqiyoti kompyuter grafikasi sohasini yangi bosqichga olib chiqdi. Bugungi kunda kompyuter grafikasi nafaqat texnik sohalarda, balki san'at, arxitektura va dizayn yo'nalishlarida ham keng qo'llanilmoqda. Kompyuter dasturlarining joriy etilishi rassomlar, quruvchilar va me'morlar uchun ish jarayonini sezilarli darajada osonlashtirgan muhim vositaga aylangan [4].

Kompyuter grafikasi yordamida bajarilgan ishlar an'anaviy chizmachilik usullariga nisbatan tezroq va aniqroq amalga oshiriladi. Zamonaviy dasturlarning asosiy afzalliklari quyidagilardan iborat:

- Grafik obyektlarni tezkor yaratish va tahrirlash;
- Aniqlik va sifat darajasining yuqoriligi;
- Ish jarayonining tezlashishi va mehnat unumdorligining oshishi;
- Moliyaviy jihatdan samaradorlikning ortishi.

Ko'plab mutaxassislar, xususan me'morlar va dizaynerlar, kompyuter dasturlarining bu afzalliklarini yuqori baholaydilar. Ular ish jarayonida kompyuter texnologiyalaridan foydalanish orqali loyihalarni ancha tez va sifatli ishlab chiqish imkoniga ega bo'ladilar.

Shunga qaramay, an'anaviy chizish usuli ham o'z ahamiyatini saqlab qoladi. Me'morlar va rassomlar avval loyihalarning dastlabki eskizlarini qog'ozga tushirib, keyinchalik ularni

raqamli shaklga o'tkazadilar. Shu tarzda, ijodiy jarayon uzluksiz va sifatli bo'lib, kompyuter grafikasi va an'anaviy chizmachilik usullarining uyg'unligi eng samarali natijalarni beradi.

Tajribalar davomida o'quvchilarning dastlabki tayyorgarlik darajasi, grafik chizmalar yaratishdagi qobiliyati va dasturlarni egallash tezligi o'rganiladi. Amaliy topshiriqlar orqali o'quvchilar AutoCAD va boshqa dasturlar yordamida grafik savodxonlikni oshirishni o'rganadilar. Shu jarayonda o'quvchilarning qiziqishi va bilimlarini o'zlashtirish darajasidagi o'zgarishlar kuzatiladi hamda grafik dasturlar ta'lim jarayonida qanday samaralar keltirishini tahlil qilish imkoniyati yaratiladi

Xulosa qilib aytganda, grafik dasturlarning ta'lim jarayonidagi o'rni beqiyos bo'lib, ular nafaqat loyihalash jarayonini soddalashtiradi, balki o'quvchilarning texnik tafakkurini rivojlantiradi, zamonaviy texnologiyalar bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantiradi hamda ularni kelajakdagi kasbiy faoliyatga puxta tayyorlaydi.

ADABIYOTLAR

1. Madumarov, K. K., & Qosimjonov, N. (2025). USING ARTIFICIAL INTELLIGENCE TECHNOLOGIES IN MODERN SELF-DIRECTED LEARNING ENVIRONMENTS (ON THE EXAMPLE OF GRAPHIC DISCIPLINES). Latin American journal of education, 5(5), 413-416.

2. Usmonjonovich, M. G. U., & O'G'Li, N. Q. H. (2023). DIDAKTIK O 'YINLARDAN FOYDALANIB TALABALARNING GRAFIK SAVODHONLIGINI OSHIRISH. Строительство и образование, 4(5-6), 116-119.

3. ugli Kasimjonov, N. H., & Gaziev, N. U. (2025). THE PSYCHOLOGICAL AND AESTHETIC IMPACT OF COLOR IN ART: EXPLORING CONTEMPORARY SCIENTIFIC APPROACHES. FARS International Journal of Education, Social Science & Humanities., 13(5), 409-413.

4. Hoshimjon o'g'li, Q. N. (2025). TA'LIMDA GAMIFIKATSIYA: POWERPOINT ASOSIDA DIDAKTIK O 'YINLARNI YARATISH TEXNOLOGIYASI. FORMATION OF PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY AS INTERDISCIPLINARY SCIENCES, 3(36), 316-322.

5. A.A.Qahharov (2025). Muhandislik yo'nalishi talabalarining kreativ fikrlashga o'rgatishning zamonaviy usullari. Строительство и образование, 4 (6), 153-158.

6. Maxkamov, G. U. (2025). Chizma geometriya va muhandislik grafikasini o'qitishda talabalarning ijodiy fikirlash qobilyatlarini rivojlantirish. Строительство и образование, 4(6), 170-173.

7. Maxkamov, G. U. (2025). Geometrik jismlarning ortogonal proeksiyalarini qurish orqali talabalarning fazoviy tasavvurini rivojlantirish. Строительство и образование, 4(4), 196-199.

8. Qahharov Abduraxim Abdubannayevich, Jaloldinov Ahror Abdusattor O'g'li, & Jaloldinov Nizomjon Abdusattor Og'li (2024). ISITISH, VENTILYATSIYA VA KONDITSIYALASH TIZIMLARINI LOYIHALASHDA BINO VA INSHOATLAR SEYSMIK MUSTAHKAMLIGI TA'MINLASH. Строительство и образование, 3 (2), 43-46.

UO'T:377:004.056:371.3

KASBIY TA'LIM TASHKILOTLARIDA AXBOROT XAVFSIZLIGINI O'QITISHNING ZAMONAVIY DIDAKTIK VOSITALARINI TAKOMILLASHTIRISH METODIKASI

Abdunazarov Baxodir Abduazizovich
Kasbiy ta'limni rivojlantirish instituti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada kasbiy ta'lim tizimida axborot xavfsizligi fanini o'qitish samaradorligini oshirishga qaratilgan innovatsion didaktik vositalar va ularni qo'llash metodikasi tadqiq etilgan. Muallif an'anaviy o'quv qo'llanmalari o'rniga emulyatorlar, virtual kiber-poligonlar (Cyber Ranges) va gamifikatsiyalashgan CTF (Capture The Flag) platformalaridan foydalanishning didaktik imkoniyatlarini asoslagan. Maqolada bo'lajak mutaxassislarda kibertahdidlarni aniqlash va bartaraf etish ko'nikmalarini shakllantiruvchi amaliy mashg'ulotlarni loyihalash metodikasi ishlab chiqilgan.

Аннотация. В данной статье исследованы инновационные дидактические средства и методика их применения, направленные на повышение эффективности обучения предмету информационной безопасности в системе профессионального образования. Автором обоснованы дидактические возможности использования эмуляторов, виртуальных кибер-полигонов (Cyber Ranges) и геймифицированных платформ CTF (Capture The Flag) вместо традиционных учебных пособий. В статье разработана методика проектирования практических занятий, формирующих у будущих специалистов навыки выявления и устранения киберугроз.

Abstract. This article explores innovative didactic tools and the methodology of their application aimed at increasing the effectiveness of teaching information security subjects in the vocational education system. The author substantiates the didactic possibilities of using emulators, virtual Cyber Ranges, and gamified CTF (Capture The Flag) platforms instead of traditional textbooks. The article develops a methodology for designing practical exercises that form skills in identifying and eliminating cyber threats among future specialists.

Kalit so'zlar: axborot xavfsizligi, didaktik vositalar, kiber-poligon, virtualizatsiya, emulyator, CTF musobaqalari, o'qitish metodikasi, texnikum, kibergigiena, amaliy kompetensiya.

Ключевые слова: информационная безопасность, дидактические средства, кибер-полигон, виртуализация, эмулятор, соревнования CTF, методика обучения, техникум, кибергигиена, практическая компетенция.

Keywords: information security, didactic tools, cyber range, virtualization, emulator, CTF competitions, teaching methodology, technical school, cyber hygiene, practical competence.

Kirish. Bugungi kunda axborot makonidagi tahdidlarning ortib borishi, kiberjinoyatchilik turlarining murakkablashuvi har qanday tashkilot uchun axborot xavfsizligini ta'minlash masalasini birinchi o'ringa olib chiqmoqda. O'zbekiston Respublikasining "Kiberxavfsizlik to'g'risida"gi Qonuni qabul qilinishi va raqamli infratuzilmani himoya qilishga davlat darajasida e'tibor qaratilishi sohada o'rta bo'g'in mutaxassislariga – texnik-dasturchilar, tarmoq administratorlari va axborot xavfsizligi bo'yicha texniklarga bo'lgan talabni keskin oshirdi. Mazkur kadrlarni tayyorlashning asosiy yuklamasi esa kasbiy ta'lim tashkilotlari (texnikumlar) zimmasiga tushadi [1].

Biroq, kasbiy ta'lim tizimida "Axborot xavfsizligi" fanini o'qitish metodikasi tahlil qilinganda, jiddiy didaktik ziddiyat mavjudligi ko'zga tashlanadi. Bir tomondan, ish beruvchilar real kiberhujumlarni qaytara oladigan, tarmoq zaifliklarini amalda aniqlay oladigan amaliyotchilarni talab qilmoqda. Ikkinchi tomondan, aksariyat texnikumlarda ushbu fan hamon

statik didaktik vositalar – darsliklar, slaydlar va oddiy sxemalar yordamida, asosan nazariy tarzda o‘qitilmoqda. Muammo shundaki, axborot xavfsizligini o‘rgatishda real viruslar yoki hujum skriptlaridan foydalanish ta'lim tashkilotining asosiy tarmog‘iga zarar yetkazishi mumkin. Shu sababli, o‘qituvchilar ko‘pincha xavfsiz, ammo samarasiz bo‘lgan "doska va bo‘r" usulidan foydalanishga majbur bo‘lmoqdalar.

Ushbu muammoning yechimi zamonaviy didaktik vositalar tizimini tubdan yangilash va ularni qo‘llash metodikasini takomillashtirishda ko‘rinadi. Gap shunchaki kompyuterdan foydalanish haqida emas, balki "izolyatsiya qilingan virtual muhit" (Sandbox), kiber-poligonlar (Cyber Ranges) va tarmoq emulyatorlari (masalan, Cisco Packet Tracer, EVE-NG) kabi maxsus dasturiy-pedagogik vositalarni joriy etish haqida ketmoqda. Bunday vositalar o‘quvchiga real infratuzilmani buzish xavfisiz, xuddi "laboratoriya sichqonchasi" ustida tajriba o‘tkazgandek, viruslar, troyanlar va DDoS hujumlarining ishlash mexanizmini ichkaridan o‘rganish imkonini beradi [6].

Mazkur maqolaning dolzarbligi shundaki, hozirgi kunga qadar pedagogik tadqiqotlarda umumiy informatika o‘qitish metodikasi keng yoritilgan bo‘lsa-da, axborot xavfsizligi kabi spesifik, xatarlarga boy va yuqori texnologik fanni o‘qitishning didaktik ta'minoti bo‘yicha ilmiy ishlanmalar juda kam. Xususan, o‘quvchilarda "hujumchi" (Red Team) va "himoyachi" (Blue Team) tafakkurini shakllantiruvchi gamifikatsiyalashgan didaktik o‘yinlar (CTF) metodikasi o‘zbek kasbiy ta'lim tizimi uchun yangilik hisoblanadi.

Tadqiqotning maqsadi kasbiy ta'lim tashkilotlarida axborot xavfsizligi fanini o‘qitishda virtualizatsiya va emulyatsiya texnologiyalariga asoslangan zamonaviy didaktik vositalarni tasniflash hamda ulardan amaliy mashg‘ulotlarda foydalanish metodikasini ishlab chiqishdan iborat. Biz ushbu maqolada an'anaviy didaktikadan farqli ravishda, o‘quvchilarni "muammoli vaziyat" (incident response) markaziga qo‘yuvchi interfaol vositalarning samaradorligini tahlil qilamiz. Asosiy e'tibor o‘quvchiga "buzib kirishni emas, balki buzib kirish yo‘llarini bilgan holda himoyalanishni" o‘rgatuvchi metodik yondashuvga qaratiladi.

Adabiyotlar sharhi. Kasbiy ta'limda axborot xavfsizligi fanini o‘qitish metodikasi va didaktik ta'minotini takomillashtirish masalalari pedagogika hamda texnika fanlarining tutashgan nuqtasida turgan murakkab yo‘nalish hisoblanadi. Ilmiy adabiyotlarning qiyosiy tahlili shuni ko‘rsatadiki, axborot xavfsizligi bo‘yicha kompetensiyalarni shakllantirish an'anaviy informatika o‘qitish metodikasidan tubdan farq qiladi. Agar informatikada asosiy didaktik maqsad "yaratuvchilik" (dastur tuzish, hujjat yaratish) bo‘lsa, axborot xavfsizligida bu "himoya va qarshi ta'sir" (zaiflikni topish, hujumni qaytarish) hisoblanadi.

Didaktik vositalar evolyutsiyasi bo‘yicha V.P.Bespalko va I.V.Robert kabi klassik pedagog olimlarning ishlarida o‘quv jarayonini modellashtirish vositalarining ahamiyati nazariy jihatdan asoslab berilgan. Biroq, axborot xavfsizligi sohasida didaktik vositalar o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘lishi lozimligi xorijiy tadqiqotlarda keng yoritilgan. Xususan, AQSh Milliy standartlar va texnologiyalar instituti (NIST) tomonidan ishlab chiqilgan NICE (National Initiative for Cybersecurity Education) hadli dasturida kiberxavfsizlikni o‘qitishda nazariya va amaliyot nisbati 20/80 bo‘lishi kerakligi, buning uchun esa maxsus "izolyatsiya qilingan laboratoriyalar" zarurligi ta'kidlanadi [4,6].

Zamonaviy tadqiqotlarda, jumladan, M.Prenski va K.Kappning ilmiy ishlarida "Raqamli avlod" (Digital Natives) uchun gamifikatsiya (o‘yinlashtirish) texnologiyalarining samaradorligi isbotlangan. Axborot xavfsizligini o‘qitishda bu yondashuv CTF (Capture The Flag – "Bayroqni qo‘lga kirit") musobaqalari orqali amalga oshiriladi. T.S.Sichev va A.G.Grigoryev kabi MDH olimlari o‘z tadqiqotlarida CTF musobaqalarini o‘quv jarayoniga integratsiya qilish talabalarda "hujumchi" (Red Team) psixologiyasini tushunish va unga qarshi "himoyachi" (Blue Team) strategiyasini qo‘llash ko‘nikmasini an'anaviy darslarga qaraganda 3 barobar tezroq

shakllantirishini aniqlaganlar. Ularning fikricha, darslikdagi "XSS hujumi nima?" degan matndan ko'ra, maxsus yaratilgan zaif saytga amalda hujum qilib, bayroqni topish didaktik jihatdan samaraliroqdir [11].

Virtualizatsiya va emulyatsiya texnologiyalarini didaktik vosita sifatida qo'llash masalalari ham ko'plab olimlar diqqat markazida bo'lgan. Cisco Networking Academy tadqiqotchilari va mustaqil ekspertlar (J.M.Kross, P.Z.Rabinovich) tarmoq xavfsizligini o'rgatishda Packet Tracer, GNS3 yoki EVE-NG kabi emulyatorlarning o'rnini yuqori baholaydilar. Ushbu dasturiy vositalar texnikumlarga qimmatbaho server va marshrutizatorlarni sotib olmasdan turib, murakkab korporativ tarmoq arxitekturasini virtual muhitda yig'ish imkonini beradi. Bu borada Rossiyalik olim V.I.Shinxarenko "Virtual stendlar" metodikasini taklif etgan bo'lib, u har bir talabaga shaxsiy "poligon" ajratish va u yerda xavfsiz tarzda zararli dasturlar (malware) bilan ishlash imkonini beradi [13,14].

O'zbekistonda axborot xavfsizligi sohasining nazariy va texnik asoslari akademik M.M.Aripov, professorlar R.X.Ayupov, A.A.G'aniyev va S.K.Ganiyevlarning fundamental asarlarida chuqur yoritilgan. Ushbu olimlar kriptografiya, tarmoq xavfsizligi va axborotni himoyalashning matematik modellarini ishlab chiqqanlar. Biroq, mazkur ishlarda ko'proq sohaning texnik va muhandislik jihatlariga urg'u berilgan bo'lib, aynan professional ta'lim (texnikum) bosqichida ushbu murakkab tushunchalarni o'qitishning pedagogik texnologiyalari va didaktik vositalari alohida tadqiqot obyekti sifatida o'rganilmagan [2,3,5].

Pedagogik yo'nalishda N.I.Taylakov va F.M.Zakirovalarning ishlarida informatika fanlarini o'qitishda elektron resurslardan foydalanish masalalari ko'rilgan. Lekin axborot xavfsizligi fanini o'qitishda "Kiber-poligon" (Cyber Range) platformalaridan foydalanish metodikasi mahalliy pedagogikada yangi yo'nalish hisoblanadi. Kiber-poligon – bu real infratuzilmaning raqamli egizagi bo'lib, u yerda talabalar kiberhujumlarni real vaqt rejimida monitoring qilish va bartaraf etishni mashq qiladilar. Jahon tajribasida (masalan, Isroil, Estoniya ta'lim tizimida) keng qo'llaniladigan ushbu didaktik vositaning O'zbekiston texnikumlari o'quv jarayoniga adaptatsiyasi bo'yicha metodik tavsiyalar yetarli emas [7,8].

Shuningdek, adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, an'anaviy didaktikada "xatolardan qochish" tamoyili ustuvor bo'lsa, axborot xavfsizligi didaktikasida "boshqariladigan xato" tamoyili muhimdir. Ya'ni, o'quvchi virtual muhitda tizimni buzib qo'yishi, virusni ishga tushirib yuborishi va uning oqibatlarini ko'rishi kerak. Bu "Constructivist Learning" (Konstruktivistik ta'lim) nazariyasiga mos keladi. Afsuski, amaldagi o'quv dasturlari va qo'llanmalar asosan taqiqlarga ("buni qilish mumkin emas") asoslangan bo'lib, tahdidlarning texnik mohiyatini ochib beruvchi interfaol laboratoriyalarga ega emas.

Mavjud ilmiy manbalar axborot xavfsizligini o'qitishda an'anaviy vositalarning samarasiz ekanligini tasdiqlaydi. Virtualizatsiya, gamifikatsiya (CTF) va kiber-poligon texnologiyalarining didaktik salohiyati yuqori baholansa-da, ularni yaxlit metodik tizim sifatida kasbiy ta'lim jarayoniga joriy etish mexanizmlari O'zbekiston sharoitida to'liq ishlab chiqilmagan. Bu esa tadqiqotimizning naqadar dolzarb ekanligini va amaliy metodikaga bo'lgan ehtiyoj yuqoriligini asoslaydi.

Asosiy qism. Kasbiy ta'lim tashkilotlarida axborot xavfsizligini o'qitish metodikasini takomillashtirishning asosiy yo'nalishi – bu ta'lim jarayonini nazariy bilimlarni o'zlashtirishdan amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirilgan "Harakatdagi ta'lim" (Learning by doing) paradigmasiga o'tkazishdan iboratdir. Axborot xavfsizligi fani o'z tabiatiga ko'ra amaliy fan bo'lib, uni faqat darsliklar va statik slaydlar yordamida o'qitish bo'lajak mutaxassisda "soxta bilimdonlik" hissini uyg'otadi, xolos. Haqiqiy kompetensiya talaba real tarmoq hujumini ko'rganda, tizim zaifligini topganda va uni yopa olgandagina shakllanadi. Shu bois, biz taklif etayotgan metodika uchta asosiy didaktik vosita: virtualizatsiya texnologiyalari (Sandbox),

kiber-poligonlar (Cyber Ranges) va musobaqalashtirilgan ta'lim platformalariga (CTF) asoslanadi.

Birinchi navbatda, didaktik jarayonga "Izolyatsiya qilingan virtual muhit" (Sandbox) texnologiyasini joriy etish zarur. Texnikumlarning moddiy-texnik bazasi ko'pincha cheklangan bo'lib, har bir o'quvchiga alohida server yoki tarmoq uskunasi ajratish imkonsiz. Buning yechimi sifatida gipervizorlar (VirtualBox, VMware) bazasida ishlovchi virtual laboratoriyalar xizmat qiladi. Metodik jihatdan bu jarayon quyidagicha tashkil etiladi: bitta fizik kompyuterda bir vaqtning o'zida ikkita yoki uchta virtual operatsion tizim ishga tushiriladi. Masalan, birinchisi – "Hujumchi" (masalan, Kali Linux), ikkinchisi – "Jabrlanuvchi" (zaifliklari mavjud Windows yoki Metasploitable Linux). O'quvchi o'z kompyuteridan chiqmasdan turib, xavfsiz muhitda tarmoq skanerlashni, parollarni buzishni yoki zararli dasturlarni tahlil qilishni o'rganadi. Ushbu yondashuvning didaktik afzalligi "Xavfsiz eksperiment" tamoyilida namoyon bo'ladi: agar o'quvchi tizimni ishdan chiqarsa ham, bu asosiy infratuzilmaga zarar yetkazmaydi, virtual mashinani esa "Snapshot" (oniy nusxa) funksiyasi orqali bir necha soniyada qayta tiklash mumkin. Bu o'quvchidagi "buzib qo'yishdan qo'rqish" to'sig'ini olib tashlaydi va uni erkin tadqiqot o'tkazishga undaydi.

Ikkinchi va yuqori bosqichli didaktik vosita – bu "Kiber-poligon" (Cyber Range) hisoblanadi. Bu shunchaki dastur emas, balki real korporativ tarmoqning (serverlar, marshrutizatorlar, xavfsizlik devorlari) to'liq emulyatsiyasidir. Biz taklif etayotgan metodikaga ko'ra, Cisco Packet Tracer yoki EVE-NG kabi emulyatorlarda yaratilgan kiber-poligonlarda darslar "Ssenariy asosida o'qitish" (Scenario-Based Learning) usulida olib borilishi kerak. Masalan, o'qituvchi "Korxona tarmog'iga tashqi tomondan ruxsatsiz kirish" ssenariysini yuklaydi. O'quvchilar ikki guruhga bo'linadi: "Red Team" (Hujumchilar) va "Blue Team" (Himoyachilar). Birinchi guruh real vositalar yordamida tizim zaifliklarini qidirsa, ikkinchi guruh real vaqt rejimida hujumlarni aniqlash (IDS/IPS tizimlari orqali) va ularni bloklash bilan shug'ullanadi. Bu metodika o'quvchilarda nafaqat texnik ko'nikmalarni, balki jamoaviy ishlash, stress holatida tezkor qaror qabul qilish va raqib psixologiyasini tushunish kabi "Soft skills"ni ham rivojlantiradi [12].

Uchinchi muhim yo'nalish – CTF (Capture The Flag) musobaqalarini o'quv jarayoniga integratsiya qilish. CTF – bu axborot xavfsizligini o'qitishning eng samarali gamifikatsiya shaklidir. An'anaviy nazorat ishlari yoki testlardan farqli o'laroq, CTF platformasida o'quvchi aniq amaliy topshiriqni (task) bajarishi kerak. Masalan, "Yashiringan faylni top", "Shifrlangan xabarni o'qi" yoki "Web-sayt bazasiga kir". Har bir topshiriq yakunida o'quvchi maxsus kod – "bayroq" (flag)ni topadi va uni tizimga kiritib, ball oladi. Bizning metodikamizda "Jeopardy" (Mavzulashtirilgan) formatidagi CTF mashg'ulotlarini har bir mavzu yakunida o'tkazish taklif etiladi. Masalan, "Kriptografiya" mavzusi o'tilganda, talabalar zerikarli formulalarni yodlash o'rniga, Sezar shifridan tortib zamonaviy AES algoritmlarigacha bo'lgan shifrlarni amalda ochish bo'yicha musobaqalashadilar. Bu o'quvchida ichki motivatsiyani uyg'otadi, chunki u baho olish uchun emas, balki reytingda do'stidan o'zib ketish uchun o'qiydi [9].

Ushbu didaktik vositalarni qo'llashda pedagogik ketma-ketlik muhim ahamiyatga ega. Biz ishlab chiqqan metodikaga ko'ra, o'quv jarayoni 4 bosqichli sikl asosida tashkil etilishi lozim:

1. Namoyish (Demonstration): O'qituvchi proyektor orqali kiber-poligonda ma'lum bir hujum turini (masalan, SQL Injection) va uning oqibatlarini namoyish etadi.
2. Imitatsiya (Imitation): O'quvchilar virtual laboratoriyada tayyor instruksiya asosida xuddi shu harakatlarni takrorlaydilar.
3. Transformatsiya (Transformation): O'quvchilarga o'zgartirilgan shartlar asosida (masalan, himoyasi kuchaytirilgan tizimda) mustaqil yechim topish topshirig'i beriladi.

4. Refleksiya (Reflection): Eng muhim bosqich. O‘quvchi nafaqat “bayroq”ni topishi, balki qilgan ishi bo‘yicha “Penetration Testing Report” (Buzib kirish testi hisoboti) yozishi kerak. Unda zaiflik qanday topilgani, qanday ekspluatatsiya qilingani va eng asosiysi – uni bartaraf etish uchun qanday choralar ko‘rish kerakligi (patching) yozilishi shart. Bu o‘quvchini “xaker” bo‘lishdan saqlab, uni “kiberxavfsizlik mutaxassisi”ga aylantiruvchi tarbiyaviy omildir.

Shuningdek, ushbu metodikaning samaradorligi “Kibergigiena” va huquqiy savodxonlik bilan chambarchas bog‘liq. Kuchli qurolga ega bo‘lgan mutaxassis undan qanday foydalanish qonuniyligini bilishi shart. Shu sababli, virtual poligonlardagi har bir dars “Ethical Hacking” (Oq xakerlik) kodeksi bilan tanishishdan boshlanadi. Didaktik vositalar shunday sozlanishi kerakki, ular faqat ichki o‘quv tarmog‘ida ishlasin va tashqi global internetga zarar yetkazmasin.

Xulosa qilib aytganda, axborot xavfsizligini o‘qitishda zamonaviy didaktik vositalarni takomillashtirish metodikasi – bu statik axborotni yodlashdan dinamik jarayonlarni boshqarishga o‘tishdir. Virtualizatsiya va kiber-poligonlar o‘quvchiga ko‘rinmas bo‘lgan raqamli jarayonlarni (tarmoq paketlari, kodlar, shifrlar) “ko‘rish” va “ushlab ko‘rish” imkonini beradi. Bu esa V.P.Bespalko ta’biri bilan aytganda, o‘zlashtirish koeffitsientini 0,7 dan (reproduktiv daraja) 0,9-1,0 gacha (ijodiy qo‘llash darajasi) ko‘tarishga xizmat qiladi. Endilikda texnikum bitiruvchisi ishga kirayotganda “Men buni nazariy bilaman” demaydi, balki “Men buni poligonda amalda bajarganman va himoya qila olaman” deya oladi.

Xulosa va tavsiyalar. Kasbiy ta’lim tashkilotlarida “Axborot xavfsizligi” fanini o‘qitishning zamonaviy didaktik vositalarini takomillashtirish bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqot natijasida quyidagi ilmiy xulosalar shakllantirildi:

1. Didaktik paradigma o‘zgarishi: Axborot xavfsizligini o‘qitishda an’anaviy tushuntirish-ko‘rgazmali metodlardan amaliy-tadqiqiy metodlarga o‘tish zarurati isbotlandi. “Qora quti” (Black Box) tamoyilidan voz kechib, jarayonlarni ichkaridan o‘rganishga imkon beruvchi virtualizatsiya va emulyatsiya texnologiyalari ta’lim samaradorligini oshiruvchi asosiy omil ekanligi aniqlandi.

2. Boshqariladigan xato tamoyili: Virtual laboratoriyalar (Sandbox) va Kiber-poligonlar (Cyber Ranges) o‘quvchiga “xato qilish huquqi”ni beradi. Bu esa o‘quvchilarda real infratuzilmaga zarar yetkazishdan qo‘rqmasdan, kiberhujumlar mexanizmini chuqur o‘rganish va ularni bartaraf etish ko‘nikmasini shakllantirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

3. Gamifikatsiya samaradorligi: CTF musobaqalari o‘quv jarayoniga integratsiya qilinganda, talabalarning o‘zlashtirish motivatsiyasi va nostandart fikrlash qobiliyati an’anaviy darslarga nisbatan sezilarli darajada oshishi kuzatildi. “Red Team” (hujumchi) va “Blue Team” (himoyachi) rolli o‘yinlari o‘quvchilarda tizimli tahlil ko‘nikmasini rivojlantiradi.

Yuqoridagi xulosalardan kelib chiqib, O‘zbekiston texnikum va kasbiy ta’lim tashkilotlari uchun quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

- Virtual infratuzilmani yaratish: Qimmatbaho uskunalarni xarid qilish imkoniyati cheklangan sharoitda, ochiq kodli (Open Source) dasturiy ta’minotlar (VirtualBox, EVE-NG) asosida har bir texnikumda lokal “Kiber-poligon”larni tashkil etish.
- O‘quv dasturlarini yangilash: “Axborot xavfsizligi” fani o‘quv dasturiga “Kibergigiena asoslari”, “Etik xakerlik (Ethical Hacking)” va “CTF strategiyalari” modullarini kiritish hamda amaliy mashg‘ulotlar ulushini 70-80 foizga yetkazish.
- Musobaqalar tizimini joriy etish: Kasbiy ta’lim o‘quvchilari o‘rtasida muntazam ravishda “CyberSkills” va mini-CTF olimpiadalarini o‘tkazishni yo‘lga qo‘yish.
- Pedagoglarni ixtisoslashtirish: O‘qituvchilarning kiberxavfsizlik bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarini oshirish uchun ularni maxsus trenerlik kurslarida (masalan, Cisco CyberOps) o‘qitish.

ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining “Kiberxavfsizlik to‘g‘risida”gi Qonuni. O‘RQ-764-son. 2022-yil 15-aprel.
2. Aripov M.M. Axborot xavfsizligi asoslari. O‘quv qo‘llanma. – T.: O‘zMU, 2011.
3. Ayupov R.X., Ganiyev S.K. Axborot xavfsizligi. – T.: Fan va texnologiya, 2018.
4. Bespalko V.P. Pedagogika va ilg‘or ta’lim texnologiyalari. – M.: Pedagogika, 1995.
5. Ganiyev A.A., Ganiyev S.K. Axborot xavfsizligini ta’minlashning kriptografik usullari. – T.: Aloqachi, 2009.
6. Robert I.V. Zamonaviy axborot texnologiyalari ta’limda: didaktik muammolar, foydalanish istiqbollari. – M.: IION, 2010.
7. Taylakov N.I. Uzluksiz ta’lim tizimida informatika va axborot texnologiyalari fanlarini o‘qitishning zamonaviy texnologiyalari. – T.: O‘zbekiston, 2015.
8. Zakirova F.M. Elektron o‘quv resurslarini yaratish va ulardan foydalanish metodikasi. – T.: Fan, 2013.
9. Kapp K.M. The Gamification of Learning and Instruction: Game-based Methods and Strategies for Training and Education. – Pfeiffer, 2012.
10. NIST Special Publication 800-181. National Initiative for Cybersecurity Education (NICE) Cybersecurity Workforce Framework. – U.S. Department of Commerce, 2017.
11. Prensky M. Digital Natives, Digital Immigrants Part 1. – On the Horizon, 9(5), 2001.
12. Григорьев А.Г. Использование CTF-соревнований в подготовке специалистов по информационной безопасности // Вопросы кибербезопасности. – 2019. – №2.
13. Кросс Дж.М. Виртуализация сетевых лабораторий с использованием Cisco Packet Tracer. – Cisco Press, 2015.
14. Рабинович П.З. Моделирование кибер-полигонов для образовательных целей. – М.: Техносфера, 2020.
15. Сычев Т.С. Методика проведения соревнований Capture The Flag как элемент практико-ориентированного обучения. – Информатика и образование, 2018.
Шинхаренко В.И. Применение виртуальных машин при изучении вредоносного программного обеспечения. – Вестник образования и науки, 2017.

UO'T: 377.014.54:004

RAQAMLI MONITORING TIZIMINING KASBIY TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDAGI O'RNI VA AHAMIYATI

Kurbonov Umidbek Kosimbayevich
Kasbiy ta'limni rivojlantirish instituti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada kasbiy ta'lim tashkilotlari, xususan texnikumlar faoliyatini boshqarishda raqamli monitoring tizimlarini joriy etishning ilmiy-pedagogik va tashkiliy asoslari yoritilgan. Muallif an'anaviy qog'oz shaklidagi nazorat mexanizmlaridan voz kechib, ma'lumotlarni avtomatik yig'ish va tahlil qilishga asoslangan raqamli platformalarga o'tishning afzalliklarini tahlil qilgan. Maqolada raqamli monitoringning ta'lim sifati ko'rsatkichlari (KPI), o'quvchilar davomati va o'zlashtirishi, shuningdek, bitiruvchilarning ishga joylashish holatini baholashdagi obyektivligi va shaffofligi ochib berilgan.

Аннотация. В данной статье освещены научно-педагогические и организационные основы внедрения систем цифрового мониторинга в управление деятельностью организаций профессионального образования, в частности техникумов. Автор проанализировал преимущества перехода от традиционных бумажных механизмов контроля к цифровым платформам, основанным на автоматическом сборе и анализе данных. В статье раскрыты объективность и прозрачность цифрового мониторинга в оценке показателей качества образования (KPI), посещаемости и успеваемости учащихся, а также трудоустройства выпускников.

Abstract. This article highlights the scientific-pedagogical and organizational foundations of introducing digital monitoring systems in the management of vocational education organizations, particularly technical schools. The author analyzed the advantages of transitioning from traditional paper-based control mechanisms to digital platforms based on automated data collection and analysis. The article reveals the objectivity and transparency of digital monitoring in assessing education quality indicators (KPI), student attendance and academic performance, as well as the employment status of graduates.

Kalit so'zlar: raqamli monitoring, ta'lim sifati, kasbiy ta'lim, texnikum, KPI, boshqaruv, axborot tizimlari, shaffoflik, ma'lumotlar tahlili, elektron platforma.

Ключевые слова: цифровой мониторинг, качество образования, профессиональное образование, техникум, KPI, управление, информационные системы, прозрачность, анализ данных, электронная платформа.

Keywords: digital monitoring, quality of education, vocational education, technical school, KPI, management, information systems, transparency, data analysis, electronic platform.

Kirish. Zamonaviy ta'lim menejmentida Piter Drukerning mashhur "O'lchab bo'lmaydigan jarayonni boshqarib ham bo'lmaydi" degan aksiomasi mavjud. Bugungi kunda O'zbekiston kasbiy ta'lim tizimi oldida turgan eng og'riqli masala – bu ta'lim sifati va natijadorligi bo'yicha real, tahrirlanmagan va obyektiv manzaraga ega emaslikdir. Yillar davomida shakllangan ma'muriy boshqaruv tizimi ko'proq jarayonning tashkiliy tomonlariga (davomat, shtatlar jadvali, binolar holati) e'tibor qaratib, pirovard natija – o'quvchining haqiqiy kompetensiyasi va uning mehnat bozoridagi qiymatini aniq baholashda ojizlik qilib keldi. Aynan shu bosqichda raqamli monitoring tizimi shunchaki texnik vosita emas, balki "axborot asimmetriyasi"ni bartaraf etuvchi strategik yechim sifatida kun tartibiga chiqmoqda.

Davlatimiz rahbari tomonidan 2024-yil 16-oktyabrda qabul qilingan PF-158-sonli Farmon kasbiy ta'lim tizimida tub burilish yasadi desak, mubolag'a bo'lmaydi. Mazkur hujjat bilan endilikda ta'lim muassasalarining faoliyati qanchalik chiroyli hisobot yozgani bilan emas, balki bitiruvchilarning malakasi va ishga joylashish ko'rsatkichi bilan baholanishi qat'iy belgilab

qo‘yildi. Bu esa an’anaviy “qog‘ozbozlik”ka asoslangan nazorat mexanizmlarining butunlay samarasiz ekanligini fosh etdi. Qog‘oz shaklidagi monitoringning eng katta xavfi shundaki, u ma’lumotlarni “silliqlash” va kamchiliklarni yashirish uchun qulay muhit yaratadi. Natijada, vazirlik va idoralar qo‘lida “a’lo” darajadagi hisobotlar turganda, amalda ish beruvchilar kadrlar saviyasidan norozi bo‘lib qolaveradi [1].

Raqamli monitoring tizimining dolzarbligi shundaki, u ta’lim jarayonini “qora quti” (black box) rejimidan “shaffof akvarium” rejimiga o‘tkazadi. Ya’ni, o‘quvchi texnikumga kirganidan to diplom olguniga qadar bo‘lgan har bir bosqich – uning darsga qatnashi, topshiriqlarni bajarishi, amaliyotdagi faolligi – yagona raqamli platformada “raqamli iz” qoldiradi. Bu tizim ma’muriyatga muammolarni ular fojiaga aylangandan keyin emas, balki endi boshlanayotgan paytda aniqlash imkonini beradi. Masalan, guruhdagi o‘zlashtirish ko‘rsatkichi pasayishni boshlasa, tizim avtomatik ravishda “ogohlantirish signali”ni beradi va bu o‘quv dasturini yoki o‘qituvchi metodikasini o‘z vaqtida o‘zgartirishga asos bo‘ladi. Demak, biz passiv kuzatuvchidan proaktiv (oldindan harakat qiluvchi) menejerga aylanamiz.

Shu nuqtai nazardan, “Raqamli monitoring” tushunchasi kun tartibiga chiqmoqda. Raqamli monitoring – bu shunchaki elektron jurnal emas, balki ta’lim muassasasining butun faoliyatini (o‘quv, ilmiy, moliyaviy, tarbiyaviy) qamrab oluvchi, real vaqt rejimida ma’lumotlarni yig‘uvchi, tahlil qiluvchi va qaror qabul qilish uchun asos bo‘luvchi yaxlit axborot ekotizimidir. Bunday tizimning joriy etilishi ta’lim sifatini baholashda korrupsiya va tanish-bilishchilik omillarini keskin kamaytirib, haqiqiy holatni (real manzara) ko‘rsatib berish imkonini yaratadi [13].

Ushbu maqolaning dolzarbligi shundaki, hozirgi kunda Oliy ta’lim tizimida HEMIS kabi raqamli tizimlar muvaffaqiyatli ishlayotgan bo‘lsa-da, o‘rta bo‘g‘in bo‘lgan texnikumlarda bu jarayon o‘ziga xos qiyinchiliklar va metodologik bo‘shliqlar bilan kechmoqda. Kasbiy ta’limning o‘ziga xos xususiyati shundaki, u yerda nafaqat nazariy bilim, balki amaliy ko‘nikmalar monitoringi ham muhim. Amaliyot jarayonlarini, ustaxonadagi faoliyatni raqamli nazorat qilish metodikasi yetarli darajada ishlab chiqilmagan.

Tadqiqotning maqsadi kasbiy ta’lim tashkilotlarida ta’lim sifatini oshirish vositasi sifatida raqamli monitoring tizimining nazariy va amaliy ahamiyatini asoslashdan iborat. Maqolada biz an’anaviy va raqamli nazorat turlarini qiyosiy tahlil qilamiz, raqamli monitoringning asosiy funksiyalari va tamoyillarini ko‘rib chiqamiz. Shuningdek, xorijiy tajribalarga tayangan holda, O‘zbekiston texnikumlari uchun samarali monitoring modellarini taklif etamiz. Asosiy e’tibor ma’lumotlar tahlili (Data Analytics) qanday qilib ta’lim mazmunini yaxshilashga va bitiruvchilarning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qilishini yoritishga qaratiladi. Zero, o‘lchab bo‘lmaydigan narsani boshqarib bo‘lmaydi, raqamli monitoring esa bizga ta’lim sifatini aniq raqamlar va faktlar asosida o‘lchash imkonini beradi.

Adabiyotlar sharhi. Kasbiy ta’lim tizimida sifatni boshqarish va pedagogik monitoringni tashkil etish muammosi uzoq yillardan beri jahon pedagogik hamjamiyati diqqat markazida bo‘lib kelmoqda. “Monitoring” tushunchasining o‘zi dastlab texnika va ekologiya sohalaridan ta’limga kirib kelgan bo‘lib, u oddiy nazoratdan farqli o‘laroq, jarayonni uzluksiz kuzatish, tashxis qo‘yish va prognozlash funksiyalarini bajarishi bilan ajralib turadi. Mavzuga oid ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, raqamli monitoring tizimlarining joriy etilishi ta’lim menejmentidagi yangi paradigma – “Ma’lumotlarga asoslangan boshqaruv” (Data-Driven Management) nazariyasiga asoslanadi.

G‘arb olimlaridan Edvard Sallis o‘zining “Ta’limda sifatni to‘liq boshqarish” (Total Quality Management in Education) nomli klassik asarida ta’lim muassasasi faoliyatini monitoring qilishda obyektivlik va shaffoflik birlamchi ekanligini ta’kidlaydi. Uning fikricha,

an'anaviy boshqaruv usullari ko'pincha sezgi va taxminlarga tayanadi, sifatli monitoring esa aniq o'lchanadigan indikatorlarga asoslanishi shart [12].

OECD (Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti) ekspertlari tomonidan chop etilgan tahliliy ma'ruzalarda raqamli texnologiyalar yordamida o'quvchilarning akademik o'zlashtirishini kuzatish nafaqat baholash vositasi, balki ta'lim siyosatini belgilovchi strategik resurs ekanligi qayd etilgan. Xususan, J.Xetti va X.Timperley kabi tadqiqotchilar "Fidbek" (qayta aloqa) nazariyasini ilgari surib, raqamli monitoring tizimlari o'qituvchi va o'quvchiga o'z vaqtida, tezkor va aniq qayta aloqa berish imkonini yaratishi orqali ta'lim samaradorligini 20-30 foizga oshirishini empirik isbotlaganlar [11].

MDH hududida pedagogik monitoring va ta'lim sifatini baholash muammolari bo'yicha V.A.Kalney, S.E.Shishov va A.N.Mayorova kabi olimlarning fundamental ishlari mavjud. Ularning tadqiqotlarida "pedagogik monitoring" ta'lim tizimining holati haqida axborot yig'ish, saqlash, qayta ishlash va tarqatish tizimi sifatida ta'riflanadi. A.N.Mayorov o'zining "Ta'limda monitoring" asarida an'anaviy qog'oz shaklidagi monitoringning asosiy kamchiligi sifatida axborotning kechikishi va "tahrirlanishi" (ya'ni, past ko'rsatkichlarni yashirishga urinish) xavfini ko'rsatadi [14].

Raqamlashtirish esa inson omilini minimallashtirish orqali bu xavflarni bartaraf etadi. Rossiyalik yana bir olim I.V.Robert axborotlashgan ta'lim muhitida monitoringni tashkil etishning didaktik talablarini ishlab chiqqan bo'lib, u monitoringni nafaqat ma'muriy vosita, balki o'quvchini rivojlantiruvchi omil sifatida baholaydi [15].

O'zbekistonlik olimlarning ilmiy izlanishlarida ham kasbiy ta'limni boshqarish va monitoring qilish masalalari salmoqli o'rin egallaydi. O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi R.H.Djurayev ta'lim menejmenti va boshqaruv samaradorligini oshirish bo'yicha olib borgan tadqiqotlarida rahbarlik faoliyatida axborot tahlili muhimligini asoslab bergan. Uning ta'kidlashicha, zamonaviy kasb-hunar maktabi yoki texnikum direktori qaror qabul qilishda his-tuyg'ularga emas, balki monitoring natijasida olingan real raqamlarga tayanishi lozim [4].

Professor U.I.Inoyatov va N.A.Muslimovlarning kasbiy pedagogikaga oid ishlarida bo'lajak mutaxassislarni tayyorlash sifatini nazorat qilishning mazmuniy jihatlari yoritilgan. U.I.Inoyatov kasbiy ta'limda sifat monitoringi nafaqat bilimni, balki kasbiy kompetensiyalarni (amaliy ko'nikmalarni) qamrab olishi kerakligini uqtiradi. Biroq, ushbu olimlarning aksariyat ishlari an'anaviy boshqaruv davrida yoki raqamlashtirishning ilk bosqichlarida yozilganligi sababli, ularda sun'iy intellekt va bulutli texnologiyalarga asoslangan avtomatlashtirilgan monitoring tizimlari (masalan, HEMIS analoglari) texnikumlar misolida yetarlicha ochib berilmagan [5].

Keyingi yillarda O'zbekistonda raqamli ta'lim texnologiyalari bo'yicha A.A.Abduqodirov, N.I.Taylakov va U.Sh.Begimkulov kabi olimlar samarali izlanishlar olib bormoqdalar. N.I.Taylakov o'z ishlarida uzluksiz ta'lim tizimida elektron axborot muhitini yaratish va uning pedagogik imkoniyatlarini tadqiq etgan. Uning fikricha, raqamli monitoring tizimi "o'quvchi – o'qituvchi – ma'muriyat – ota-ona" zanjirini bog'lovchi yagona axborot makoni bo'lishi kerak [3,9].

Sh.Q.Mardonov esa pedagogik ta'limda o'qituvchi faoliyatini baholashning reyting tizimini takomillashtirish masalalarini o'rgangan. Uning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, pedagog faoliyatini raqamli monitoring qilish (KPI tizimi) o'qituvchining o'z ustida ishlashga bo'lgan motivatsiyasini oshiradi [6].

Biroq, mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, oliy ta'lim tizimida monitoring va sifatni boshqarish masalalari nisbatan keng yoritilgan bo'lsa-da, o'rta bo'g'in kasbiy ta'lim (texnikum va kollejlar) tizimida raqamli monitoringni joriy etishning o'ziga xos xususiyatlari kam o'rganilgan. Vaholanki, texnikum kontingenti (o'smir yoshlar) va o'quv jarayoni (ko'proq

amaliyotga yo‘naltirilganlik) oliy ta’limdan farq qiladi. Masalan, D.I.Ruziyev va O.A.Qo‘ysinovlarning ishlarida kasbiy ta’lim metodikasi masalalari ko‘rilgan bo‘lsa-da, ustaxona va ishlab chiqarish amaliyoti jarayonini raqamli monitoring qilish (masalan, GPS yoki videokuzatuv tahlili orqali) mexanizmlari bo‘yicha ilmiy yondashuvlar yetarli emas. Shuningdek, xorijiy tajribada keng qo‘llaniladigan “Learning Analytics” (Ta’lim tahlili) va “Educational Data Mining” (Ta’lim ma’lumotlarini intellektual tahlil qilish) yo‘nalishlari O‘zbekiston kasbiy ta’limi kontekstida endigina rivojlanish bosqichiga qadam qo‘ymoqda [7,8].

Ilmiy adabiyotlar sharhi shuni tasdiqlaydiki, raqamli monitoring – bu davr talabi va ta’lim sifatini kafolatlashning eng samarali vositasidir. Mavjud nazariy bazaga tayangan holda, ushbu maqolada biz umumiy pedagogik monitoring tamoyillarini texnikumlarning o‘ziga xos raqamli muhitiga moslashtirish, amaliyotga yo‘naltirilgan “Smart-monitoring” modellarini ishlab chiqish masalalarini tadqiq etishni maqsad qildik. Bu esa sohada mavjud bo‘lgan ilmiy bo‘shliqni to‘ldirishga xizmat qiladi.

Asosiy qism. Kasbiy ta’lim tashkilotlarida, xususan texnikumlarda raqamli monitoring tizimini joriy etish va uning samaradorligini ta’minlash murakkab, ko‘p qirrali jarayon hisoblanadi. Ushbu tizimning asosiy vazifasi nafaqat nazorat qilish, balki ta’lim jarayonidagi bo‘shliqlarni o‘z vaqtida aniqlash va ularni bartaraf etish uchun ilmiy asoslangan yechimlarni taklif etishdan iboratdir. Zamonaviy yondashuvga ko‘ra, raqamli monitoring uchta asosiy yo‘nalishni integratsiya qilishi lozim: o‘quv jarayoni monitoringi, pedagog xodimlar faoliyati samaradorligi monitoringi (KPI) hamda bitiruvchilarning bandlik monitoringi. Bu uchala yo‘nalishning yagona raqamli platformada birlashishi ta’lim sifatini boshqarishning yaxlit ekotizimini hosil qiladi.

Avvalo, o‘quv jarayoni monitoringining raqamlashtirilishi an’anaviy byurokratiyani qisqartirish va obyektivlikni ta’minlashga xizmat qiladi. Texnikumlarda joriy etilayotgan elektron jurnallar, Face-ID orqali davomatni qayd etish tizimlari va onlayn o‘zlashtirish platformalari inson omilini minimallashtiradi. Masalan, an’anaviy tizimda o‘qituvchi dars oxirida jurnalni to‘ldirishni unutishi yoki baholarni subyektiv yondashuv asosida o‘zgartirishi mumkin edi. Raqamli monitoring tizimida esa har bir baho, darsga qatnashish vaqti va topshiriqlarni bajarish muddati serverlarda “raqamli iz” (digital footprint) sifatida saqlanib qoladi. Bu ma’lumotlarni o‘zgartirish yoki soxtalashtirish imkoniyati cheklanganligi sababli, o‘quvchilar va ota-onalarda baholash tizimiga nisbatan ishonch ortadi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, baholash shaffofligi ta’minlangan guruhlarda o‘quvchilarning o‘zlashtirish ko‘rsatkichi o‘rtacha 15-20 foizga oshadi, chunki ular baho “tanish-bilishchilik” orqali emas, faqat bilim orqali olinishini anglab yetadilar.

Raqamli monitoringning yana bir muhim jihati – bu pedagog xodimlar faoliyatini baholashning KPI (Key Performance Indicators – Asosiy samaradorlik ko‘rsatkichlari) tizimiga o‘tishidir. Ilgari o‘qituvchining faoliyati asosan o‘tilgan dars soatlari va qog‘ozdagi hisobotlar bilan o‘lchanardi. Raqamli tizim esa o‘qituvchini kompleks baholash imkonini beradi. Tizim avtomatik ravishda o‘qituvchining ilmiy faolligi (maqolalar, metodik qo‘llanmalar), o‘quvchilarining o‘zlashtirish darajasi, yaratgan elektron resurslari va darslarga tayyorgarlik darajasini (platformaga yuklangan materiallar asosida) tahlil qiladi. Bu yondashuv pedagoglar o‘rtasida sog‘lom raqobat muhitini shakllantiradi. Masalan, reyting tizimida yuqori o‘rinni egallagan o‘qituvchilarni moddiy rag‘batlantirish mexanizmining shaffof ishlashi kadrlarni o‘z ustida ishlashga undaydi. Natijada, texnikumda o‘z ishiga sovuqqonlik bilan qaraydigan va tashabbuskor pedagoglar o‘rtasidagi farq yaqqol namoyon bo‘ladi, bu esa ma’muriyatga kadrlar siyosatini to‘g‘ri yuritishda yordam beradi.

Kasbiy ta’limning o‘ziga xosligi shundaki, bu yerda asosiy e’tibor amaliy ko‘nikmalarga qaratiladi. Shu sababli, raqamli monitoring tizimi nafaqat nazariy bilimlarni, balki amaliy

mashg'ulotlar va ishlab chiqarish amaliyotini ham qamrab olishi shart. Hozirgi kunda rivojlangan davlatlarda qo'llanilayotgan "E-Portfolio" tizimi o'quvchining amaliyot davomida bajargan ishlari (masalan, chizmalar, yig'ilgan sxemalar, ta'mirlangan detallar) foto va video hisobotlarini yagona bazaga yuklashni nazarda tutadi. Sun'iy intellekt elementlari yordamida bu ishlar tahlil qilinadi va o'quvchining kompetensiya darajasi aniqlanadi. Shuningdek, GPS-treking va mobil ilovalar orqali o'quvchining ishlab chiqarish korxonasida bo'lgan vaqti va u yerda biriktirilgan mentor (usta) tomonidan berilgan elektron bahosi real vaqt rejimida texnikum bazasiga kelib tushadi. Bu esa amaliyotning qog'ozda qolib ketishining oldini oladi va o'quvchining real kasbiy ko'nikmalarga ega bo'lishini kafolatlaydi.

Ta'lim sifatini boshqarishda ma'lumotlar tahlili (Data Analytics) hal qiluvchi rol o'ynaydi. Raqamli monitoring tizimi yig'ilgan katta hajmdagi ma'lumotlarni (Big Data) tahlil qilib, ta'lim muassasasi rahbariyatiga strategik qarorlar qabul qilish uchun asos bo'luvchi hisobotlarni taqdim etadi. Masalan, tahlil natijasida ma'lum bir fandan o'zlashtirish ko'rsatkichi butun texnikum bo'yicha keskin pasayib ketgani aniqlansa, bu o'sha fan bo'yicha o'quv dasturining murakkabligi yoki o'qitish metodikasining eskirganligidan darak beradi. Yoki aksincha, ma'lum bir guruhda davomatning yomonlashuvi ijtimoiy muhitdagi muammolarni ko'rsatishi mumkin. Raqamli monitoring tizimi bunday "ogohlantiruvchi signallarni" (early warning signals) o'z vaqtida berish orqali muammolar chuqurlashib ketmasdan oldin profilaktik choralar ko'rish imkonini beradi.

Shu bilan birga, raqamli monitoring bitiruvchilarning ishga joylashish ko'rsatkichlarini kuzatishda eng samarali vositadir. Soliq qo'mitasi va Bandlik vazirligining ma'lumotlar bazalari bilan integratsiya qilingan ta'lim platformasi bitiruvchining diplom olgandan so'ng qayerda ishlayotgani, o'z mutaxassisligi bo'yicha faoliyat yurityaptimi yoki yo'qmi, degan savolga aniq javob beradi. Agar texnikumning ma'lum bir yo'nalishini bitirganlarning 70-80 foizi ishsiz bo'lsa yoki boshqa sohada ishlayotgan bo'lsa, bu o'sha yo'nalishdagi ta'lim sifatining pastligi yoki mehnat bozori talablariga mos emasligini anglatadi. Bu esa o'quv rejalarni qayta ko'rib chiqish yoki qabul kvotalarini o'zgartirish uchun asos bo'ladi. Demak, raqamli monitoring ta'lim muassasasi va mehnat bozori o'rtasidagi teskari aloqani (feedback loop) ta'minlaydi.

Lekin shuni unutmaslik kerakki, raqamli monitoring tizimi faqatgina texnik vosita bo'lib, u to'g'ri tashkil etilmasa, kutilgan natijani bermasligi mumkin. Tizimning muvaffaqiyati nafaqat dasturiy ta'minotga, balki undan foydalanuvchilarning – o'qituvchilar va ma'muriyatning raqamli savodxonligiga bog'liq. Agar o'qituvchi tizimga noto'g'ri ma'lumot kiritsa yoki tahlil natijalarini to'g'ri interpretatsiya qila olmasa, monitoring samarasi yo'qoladi. Shu bois, raqamli monitoringni joriy etish bilan parallel ravishda pedagog xodimlarning malakasini oshirish, ularda "ma'lumotlar madaniyati"ni (data culture) shakllantirish zarur. Shuningdek, monitoring jarayonida shaxsga doir ma'lumotlarning maxfiyligini ta'minlash va kiberxavfsizlik choralarini ko'rish ham dolzarb masaladir.

Xulosa va tavsiyalar. Xulosa qilib aytganda, raqamli monitoring tizimi kasbiy ta'lim tashkilotlarida ta'lim sifatini oshirishning strategik mexanizmi hisoblanadi. U boshqaruv jarayonini shaffoflashtiradi, resurslardan oqilona foydalanish imkonini beradi va eng muhimi, ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilarini natijaga yo'naltiradi. An'anaviy nazoratdan farqli o'laroq, raqamli monitoring jazolashga emas, balki rivojlanishga xizmat qiladi, muammolarni yashirishga emas, ularni aniqlash va yechishga yordam beradi.

Kasbiy ta'lim tashkilotlarida raqamli monitoring tizimini joriy etishning ilmiy-nazariy va amaliy jihatlarini o'rganish natijasida quyidagi xulosalar shakllantirildi:

1. Obyektivlik kafolati: Raqamli monitoring an'anaviy nazorat shakllariga xos bo'lgan subyektivlik va inson omilini minimallashtiradi. Ma'lumotlarning avtomatik yig'ilishi va tahlil

qilinishi (Data Analytics) ta'lim sifati haqida haqiqiy manzarani ko'rish, yashirin muammolarni aniqlash imkonini beradi.

2. Boshqaruv samaradorligi: Tizim "Ma'lumotlarga asoslangan boshqaruv" (Data-Driven Management) tamoyilini amaliyotga tatbiq etish orqali texnikum rahbarlariga strategik qarorlarni tezkor va asosli qabul qilishga yordam beradi. Bu esa resurslarni to'g'ri taqsimlash va ta'lim samarasini oshirishga xizmat qiladi.

3. Rag'batlantirish mexanizmi: KPI tizimining raqamlashtirilishi pedagog xodimlar o'rtasida sog'lom raqobat muhitini yaratadi, ularni o'z ustida ishlashga va zamonaviy texnologiyalarni o'zlashtirishga undaydi.

4. Mehnat bozori integratsiyasi: Raqamli monitoring bitiruvchilarning ishga joylashish ko'rsatkichlarini real vaqt rejimida kuzatish orqali ta'lim muassasasi va ish beruvchilar o'rtasidagi aloqani mustahkamlaydi, kadrlarni tayyorlash sifatini bozor talablariga moslashtirish imkonini beradi.

O'tkazilgan tadqiqotlar asosida O'zbekiston kasbiy ta'lim tizimida raqamli monitoring samaradorligini oshirish bo'yicha quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

- Yagona ekotizimni yaratish: Turli xil tarqoq dasturlardan voz kechib, "O'quvchi – Pedagog – Ma'muriyat – Ish beruvchi" zanjirini birlashtiruvchi, HEMIS tizimiga integratsiya qilingan maxsus "Kasbiy ta'lim yagona monitoring platformasi"ni to'liq ishga tushirish.
- Amaliyot monitoringini raqamlashtirish: Ishlab chiqarish amaliyoti jarayonini nazorat qilish uchun geolokatsiya va fotohisobot funksiyalariga ega mobil ilovalarni joriy etish hamda "Elektron portfolio" tizimini ommalashtirish.
- Tahliliy kompetensiyani rivojlantirish: Texnikum rahbarlari va pedagoglari uchun monitoring natijalarini to'g'ri o'qish, tahlil qilish va shunga asoslanib faoliyatni rejalashtirish bo'yicha maxsus treninglar tashkil etish.
- Infratuzilmani mustahkamlash: Raqamli monitoring uzluksiz ishlashi uchun barcha kasbiy ta'lim tashkilotlarini yuqori tezlikdagi internet va zamonaviy server uskunalari bilan ta'minlash.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kasbiy ta'limda malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va xalqaro ta'lim dasturlarini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-158-son Farmoni. 2024-yil 16-oktyabr.
2. Abduqodirov A.A. va boshq. Axborot texnologiyalari. – T.: Cho'lpon, 2002.
3. Begimkulov U.Sh. Pedagogik ta'lim jarayonlarini axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarish nazariyasi va amaliyoti: Ped. fan. dok. ... dis. – T.: 2007.
4. Djurayev R.H., Turg'unov S.T. Ta'lim menejmenti. – T.: Voris-nashriyot, 2006.
5. Inoyatov U.I., Muslimov N.A., Ruziyev D.I. Kasb ta'limi pedagogikasi. – T.: Iqtisod-moliya, 2012.
6. Mardonov Sh.Q. Pedagogik ta'lim tizimida ta'lim jarayonini boshqarishning ilmiy-pedagogik asoslari: Ped. fan. dok. ... dis. – T.: 2012.
7. Olimov Q.T., Qo'ysinov O.A. va boshq. Kasbiy ta'lim metodikasi. – T.: Fan va texnologiya, 2013.
8. Ruziyev D.I. Kasbiy ta'limda o'qitish vositalari va texnologiyalari. – T.: Fan, 2010.
9. Taylakov N.I. Uzluksiz ta'lim tizimi uchun o'quv adabiyotlari yangi avlodini yaratishning ilmiy-pedagogik asoslari: Ped. fan. dok. ... dis. – T.: 2006.
10. Hattie, J., & Timperley, H. The Power of Feedback. Review of Educational Research, 77(1), 81–112. 2007.
11. OECD. Reviews of Vocational Education and Training: A Skills beyond School Review of Uzbekistan. OECD Publishing, Paris.

UO'T:004:378

OLIY TA'LIMDA INFORMATIKA FANINI O'QITISHDA MOBIL TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Xakimov Murodbek Akramovich
Namangan davlat universiteti , PhD katta o'qituvchi
e-mail: murodbekhakimov2@gmail.com

Annotatsiya. Bugungi kunda zamonaviy ta'limga talab tobora ortib borayotgan davrda mobil texnologiyalari asosidagi mobil ta'limga ham ehtiyoj ortmoqda. Maqolada zamonaviy mobil qurilmalardan ta'lim jarayonida foydalangan xolda mashg'ulotni qiziqarli tarzda olib borishga qaratilgan. Maqolada mobil ta'lim har joyda va har qanday sharoitda ham qulay bo'lib, ta'lim oluvchilar mobil qurilmalardan behuda emas, balki ta'lim olishda foydalanishi, bunda mobil ilovalar hamda qo'l kelishi haqida fikrlar bayon qilingan.

Аннотация. Сегодня, поскольку спрос на современное образование продолжает расти, растет и потребность в мобильном образовании, основанном на мобильных технологиях. В статье рассматривается вопрос о том, как сделать обучение интересным за счет использования современных мобильных устройств в образовательном процессе. В статье обсуждается идея о том, что мобильное обучение удобно в любом месте и в любых условиях, что учащиеся должны использовать мобильные устройства не просто так, а для обучения, и что мобильные приложения и инструменты полезны в этом отношении.

Abstract. Today, in an era where the demand for modern education is increasing, the need for mobile education based on mobile technologies is also increasing. The article focuses on making learning interesting by using modern mobile devices in the educational process. The article presents ideas on how mobile education is convenient everywhere and in any conditions, and how learners can use mobile devices not for nothing, but for learning, and mobile applications and their usefulness.

Kalit so`zlar : mobil texnologiya, m-learning, mobil ta'lim, mobil texnologiya turlari, LMS, mobil qurilma, mobil ilova.

Ключевые слова: мобильные технологии, мобильное обучение, мобильное образование, типы мобильных технологий, система управления обучением, мобильное устройство, мобильное приложение.

Keywords: mobile technology, m-learning, mobile education, types of mobile technology, LMS, mobile device, mobile application.

Kirish. Zamonaviy bilim va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish, ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etish - davlat siyosatining ustuvor vasifalaridan biri ekanligini belgilandi. Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida ham zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ta'lim texnologiyalarining mustahkam integratsiyasini ta'minlash, ta'lim jarayonlarini raqamli va mobil texnologiyalar asosida tashkil etish, masofaviy ta'lim xizmatlarini rivojlantirish, vebinar, onlayn, "blended learning", "flipped classroom" texnologiyalarini amaliyotga keng joriy etish, zamonaviy mobil texnologiyalar asosida masofaviy ta'lim dasturlarini tashkil etish, mobil qurilmalar yordamida masofadan turib foydalanish imkonini beruvchi o'quv platformalari yaratish, mobil texnologiyalardan foydalanish orqali talabalar va o'qituvchilar uchun ta'lim jarayonini yanada moslashuvchan qilish alohida ko'rsatib o'tilgan [1].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning gi 2023-yil 26-maydagi PF-79-son farmonida "umumiy o‘rta ta'lim muassasalarining boshlang‘ich sinflarida informatika fani, o‘rta sinflarda esa o‘quvchilarning moliyaviy savodxonligini oshirishga qaratilgan darslar joriy etiladi" deyilgan [2]. Shunga muvofiq, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining 2023 yil 15 maydagi 125-sonli buyrug‘iga asosan O‘zbekiston Respublikasi maktablarida 2023-2024-o‘quv yilidan boshlab, umumiy o‘rta ta'lim maktablarining 1-sinfida "Informatika va axborot texnologiyalari" fanini o'qitish joriy qilingan [3]. Demak, bundan ko‘rinadiki bo‘lajak boshlag‘ich sinf o‘qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlash, ularni mobil qurilmalardan dars jarayonida samarali foydalana olish ko‘nikmalarini shakllantirish, zamonaviy raqamli texnologiyalardan foydalanib dars samaradorligini yanada oshirish, "Boshlang‘ich sinflarda axborot texnologiylari" fanini mobil texnologiyalar asosida o‘qitish bugungi kunning dolzarb pedagogik muammolaridan biri bo‘lib ko‘rinmoqda.

Adabiyotlar sharhi. Byuk Britaniya olimlari Sharples, Taylor, va Vavoula tomonidan 2005 yilda nashr etilgan "Towards a Theory of Mobile Learning" maqolasi mobil o‘qitish sohasida fundamental ish hisoblanadi. Ular mobil o‘qitishning nazariy asoslarini rivojlantirishga urinishgan va shu bilan o‘quv jarayonida yangi texnologiyalarning rolini tushuntirishga harakat qilishgan. Sharples va hamkasblari o‘z ishlarida mobil o‘qitishni faqat texnologiya orqali emas, balki o‘qishning kengayishi va moslashuvchan jarayon sifatida ko‘rib chiqadilar [4]. Ularning takliflari mobil texnologiyalarni o‘qitish jarayoniga integratsiya qilishda foydali bo‘lib, hozirgi zamonaviy ta'lim tizimida ularni joriy qilish uchun mustahkam poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

Mohamed Ally fikricha mobil texnologiyalarning ta'limdagi o‘rnini amaliy va interaktiv imkoniyatlarni kengaytirishda muhim o‘rin tutishini ta'kidlaydi. Mobil texnologiyalar orqali talabalarga kengaytirilgan reallik yordamida murakkab tushunchalarni real va amaliy ko‘rinishda o‘rganish imkoniyati yaratiladi. U bu texnologiyalar ta'limni istalgan joyda va vaqtda olishga moslashish, shuningdek, murakkab tushunchalarni interaktiv tarzda o‘zlashtirishga yordam beradi, deb hisoblaydi. Shu orqali talabalar tajribaga asoslangan o‘quv jarayonini boshdan kechirishi mumkin [5].

H. Crompton o‘zining "Increasing Engagement through Mobile Learning Interactivity" maqolasida mobil texnologiyalarning ta'lim jarayonidagi interaktivlikni oshirishga qaratilgan imkoniyatlarini o‘rganadi. Cromptonning fikricha, mobil texnologiyalar yordamida talabalar o‘zlariga qiziqarli va dinamik tarzda ta'lim olishlari mumkin, bu esa ularning o‘zlashtirish darajasini oshiradi. U ta'limdagi interaktivlikni kuchaytirish uchun multimedia, o‘yinlashtirish va shaxsiylashtirilgan o‘quv platformalari kabi yondashuvlarni qo‘llash muhimligini ta'kidlaydi. Bu usullar orqali talabalar faolroq bo‘lib, bilim olish jarayonida ko‘proq ishtirok etish imkoniyatiga ega bo‘ladi [6].

Gwo-Jen Hwang[7] o‘zining "Strategies for Personalizing Mobile Learning Systems" ilmiy ishida ta'limda mobil texnologiyalar yordamida shaxsiylashtirilgan o‘quv muhitlarini yaratish imkoniyatlariga to‘xtaladi. Hwang ta'lim tizimida har bir talabaning ehtiyojlariga mos o‘quv modullarini ishlab chiqish uchun moslashuvchan va individual yondashuvlar qo‘llanilishi muhimligini ta'kidlaydi.

Cheon J. va Lee S. mobil texnologiyalarni ta'limda qo‘llash bo‘yicha tadqiqotlarida interaktiv mobil ilovalar yordamida o‘quvchilarning bilim olish jarayonini qanday kuchaytirish mumkinligi haqida fikr bildiradilar. Ular mobil ilovalar orqali o‘quvchilar qiziqarli va moslashuvchan ta'lim muhitiga ega bo‘lishadi, bu esa ularni o‘qishga ko‘proq jalb qiladi va o‘zlashtirish darajasini oshirishini, talabalar mobil ilovalarda o‘z natijalari va xatolarini darhol ko‘rishini, o‘zlarini tezda tuzatish imkoniyatiga ega bo‘lishlarini va bu jarayon o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi aloqa sifatini yaxshilashini ta'kidlaydilar [8].

Novikov M, Y. o'zining dissertatsiyasida maktablarda informatika o'qitish uchun mobil texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlarini tahlil qiladi. Ural Davlat Pedagogika Universitetida himoya qilingan ushbu ishda Novikov o'quv jarayonida interaktiv va shaxsiylashtirilgan mobil texnologiyalardan foydalanish informatika fanini o'zlashtirish samaradorligini oshirishi mumkinligini ta'kidlaydi. Dissertatsiya ta'limning mobil texnologiyalarga asoslangan usullarini ishlab chiqish va sinovdan o'tkazishga qaratilgan [9].

Xanimqulov Baxrom Roxmonqulovichning "Integratsiyalashgan darslarda mobil o'qitish texnologiyalaridan foydalanish metodikasi" mavzusidagi dissertatsiyasi ta'lim jarayonida mobil texnologiyalarni joriy etish va ulardan foydalanishni o'rganishga qaratilgan. Dissertatsiyaning dolzarbligi zamonaviy ta'limda mobil texnologiyalarning keng joriy etilishi bilan bog'liq. Ta'lim tizimida texnologiyalarning rivoji va raqamli bilim olish muhim ahamiyat kasb etadi [10].

Yuqoridagi xorijiy, rus, o'zbek olim va mutafakkirlarning ilmiy izlanishlari taxlili shuni ko'rsatadiki, Oliy ta'lim tizimida o'quv mashg'ulotlarini tashkil qilishda zamonaviy mobil texnologiyalardan foydalanish, bo'lajak boshlag'ich sinf o'qituvchilarini mobil texnologiyalardan keng foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish bugungi kundagi dolzarb pedagogik muammolaridan biri bo'lib ko'rinmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. "**Mobil**" so'zi lotin tilidan kelib chiqqan bo'lib, aslida "harakatlanuvchi" yoki "ko'chuvchi" degan ma'noni anglatadi. Zamonaviy kontekstdagi "mobil" atamasi, ko'chma, harakatlanuvchi yoki ko'tarib yurishga qulay bo'lgan qurilmalarni, xususan, smartfonlar, planshetlar va boshqa simsiz ulanish imkoniga ega texnologiyalarni ifodalaydi [11].

"**Texnologiya**" so'zi yunon tilidan olingan bo'lib, ikki qismdan iborat: "tekhnē" (hunarmandlik, san'at yoki mahorat) va "logos" (bilim, ilm, nazariya). Bu so'z ilmiy bilim va amaliy ko'nikmalarni muayyan maqsadlarga erishish uchun qo'llash degan ma'noni anglatadi. Zamonaviy tushunchada texnologiya inson hayotini yaxshilash va jarayonlarni avtomatlashtirish uchun qo'llaniladigan vositalar, usullar va jarayonlar majmuasidir [12].


"**Mobil texnologiya**" so'zining lug'aviy ma'nosi ko'chma, ya'ni ko'tarib yurishga qulay bo'lgan, harakatlanish imkoniyatiga ega bo'lgan qurilmalar xisoblanadi va ular yordamida qo'llaniladigan dasturiy ta'minot majmuasi bilan bog'liqdir. Mobil texnologiyalar zamonaviy aloqa, ta'lim, va axborot olishning muhim qismlaridan biri bo'lib, foydalanuvchilarga turli xizmatlardan foydalanish imkonini beradi. Bu texnologiyalar odatda simsiz ulanish va har qanday joyda foydalanish uchun mo'ljallangan [13].

Mobil texnologiyalar asosida o'qitish — bu o'quv jarayonida mobil qurilmalar, masalan, android, ios, smartfonlar, planshetlar yoki netbuklardan foydalanish orqali bilimlarni yetkazish va o'zlashtirish usuli xisoblanadi. Bu yondashuv o'qitish jarayonini qulay va moslashuvchan qilish bilan birga, o'quvchilarning darsga qiziqishini oshirish, bilimlarni interaktiv tarzda yetkazish va nazorat qilish imkonini beradi. Mobil texnologiyalarning ta'lim sohasiga kirib kelishi va ommalashishiga bir qator omillar sabab bo'ldi. Avvalo, 2000-yillarning boshlarida internetning rivoji va mobil qurilmalarning ommalashuvi natijasida o'qitish jarayoni joy va vaqtdan qat'i nazar olib boriladigan darajada kengaydi [5]. Bundan tashqari, zamonaviy smartfonlar va planshetlarning paydo bo'lishi ta'lim jarayoniga yangi usullar va imkoniyatlar olib keldi.


COVID-19 pandemiyasi mobil texnologiyalarning ta'limda qo'llanishini tezlashtirdi. Pandemiya ta'lim jarayonida masofaviy va mobil texnologiyalarning qanchalik zarur ekanligini yaqqol ko'rsatdi. Mobil qurilmalar yordamida o'quvchilar Zoom, Google Classroom, Microsoft Teams kabi platformalarda darslarga qatnashib, bilim olishda davom etishdi. Bu davrda talaba va o'qituvchilarga vaqt va joy cheklovlarisiz ta'lim olish imkoniyati berildi [14].

Mobil texnologiyalar asosidagi o'qitish metodlariga mobil qidiruv, mobil so'rov, mobil loyihalash, web-kvest, interfaol video, podkast, mobil viktorina, to'ldirilgan xaqiqiylik, bulutli texnologiyalar kiradi.

Tahlil va natijalar. Mobil texnologiyalar asosida o'qitish bo'yicha boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalaridan so'rovnoma o'tkazildi. Bu so'rovnomada jami 83 nafar talabalar qatnashdilar. So'rovnomada mobil qurilmagiz bormi degan savolga 83 nafar talabadan 81 nafar talabalar bor deb javob berishdi 1 nafar talaba kompyuterim bor va 1 nafar talaba mobil qurilmam yo'q deb javob berdi.



Mobil qurilmangizdan foydalanish darajangizni belgilang? 1 dan 5 gacha baxolang degan savolga 83 nafar talabadan 30 nafar talabalar 5 baxoga bilaman, 32 nafar talabalar 4 bahoga bilaman, 18 nafar talabalar 3 bahoga bilaman, 3 nafar talabalar esa 1 va 2 baxoga bilaman deb javob berishdi.




Sizningcha, mobil texnologiyalar ta'lim jarayonini samarali va qiziqarli qilishga yordam beradimi? degan savolga 83 nafar talabadan 65 nafar talaba ha, juda yordam berdi deb, 17 nafar talaba ha, lekin ba'zan cheklovlar bo'ladi deb 1 nafar talaba esa unchalik yordam bermaydi deb javob berishdi. Umuman yordam bermaydi degan javobni xech kim tanlamadi.

13. Sizningcha, mobil texnologiyalar ta'lim jarayonini samarali va qiziqarli qilishga yordam beradimi?

Копировать диаграмму

83 ответа




Mobil qurilmangizdan dars mashg'ulotlarini o'zlashtirishda foydalanish imkoniyati bo'lganda foydalanarmidingiz? degan savolga 83 nafar talabadan 80 nafar talaba xa albatta foydalanar edim deb, 3 nafar talaba esa yo'q foydalanmayman deb javob berishdi.

12. Mobil qurilmangizdan dars mashg'ulotlarini o'zlashtirishda foydalanish imkoniyati bo'lganda foydalanarmidingiz?

Копировать диаграмму

83 ответа




Mobil qurilma orqali mobil texnologiyalardan qaysi fanlarda foydalanish maqulroq deb o'ylaysiz? degan savolga 83 nafar talabadan 76 nafar talaba informatika fanida foydalanish kerak degan javobni tanladi ya'ni foiz xisobida 91,6% ni tashkil qildi.


15. Mobil qurilma orqali mobil texnologiyalardan qaysi fanlarda foydalanish maqulroq deb o'ylaysiz?

Копировать диаграмму

83 ответа



Mobil qurilma orqali mobil texnologiyalardan asosida o‘qitish qanday muammolarni keltirib chiqadi? degan savolga 83 nafar talabadan 39 nafar talaba Internetga ulanishdagi muammolar deb, 35 nafar talaba chalg‘ituvchi omillar deb, 3 nafar talaba texnologik sovodxonlikning pastligi deb, 6 nafar talaba esa boshqa omillar deb javob berishdi.



Yuqoridagi fikr mulohazalar va so’rovnomadagi javoblarning taxlil qiladigan bo‘lsak, mobil texnologiyalarni ta’lim jarayoniga tadbiq qilish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri ekanligini ko‘rsatib turibdi [15].

Xulosa va takliflar. Mobil texnologiyalarni kengroq qo‘llash uchun infratuzilmani takomillashtirish va barcha o‘quvchilarni zamonaviy qurilmalardan dars jarayonida oqilona foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish kerak.

1. Shaxsiylashtirilgan va moslashuvchan ta’lim yondashuvlarini joriy qilish, o‘quvchilarning ehtiyojlarini inobatga olish zarur.
2. Pedagoglar uchun texnologiyadan foydalanish bo‘yicha amaliy treninglar o‘tkazish, ularning malakasini oshirishga alohida e’tibor qaratish lozim.
3. O‘yinlashgan ta’lim, AR/VR texnologiyalar va mobil ilovalardan foydalangan holda darslarni qiziqarli va samarali qilish zarur.
4. Ta’limda masofaviy va gibrid modellarni yanada rivojlantirish uchun raqamli platformalarni takomillashtirish lozim.

Mobil texnologiyalar va zamonaviy o‘qitish yondashuvlarini to‘g‘ri qo‘llash orqali ta’lim sifatini oshirish, talabalarni yangi bilim va ko‘nikmalar bilan qurollantirish mumkin. Bu esa ularni kelajakda zamonaviy jamiyat ehtiyojlariga moslashgan mutaxassislar sifatida tayyorlashga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son farmoni, 2019-yil 8-oktabr // https://lex.uz/ru/docs/-4545884

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2023-yil 26-maydagi PF-79-son farmoni, 2023-yil 26-may // https://lex.uz/docs/-6476175

3. Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri Xilola Umarovaning "Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun 2023-2024-o'quv yiliga mo'ljallangan tayanch o'quv rejani tasdiqlash to'g'risida"gi 2023 yil 15 maydagi 125-son buyrug'i, 2023 yil 15 may

4. Sharples M., Taylor J., Vavoula G. "Towards a Theory of Mobile Learning," mLearn Conference Proceedings, 2005. 1, 1-9.

5. Ally, M. "Augmented Reality and Mobile Learning for Practical Skills Training". Athabasca University Press, 2019.

6. Crompton, H. "Increasing Engagement through Mobile Learning Interactivity." Routledge, 2019. (pp.47-57)

7. Hwang, G. "Strategies for Personalizing Mobile Learning Systems." Educational Technology Research and Development, 2017.

8. Cheon, J., & Lee, S. "Interactive Mobile Applications in Learning." Computers & Education, 2018.

9. Новиков, М, Ю. Обучение информатике в школе на основе мобильных технологий : диссертация ... кандидата педагогических наук : 13.00.02 // Новиков Максим Юрьевич; [Место защиты: Уральский государственный педагогический университет]. - Екатеринбург, 2019. - 166 с.

10. Xanimqulov B. R. Integratsiyalashgan darslarda mobil o'qitish texnologiyalaridan foydalanish metodikasi: Chirchiq 2023. Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi 147 bet.

11. Oxford English Dictionary. (2023). Mobile. Retrieved from https://www.oed.com

12. Cambridge Dictionary. (2023). Mobile. Retrieved from https://dictionary.cambridge.org

13. Merriam-Webster Dictionary. (2023). Mobile. Retrieved from https://www.merriam-webster.com

14. Park, Y. A Pedagogical Framework for Mobile Learning: Categorizing Educational Applications of Mobile Technologies into Four Types. International Review of Research in Open and Distributed Learning, 12(2), (2011). 78-102.

15. Xakimov Murodbek Akramovich "OLIY TA'LIM TALABALARINI MOBIL TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA O'QITISH", Namangan davlat universiteti ilmiy axborotnomasi. Namangan 2024. 6-son.-B. 608-610.

UDK 377.02:371.322

KREDIT-MODUL TIZIMIDA O'QUVCHILAR MUSTAQIL TA'LIMINI TASHKIL ETISHNING INTERFAOL SHAKLLARI VA METODLARI

Otabayev Iskandar Abdug'aniyevich
Kasbiy ta'limni rivojlantirish instituti doktoranti
E-mail: iskandar0881@gmail.com,

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi kasbiy ta'lim tizimida (texnikumlarda) kredit-modul tizimini joriy etish sharoitida o'quvchilar mustaqil ta'limini tashkil etishning nazariy-metodologik asoslari tahlil qilingan. An'anaviy "bilim berish" paradigmasidan kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan "natijaga yo'naltirilgan ta'lim" (Outcome-Based Education) formatiga o'tishda mustaqil ta'limning tutgan o'rni va ahamiyati ochib berilgan. Muallif tomonidan mustaqil ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi "Teskari sinf" (Flipped Classroom), loyihaviy ta'lim (Project-Based Learning) va keys-stadi (Case study) kabi interfaol metodlar hamda ularni qo'llash mexanizmlari ilmiy asoslangan. Shuningdek, maqolada mustaqil ta'lim topshiriqlarini ishlab chiqish, ularni baholashning reyting tizimi (GPA) va akademik maslahatchilar (tyutorlar) faoliyatini yo'lga qo'yish bo'yicha ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Аннотация. В данной статье проанализированы теоретико-методологические основы организации самостоятельной работы учащихся в условиях внедрения кредитно-модульной системы в системе профессионального образования (техникумах) Республики Узбекистан. Раскрыты роль и значение самостоятельного образования при переходе от традиционной парадигмы «передачи знаний» к формату «образования, ориентированного на результат» (Outcome-Based Education), основанному на компетентностном подходе. Автором научно обоснованы такие интерактивные методы, как «Перевернутый класс» (Flipped Classroom), проектное обучение (Project-Based Learning) и кейс-стади (Case study), а также механизмы их применения для повышения эффективности самостоятельного образования. Также в статье разработаны научно-методические рекомендации по разработке заданий для самостоятельной работы, рейтинговой системе их оценки (GPA) и налаживанию деятельности академических консультантов (тьюторов).

Abstract. This article analyzes the theoretical and methodological foundations of organizing independent work of students in the conditions of introducing the credit-module system in the professional education system (technical colleges) of the Republic of Uzbekistan. The role and importance of independent education in the transition from the traditional paradigm of "knowledge transfer" to the format of "Outcome-Based Education" based on the competency-based approach are revealed. The author scientifically substantiates interactive methods such as "Flipped Classroom", Project-Based Learning, and Case study, as well as mechanisms for their application to increase the efficiency of independent education. The article also develops scientific and methodological recommendations for the development of assignments for independent work, the rating system for their assessment (GPA), and the establishment of the activities of academic advisors (tutors).

Kalit so'zlar: kasbiy ta'lim, texnikum, kredit-modul tizimi, ECTS, mustaqil ta'lim, interfaol metodlar, o'quvchi, kompetensiya, tyutor, baholash, GPA, silabus.

Ключевые слова: профессиональное образование, техникум, кредитно-модульная система, ECTS, самостоятельная работа, интерактивные методы, учащийся, компетенция, тьютор, оценка, GPA, силлабус.

Keywords: vocational education, technicum, credit-module system, ECTS, independent study, interactive methods, student, competence, tutor, assessment, GPA, syllabus.

Kirish. XXI asrning birinchi choragida jahon hamjamiyati va global iqtisodiyotda ro‘y berayotgan shiddatli evrilishlar, xususan, insoniyat sivilizatsiyasining sanoat jamiyatidan axborot jamiyatiga va bilimlar iqtisodiyotiga o‘tish jarayoni kasbiy ta'lim tizimi oldiga mutlaqo yangi, ilgari kuzatilmagan talablarni qo‘ymoqda. Tarixiy taraqqiyot shuni ko‘rsatadiki, an'anaviy ta'lim tizimi o‘zining shakllanish davrida, asosan, qat'iy mehnat taqsimotiga va standartlashtirilgan texnologiyalarga asoslangan jamiyat ehtiyojlari uchun kadrlar tayyorlashga moslashgan edi. Bu davrda ta'lim oluvchiga barchaga bir xil qolipdagi bilimlar majmuasi berilar va undan, asosan, ijrochilik mahorati talab etilar edi. Biroq, zamonaviy modernizatsiya sharoitida mehnat bozori shunchaki funksiya bajaruvchi mutaxassisni emas, balki doimiy o‘zgaruvchan vaziyatlarga moslasha oladigan, mustaqil qaror qabul qiluvchi va o‘z kasbiy rivojlanishi uchun mas'uliyatni his qiladigan mobil shaxsni talab qilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida kasbiy ta'lim tizimini isloh qilish va uni xalqaro standartlarga, xususan, Yevropa ta'lim makonida keng qo‘llaniladigan ECTS (European Credit Transfer and Accumulation System) standartlariga moslashtirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 6-sentabrdagi “Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5812-son Farmoni hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 7-dekabrdagi “Professional ta'limda kredit-modul tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 648-son qarori mazkur sohadagi islohotlarning huquqiy poydevorini mustahkamladi. Ushbu me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilanganidek, texnikumlarda o‘quv jarayonini kredit-modul tizimi asosida tashkil etish, o‘quvchilarning akademik mobilligini ta'minlash va ta'lim sifatini baholashning shaffof mexanizmlarini yaratish bugungi kunning eng dolzarb vazifasidir [1].

Kredit-modul tizimining ontologik mohiyati shundaki, u ta'lim jarayonida asosiy urg‘uni “o‘qitish” (teaching) formatidan “o‘rganish” (learning) formatiga ko‘chirishni taqozo etadi. Bunda o‘quvchi passiv tinglovchidan ta'lim jarayonining faol subyektiga aylanadi. Mazkur tizimda o‘quv yuklamasining sezilarli qismi, ya'ni umumiy kreditlarning 50-60 foizi o‘quvchining auditoriyadan tashqari mustaqil ta'limiga (Independent Learning) ajratilishi bilan an'anaviy tizimdan tubdan farq qiladi. Biroq, amaliyot tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, kasbiy ta'lim tashkilotlarida mustaqil ta'limni tashkil etishda bir qator tizimli muammolar saqlanib qolmoqda. Ko‘p hollarda mustaqil ta'lim rasmiyatchilik uchun tashkil etilib, o‘quvchilar tomonidan darsliklarni konspekt qilish yoki internet manbalaridan referat ko‘chirish darajasida qolib ketmoqda. Bu esa kredit-modul tizimining “o‘quvchini mustaqil fikrlashga va o‘z ustida ishlashga o‘rgatish” degan bosh g‘oyasiga zid keladi.

Muammoning dolzarbligi shundaki, texnikum o‘quvchilarida mustaqil ta'lim olish ko‘nikmalarining yetarli darajada shakllanmaganligi, pedagoglarda esa bu jarayonni interfaol metodlar asosida tashkil etish va boshqarish bo‘yicha metodik kompetensiyaning yetishmasligi kuzatilmoqda. An'anaviy dars o‘tish usullari o‘quvchini mustaqil izlanishga unday olmaydi. Shu bois, kredit-modul tizimi sharoitida o‘quvchilarning mustaqil ta'limini tashkil etishning didaktik ta'minotini takomillashtirish, bu jarayonga raqamli texnologiyalar va interfaol shakllarni (keys-stadi, loyiha, portfolio) integratsiya qilish hamda baholashning obyektiv mezonlarini ishlab chiqish ilmiy-pedagogik zarurat hisoblanadi [9].

Mazkur maqolaning maqsadi kasbiy ta'lim tashkilotlarida (texnikumlarda) kredit-modul tizimi sharoitida o‘quvchilar mustaqil ta'limini tashkil etishning nazariy asoslarini tahlil qilish va uning samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi interfaol shakllar hamda metodlarni ilmiy jihatdan asoslashdan iborat. Maqolada umumiy o‘rta maxsus professional ta'lim tizimining o‘ziga xos xususiyatlari, o‘quvchilarning yosh va psixofiziologik imkoniyatlari hamda mehnat

bozori talablari inobatga olingan holda, mustaqil ta'limni loyihalashning innovatsion yondashuvlari yoritiladi.

Adabiyotlar sharhi. Kredit-modul tizimini joriy etish va uning doirasida talabalar hamda o'quvchilarning mustaqil ta'limini samarali tashkil etish masalalari jahon pedagogika fanida keng ko'lamda tadqiq etilgan fundamental muammolardan biri hisoblanadi. Ushbu mavzuni o'rganishda dastlab Yevropa oliy ta'lim hududini shakllantirishga qaratilgan Bolonya jarayoni hujjatlari va ECTS (European Credit Transfer and Accumulation System) bo'yicha qo'llanmalarning tahlili muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, "ECTS Users' Guide" (2015) da kreditlarning ta'lim oluvchilarning o'quv yuklamasiga asoslanishi va bu yuklamaning katta qismi mustaqil ta'limga to'g'ri kelishi qat'iy belgilab qo'yilgan [13].

G'arb olimlaridan D.Kennedi, A.Xopkin va S.Adamlar o'z tadqiqotlarida o'quv dasturlarini "o'qitish" (teaching) modelidan "o'rganish" (learning) modeliga o'tkazish zaruriyatini ilmiy asoslab berganlar. Ularning fikricha, mustaqil ta'lim shunchaki darsdan tashqari vaqtni to'ldirish vositasi emas, balki talabada "Learning to learn" (o'rganishni o'rganish) kompetensiyasini shakllantiruvchi asosiy pedagogik jarayondir [7].

Masalan, amerikalik olim B.J.Zimmerman o'zining "Self-Regulated Learning" (O'z-o'zini boshqaruvchi ta'lim) nazariyasida mustaqil ta'limning samaradorligi o'quvchining o'z o'quv faoliyatini rejalashtirishi, monitoring qilishi va o'z-o'zini baholash ko'nikmalariga bevosita bog'liqligini isbotlagan. Uning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, kredit-modul tizimida muvaffaqiyatga erishish uchun o'quvchi passiv qabul qiluvchidan faol tadqiqotchiga aylanishi zarur, buning uchun esa pedagogik dizayn tubdan o'zgarishi kerak [8].

MDH davlatlari olimlari, xususan, rossiyalik tadqiqotchilar V.I.Baydenko, B.A.Sazonov va A.A.Verbitskiylar kredit-modul tizimini postsovet ta'lim makoniga adaptatsiya qilishning nazariy-metodologik muammolarini chuqur o'rganganlar. V.I.Baydenko o'z ishlarida kompetensiyaviy yondashuv va kredit tizimining o'zaro aloqadorligini tahlil qilib, mustaqil ta'limni kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishning asosiy maydoni sifatida e'tirof etadi [11].

A.A.Verbitskiy esa "Kontekstli ta'lim" nazariyasi orqali kasbiy ta'limda mustaqil ishlarni bo'lajak kasbiy faoliyat modellariga yaqinlashtirish g'oyasini ilgari suradi. Uning fikricha, an'anaviy referat yozish yoki matnni yodlash kabi mustaqil ish shakllari o'z dolzarbligini yo'qotgan bo'lib, ularning o'rnini kvazi-professional faoliyat turlari egallashi lozim. Shuningdek, I.A.Zimnyaya mustaqil ishni o'quv faoliyatining eng yuqori shakli sifatida baholab, uning psixologik aspektlariga, xususan, ichki motivatsiyaning rolini oshirish masalalariga alohida e'tibor qaratgan. Ushbu olimlarning xulosalari shundan dalolat beradiki, kredit-modul tizimi shunchaki baholashning balli tizimi emas, balki ta'lim jarayonini tashkil etishning yangi falsafasidir, bunda o'qituvchi – axborot manbai emas, balki ta'lim jarayoni menejeri va konsultantiga aylanadi [12].

O'zbekistonlik olimlar tomonidan ham so'nggi yillarda kasbiy ta'lim tizimini modernizatsiyalash, kredit-modul tizimini joriy etish va mustaqil ta'limni tashkil etish bo'yicha salmoqli ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Jumladan, pedagogika fanlari doktorlari, professorlar N.A.Muslimov, Q.T.Olimov, U.I.Inoyatov, Z.K.Ismailova va D.O.Ximmataliyevlarning ilmiy ishlarida bo'lajak mutaxassislarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishda mustaqil ta'limning o'rni, elektron ta'lim resurslaridan foydalanish va modulli o'qitish texnologiyalari keng yoritilgan.

N.A.Muslimov kasb ta'limi o'qituvchilarini tayyorlashda mustaqil ta'limni loyihalashtirishning texnologik yondashuvlarini ishlab chiqqan bo'lsa, Sh.S.Sharipov o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda mustaqil ishlarning ahamiyatiga urg'u beradi [2,5].

O.A.Qo‘ysinov va B.X.Raximov kabi olimlar esa kasbiy ta’lim mazmunini standartlashtirish va o‘quv jarayonini kredit-modul tizimi talablari asosida tashkil etishning normativ-huquqiy va metodik jihatlarini tadqiq etganlar. Ayniqsa, so‘nggi yillarda amalga oshirilgan tadqiqotlarda kasbiy ta’lim tashkilotlarida kredit-modul tizimini joriy etish texnologiyasi, o‘quv yuklamalarini taqsimlash va mustaqil ta’limni boshqarish mexanizmlari tizimli tahlil qilingan [9,10].

Biroq, mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, aksariyat tadqiqotlar oliy ta’lim tizimiga qaratilgan bo‘lib, o‘rta bo‘g‘in professional ta’limi – texnikumlar va kollejlar sharoitida kredit-modul tizimini qo‘llashning o‘ziga xos xususiyatlari yetarlicha yoritilmagan. Oliy ta’lim talabasi bilan texnikum o‘quvchisi o‘rtasida yosh psixologiyasi, tayyorgarlik darajasi va kasbiy motivatsiya nuqtai nazaridan jiddiy farqlar mavjud. Texnikum o‘quvchilari uchun mustaqil ta’limni tashkil etishda ko‘proq amaliy yo‘naltirilganlik, vizuallik va pedagogik qo‘llab-quvvatlash (skaffolding) talab etiladi. Bundan tashqari, adabiyotlarda mustaqil ta’limni tashkil etishning interfaol metodlari va raqamli texnologiyalar integratsiyasi masalalari umumiy tarzda bayon etilgan bo‘lib, aniq fanlar va kasbiy modullar kesimida ularni qo‘llashning metodik algoritmlari to‘liq ishlab chiqilmagan. Ko‘plab manbalarda “mustaqil ish” va “mustaqil ta’lim” tushunchalari aynanlashtiriladi, vaholanki, kredit-modul tizimida mustaqil ta’lim (Independent Learning) – bu o‘quv rejasi va sillabusda belgilangan, o‘qituvchi rahbarligida, lekin uning bevosita ishtirokisiz amalga oshiriladigan, aniq natijaga yo‘naltirilgan tizimli faoliyatdir. Shu bois, texnikumlarda o‘quvchilarning mustaqil ta’limini tashkil etishning innovatsion shakllari, xususan, “Teskari sinf”, keys-stadi va loyihaviy ta’lim metodlarini raqamli platformalar (LMS) imkoniyatlari bilan uyg‘unlashtirish mexanizmlarini ilmiy asoslash dolzarb masala bo‘lib qolmoqda. Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, mustaqil ta’lim samaradorligini oshirish uchun uni shunchaki nazorat qilish emas, balki rag‘batlantirish, to‘g‘ri yo‘naltirish va akademik maslahat (tyutorlik) tizimi orqali qo‘llab-quvvatlash zarur.

4. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – T.: TDPU, 2006. – 160 b.
5. Inoyatov U.I., Muslimov N.A., Ruziyev D.I. Kasb ta'limi pedagogikasi. – T.: Iqtisod-moliya, 2012.
6. Isyanov R.G'., Rustamov K.J. Kasbiy ta'lim metodikasi. O'quv qo'llanma. – T.: Tafakkur qanoti, 2020.
7. Muslimov N.A. Kasb ta'limi o'qituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariy-metodik asoslari: Ped. fan. dok. ... dis. – T.: 2007. – 315 b.
8. Olimov Q.T. Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi. – T.: Fan, 2011.
9. Sharipov Sh.S. O'quvchilar kasbiy ijodkorligi uzviyligini ta'minlashning nazariyasi va amaliyoti. – T.: Fan, 2012.
10. Батышев С.Я. Профессиональная педагогика: Учебник для студентов, обучающихся по педагогическим специальностям и направлениям. – М.: Ассоциация «Профессиональное образование», 2010. – 456 с.

11. Кларин М.В. Инновации в мировой педагогике: обучение на основе исследования, игры и дискуссии. – Рига: НПЦ «Эксперимент», 1995. – 176 с.
12. Новиков А.М. Методология учебной деятельности. – М.: Эгвес, 2005. – 176 с.
13. Селевко Г.К. Энциклопедия образовательных технологий: В 2 т. – М.: НИИ школьных технологий, 2006.

Сластенин В.А., Исаев И.Ф., Шиянов Е.Н. Педагогика: Учеб. пособие для студ. высш. пед. учеб. заведений. – М.: Издательский центр «Академия», 2013. – 576 с.

UO'T:378.4:37.014

PEDAGOGIK MAHORAT MARKAZLARIDA SAMARALI BOSHQARUVNI TASHKIL ETISH YO'LLARI

Oripova Nozima Shuhratovna,
Qashqadaryo viloyati
pedagogik mahorat markazi direktori

Annotatsiya. Mazkur maqolada pedagogik mahorat markazlarida samarali boshqaruvni tashkil etishning nazariy va amaliy jihatlari yoritilgan. Ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar sharoitida pedagog kadrlar malakasini oshirishda pedagogik mahorat markazlarining o'rni va ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, zamonaviy boshqaruv yondashuvlari, strategik rejalashtirish, innovatsion boshqaruv texnologiyalari hamda rahbar kompetensiyalarini rivojlantirish masalalari ko'rib chiqilgan. Tadqiqot natijalari pedagogik mahorat markazlarida boshqaruv samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Аннотация. В данной статье раскрываются теоретические и практические аспекты организации эффективного управления в центрах педагогического мастерства. В условиях проводимых реформ в системе образования проанализирована роль и значение центров педагогического мастерства в повышении квалификации педагогических кадров. Также рассмотрены современные подходы к управлению, стратегическое планирование, инновационные управленческие технологии и вопросы развития управленческих компетенций руководителей. Результаты исследования направлены на повышение эффективности управления в центрах педагогического мастерства.

Abstract. This article highlights the theoretical and practical aspects of organizing effective management in pedagogical mastery centers. In the context of ongoing reforms in the education system, the role and significance of pedagogical mastery centers in improving the professional development of teaching staff are analyzed. In addition, modern management approaches, strategic planning, innovative management technologies, and issues related to the development of leadership competencies are examined. The research findings contribute to enhancing management efficiency in pedagogical mastery centers.

Kalit so'zlar: pedagogik mahorat markazi, boshqaruv, samarali boshqaruv, ta'lim muassasasi, rahbar kompetensiyasi, innovatsion boshqaruv.

Ключевые слова: центр педагогического мастерства, управление, эффективное управление, образовательное учреждение, управленческая компетенция руководителя, инновационное управление.

Keywords: pedagogical mastery center, management, effective management, educational institution, leadership competence, innovative management.

Kirish. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini tubdan isloh qilish, pedagog kadrlarning kasbiy mahoratini oshirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu jarayonda pedagogik mahorat markazlari pedagoglarning kasbiy rivojlanishini ta'minlovchi muhim institut sifatida faoliyat yuritmoqda. Mazkur markazlar faoliyatining samaradorligi esa, avvalo, ularda yo'lga qo'yilgan boshqaruv tizimining qay darajada mukammalligiga bog'liq. Zamonaviy ta'lim muassasalarida boshqaruv faqat ma'muriy nazorat bilan cheklanmay, balki strategik fikrlash, innovatsion yondashuv, inson resurslarini rivojlantirish va sifat menejmentini o'z ichiga oladi. Shu bois pedagogik mahorat markazlarida samarali boshqaruvni tashkil etish masalasi dolzarb ilmiy-amaliy muammo sifatida namoyon bo'lmoqda.

Asosiy qism. Pedagogik mahorat markazlarining ta'lim tizimidagi o'rni. Pedagogik mahorat markazlari pedagog kadrlarning malakasini oshirish, qayta tayyorlash va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ular zamonaviy pedagogik texnologiyalarni

joriy etish, ilg‘or tajribalarni ommalashtirish hamda uzluksiz ta’limni ta’minlash vazifalarini bajaradi.

Mazkur markazlarning samarali faoliyat yuritishi quyidagi omillarga bog‘liq:

Birinchidan, **aniq maqsad va vazifalarning belgilanganligi** pedagogik mahorat markazlari faoliyatining strategik yo‘nalishini belgilab beradi. Maqsad va vazifalar aniq, o‘lchab bo‘ladigan hamda ta’lim tizimi ehtiyojlariga mos holda belgilangan taqdirda markaz faoliyati reja asosida va maqsadga yo‘naltirilgan tarzda amalga oshiriladi. Bu esa bajarilayotgan o‘quv-uslubiy ishlarning izchilligi va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Ikkinchidan, **boshqaruvning tizimli va uzviy tashkil etilganligi** markaz faoliyatida muhim ahamiyatga ega. Bunda rejalashtirish, tashkil etish, muvofiqlashtirish va nazorat funksiyalarining o‘zaro uyg‘unligi ta’minlanishi lozim. Tizimli boshqaruv faoliyat jarayonida tartib-intizomni mustahkamlash, ichki muammolarni o‘z vaqtida aniqlash va ularni bartaraf etish imkonini beradi. Shuningdek, boshqaruv jarayonining uzviyligi barcha bo‘lim va xodimlar faoliyatining yagona maqsadga yo‘naltirilishini ta’minlaydi.

Uchinchidan, **pedagogik va boshqaruv kadrlarining malakasi** pedagogik mahorat markazlari faoliyatining sifat ko‘rsatkichlarini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Yuqori malakali trenerlar, metodistlar va rahbar kadrlar mavjud bo‘lgan taqdirdagina markaz tomonidan ko‘rsatilayotgan ta’lim xizmatlari zamonaviy talablar darajasida tashkil etiladi. Ularning kasbiy bilimlari, pedagogik tajribasi hamda boshqaruv kompetensiyalari markaz faoliyatining samaradorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Moddiy-texnik va axborot bazasining yetarliligi pedagogik mahorat markazlarining zamonaviy talablarga mos faoliyat yuritishini ta’minlaydi. Zamonaviy o‘quv xonalari, texnik vositalar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, elektron ta’lim platformalari va metodik resurslar markaz faoliyatining sifatini oshiradi. Kuchli axborot bazasi pedagoglarning mustaqil ta’lim olish imkoniyatlarini kengaytirib, o‘quv jarayonining samaradorligini ta’minlaydi.

Samarali boshqaruv tushunchasi va uning mohiyati. Samarali boshqaruv – bu tashkilot oldiga qo‘yilgan maqsadlarga eng kam resurslar bilan yuqori natijalarga erishishni ta’minlovchi boshqaruv faoliyatidir. Pedagogik mahorat markazlarida samarali boshqaruv quyidagi funksiyalar orqali amalga oshiriladi:

Avvalo, **rejalashtirish** funksiyasi pedagogik mahorat markazlari faoliyatining asosini tashkil etadi. Rejalashtirish jarayonida markazning qisqa, o‘rta va uzoq muddatli maqsadlari belgilanadi, ularni amalga oshirish yo‘llari, vositalari hamda kutilayotgan natijalar aniqlashtiriladi. Puxta ishlab chiqilgan reja boshqaruv jarayonining tizimli tashkil etilishiga, resurslardan oqilona foydalanishga hamda belgilangan vazifalarning o‘z vaqtida bajarilishiga xizmat qiladi.

Tashkil etish funksiyasi rejalashtirilgan vazifalarni amaliyotga tatbiq etishni nazarda tutadi. Bu jarayonda markazning tashkiliy tuzilmasi shakllantiriladi, xodimlar o‘rtasida vazifalar taqsimlanadi, ularning huquq va majburiyatlari belgilanadi. Tashkil etish funksiyasi jamoaning samarali faoliyat yuritishini ta’minlab, har bir xodimning o‘z vazifasini aniq va mas’uliyat bilan bajarishiga sharoit yaratadi.

Muvofiqlashtirish funksiyasi markazdagi barcha bo‘limlar va xodimlar faoliyatining o‘zaro uyg‘unligini ta’minlashga qaratilgan. Ushbu funksiya orqali rejalashtirilgan ishlarning izchil bajarilishi, maqsadlar birligi va jamoaviy hamkorlik mustahkamlanadi. Muvofiqlashtirish jarayonida yuzaga keladigan muammolar o‘z vaqtida aniqlanib, ularni bartaraf etish choralarini ko‘rish imkoniyati yaratiladi.

Nazorat va tahlil funksiyasi pedagogik mahorat markazlari faoliyatining samaradorligini baholashda muhim o‘rin tutadi. Nazorat jarayonida belgilangan reja va vazifalarning bajarilish holati o‘rganiladi, kamchilik va muammolar aniqlanadi. Tahlil asosida esa faoliyat natijalari

baholanib, kelgusida ish samaradorligini oshirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Bu funksiya boshqaruv jarayonining uzluksiz takomillashuvini ta'minlaydi.

Rag'batlantirish funksiyasi xodimlarning kasbiy faolligini oshirishga xizmat qiladi. Pedagog va boshqaruv kadrlarini moddiy va ma'naviy rag'batlantirish ularning mehnatga bo'lgan munosabatini yaxshilaydi, tashabbuskorlik va ijodkorlikni rivojlantiradi. Rag'batlantirishning samarali tizimi jamoada sog'lom psixologik muhitni shakllantirib, markaz faoliyatining umumiy natijadorligini oshiradi.

Pedagogik mahorat markazlarida boshqaruvning asosiy yo'nalishlari.

Pedagogik mahorat markazlarida boshqaruvni samarali tashkil etishda quyidagi yo'nalishlarga alohida e'tibor qaratish lozim:

1. Strategik boshqaruv. Strategik boshqaruv markazning uzoq muddatli rivojlanish maqsadlarini belgilash va ularni amalga oshirish mexanizmlarini ishlab chiqishni nazarda tutadi. Bunda SWOT-tahlil, strategik rejalashtirish va monitoring tizimlari muhim ahamiyat kasb etadi.

2. Kadrlar boshqaruvi. Pedagogik mahorat markazlarida yuqori malakali trener va metodistlar faoliyat yuritishi lozim. Ularni tanlash, joy-joyiga qo'yish, kasbiy rivojlanishini ta'minlash samarali boshqaruvning muhim sharti hisoblanadi.

3. Innovatsion boshqaruv. Ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish, masofaviy ta'lim imkoniyatlaridan foydalanish, elektron monitoring tizimlarini yaratish innovatsion boshqaruvning asosiy ko'rinishlaridir.

Rahbar kompetensiyalarini rivojlantirish. Pedagogik mahorat markazi rahbari quyidagi kompetensiyalarga ega bo'lishi zarur:

1. **Boshqaruv va yetakchilik kompetensiyasi** rahbarning jamoani maqsad sari yetaklash, strategik rejalashtirish va boshqaruv jarayonlarini samarali tashkil etish qobiliyatini ifodalaydi. Bunday kompetensiyaga ega rahbar markaz faoliyatini tizimli yo'lga qo'yib, xodimlar o'rtasida vazifalarni adolatli taqsimlay oladi, jamoani birlashtiradi hamda umumiy maqsadlarga erishishda yetakchilik rolini bajaradi.

2. **Kommunikativ kompetensiya** rahbarning jamoa a'zolari, pedagoglar, hamkor tashkilotlar va boshqa manfaatdor tomonlar bilan samarali muloqot olib borish qobiliyatini belgilaydi. To'g'ri va ochiq muloqot muhitining mavjudligi jamoada o'zaro ishonchni mustahkamlaydi, kelishmovchiliklarning oldini oladi hamda markaz faoliyatining barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

3. Rahbar uchun **innovatsion va analitik fikrlash** kompetensiyasi ham muhim ahamiyatga ega. Bu kompetensiya rahbarning zamonaviy ta'lim tendensiyalarini tahlil qila olish, yangiliklarni qabul qilish va ularni amaliyotga joriy etish qobiliyatini ifodalaydi. Analitik fikrlash esa mavjud muammolarni chuqur tahlil qilish, ularning sabablarini aniqlash va samarali yechimlar ishlab chiqishga imkon yaratadi.

4. Shuningdek, **qaror qabul qilish mas'uliyati** rahbar kompetensiyalarining ajralmas qismi hisoblanadi. Rahbar qabul qilinayotgan qarorlarning natijalari va oqibatlari uchun shaxsiy mas'uliyatni his qilishi, vaziyatni har tomonlama baholagan holda puxta va asoslangan qarorlar qabul qilishi zarur. Bu esa markaz faoliyatining barqarorligi va ishonchliligini ta'minlaydi.

Boshqaruv samaradorligini oshirish yo'llari. Pedagogik mahorat markazlarida boshqaruv samaradorligini oshirish ta'lim sifatini yuksaltirish, pedagog kadrlarning kasbiy rivojlanishini ta'minlash hamda markaz faoliyatining barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu bois boshqaruv jarayonini takomillashtirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Avvalo, boshqaruv jarayonlarini **raqamlashtirish** va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish boshqaruv samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biridir. Elektron hujjat aylanishi, onlayn monitoring va tahlil tizimlari orqali

boshqaruv jarayonlarining shaffofligi va tezkorligi ta'minlanadi. Bu esa qaror qabul qilish jarayonini soddalashtirib, vaqt va resurslardan oqilona foydalanishga imkon yaratadi.

Shuningdek, **ichki va tashqi monitoring tizimini yo'lga qo'yish** markaz faoliyatining sifat ko'rsatkichlarini muntazam baholab borish imkonini beradi. Monitoring natijalari asosida mavjud kamchiliklar aniqlanib, ularni bartaraf etishga qaratilgan aniq choralar ishlab chiqiladi. Bu jarayon boshqaruv faoliyatining uzluksiz takomillashuvini ta'minlaydi.

Boshqaruv samaradorligini oshirishda **xodimlarni rag'batlantirishning zamonaviy usullaridan foydalanish** ham muhim o'rin tutadi. Moddiy va ma'naviy rag'batlantirish, kasbiy o'sish imkoniyatlarini yaratish, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash choralarini kuchaytirish xodimlarning mehnatga bo'lgan munosabatini yaxshilaydi. Natijada jamoada tashabbuskorlik va ijodkorlik muhitini shakllantirishga erishiladi. Bundan tashqari, **tajriba almashish va malaka oshirish tizimini takomillashtirish** orqali boshqaruv samaradorligini yanada oshirish mumkin. Ilg'or tajribalarni o'rganish, seminar-treninglar, amaliy mashg'ulotlar va konferensiyalar tashkil etish rahbar va pedagog kadrlarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, **boshqaruv qarorlarini ilmiy asoslangan holda qabul qilish** ham samaradorlikni oshiruvchi muhim omillardan biridir. Tahlil va statistik ma'lumotlarga tayangan holda qabul qilingan qarorlar boshqaruv jarayonida xatolarning oldini olib, markaz faoliyatining barqaror rivojlanishini ta'minlaydi.

Xulosa qilib aytganda, pedagogik mahorat markazlari ta'lim tizimida pedagog kadrlarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish, ularni zamonaviy ta'lim talablari asosida tayyorlash va malakasini oshirishda muhim o'rin egallaydi. Mazkur markazlar faoliyatining samaradorligi, avvalo, ularda yo'lga qo'yilgan boshqaruv tizimining mukammalligi bilan chambarchas bog'liqdir.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, pedagogik mahorat markazlarida samarali boshqaruvni ta'minlash aniq belgilangan maqsad va vazifalar, tizimli va uzviy boshqaruv mexanizmlari, malakali pedagogik va boshqaruv kadrlarining mavjudligi hamda mustahkam moddiy-texnik va axborot bazasiga tayanadi. Boshqaruv funksiyalarining – rejalashtirish, tashkil etish, muvofiqlashtirish, nazorat va tahlil hamda rag'batlantirishning o'zaro uyg'un holda amalga oshirilishi markaz faoliyatining natijadorligini oshiradi. Shuningdek, pedagogik mahorat markazi rahbarining boshqaruv va yetakchilik kompetensiyasi, kommunikativ qobiliyati, innovatsion va analitik fikrlashi hamda mas'uliyatli qaror qabul qilish ko'nikmalari jamoa faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi aniqlandi. Rahbarning shaxsiy namunaliligi va kasbiy madaniyati esa jamoada sog'lom ijtimoiy-psixologik muhitni shakllantirib, ta'lim jarayonining sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, pedagogik mahorat markazlarida samarali boshqaruvni tashkil etish ta'lim tizimining barqaror rivojlanishini ta'minlash, pedagog kadrlar tayyorlash sifati va samaradorligini oshirishning muhim sharti hisoblanadi. Ushbu yo'nalishda amalga oshiriladigan tizimli va ilmiy asoslangan boshqaruv chora-tadbirlari pedagogik mahorat markazlari faoliyatini yanada takomillashtirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. Ta'lim tizimini rivojlantirishga oid qaror va farmonlar. – Toshkent, 2020–2024.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch**.** – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
3. Muslimov N.A. Pedagogik mahorat asoslari**. –** Toshkent: O'qituvchi, 2019.
4. Saidahmedov N.S. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – Toshkent, 2018.
5. Xodjayev B.X. Ta'lim muassasalarini boshqarish**.** – Toshkent: Fan, 2020.
6. Boltayev M.B. Ta'lim menejmenti. – Toshkent, 2021.

UO'T:621.039:37.02

YADRO REAKTORIDA REAKSIYA JARAYONLARINI O'QITISHNING UCH BOSQICHLI METODIKASI

R.B.Batirova
Farg'ona Davlat texnika universiteti
"At va T" kafedra assistenti.

Annotatsiya. Ushbu ilmiy-pedagogik maqolada oliy ta'lim muassasalarida "Yadro fizika" va "Yadro energetikasi asoslari" fanlari doirasida yadro reaktoridagi reaksiya jarayonlarini o'qitishning uch bosqichli metodikasi ishlab chiqilgan va asoslab berilgan. Metodika tayanch bilimlarni shakllantirish, jarayonlarni modellashtirish hamda tahliliy-refleksiv baholash bosqichlarini o'z ichiga oladi. Tadqiqotda zamonaviy pedagogik yondashuvlar, konstruktivizm, kompetensiyaviy ta'lim va STEM integratsiyasi asos qilib olingan. Taklif etilayotgan metodika talabalarning nazariy bilimlari bilan bir qatorda ularning tanqidiy fikrlashi, tizimli tahlil ko'nikmalari va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Аннотация. В данной научно-педагогической статье разработана и теоретически обоснована трёхэтапная методика обучения процессам ядерных реакций в ядерном реакторе в рамках дисциплин «Ядерная физика» и «Основы ядерной энергетики» в высших образовательных учреждениях. Методика включает этапы формирования опорных знаний, моделирования процессов, а также аналитико-рефлексивной оценки. В исследовании в качестве методологической основы использованы современные педагогические подходы, включая конструктивизм, компетентностно-ориентированное обучение и STEM-интеграцию. Предлагаемая методика способствует развитию у студентов не только прочных теоретических знаний, но и критического мышления, навыков системного анализа и профессиональных компетенций, необходимых для будущей инженерно-научной деятельности в области ядерной энергетики.

Abstract. This scientific and pedagogical article presents the development and theoretical substantiation of a three-stage instructional methodology for teaching nuclear reaction processes in a nuclear reactor within the framework of the courses "Nuclear Physics" and "Fundamentals of Nuclear Energy" in higher education institutions. The methodology comprises the stages of foundational knowledge formation, process modeling, and analytical-reflective assessment. The study is grounded in modern educational approaches, including constructivism, competency-based education, and STEM integration. The proposed methodology contributes to the development of students' solid theoretical knowledge, critical thinking, systems analysis skills, and professional competencies essential for future scientific and engineering activities in the field of nuclear energy.

Kalit so'zlar: yadro reaktori, zanjirli reaksiya, uch bosqichli metodika, pedagogik texnologiya, modellashtirish, kompetensiyaviy yondashuv.

Ключевые слова: ядерный реактор, цепная реакция, трёхэтапная методика, педагогические технологии, моделирование, компетентностный подход.

Keywords: nuclear reactor, chain reaction, three-stage methodology, pedagogical technology, modeling, competency-based approach.

Kirish. Yadro energetikasi bugungi kunda insoniyatning energiya xavfsizligini ta'minlashda strategik ahamiyatga ega yo'nalishlardan biridir. Yadro reaktorlari fizikasi fani talabalarni atom yadrosi tuzilishi, yadro reaksiyalari jarayoni, yoqilg'i sikllari va energiya ishlab chiqarish mexanizmlarini chuqur anglashga o'rgatadi. Atom elektr stansiyalarining samarali va xavfsiz ishlashi yadro reaktorida kechadigan murakkab fizik jarayonlarni chuqur anglashni talab etadi. Shu sababli, bo'lajak muhandislar, fiziklar va energetik mutaxassislarni tayyorlashda yadro reaktoridagi reaksiya jarayonlarini o'qitish metodikasini takomillashtirish dolzarb pedagogik

muammo sifatida namoyon bo‘lmoqda.An’anaviy o‘qitish usullarida mazkur mavzu ko‘pincha murakkab matematik formulalar va abstrakt tushunchalar bilan cheklanib qoladi. Natijada talabalar bilimni reproduktiv darajada o‘zlashtiradi, ammo real reaktor jarayonlarini tasavvur qilish va tahlil qilishda qiyinchilikka duch keladi. Ushbu maqolaning maqsadi – yadro reaktoridagi reaksiya jarayonlarini o‘qitishda uch bosqichli metodikani ilmiy-pedagogik jihatdan asoslash va uning amaliy samaradorligini ko‘rsatishdan iborat hamda maqolada yadro reaksiyalari va reaktor jarayonlarini o‘qitishning uch bosqichli metodikasi nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Metodika yadro yoqilg‘isining evolyutsiyasi — Uran-235 ning bo‘linishidan boshlab Plutoniy-241 asosidagi yopiq yoqilg‘i sikligacha bo‘lgan jarayonlarni bosqichma-bosqich o‘rgatish tizimiga asoslanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI.

Maqolada ta’lim jarayonida sifatli ta’lim samaradorligini oshirish maqsadida zamonaviy metodlardan ya’ni mualliflik metod “Uch bosqich” metodi muhokama qilinadi va asosiy tarkibiy omillari hamda qismlari tavsiflanadi. “Uch bosqich” metodining ta'lim sifatini baholash bo‘yicha yondashuvlar o‘rganildi.

ADABIYOTLAR TAHLILI.

Zamonaviy pedagogika va fan texnikani rivojlanishiga hissalarini qo‘shgan xorij hamda yurtimiz olimlari orasida quyidagi yetuk shaxslarni keltirib o‘tamiz Cacuci, D.G., Knief, R.A., Kozier, K,S., Lewis, E.E., Stacey, K.D.Ushinskiy, M.M.Lisina, V.A.Artemov, N.E.SHurkova, psixologik aspektda J.Bernal, Dj.Bruner, E.Vidiman, Jozef Tussen Rayno, iqtisodiy tomonidan N.I.Novikov, V.Vlasenko,V.N.Myasishev, L.M.Fridmanlar va boshqalar, o‘zbek olimlaridan Bozorov Erkin Haydarovich, Oynisa Musurmonova, G‘.R.Raximov, H.F.Fozilov, M.Djo‘rayev, K.R.Nasriddinov, P.M.Jalolova, E.N.Rasulov, pedagogika fanlari doktori, professor. Norboy Ortiqov, pedagogika fanlari doktori, professor, Abduqodirov Abduqahhor, bduqahhor Abduvakilevich N.N. Azizxodjaeva, J. Yo‘ldoshev, A.R.Xodjabaev, U.N.Nishonaliev, N.Sayidahmedov va boshqalar pedagog olimlarning hissalari beqiyosdir.Yadro reaktorlari fizikasi fanini o‘qitishda tizimli yondashuv muhim o‘rin tutadi. Ushbu fan fundamental fizika qonunlari, yadroviy energiya hosil bo‘lish jarayonlari, zanjirli reaksiyalar dinamikasi va energiya balansini tushuntirishni o‘z ichiga oladi. Pedagogik nuqtai nazardan, o‘qitish jarayonini bosqichma-bosqich tashkil etish talabalarda mantiqiy fikrlash, tahliliy yondashuv va amaliy tajriba hosil qilish imkonini beradi. Yadro jarayonlarini o‘rganishda nazariy bilimlar laboratoriya tajribalari, modellashtirish, va simulyatsiya mashg‘ulotlari bilan uyg‘unlashtiriladi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA.

Sifatli ta’lim samaradorligini ta’minlash va uni barqaror rivojlantirish zamonaviy ta’lim tizimining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu jarayonda ta’lim sifatini nazorat qilish va baholash mexanizmlari ta’limni boshqarish tizimining ajralmas va strategik muhim tarkibiy qismi sifatida namoyon bo‘ladi. Ta’lim sifatini monitoring qilish orqali o‘quv jarayonining holati, natijadorligi hamda belgilangan maqsadlarga erishish darajasi tizimli ravishda tahlil qilinadi va boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun ilmiy asos yaratiladi.Hozirgi globallashuv va raqobat kuchayib borayotgan sharoitda o‘qitish samaradorligini oshirish, ta’lim oluvchilarning davlat ta’lim standartlarida belgilangan bilim, ko‘nikma va malakalarni to‘liq va sifatli egallashlarini ta’minlash dolzarb pedagogik muammo sifatida qaralmoqda. Bu esa ta’lim jarayonida nafaqat an’anaviy baholash usullaridan, balki kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan, natijaga yo‘naltirilgan zamonaviy diagnostik va baholash texnologiyalaridan foydalanishni taqozo etadi.Shu bilan birga, ta’lim oluvchilarning mustaqil bilim olish faoliyatini rivojlantirish, ularni o‘z-o‘zini nazorat qilish va refleksiya qilishga yo‘naltirish ta’lim sifati barqarorligini ta’minlovchi muhim omillardan biridir. Ayniqsa, iqtidorli va iste’dodli talabalar bilan ishlashda ularning intellektual salohiyatini maksimal darajada ro‘yobga chiqarish,

shuningdek, ayrim fanlarni o‘zlashtirishda qiyinchilikka duch kelayotgan talabalarga individual yondashuv asosida pedagogik qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.Talabalarning shaxsiy qiziqishlari, ehtiyojlari, qobiliyatlari, intellektual imkoniyatlari va individual psixologik xususiyatlarini aniqlagan holda dars mashg‘ulotlarini loyihalash va tashkil etish ta’lim jarayonining shaxsga yo‘naltirilganligini ta’minlaydi. Bu yondashuv talabalarda nafaqat fan bo‘yicha bilimlarning puxta shakllanishiga, balki ularning ijodiy fikrlash, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, mustaqil qaror qabul qilish va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Yadro reaksiyalarining fizik mohiyati – bu atom yadrolari orasidagi o‘zaro ta’sirlar orqali yangi yadrolarning hosil bo‘lishi, ularning parchalanishi yoki izotoplar almashinuvidir, bu esa energiya ajralishi (yoki yutilishi) bilan sodir bo‘ladi va massaning energiya ($E=mc^2$)ga aylanishini, zaryad va barion sonining saqlanish qonunlariga amal qilishini o‘z ichiga oladi. Asosiy qonunlar massaning saqlanishi, energiya saqlanishi ($E=mc^2$), zaryad saqlanishi va barion (proton+neutron) sonining saqlanishidir.

Asosiy jarayonlar:

Yadro sinishi: Og‘ir yadrolarning neytron ta’sirida yengilroq yadrolarga bo‘linishi (masalan, atom elektr stansiyalarida).

Yadro termoyadro sintezi: Yengil yadrolarning (deytriy, tritiy) birlashib, og‘irroq yadrolar (hel) hosil qilishi (quyoshdagi reaksiya).

Yadro o‘zaro ta’siri: Yadroga zarra (proton, neytron, alfa-zarra) urilib, yangi element yoki izotop hosil bo‘lishi.

Fizik qonuniyatlar:

Energiya: Reaksiyadan ajralgan yoki yutilgan energiya massadagi o‘zgarishdan kelib chiqadi ($E=\Delta mc^2$).

Zaryad saqlanishi: Reaksiyadan oldingi va keyingi jami musbat zaryad miqdori bir xil bo‘lishi kerak.

Barion (yadro) soni saqlanishi: Reaksiyadagi proton va neytronlar umumiy soni (A) saqlanadi.

Yadro reaksiyalari kimyoviy reaksiyalardan farqli o‘laroq, yadroning ichidagi o‘zgarishlar (proton va neytronlar) bilan bog‘liq bo‘lib, ulkan energiya ajralib chiqishini ta’minlaydi.


Yadro reaksiyasi — bu atom yadrosining tashqi zarrachalar (neytron, proton, alfa-zarra) bilan o‘zaro ta’siri natijasida yangi yadrolarning hosil bo‘lish jarayonidir. Yadro reaktorlari faoliyatining asosi Uran-235 izotopining sekin neytronlar ta’sirida bo‘linish reaksiyasiga tayanadi. Bu jarayonda energiya ajralishi bilan birga yangi neytronlar hosil bo‘ladi va ular o‘z navbatida zanjirli reaksiyani davom ettiradi. Uran-238 izotopi esa bevosita bo‘linishda ishtirok etmasa-da, neytron yutish orqali yangi, bo‘linuvchan izotop — Plutoniy-239 hosil qiladi.

Ilmiy-metodik tahlil

Birinchi bosqich: Uran-235 bo‘linish reaksiyasi

Ushbu bosqichda Uran-235 yadrosi sekin neytronni yutib, bo‘linishga uchraydi va katta miqdorda energiya ajraladi. Bo‘linish natijasida ikki fragment va 2–3 ta erkin neytron hosil bo‘ladi. Bu jarayon zanjirli reaksiya hosil qiladi, chunki hosil bo‘lgan neytronlar boshqa Uran-235 yadrolariga urilib, yangi bo‘linishlarni keltirib chiqaradi. Pedagogik jihatdan bu bosqichda talabalar yadro bo‘linishining mexanizmini, energiya balansini va bo‘linish mahsulotlarining xususiyatlarini o‘rganadilar. Matematik modellashtirish yordamida neytron oqimi, bo‘linish ehtimoli va reaktor barqarorligi tahlil qilinadi.

Ikkinchi bosqich: Uran-238 dan Plutoniy-239 hosil bo‘lish jarayoni



1-rasm. Uch bosqichli metodika

Ikkinchi bosqichda Uran-238 yadrosi neytronni yutib, Uran-239 ga aylanadi. Uran-239 esa ketma-ket ikki marta beta-parchalanishga uchrab, Np-239 va keyin Plutoniy-239 hosil qiladi. Bu jarayon reaktor ichida tabiiy ravishda sodir bo'ladi va ikkilamchi yoqilg'i — Plutoniy-239 paydo bo'ladi. Pedagogik yondashuvda ushbu bosqich o'quvchilarda yadro yoqilg'isi siklining davriyligi va energiya resurslarini qayta tiklash imkoniyatlari haqida tasavvur hosil qiladi. Talabalarga neytron yutilish ehtimoli, izotoplarning yarim yemirilish davrlari va energetik samaradorlikni hisoblash topshiriqlari beriladi.

Uchinchi bosqich: Plutoniy asosidagi yopiq yoqilg'i sikli

Uchinchi bosqichda reaktor ichida Plutoniy-239 va Plutoniy-241 izotoplarining bo‘linish jarayoni amalga oshadi. Bu bosqich yopiq yoqilg‘i siklining markaziy qismi bo‘lib, yoqilg‘idan maksimal darajada foydalanish va chiqindilarni kamaytirish imkonini beradi. Talabalarga plutoniy siklining fizik asoslari, issiqlik chiqishi, radiatsion xavfsizlik va qayta ishlash texnologiyalari bo‘yicha ilmiy tahlillar o‘rgatiladi. Pedagogik jarayonda bu bosqichda o‘quvchilar yadro chiqindilarini qayta ishlash va ekologik barqarorlik masalalarini muhokama qiladilar.

Uch bosqichli metodika yadro fizikasi fanini o‘qitishda kompleks yondashuvni ta’minlaydi. Metodika nazariy bilimni amaliy tajriba bilan integratsiya qiladi, bu esa talabalarning mustaqil fikrlashini rivojlantiradi. Birinchi bosqichda fundamental tushunchalar, ikkinchi bosqichda yadro siklining uzluksizligi, uchinchi bosqichda esa innovatsion energiya texnologiyalari o‘rganiladi. Har bir bosqich laboratoriya ishlari, modellashtirish mashg‘ulotlari va ilmiy tahlillar bilan mustahkamlanadi. Bu metodika orqali o‘quvchilar nazariy bilimlarni real reaktor jarayonlari bilan bog‘lash imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Xulosa

Yadro reaksiyalari va yadro reaktoridagi jarayonlarni o‘qitishda uch bosqichli metodika — bu zamonaviy ilmiy va pedagogik yondashuvni o‘zida mujassam etgan tizimdir. U ta’lim oluvchilarning nafaqat yadro jarayonlari haqidagi bilimlarni, balki energiya xavfsizligi, ekologik barqarorlik va ilmiy fikrlashni ham shakllantiradi. Metodika yadro energetikasi bo‘yicha mutaxassislar tayyorlashda samarali vosita sifatida tavsiya etiladi hamda nazariy va amaliy ta’lim o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ta’minlaydi va bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligini oshiradi.

ADABIYOTLAR:

1. Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Toshkent: O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2006.
2. Raximov O.D,.Turg‘unov O.M, Mustafaev Q.O’.Ro’ziev H.J Zamonaviy ta'lim texnologiyalari /Toshkent, ―Fan va texnologiya nashriyoti‖, 2013y.,7-27-betlar.
3. Batirova, R. B. (Fergana State University of Technology, Assistant).A generalized model for achieving effective quality education through innovative and integrative methods based on state educational standards in teaching nuclear reactor physics in higher education institutions.Journal of Pedagogy (13.00.00 – Pedagogical Sciences). Available at: journal.namdu.uz
4. Lamarsh J.R., Baratta A.J. Introduction to Nuclear Engineering. – New York: Prentice Hall.
5. Duderstadt J.J., Hamilton L.J. Nuclear Reactor Analysis. – Wiley.
6. Biggs J., Tang C. Teaching for Quality Learning at University. – Open University Press.
7. O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim standartlari va o‘quv dasturlari.
8. https://www.google.com/search?q=Yadro+reaksiyalarining+fizik+mohiyati&oq=Yadro+reaksiyalarining+fizik+mohiyati&gs_lcrp=EgZjaHJvbWUyBggAEEUYOTIHCAEQABjvBTIKCAIQABiABBiiBDIHCAMQABjvBTIHCAQQABjvBTIKCAUQABiABBiiBNIBBzc5MWowajeoAgiwAgHxBScMst_LYfoY&sourceid=chrome&ie=UTF-8

UDK:81'243:811.111

THE ROLE OF TEACHING ENGLISH AND THE IMPORTANCE OF COMMUNICATION SKILLS

Nazira Dusbaeva
Acting Associate Professor,
Jizzakh Polytechnic Institute, Uzbekistan

Abstract. This article presents data on the need and importance of teaching English to engineering students, as well as the role of English and the importance of communication skills. Engineering is one of the most important fields of study worldwide, and many research papers and research results are published in English. For students whose first language is not English, mastering English is even more crucial not only for their academic life but also for their future careers. This article highlights the importance of English and how English can reduce employability by teaching communication skills, which helps people land their dream jobs through communication skills.

Аннотация. В статье представлены данные о необходимости и значении преподавания английского языка студентам - инженерам, а также о роли английского языка и важности коммуникативных навыков. Инженерное дело является одной из важнейших областей обучения в мире, и многие исследовательские работы и результаты исследований публикуются на английском языке. Для студентов, чей родной язык не английский, овладение английским языком еще более важно не только для их академической жизни, но и для их будущей карьеры. В данной статье подчеркивается важность английского языка и то, как английский может снизить возможности трудоустройства за счет изучения навыков общения, которое помогает людям получить работу мечты благодаря коммуникативным навыкам.

Keywords: English language teaching, communication skills, research papers, employment.

Ключевые слова: преподавание английского языка, коммуникативные навыки, исследовательские работы, трудоустройство.

1. **Introduction.** Good grammar is an important part of learning English, especially for engineering students who need to communicate complex technical information clearly. In many traditional classrooms, grammar teaching focuses on memorizing rules and completing exercises, which may help students recognize correct forms but does not always help them use grammar correctly when speaking. As a result, students often struggle to express their ideas fluently and accurately in English.

To be victorious in any field one need to know and understand how to communicate effectively. In the era of LPG (Liberalization, Privatization and Globalization), good communication expertise are the keys to unlock the doors of success. As we all know it is an international language along with this it is an official language in the world. It is a primary language of global trade & commerce used in international affairs. We are living in the digital age where we have to make the software's, deal with various technologies & Internet.

Speaking English fluently is an important criterion of the admission process and a candidate's ability to master this ability brightens their chances of admissions to foreign Universities. In National University of Singapore, students are required to pass Qualifying English Test to assess their proficiency of English language. To a certain level where students are not able to qualify, there is inevitability for them to go for extra English module to brush up their English. Such measurements are carried out to make sure the students are able to write, listen, and communicate with proficient English in future. At present in India there are thousands of Mechanical Engineering students are facing employment crises. There are many reasons

behind it. First and foremost reason is lack of communication and unable to handle the English language. This paper deals how to empower language and communication through some suggestions.

2. **English as an academic language** As far as English Language Teaching is concerned, before coming down to actual curriculums, it is of utmost importance to determine the position of English as an academic language and its role in the studies of mechanical engineering. It is obvious that today English is not learned only for the pleasure and prestige of knowing a foreign language, but also because of the fact that it has become the language of international currents in technology and commerce.

The knowledge of any language used to be a sign of a well-rounded education, but with no clear reason as to why it was necessary. However, as English became the accepted lingua franca of modern technology and commerce, a number of learners with specific reasons for learning English came to the front: business people who wanted to sell their products, doctors and engineers who needed to stay in touch with the new developments in their respective fields, and most importantly for us, students who needed to use textbooks and journals available only in English, and who needed English in order to advance and succeed in their careers. That is how many different reasons for studying English sprang out all of a sudden. (Hutchinson and Waters, 2000)

3. Language and communication The need for learning a language arises from the point of view of its adaptability, productivity, utility, universality and teachability. Communication is a sharing of feelings, ideas and opinions with others. This can be intellectual, personnel spoken or written in nature. We live in groups and man is invariably a social animal. As the social needs insist, we share our thoughts with others. The two-way processes of communication motivates, inform, suggests, warns, orders, changing behaviour and estability better relationships to make interaction meaningful and make oneself understood.

4. English for specific and academic purposes Thus, if we take into consideration the generally accepted purposes for which the English language is needed and learned and the necessity of the basic language skills required (listening, speaking, reading and writing), we can divide its usage into those for general, specific and social purposes. English for General purposes, or as it is sometimes called "TENOR" ("the Teaching of English for No Obvious Reason"), is the type of English that usually young learners acquire and that is not specified by any identifiable need.

English for Social Purposes, on the other hand, is mostly taught to adult learners and deals mainly with conversational purposes and communicative situations. Some of its aspects, such as letter-writing and the ability to operate functionally in an English speaking environment, are often a part of English for Academic Purposes (EAP) courses in English-speaking countries. In academic life, mechanical engineering students have to deal with the countless lectures, tutorials, labs, project reports and papers in English. Generally mechanical engineering professors in various universities are also conducting lectures in English.

The most apt source of information i.e. Internet provides generally the information in English. During the job seeking process in interviews, GD's, it is it is mandatory to achieve mastery in English proficiency. After securing the job they are necessary to work in groups since their task seldom be solved by an individual. A Large number of Indian mechanical engineers have to now travel to many continents and work away from their domicile country. Also, among the scientists, technologists and business experts from culturally and linguistically different communities, English has become the prime language for communication. So, being a mechanical engineer requires co-operating and communicating with different people from different part of the world.

The most crucial of all decisions is the one concerning the exact dosage of many ingredients needed for a successful language course. Just how much General English and ESAP get into the curriculum depends on many various conditions. As far as General English is concerned, it is important to know how many years prior to this course the students studied English. It is usually the case that the students are at many different levels, when it comes to the English language knowledge, and there are often situations where students are studying English for the first time, since they can choose the language they wish to study only at the university level. Therefore, it is necessary to cover all the basic grammar units and language skills before proceeding to English for Specific Academic Purposes.

This will often include having to work with students primarily on their listening and reading skills, and slowly moving toward what is often much more difficult and frightening for them that is, speaking and writing. Raising the proficiency of language use, and sometimes even creating it, will, thus, lead to more specific aspects of the English language necessary for their academic studies and future careers. Going in this direction, from general to specific, will in the end lead ton what can easily be described as the aforementioned ESAP, which will here constitute of scientific terminology, basic mathematical, physical and chemical principles and laws, and a majority of mechanical engineering aspects, ranging from fundamental mechanics to cutting-edge computer science.

Effective Communication English language communication is the most common problem faced by students. Most students are not "industry ready" because they lack communication skills. There is no effective communication between the faculty-student and student-student. No effective training is imparted to the students who are very poor at communication. Much importance is being given to the technical skills ignoring the most indispensable communication skills. To perform effectively in the business world or organization, communication plays a pivotal role. One who is good at effective communication thinks soundly, enjoys self-esteem, dignity and gets respect in society, academic or profession. People frequently fail to communicate effectively because they don't express themselves clearly or forcefully enough. Or, they may go to the other extreme, expressing themselves in such a belligerent way that they alienate others.

Employability refers to a person's capability of gaining initial employment maintaining employment, and obtaining new employment if required (Hillage and Pollare, 1998). It depends on knowledge, skills and attitude the employer seeks. In order to be employable it is important to understand the needs of the market place and identify what skills you already have and what skills you need to include in your career plan. In a list of skills and attributes identified by companies that belong to National Association of Career Educators and Employment (NACE) communication skills holds the first position. It's mandatory to have effective English invariable of the sector and industry.

Certain Suggestions on Communication for The mechanical Engineering students Be a team player. Professional engineering involves collaboration among many different disciplines that must come together to resolve complex issues and formulate solutions to bring products to market. As a result, communication skills are as important as technical expertise Be part of the innovation pipeline. Always be open to new ideas, even if they come from sources outside your group. Beware of the Not-Invented-Here bias that exists at some companies. Companies will reward engineers who encourage innovative ideas, regardless of where they originated. Keep learning.

This is crucial as the tools used to do product design and analysis are constantly changing and improving. Stay ahead of the curve and seek out new assignments and opportunities to learn new technologies, sign up for training programs and make the most of company-paid educational

benefits. Beef up your communication skills Many Mechanical Engineers prefer to stick to the technical design track, while others will want to branch off into management roles, which means you'll need to be comfortable talking to customers, giving presentations and working with outside suppliers, agencies, etc. Developing these "soft" skills is vital for engineers who aspire to be managers one day. Toastmasters International, a non-profit organization, is a great place to get your feet wet in public speaking English empowers young minds not only in passing exams but in demonstrating their acumen before the world. Technical institutions have realized the importance of communicating in English in response to the increasing needs of job market. Most of the organizations require people in different capacities with good communication abilities which comprise interacting with customers and clients, explaining policies and procedures, entertaining foreign clients, conducting meeting, delivering presentations, liaising, responding to customer complaints and taking orders, etc. Since the world has gone global, the need to compete in it without efficiency in English is difficult. Many organizations have started training their employees in English from time to time. This has ameliorated the life styles of people who considered their future blocked forever it they failed to make it to teaching or some other tradition jobs. In fact, the knowledge of English plays you in all times

5. Conclusion The teacher is the realistic communicative motivator, who designs appropriate tasks for the students to express genuine information. To encourage the students to use English to communicate with the other students, the students' motivation and interest in the process of group working for English Learning task could be stimulated much greater. The preparing activities such as brainstorming and pre-task planning are also used so that the students could create some new ideas on what to say and some expressions and suggestions on how to express their ideas and creativities, to express their ideas and creative.

Thus today, it can be said that though English has almost lost its pre-colonial beauty of literariness, but it has acquired a very colourful communicative mode. Just like the fast moving consumer goods, English language is transforming its multidimensional communicative structure day by day, and in the process has enhanced its utility quotient in India.

English is available to us as a historical heritage in addition to our own language. We must make the best use of it to develop ourselves culturally and materially so that we can compete with the best in world of mind and matters. Good and effective Communication makes the Mechanical Engineering students as world brand and eradicates the unemployment.

REFERENCES

1. Ashraf Rizvi, M. Effective Technical Communication. Tata McGraw –Hill third Reprint, 2006.
2. Brumfit, C.J and Johnson, K, The Communicative Approach to Language Teaching, London: Oxford University Press.1979.
3. Crystal, D. The Cambridge Encyclopaedia of the English Language. Cambridge: Cambridge University Press, (1997),
4. English for Technical Communication, volume 1 & 2- Combined Edition- K.R. Laskshminarayanan- SCITECH- Fourth Reprint, 2007.
5. Firth, The Discursive Accomplishment of Normality: On 'Lingua Franca English and Conversation Analysis. Journal of Pragmatics, (1996), 26:237 – 259.
6. Godwin Coury, J, English as a Lingua Franca in the Brazilian academic World. (2001).
7. Hutchinson, T. and Waters, A, English for Specific Purposes. Cambridge: Cambridge University Press. (2000),
8. Indira. C., Remedial Teaching of Cohesive Writing in English to Students of the Engineering Course Unpublished thesis, Bharatidasan University Trichy.1985

UO'T:373.1:005.6

UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA TA'LIM SIFATINI BOSHQARISHNING ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARI

Ibragimova Gulnoza Sayidmurodovna
Andijon davlat texnika instituti
"Iqtisodiyot"kafedrasi
katta o'qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarida ta'lim sifatini boshqarishda qo'llanilayotgan zamonaviy texnologiyalarning mazmuni va ahamiyati tahlil qilingan. Ta'lim sifatini boshqarishda raqamli texnologiyalar, monitoring va diagnostika tizimlari, ma'lumotlarga asoslangan boshqaruv (data-driven management), shuningdek, innovatsion pedagogik va boshqaruv texnologiyalarining roli ochib berilgan. Maktab faoliyatida sifat menejmenti texnologiyalarini joriy etishning tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlari asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari ta'lim sifatini boshqarish samaradorligini oshirish, boshqaruv qarorlarini takomillashtirish hamda ta'lim natijalarining barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Аннотация. В статье рассматриваются содержание и значение современных технологий управления качеством образования в общеобразовательных школах. Особое внимание уделяется роли цифровых технологий, систем мониторинга и диагностики, управлению на основе данных, а также инновационным педагогическим и управленческим технологиям в повышении эффективности управления качеством образования. Обоснованы организационно-педагогические условия внедрения технологий менеджмента качества в школьную практику. Результаты исследования способствуют повышению эффективности управления, обеспечению устойчивости образовательных результатов и улучшению качества образования в учреждениях общего среднего образования.

Abstract. This article examines the content and significance of modern technologies in managing the quality of education in general secondary schools. The study focuses on the role of digital technologies, monitoring and diagnostic systems, data-driven management, as well as innovative pedagogical and managerial technologies in improving education quality management. The organizational and pedagogical conditions for implementing quality management technologies in school practice are substantiated. The research findings contribute to enhancing management efficiency, ensuring the sustainability of educational outcomes, and improving the overall quality of education in general secondary schools.

Kalit so'zlar: ta'lim sifati, ta'lim sifatini boshqarish, zamonaviy texnologiyalar, raqamli boshqaruv, monitoring, sifat menejmenti, umumiy o'rta ta'lim maktabi.

Ключевые слова: качество образования, управление качеством образования, современные технологии, цифровое управление, мониторинг, менеджмент качества, общеобразовательная школа.

Keywords: education quality, education quality management, modern technologies, digital management, monitoring, quality management, general secondary school.

Kirish (Introduction)

Zamonaviy ta'lim tizimi ta'lim jarayonining mazmuni va mexanizmlaridagi sezilarli o'zgarishlar, o'qituvchiga nisbatan tubdan farq qiladigan talablar bilan tavsiflanadi, ulardan an'anaviy ta'lim va tarbiya funktsiyalari bilan bir qatorda ta'lim muhitini dasturlashga qodir o'qituvchi-psixolog, texnolog, tadqiqotchining kasbiy mahorati talab etiladi. Kasbiy standart va o'qituvchilar malakasini oshirish milliy tizimi o'qituvchiga juda yuqori talablarni qo'yadi[1].

Mavjud sharoitda uslubiy ishlarni tashkil etishga yondashuvlar o‘zgarib bormoqda, ular tub o‘zgarishlar bilan tavsiflanadi. O‘qituvchining kasbiy faoliyatini metodik ta’minlash tamoyillari boshqacha bo‘ldi. Bu o‘z-o‘zidan tashabbuskor va o‘z-o‘zini rag‘batlantiradi, diagnostika va innovatsiondir. Uslubiy ish ishtirokchilarining pozitsiyasi ham o‘zgarmoqda: bu o‘qituvchi - ularning kasbiy mahoratini oshirishning turli shakllarida faol ishtirok etuvchi subyekt.

Tadqiqot usullari (Methods)

Metodik ishning an’anaviy shakllari yangilari bilan almashtirilmoqda, ular yuqori darajadagi faollikni, o‘qituvchining kasbiy kompetentsiyasini oshirishga shaxsiy qiziqishlarini o‘z ichiga oladi. Nafaqat bilim mazmuni va uning ko‘lami doimo o‘zgarib turadi, balki ta’lim texnologiyalarining o‘zi ham to‘xtab qolmaydi, shuning uchun zamonaviy o‘qituvchi har doim o‘qitish sohasidagi barcha yangi va qiziqarli usullardan xabardor bo‘lishi va ulardan o‘z faoliyatida foydalana olishi kerak.

Zamonaviy ta’lim muassasasi uchun “ta’lim sifati” tushunchasi, birinchi navbatda, uning ta’lim xizmatlari bozoridagi raqobatbardoshligi bilan bog‘liq. Shu bilan birga, u o‘qituvchining shaxsiyatini rivojlantirish uchun ichki ehtiyojlarni qondirishni ta’minlaydigan ta’lim xizmatining iste’mol xususiyatlari majmuasi sifatida qaraladi. Shu munosabat bilan maktab darajasida ta’lim sifatini boshqarish zarurati tobora ongli va dolzarb bo‘lib bormoqda, chunki bu muammo har qanday maktab, har bir rahbar va o‘qituvchi uchun eng dolzarb muammolardan biridir[2].

Ta’lim sifatini boshqarish - ta’lim sifatini ta’minlash, takomillashtirish, monitoring qilish va baholashga qaratilgan strategik va tezkor harakatlarning tizimli ravishda amalga oshirilgan tizimi. Ta’lim sifatini boshqarish tizimini joriy etish bo‘yicha amaliy tajriba sifat menejmentining asosiy bosqichlarini aniqlash imkonini beradi (2.5-rasm):



2.5-rasm. Deming TSikli

1. Ta’lim sifatini boshqarish bo‘yicha maktab tizimlarini loyihalash va ta’lim sifatini boshqarishni rejalashtirish (reja) - talab qilinadigan sifatga erishish uchun tadbirlarni amalga oshirish uchun normativ, tashkiliy, uslubiy va instrumental asoslarni shakllantirish.

2. Ta’lim sifatini boshqarish (holat) - ta’lim xizmatlari mijozlarining ehtiyojlarini o‘rganish, asosiy va qo‘shimcha ta’lim dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish, resurslar bilan ta’minlash bo‘yicha tizimli harakatlar majmui bo‘lgan sifatni shakllantirish jarayoni.

3. Jarayonlarning monitoringi va tuzatish (nazorat va ta’sir) - erishilgan sifat darajasini ko‘rsatilgan daraja bilan baholash va taqqoslash, barcha manfaatdor tomonlarga fikr-mulohazalarni taqdim etish, faoliyat va boshqaruv tizimiga tuzatishlar kiritish jarayoni.

Zamonaviy ta’lim muassasasi uchun sifat menejmenti tizimi quyidagilar uchun zarur:

– davlat ta'lim standartlarida belgilangan talablarga erishishda o'quv jarayonining samaradorligini oshirish;

– muassasada ijodiy va faol muhitni rivojlantirish, xodimlarning kasbiy faoliyatini faollashtirish;

– umumta'lim muassasasida umumiy boshqaruv tizimini takomillashtirish;

– o'quv jarayonini moliyaviy, resurs va kadrlar bilan ta'minlashni optimallashtirish;

– umumta'lim muassasasining raqobatbardoshligini oshirish;

– ta'lim faoliyati uchun zamonaviy xavfsiz sharoitlarni yaratish;

– ta'lim muassasasini boshqarishda jamoatchilikning keng ishtirokini ta'minlash.

Maktab ta'limi sifatini boshqarish tizimining funktsiyalari quyidagilardan iborat:

– ta'lim jarayoni subyektlari o'rtasidagi ijtimoiy shartnoma sifatida ta'lim sifati bo'yicha maktab standartini ta'minlash;

– umumiy ta'lim muassasasida ta'lim sifatining mezon asoslarini aniqlash;


– ta'lim muassasalarida ta'lim sifati bo'yicha tahliliy hisobotlar va ommaviy hisobotlarni tayyorlash;

– ta'lim sifatini saqlab qolish va doimiy ravishda oshirish uchun ta'lim muassasasida innovatsion jarayonlarni rag'batlantirish;

– ta'lim muassasasini rivojlantirish, pedagog kadrlar malakasini oshirish yo'nalishlarini belgilash[3].

Natijalar (Results)

Amalda ta'lim sifatini boshqarishning asosiy vazifasini bajarish ko'p jihatdan sifat monitoringi va uning asosi - sifatni baholashga bog'liq. SHunday qilib, ta'lim sifatini boshqarish o'zaro bog'liq va o'zaro bog'liq elementlardan tashkil topgan uzluksiz yopiq jarayondir (2.6-rasm).



2.6-rasm. Sifat menejmenti uchburchagi

Barcha darajadagi sifat menejmentining asosiy asosiy jarayonlari quyidagilardan iborat: o'quv jarayoni, o'quv ishlari, uslubiy ish, o'quv jarayonini psixologik va valeologik ta'minlash.

Ta'lim muassasalari darajasida asosiy jarayonlar sifatini boshqarish lavozim yo'riqnomalari va me'yoriy hujjatlar, yillik va oylik ish rejalari, dars jadvallar, jadvallar asosida amalga oshiriladi.

Sifat menejmenti tizimini rivojlantirishning birinchi samarali bosqichi maktabning rivojlanish salohiyatining SWOT tahlilini ishlab chiqish bo'lishi mumkin.

Strategik rejalashtirish jarayonidan oldin ta'lim muassasasining rivojlanish holatini har tomonlama tahlil qilish amalga oshiriladi, bu ta'lim jarayonining kuchli va zaif tomonlarini va xodimlarning faoliyatini o'rganish va tushunishni o'z ichiga oladi.

SWOT tahlilini o'tkazish uchun maktab faoliyatiga ta'sir etuvchi tashqi va ichki muhit omillari o'rganiladi (2.7-rasm). Bunday omillar juda ko'p bo'lishi mumkin. Ammo ulardan faqat ta'lim muassasasi faoliyatiga eng katta ta'sir ko'rsatadiganlarini tanlash kerak. Har qanday

tarkibiy qismlarni tahlil qilishda noto‘g‘ri hisob-kitoblar yoki kam baho berish butun rejani amalga oshirishni yanada “izdan chiqarishi” mumkin. Masalan, aniq izchil boshqaruv bo‘lmagan taqdirda ham yuqori malakali kadrlar ham rejalashtirilgan natijalarga erisha olmaydi, moddiy bazaning zaifligi esa eng puxta o‘ylangan dasturlarni amalga oshirishga to‘sqinlik qiladi.



2.7-rasm. SWOT tahlili

Maktab faoliyatining SWOT-tahlili butun jamoaning muvaffaqiyatli ishlashiga ta’sir qiluvchi tashqi va ichki omillarni aniqlashga yordam beradi. Ichki tomonlarga ta’lim muassasasining kuchli va zaif tomonlari, tashqi tomonlari esa rivojlanish imkoniyatlari va normal faoliyatiga tahdidlarni o‘z ichiga oladi.

Kuch - bu tashkilot ustun bo‘lgan narsa yoki unga qo‘shimcha imkoniyatlar beradigan biron bir xususiyat. Kuch ko‘nikmalar, katta tajriba, qimmatli tashkiliy resurslar yoki raqobatbardosh imkoniyatlar, ta’lim muassasasiga ustunlik beradigan yutuqlar (masalan, bitiruvchilarni yaxshiroq tayyorlash, mehnat bozoridagi talab, ilg‘or pedagogik texnologiyalar) bo‘lishi mumkin. Kuch, shuningdek, ta’lim bozorida raqobatbardoshlikni oshirish tajribasi yoki salohiyatiga ega bo‘lgan boshqa ta’lim muassasasi bilan muvaffaqiyatli hamkorlik natijasida ham bo‘lishi mumkin.

Zaiflik - bu tashkilot faoliyati uchun muhim bo‘lgan narsaning yo‘qligi, u muvaffaqiyatsiz bo‘lgan narsa (boshqalar bilan solishtirganda) yoki uni noqulay sharoitlarga soladigan narsa. Zaiflik xodimlarning past malakasi, o‘rinbosarlarning vazifalarini oqilona taqsimlash, noqulay geografik joylashuv va boshqalar bo‘lishi mumkin. Zaiflik, raqobatda qanchalik muhimligiga qarab, ta’lim muassasasini zaiflashtirishi mumkin.

Imkoniyatlar ta’lim muassasasiga yangi narsa qilish imkoniyatini beradigan narsa sifatida belgilanadi: tashqi resurslardan foydalanish, yangi texnologiyalarni joriy etish va hokazo.

Tahdid - bu ta’lim muassasasiga zarar yetkazadigan, uni muhim afzalliklardan mahrum qiladigan narsa. Tahdidlar raqobatchilarning paydo bo‘lishi, demografik vaziyatning murakkabligi, ijtimoiy infratuzilma va boshqalardan iborat bo‘lishi mumkin.

SWOT tahlilining sifati bevosita xolislik va turli ma’lumotlardan foydalanishga bog‘liq. SWOT tahlilini jamoaviy ishlarni tashkil qilishda o‘tkazish mantiqan to‘g‘ri keladi, chunki uni bir kishi amalga oshirishi, ma’lumot uning subyektiv idroki bilan buziladi

Ta’lim muassasasining barcha xodimlarining to‘liq ishtirokida (turli guruhlarda) aqliy hujum usulidan foydalanish eng yaxshisidir. Tashqi mijozlarga xizmatlar ko‘rsatish bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan faoliyat sohalarida iste’molchilar (ota-onalar, jamiyat, ish beruvchilar va boshqalar) o‘z vakillarini jalb qilishlari maqsadga muvofiqdir. Masalan, kasbiy yo‘nalish, ota-onalar, ish beruvchilar bilan ishlash kabi muhim ish sohasini tahlil qilganda, ushbu ma’lumotni


SWOT tahlilidan oldin o‘tkazilgan so‘rovnoma orqali yoki SWOT tahlil guruhining ishiga mijozlarni jalb qilish orqali olish mumkin.

Aqliy hujum SWOT tahlilini o‘tkazishda muhokama ishtirokchilaridan biri vositachi bo‘lib, boshqalarga rahbarlik qiladi, takliflarni qabul qiladi, ularni yozib oladi va olingan ma’lumotlarni umumlashtiradi. Natijalar jadvalda qayd etiladi[4].

Muhokama (Discussion)

Muammoni hal qilish strategiyasini ishlab chiqish (rivojlanish)

SWOT tahlili asosida ta’lim muassasasining “zaif tomonlari” va “imkoniyatlarini”, “kuchli tomonlar” bo‘limiga o‘tkazishga harakat qilish va iloji bo‘lsa, ta’lim muassasasi qila olmaydigan “tahdidlar” ni qoplashga harakat qilish kerak. ta’sir qiladi, lekin faqat qandaydir tarzda ularga moslasha oladi (2.8-rasm).



2.8-rasm. Muammolarni hal qilish strategiyasi

SWOT tahlilining asosiy usuli - ta’lim holati va uning natijalarining o‘zgarish dinamikasi, o‘quv faoliyatini amalga oshirish shartlari, o‘quvchilar kontingenti, o‘quvchilarning o‘quv va maktabdan tashqari yutuqlarini tizimli monitoring qilish.

Maktabning rivojlanish salohiyatining yaxshi ishlab chiqilgan SWOT tahlili quyidagilarni ko‘rsatadi:

1. Maktab muassasasining afzalliklari va kamchiliklari qanday, ular tashqi va ichki tahdidlar bilan qanday bog‘liq. Misol uchun, kuchli o‘qituvchilar tarkibi aniq afzallik, lekin ko‘p sonli o‘quvchilar va ortiqcha ishlagan o‘qituvchilar kamchilikdir. O‘quvchilarni qabulga yaxshi tayyorlashga imkon beradigan o‘qituvchilarning mahorati rivojlanish uchun ajoyib imkoniyatdir va sinflarda o‘quvchilarning ko‘pligi to‘g‘ri tayyorgarlik darajasiga tahdiddir.

2. Tashqi sharoitlar maktab ishiga qanday ta’sir qiladi. Bu yerda maktab binosining joylashuvi yaxshi misoldir. Agar u markaziy hududda joylashgan bo‘lsa, siz tezda maktabga borishingiz mumkin - bu qulay holat va agar u turar-joylardan uzoqda joylashgan bo‘lsa - siz minusga duch kelasiz.

3. Ta’lim muassasasining kuchli tomonlarini zaif tomonlarini qoplash va noqulay vaziyatlarga dosh berish uchun qanday ishlatish mumkin. Misol uchun, kuchli o‘qituvchilar jamoasi maktab binosining yomon joylashuvini qoplashga yordam beradi.

4. Maktabdagi kamchiliklar uning muvaffaqiyatiga qanday xalaqit berishi mumkin. SHunday qilib, juda ko‘p o‘quvchillar o‘quvchilarning tayyorgarlik darajasini pasaytiradi va ota-onalarning noroziligiga sabab bo‘ladi va bu allaqachon o‘quvchilarning chiqib ketishiga olib keladi.

5. Qaysi afzalliklarni ishlab chiqishga arziydi va qaysi biri maksimal foyda bilan ishlatilishi mumkin. Shunday qilib, kuchli o‘qituvchilarning to‘g‘ri tashkil etilgan ishi Yagona davlat imtihonining natijalarini yaxshilashga yoki olimpiada g‘oliblarini ko‘paytirishga yordam beradi, bu esa maktabning mashhurligini tezda oshiradi.

Maktab rivojlanishining SWOT tahlili asosida kelgusidagi ishlar rejasi tuziladi, kamchiliklarni bartaraf etish yoki ularni afzalliklarga aylantirish bo‘yicha qarorlar qabul qilinadi.

Bunday tahlil natijasida ma’muriyat va professor-o‘qituvchilarning keyingi harakatlarini belgilaydigan qarorlar ro‘yxati olinadi, chunki SWOT tahlili davomida olingan ma’lumotlar ta’lim tashkilotining rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish uchun asos bo‘ladi[5].

Xulosa (Conclusion)

O‘tkazilgan SWOT-tahlil ta’lim tashkiloti faoliyatining mumkin bo‘lgan yo‘nalishlarini aniqlash va ular asosida maqsad, vazifalar, ish rejasi va natijalarini belgilab beruvchi maktabni rivojlantirish dasturini ishlab chiqish imkonini beradi. Bu komponentlarning barchasi maktabni boshqarishni takomillashtirishning belgilovchi yo‘nalishlari bo‘ladi. Maktabning rivojlanish salohiyatini aniqlashda SWOT tahlil metodidan foydalanildi. Mazkur tahlil natijalari ta’lim sifatini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqishda asos bo‘lib xizmat qildi.

ADABIYOTLAR

1. Yo‘ldoshev N.K, Zaxidov G.E. “Menejment” « O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti Toshkent - 2018. -392 bet.
2. Sharifxo‘jaev M., Abdullaev Yo. Menejment: Darslik. – Toshkent: O‘qituvchi, 2001. – 656 b.
3. To‘xtaboev A.T. Ma’muriy menejment. – Toshkent: Moliya, 2003. – 135 b.

King M.B. and Newman F.M. (2001) Building school capacity through professional development: conceptual and empirical considerations. [Текст] International Journal of Educational Management, 15(2)p87-93

4. Ibragimova G.S. Features of the use of information and communication technologiyes in assessing the quality of education// Central Asian Journal of education. – 4-13-2022.Issue 1- vol7/ iss1/4.
5. Ibragimova.G.S. Assenssing the use of information and communication technology quality of education // Herald pedagogiki. Nauka i Praktyka Journal.-Warszawa, 2022. -№5 – P.38-4

UO‘T: 37.018.43:004

TEXNIKA OLIY TA’LIM MUASSASALARI MAGISTRANTLARIDA RAQAMLASHTIRISH KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH – ZAMONAVIY TA’LIMNING MUHIM OMILI SIFATIDA

M.B.Madraximova
Namangan davlat texnika universiteti, o‘qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada texnika oliy ta’lim muassasalari magistrantlarida raqamlashtirish kompetensiyalarini rivojlantirish masalasi zamonaviy ta’lim tizimining muhim omili sifatida ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan asoslangan. O‘tkazilgan tadqiqotlar asosida raqamlashtirish kompetensiyasining mazmuni, tuzilmasi va rivojlanish darajalari aniqlanib, ularni shakllantirishga qaratilgan pedagogik model ishlab chiqildi va tajriba-sinovdan o‘tkazildi. Tadqiqot natijalari magistrantlarning raqamli texnologiyalarni o‘quv, ilmiy-tadqiqot va kasbiy faoliyatda samarali qo‘llash ko‘nikmalari sezilarli darajada oshganini ko‘rsatdi.

Аннотация. В статье научно-теоретически и практически обоснован вопрос развития компетенций цифровизации у магистрантов технических вузов как важного фактора современной системы образования. На основе проведенных исследований определены содержание, структура и уровни развития компетенции цифровизации, разработана и апробирована педагогическая модель, направленная на их формирование. Результаты исследования показали значительное повышение навыков магистрантов по эффективному применению цифровых технологий в учебной, научно-исследовательской и профессиональной деятельности.

Abstract. The article scientifically, theoretically, and practically substantiates the issue of developing digitalization competencies among graduate students of technical universities as an important factor in the modern education system. Based on the conducted research, the content, structure, and levels of development of digitalization competence were determined, and a pedagogical model aimed at their formation was developed and tested. The research results showed a significant improvement in master's students' skills in effectively applying digital technologies in educational, research, and professional activities.

Kalit so‘zlar: raqamlashtirish kompetensiyasi, magistrant, texnika oliy ta’lim muassasasi, raqamli ta’lim, pedagogik model.

Ключевые слова: компетенция цифровизации, магистрант, техническое высшее учебное заведение, цифровое образование, педагогическая модель.

Keywords: digitalization competence, master's student, technical higher education institution, digital education, pedagogical model.

Introduction (Kirish). Ma’lumki, zamonaviy rivojlanish jarayonida raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt jamiyat hayotining barcha sohalariga, jumladan, oliy ta’lim tizimiga ham kirib bormoqda. Bugungi kunda oliy ta’lim muassasalari oldiga nafaqat bilimli, balki raqamli muhitda mustaqil faoliyat yurita oladigan, innovatsion fikrlashga ega bo‘lgan mutaxassislarni tayyorlash vazifasi qo‘yilmoqda. Ayniqsa, texnika oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan magistrantlar uchun raqamlashtirish kompetensiyalarini rivojlantirish dolzarb ilmiy-pedagogik muammo hisoblanadi.

Raqamlashtirish kompetensiyasi tushunchasi ilmiy adabiyotlarda turlicha talqin qilinadi. Xalqaro tadqiqotlarda u shaxsning raqamli texnologiyalarni axborotni izlash, tahlil qilish, qayta ishlash va yaratish jarayonlarida ongli, tanqidiy hamda mas’uliyat bilan qo‘llay olish qobiliyati sifatida izohlanadi. DigComp, TPACK kabi modellar raqamli kompetensiyalarning tarkibiy tuzilmasini aniqlashda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Biroq tahlillar shuni ko‘rsatadiki, texnika oliy ta’lim muassasalari magistrantlari uchun

raqamlashtirish kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan tizimli pedagogik yondashuvlar yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Ko'pchilik tadqiqotlar bakalavriat bosqichiga qaratilganligi bu boradagi tadqiqotlarni olib borishni taqozo etadi [1, 2, 3].

Methods (Metodlar). Yuqoqrida ta'kidlanganlardan kelib chiqib, tadqiqot metodologiyasi pedagogik tizimlilik, kompetensiyaviy yondashuv hamda faoliyatga yo'naltirilgan ta'lim tamoyillariga asoslanishi kerak bo'ladi. Tadqiqotlar o'tkazishda nazariy va empirik metodlar majmuasidan foydalanish tavsiya etiladi.

Shuningdek, nazariy metodlar sifatida ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirish va modellashtirish usullaridan foydalaniladi va ushbu bosqichda raqamlashtirish kompetensiyasining tarkibiy komponentlari (motivatsion, kognitiv, faoliyatli va refleksiv) aniqlanib, ularning rivojlanish mezonlari belgilanadi.

Bundan tashqari, empirik bosqichda pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil etishda texnika oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan magistrantlar ishtirokida uch bosqichda tajribalar olib boriladi, ya'ni aniqlovchi, shakllantiruvchi va yakunlovchi.

Aniqlovchi bosqichda so'rovnoma, test va kuzatish metodlari orqali magistrantlarning boshlang'ich raqamlashtirish kompetensiyasi darajalari aniqlanadi.

Shakllantiruvchi bosqichda loyiha asosida o'qitish, elektron ta'lim platformalaridan foydalanish, raqamli modellashtirish va ilmiy axborot resurslari bilan ishlashga asoslangan pedagogik model joriy etiladi.

Yakunlovchi bosqichda esa olingan natijalar qayta o'lchanib, statistik va sifat tahlili amalga oshiriladi [4, 5, 6].

Results (Natijalar). O'tkazilayotgan tadqiqot natijalarida magistrantlarda raqamlashtirish kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik modelning samaradorligi aniq ko'rsatkichlar asosida shakllanadi.

Shuningdek, aniqlovchi bosqich natijalari asosida, magistrantlarning aksariyatida raqamli texnologiyalardan foydalanish ko'nikmalari fragmentar xarakterga ega ekanligi aniqlanadi.

Shakllantiruvchi bosqich yakunida esa tajriba guruhida magistrantlarning raqamli vositalardan mustaqil foydalanishi, ilmiy ma'lumotlarni tahlil qilishi va raqamli kontent yaratish kompetensiyalarida sezilarli o'zgarishlar, ya'ni o'sish holatlari kuzatiladi. Xususan, yuqori darajadagi ko'rsatkichlarga ega magistrantlar ulushi keskin oshadi.

Yakunlovchi bosqich natijalarida esa tajriba va nazorat guruhlari o'rtasida sezilarli farq mavjudligini ko'rsatadi. Bu esa taklif etilgan pedagogik modelning samaradorligini tasdiqlash imkonini beradi [7, 8].

Discussion (Munozara). Olingan natijalar raqamlashtirish kompetensiyalarini rivojlantirishga oid mavjud ilmiy qarashlar bilan uyg'unlashadi. DigComp va TPACK modellarida ta'kidlangan kompetensiyalar majmuasi tadqiqot natijalari orqali amaliy jihatdan tasdiqlanadi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari asosida, raqamli texnologiyalarni faqat texnik vosita sifatida emas, balki pedagogik jarayonning integral qismi sifatida qo'llash magistrantlarning bilim va ko'nikmalarini chuqurlashtiradi. Bu esa zamonaviy ta'limning asosiy talablariga to'liq mos kelishini ta'minlaydi [9, 10].

Conclusion (Xulosa). Yuqorida ta'kidlanganlardan kelib chiqib, texnika oliy ta'lim muassasalari magistrantlarida raqamlashtirish kompetensiyalarini rivojlantirish zamonaviy ta'limning muhim omili hisoblanadi. Taklif etilgan pedagogik model magistrantlarning kasbiy va ilmiy tayyorgarligini oshirishga xizmat qiladi [11, 12].

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi "Raqamli O'zbekiston

— 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6079-son Farmoni.

2. European Commission. (2018). DigComp 2.1: The Digital Competence Framework for Citizens. Luxembourg: Publications Office of the European Union.

3. Mishra, P., & Koehler, M. J. (2006). Technological pedagogical content knowledge: A framework for teacher knowledge. Teachers College Record, 108(6), 1017–1054.

4. Redecker, C. (2017). European Framework for the Digital Competence of Educators: DigCompEdu. Luxembourg.

5. Андреев А.А. Цифровая педагогика. – М.: Юрайт, 2020. – 256 с.

6. Роберт И.В. Теория и методика информатизации образования. – М.: БИНОМ, 2018. – 320 с.

7. Полат Е.С. Новые педагогические технологии. – М.: Академия, 2019. – 272 с.

8. Хуторской А.В. Компетентностный подход в образовании. – М.: Академия, 2020. – 288 с.

9. Сластенин В.А. Педагогика. – М.: Школа-Пресс, 2017. – 512 с.

10. Қодиров Б.Р. Педагогик инновациялар назарияси. – Т.: Ўқитувчи, 2020. – 200 б.

11. Усмонова М.Т. Рақамли таълим муҳити: назария ва амалиёт. – Т.: Universitet, 2022. – 156 б.

12. Karimov, A., & Tursunov, B. (2021). Digital transformation in higher education. Journal of Education, 5(2), 45–52.

UO'T:355.233:37.015.31

TARIXIY-BADIIY MANBALAR VOSITASIDA KURSANTLARDA HARBIY VATANPARVARLIK SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-METODOLOGIK ASOSLARI

Aliyev Qodirjon Toxirjonovich
Toshkent shahridagi Belarus-O'zbekiston qo'shma tarmoqlararo amaliy texnik kvalifikatsiyalar instituti "Amaliy texnik kvalifikatsiyalar" fakulteti dekan movuni, t.f.f.d (PhD)

Annotatsiya. Ushbu maqolada OHTM kursantlarida harbiy vatanparvarlik sifatlarini rivojlantirishda tarbiyaviy ta'sirga ega tarixiy-badiiy asarlarni tanlash, tarixiy-badiiy asarlar vositasida OHTM kursantlarida harbiy vatanparvarlik sifatlarini rivojlantirish interfaol yondashuv, tarixiy-badiiy asarlar vositasida OHTM kursantlarida harbiy vatanparvarlik jasorat sifatlarini rivojlantirishning texnologik tavsifi hamda tarixiy-badiiy asarlar vositasida OHTM kursantlarining harbiy jasorat sifatlariga egaligini tashxislash masalalari yoritib berilgan.

Аннотация. В данной статье освещены вопросы выбора историко-художественных произведений, имеющих воспитательное воздействие на развитие военно-патриотических качеств у курсантов ВОУ, развития военно-патриотических качеств у курсантов ВОУ посредством историко-художественных произведений, интерактивного подхода, технологической характеристики развития военно-патриотических и мужественных качеств у курсантов ВОУ посредством историко-художественных произведений, а также диагностики наличия военно-мужественных качеств у курсантов ВОУ посредством историко-художественных произведений.

Abstract. This article examines the selection of historical and artistic works that have a pedagogical impact on the development of military-patriotic qualities in higher education institution cadets, the development of military-patriotic qualities in higher education institution cadets through historical and artistic works, the interactive approach, the technological characteristics of the development of military-patriotic and courageous qualities in higher education institution cadets through historical and artistic works, as well as the diagnostics of the presence of military-courageous qualities in higher education institution cadets through historical and artistic works.

Kalit so'zlar: harbiy vatanparvarlik, pedagogik yondashuv, akmeologik, aksiologik, interfaol, muammoli yondashuv, sinergetik, kreativ yondashuv, tarixiy refleksiya.

Ключевые слова. военный патриотизм, педагогический подход, акмеологический, аксиологический, интерактивный, проблемный подход, синергетический, креативный подход, историческая рефлексия.

Keywords. military patriotism, pedagogical approach, acmeological, axiological, interactive, problem-based approach, synergistic, creative approach, historical reflection.

Insoniyat jamiyati tarixiy taraqqiyotida ma'naviyat, insonlararo ma'naviy-axloqiy munosabatlar hamisha bahs talab va azaliy dolzarb masala bo'lib kelgan. Chunki, ma'naviyat nafaqat mamlakatlarning ko'p ming yillik tarixi, ijtimoiy taraqqiyotiga, ayni chog'da millat va xalqning mentaliteti muayyan shaxsning axloqiy barkamolligiga ham katta ta'sir o'tkazadi. Binobarin, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh qo'mondoni Shavkat Mirziyoev ta'kidlaganidek, "... Shaxsiy tarkib ma'naviy jihatdan zaif bo'lsa, ya'ni askar va ofitserlarimizda jangovar ruh, Vatanga mehr va sadoqat, uning taqdiri uchun mas'uliyat bo'lmasa yoki ularning o'rtasida beparvolik hukm sursa, bunday holat nihoyatda noxush oqibatlarga olib kelishi mumkin",- degan fikrlari bugungi globallashuv jarayonida ma'naviy, kerak bo'lsa, muhim siyosiy ahamiyat kasb etadi. Jamiyatning ma'naviy yangilanishi

O‘zbekistonda davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. O‘z navbatida, umumjahon sivilizatsiyasi, global hodisalarning shiddatli ko‘lami har bir shaxsning, jumladan bugungi kursant, ertangi ofitserning ma'naviyati, dunyoqarashi, tafakkur tarziga muayyan darajada ta'sir o‘tkazayotganiga ham alohida e'tibor bilan qarash zarur.

Bugungi xalqaro miqyosida kechayotgan globallashuv, kasbiy mobillashuv, axborot xavfsizligini ta'minlash tendensiyalari ayni vaqtda O‘zbekiston Qurolli Kuchlari tizimini muayyan shartlar asosida istiqbolli rivojlantirishni taqozo etmoqda. Bular quyidagilardan iboratdir:

Qurolli Kuchlar tizimini zamonaviy harbiy texnika va jihozlar bilan ta'minlash;

tizimni rivojlantirishda xalqaro tajriba va milliy qadriyatlarga tayanish;

turli bosqichlar Qurolli Kuchlar tizimidagi harbiy ta'lim muassasalari Farg‘ona "Temurbeklar maktabi" Harbiy akdemik litseyi, O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Kichik mutaxassislarni tayyorlash markazi, O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi (O‘R QK Akademiyasi), O‘zbekiston Respublikasi Harbiy tibbiyot Akademiyasi (O‘R HT Akademiyasi), O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa Vazirligi Axborot kommunikatsiya va texnologiyalar va ahborot harbiy instituti (O‘R MV AKT va AHI), O‘zbekiston Respublikasi Oliy harbiy aviatsiya bilim yurti, Chirchiq oliy tank-qo‘mondonlik bilim yurti (ChOTQMBYu), O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti, M. Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston milliy universiteti harbiy tayyorgarlik o‘quv markazi, Toshkent davlat universiteti Harbiy ta'lim fakulteti, Buxoro davlat universiteti Harbiy ta'lim fakulteti, Farg‘ona davlat universiteti Harbiy ta'lim fakultetining ta'lim oluvchilarida harbiy jasorat sifatlarini rivojlantirishga qaratilgan tizimli harbiy - pedagogik jarayonda harbiy kadrlarni tayyorlash jarayoniga innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish;

harbiy ta'lim muassasalarining pedagog kadrlarida kasbiy mobillik (zamonaviy ta'lim tamoyillari va innovatsiyalarni o‘qitish amaliyotiga tatbiq etishda faollik ko‘rsatish, izchil o‘zgarayotgan ta'lim sharoitlariga tezkor moslashish) sifatlarini hosil qilish;

harbiy kadrlarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish va boshqalar.


Kursantlarda harbiy vatanparvarlik sifatlarini rivojlantirish – harbiy ta'lim muassasalari Qurolli Kuchlar tizimidagi harbiy ta'lim muassasalari Qurolli Kuchlar tizimidagi harbiy ta'lim muassasalari Farg‘ona "Temurbeklar maktabi" harbiy akdemik litseyi, O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Kichik mutaxassislarni tayyorlash markazi, O‘R QK Akademiyasi, O‘R HT Akademiyasi, O‘R MV AKT va AHI, O‘zbekiston Respublikasi Oliy harbiy aviatsiya bilim yurti, ChOTQMBYu, ta'lim oluvchilarida harbiy vatanparvarlik sifatlarini rivojlantirishga qaratilgan tizimli pedagogik jarayon. Mazkur jarayon uzluksiz, izchil va maqsadli tashkil etiladi va o‘zida kursantlarda harbiy vatanparvarlik sifatlarini rivojlantirishda samarali bo‘lgan pedagogik faoliyat mohiyati (maqsad, kutilayotgan natija, vazifalar, ustuvor tamoyillar, samarali bo‘lgan shakl, metod, vosita va texnologiyalar, ulardan foydalanish mexanizmi, qo‘lga kiritilgan natija, uning samaradorligini baholash mezonlari hamda ko‘rsatkichlari)ni o‘z ichiga oladi.

Tarixiy-badiiy asarlar vositasida kursantlarda harbiy vatanparvarlik sifatlarini rivojlantirish – tarixiy mavzularda yaratilgan badiiy asarlarning ma'naviy-axloqiy, estetik ta'siri orqali kursantlarda harbiy vatanparvarlik va jasorat sifatlari (qo‘rqmaslik, jur'atlilik, dovyuraklik, botirlik, jasurlik, dadillik, qat'iyatlilik, mardonavorlik, uddaburonlik, umidsizlanmaslik, tortinmaslik, oliyjanoblik, sadoqat, mardlik, qahramonlik, ishonch va or-nomus tuyg‘usiga egalik)ni rivojlantirishga yo‘naltirilgan pedagogik jarayon.

Tarixiy-badiiy asarlar vositasida kursantlarda harbiy vatanparvarlik sifatlarini rivojlantirish jarayoniga nisbatan pedagogik yondashuvlarni aniqlashga e'tibor qaratildi. Nazariy va oliy harbiy ta'lim muassasalari kursantlarining faoliyatini, xususan, ijtimoiy faolligini


o‘rganish natijasida quyidagi yondashuvlar tarixiy-badiiy asarlar vositasida kursantlarda harbiy vatanparvarlik sifatlarini rivojlantirish jarayonini samarali tashkil etilishini ta’minlashiga ishonch hosil qilindi (1-rasm).

Nazariy tahlil, oliy harbiy ta’lim muassasasi amaliyotini o‘rganish va tahlil qilish asosida tarixiy-badiiy asarlar vositasida kursantlarda harbiy vatanparvarlik sifatlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan pedagogik faoliyatning samaradorligini ta’minlashga quyidagi yondashuvlar ustuvor o‘rin tutishi aniqlandi:



1-rasm. Tarixiy-badiiy asarlar vositasida kursantlarda harbiy vatanparvarlik sifatlarini rivojlantirishda ustuvor bo‘lgan yondashuvlar

Tarixiy-badiiy asarlar vositasida kursantlarda harbiy vatanparvarlik sifatlarini rivojlantirishda quyidagilar ustuvor tamoyillar deb belgilandi (2-rasm):



2-rasm. Tarixiy-badiiy asarlar vositasida kursantlarda harbiy vatanparvarlik sifatlarini rivojlantirishning ustuvor tamoyillari

Tarixiy-badiiy asarlar vositasida OHTM kursantlarida harbiy vatanparvarlik sifatlarini rivojlantirishga qaratilgan jarayonni natijali kechishi, eng avvalo, aniq maqsadga yo‘naltirilgan harbiy-pedagogik faoliyatda ustuvorlik kasb etuvchi tamoyillar va yondashuvlarni aniq belgilab olish bilan bog‘liq. Harbiy vatanparvarlik va jasorat mavzusi aks etgan tarixiy-badiiy asarlarni o‘rganish, kursantlarning asarlarga bo‘lgan munosabati, tarixiy qahramonlarning jasorat ko‘rsatishga undovchi harakatlaridan ilhomlanishi, ulardan namuna olishga bo‘lgan intilishlarini o‘rganish siyosiy va huquqiy; iqtisodiy; ijtimoiy va madaniy kabi omillar doirasida kuzatildi.

Pedagogik jarayonlarni tashkil etishda quyidagilar belgilab olindi:

tadbir jarayonlari samaradorligini kursantlar faolligi va mustaqil faoliyatiga bog‘liqligi;

harbiy xizmatchi shaxsining rivojlanishiga turli darajada ta’sir ko‘rsatuvchi tarbiyaviy munosabatlarning mavjudligi;

tadbir jarayonni tashkil etuvchi komponetlarining o‘zaro bog‘liqligi va aloqadorligi;

bu jarayonda qayta aloqaning ahamiyati va zaruriyati;

pedagogik jarayon bo‘lib hisoblangan tadbir jarayonidagi to‘g‘ri va teskari jarayonlarning mavjudligi;

kursantlarni tashkil qilinadigan tadbirlarga nisbatan qiziqishlari, ya’ni ularda o‘quv motivlarini shakllantirish muhimligi;

kursantlarda ijobiy motivlar shakllantirishning samaradorligi tajribaning natijaviyligida ifodalashi;

tadbir jarayonlarini samaradorligining motivlashtirishga bog‘liqligi;

tadbir jarayonlarida axborotlarning ishonchliligi.

Tarixiy-badiiy asarlar vositasida kursantlarda harbiy vatanparvarlik sifatlarini rivojlantirish jarayonlarini tashkil etishda alohida e’tibor qaratilishi zarur bo‘lgan omillardan biri kursantlar faolligini ta’minlash va mustaqil faoliyatini tashkil etish bo‘lib, bunday jarayonlar samaradorligi nafaqat ta’lim-tarbiya jarayonini ilmiy asosda tashkil etishga, balki mustaqil ta’limni yo‘lga qo‘yish, kursantlarda o‘zini-o‘zi tarbiyalash ko‘nikmalarini shakllantirish, shuningdek, refleksiv ta’limiy muhitni hamda o‘zaro ta’sir jarayonini tashkil etishga bog‘liq bo‘ladi.

Tadqiqot uchun zarur omillarni belgilashda ma’naviy yo‘nalishdagi pedagogik-psixologik mazmunga ega bo‘lgan umumiy va xususiy xarakterdagi omillar belgilandi. Tarixiy-badiiy adabiyotlarni to‘g‘ri tanlashga o‘z ta’sirini o‘tkazadigan omillar quyidagilardan iborat: pedagogning tajribasi, ma’naviy-ma’rifiy tadbirning tematikasi (mavzusi), badiiy asarning mazmunan ma’naviy-ma’rifiy tadbir mavzusiga mos kelishi, asarda ilgari surilgan g‘oya va qarashlarning ma’naviy-ma’rifiy tadbir ishtirokchilarining ma’naviy ehtiyoji, qiziqishi, xohish-istaklari va dunyoqarashlariga mos kelishi, ta’lim muassasasi axborot-resurs markazi xodimlari tomonidan ko‘rsatiladigan tashkiliy-metodik yordam, tashkil etilishidan kamida ikki oy avval ishtirokchilarni tadbir mavzusi, o‘qilishi tavsiya etiladigan tarixiy-badiiy asarlar, ahamiyatga olish zarur bo‘lgan ma’lumotlardan xabardor qilish, ishtirokchilarning ijtimoiy faolligi kabilardir.

Yuqorida olib borilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra xulosa shundaki OHTM kursantlarida harbiy vatanparvarlik sifatlarini rivojlantirish maqsadida ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarni tashkil etishda asosiy vosita sifatida belgilangan tarixiy-badiiy asarlari tanlash murakkab jarayon. Bu jarayonning samarali kechishi ana shu maqsadga yo‘naltirilgan pedagogik faoliyatning bosqichma-bosqich tashkil etilishini taqozo qiladi. Har bir bosqichni tashkil etishda uning samarali kechishini ta’minlaydigan ob’ektiv va sub’ektiv omillarni inobatga olish zarur. Zero, shundagina OHTM kursantlarida harbiy jasorat sifatlarini rivojlantirishga qaratilgan ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarning samaradorligi ta’minlanadi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan tarkibdagi majlisidagi nutqi. 2023 y. 13 yanvar http://asr.uz/all/uzbekiston/shavkat-mirziyoyevning-xavfsizlik-kengashining kengaytirilgan tarkibdagi-majlisidagi-nutqi/ (bayon vaqti 12.01.2023).

2. Mirziyoev, Sh.M. O'zbekiston Qurolli Kuchlarining 25 yilligi munosabati bilan Vatan himoyachilariga bayram tabrigi / Sh.M. Mirziyoev // Vatanparvar. - 2024. - 14 yanvar.-2 b.

3. Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida [Elektron manba]: O'R Vazirlar Mahkamasining qarori 23.02.2018 y., VMQ-140 / Milliy qonunlar bazasi to'plami: ras. sayt. – Kirish mannbasi: www.lex.uz. – Murojaat sanasi: 10.02.2024.

4. Ergasheva, G.M. Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda ko'rgazmali qurollardan foydalanish: o'quv-uslubiy qo'llanma / G.M. Ergasheva. - T.: O'R QK Akademiyasi, 2018. – 20 b.

5. Normatov, R.T. Zamonaviy sharoitda vatanparvarlik tarbiyasini yanada yuksaltirishning dolzarb masalalari. / R.T. Normatov// yoshlarni harbiy - vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda milliy tarbiyaning roli: ilmiy-amaliy anjuman., Toshkent, 10 noyabr 2019 y. / O'R II Akademiyasi; tahrir hay'ati: B.A. Baxramov[va boshq.]. – T.: O'R II Akademiyasi, 2019. – 68 b.

UDK:378.147:37.091.3:004

IMPROVING THE CONTENT OF DEVELOPING STUDENTS' PROFESSIONAL COMPETENCE AND ITS DIDACTIC SUPPORT BASED ON EDUTAINMENT TECHNOLOGIES

Elyor A Pazilov
Gulistan State University
Associate Professor (PhD) of the Department of Foreign Languages for Non-Philological Faculties

Abstract. The article explores theoretical and practical aspects of developing students' professional competence through edutainment technologies. Based on the analysis of modern pedagogical approaches and the results of dissertation research conducted in higher education institutions, the content and didactic support of professional competence development are improved. Edutainment technologies are considered as an integrative educational tool combining learning and entertainment, aimed at increasing students' motivation, activity, and practical orientation. The article substantiates the didactic potential of edutainment, proposes a structural model of professional competence development, and highlights effective methods, forms, and tools of edutainment-based instruction. The results demonstrate that systematic application of edutainment technologies contributes to the development of cognitive, operational, motivational, communicative, and reflective components of students' professional competence.

Keywords: edutainment technology, professional competence, didactic support, higher education, innovative teaching, competence-based approach.

Introduction

In the context of globalization, digital transformation, and rapid changes in the labor market, higher education institutions face the urgent task of training competitive, professionally competent specialists. Modern employers demand not only strong theoretical knowledge but also practical skills, creativity, adaptability, and the ability to solve real professional problems. Therefore, the competence-based approach has become a key paradigm of contemporary education.

In recent years, special attention has been paid to innovative educational technologies that enhance students' motivation and learning effectiveness. One such technology is edutainment, which integrates educational content with entertaining elements. Edutainment technologies create an interactive and engaging learning environment that stimulates students' cognitive activity and supports the formation of professional competence. This article aims to improve the content of developing students' professional competence and its didactic support based on edutainment technologies.

Theoretical Foundations of Professional Competence Development

Professional competence is a complex integrative characteristic of a specialist, reflecting the ability to effectively apply knowledge, skills, experience, and personal qualities in professional activity. Researchers distinguish several structural components of professional competence, including:

- Cognitive component – professional knowledge, concepts, and theoretical foundations;
- Operational (practical) component – professional skills, abilities, and experience in solving practical tasks;
- Motivational-communicative component – professional motivation, interest, communication skills, and teamwork abilities;
- Axiological component – professional values, ethics, and responsibility;

- Reflective-creative component – self-analysis, critical thinking, creativity, and readiness for continuous professional development.

The effective development of these components requires innovative didactic approaches that ensure the integration of theory and practice, student-centered learning, and active participation. Traditional teaching methods often fail to fully address these requirements, which necessitates the introduction of edutainment technologies into the educational process.

Didactic Potential of Edutainment Technologies

Edutainment technology is based on the combination of educational objectives with elements of play, simulation, multimedia, and interactive activities. Its didactic potential lies in the following characteristics:

1. Motivational orientation – entertaining elements increase students' interest and engagement in learning activities.
2. Practical relevance – simulations, role-playing games, and case studies model real professional situations.
3. Interactivity – students actively interact with educational content, peers, and instructors.
4. Flexibility and adaptability – edutainment tools can be adapted to different disciplines and individual learning needs.
5. Integration of digital technologies – multimedia resources, virtual environments, and online platforms support diverse learning styles.

From a didactic perspective, edutainment technologies perform several functions: motivational, developmental, communicative, and reflexive. These functions contribute to the holistic development of students' professional competence.

Improving the Content and Didactic Support of Professional Competence Development

Based on the analysis of dissertation research and pedagogical practice, the content of professional competence development through edutainment technologies can be improved by:

- Integrating professional tasks and real-life scenarios into educational content;
- Designing interdisciplinary modules that combine theoretical knowledge with practical application;
- Using game-based learning, simulations, and project-based activities aligned with professional standards;
- Implementing a step-by-step edutainment model (elicitation, presentation, practice, production, and reflection);
- Ensuring systematic feedback and self-assessment mechanisms.

Didactic support includes teaching methods, forms, and tools that facilitate effective learning. In the edutainment-based approach, the following didactic tools are particularly effective:

- Interactive multimedia presentations;
- Educational games and simulations;
- Virtual laboratories and professional simulators;
- Case studies and role-playing activities;
- Digital platforms for collaborative learning and assessment.

These tools support active learning, encourage independent thinking, and promote the development of professional skills.

Pedagogical Conditions for Effective Implementation

The successful implementation of edutainment technologies in higher education requires several pedagogical conditions:

1. Methodological readiness of teachers – instructors must possess digital and pedagogical competencies to design and implement edutainment-based lessons.

2. Alignment with learning outcomes – edutainment activities should correspond to professional competence requirements and curriculum objectives.
3. Student-centered learning environment – learners should be active participants in the educational process.
4. Continuous assessment and reflection – formative and summative assessment methods should be integrated into edutainment activities.
5. Institutional support – availability of technological resources and organizational support.

Meeting these conditions ensures the effectiveness and sustainability of edutainment-based professional competence development.

Results and Discussion

The application of edutainment technologies in the educational process demonstrates positive results in the development of students' professional competence. Students show increased motivation, higher levels of engagement, and improved practical skills. The integration of interactive and game-based elements enhances their ability to apply theoretical knowledge in professional contexts. Moreover, edutainment technologies foster collaborative learning, communication skills, and reflective thinking.

The findings confirm that edutainment is not merely an entertaining addition to education but a powerful didactic tool that supports competence-based learning. Its systematic use contributes to the balanced development of all components of professional competence.

Conclusion

Edutainment technologies provide significant opportunities for improving the content and didactic support of students' professional competence development. By integrating educational and entertaining elements, these technologies create an engaging learning environment that enhances motivation, practical orientation, and learning effectiveness. The study shows that edutainment-based instruction supports the development of cognitive, practical, motivational, and reflective components of professional competence.

The results of this article can be used in higher education institutions to modernize curricula, improve teaching methods, and train competitive specialists who meet the demands of the modern labor market. Further research may focus on empirical evaluation of specific edutainment tools and their impact on different fields of professional education.

REFERENCES

1. Адилова Ч.А. Edutainment технологияси воситасида талабаларнинг касбий компетентлигини такомиллаштириш методикаси : дис. … PhD. – Гулистон, 2025. – 153 б.
2. Deterding S., Dixon D., Khaled R., Nacke L. From game design elements to gamefulness: defining gamification // Proceedings of the 15th International Academic MindTrek Conference. – 2011. – P. 9–15.
3. Eraut M. Informal learning in the workplace // Studies in Continuing Education. – 2004. – Vol. 26, № 2. – P. 247–273.
4. Kolb D.A. Experiential learning: Experience as the source of learning and development. – Englewood Cliffs : Prentice Hall, 1984. – 256 p.
5. Raven J. Competence in modern society. – London : H. K. Lewis, 2001. – 318 p.
6. Shulman L.S. Knowledge and teaching: foundations of the new reform // Harvard Educational Review. – 1987. – Vol. 57, № 1. – P. 1–22.
7. UNESCO. Education 2030: Incheon Declaration and Framework for Action. – Paris : UNESCO, 2016.
8. World Bank. World Development Report 2022: The Future of Work. – Washington, DC : World Bank, 2022.

UO'T: 796.08:316.3 (575.1)

TALABA-SPORTCHILARNI FUTBOL ELEMENTLARIDAN FOYDALANIB JISMONIY TAYYORGARLIGINI OSHIRISH XUSUSIYATLARI

Boboshev Zuxriddin Nasibovich
"Jismoniy tarbiya va sport" kafedrasi dotsenti
Toshkent davlat transport universiteti
E-mail: zuhriddinboboshev88@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada umumta'lim fakul'teti talabalarning jismoniy tayyorgarlik darajasi o'quv mashg'ulotlari jarayonida futbol elementlaridan foydalangan holda oshirish ustida tahlillari olib borilgan. Mazkur tadqiq qilingan guruhlarda o'quv yili yakuniga kelib dinamik xarakteristikalarning yaxshilanganligi qayd qilindi.

Shu bilan bir qatorda chidamkorlikka o'tkazilgan testlarning eng yaxshi ko'rsatkichlari regulyator tizimlar darajasini hamda vegetativ asab tizimining simpatik bo'limi tonusini oshirishda yuzaga keldi (variasiya pulsogrammasi ko'rsatkichlari bo'yicha).

Аннотация. В данной статье проведен анализ повышения уровня физической подготовленности студентов общеобразовательного факультета с использованием футбольных элементов в процессе учебных занятий. В этих исследуемых группах к концу учебного года отмечено улучшение динамических характеристик.

Наряду с этим, наилучшие показатели тестов на выносливость возникли при повышении уровня регуляторных систем и тонуса симпатического отдела вегетативной нервной системы (по показателям вариационной пульсограммы).

Tayanch so'zlar: talabalar, futbol, element, to'p, jismoniy imkoniyatlar, salomatlik, jismoniy tayyorgarlik, testlar.

Ключевые слова: студенты, футбол, элемент, мяч, физические возможности, здоровье, физическая подготовка, тесты.

Kirish. Futbol o'yinini kim sevib, quvonch bilan o'ynamagan deysiz. Unga barcha davrlarda birdek qiziqib kelishgan. Bir misol, atoqli adib, akademik, O'zbekiston xalq yozuvchisi Muso Toshmuhammad o'g'li Oybek o'zining "Globus" kitobiga kiritilgan futbol o'yiniga oid bir hikoyasida quyidagilarni yozgan; "Ko'chalarni changitib to'p o'ynardik. Men yangi sotib olgan qora to'pimni tashlaganimda, Vali uni ustalik bilan bir urgan edi, to'p g'iz etib yuqorilandi-da, qaytib ko'chaga tushmadi. To'p o'ynovchilar turgan joylarida qotib qolishdi.-Eh, qanday yaxshi to'p edi, Shokir akaning bog'chasiga tushdi-ya, essizgina..."

Demak, futbol har qanday sohadagi insonni o'ziga tortib keladi, futbolga o'tmishdagi bobolarimiz ham mehr qo'yishgan. Bu o'yinning tarixi uzoq davrlarga borib taqaladi. Eramizdan avval ham Misr va Sharq davlatlarida futbolga o'xshash to'pli o'yinlar mavjud bo'lgan.

Tadqiqotning maqsad va vazifalari: Talaba-sportchilarning jismoniy tayyorgarligini takomillashtirishda, yuqori shiddatli vaziyatlarda maydonni ko'rish va eshitish qobilyatlarini rivojlantirish uslubiyatini ishlab chiqish, mashg'ulot va musobaqa jarayonida texnik-taktik harakatlarini takomillashtirishda mashg'ulotlarni samarali tashkil etishdan iboratdir.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili: Ushbu tadqiqotda O'zbekiston oliy o'quv yurtlarida jismoniy tarbiyaga oid mavjud ilmiy manbalar, OTM hujjatlari va dasturlar tavsiflarini tizimli ko'rib chiqish va mazmunli tahlil qilish asosida kompleks tahliliy yondashuv qo'llanilgan. Tadqiqot dizayni mavjud amaliyotlarni batafsil taqdim etish hamda ularning samaradorligi va izchilligini tanqidiy ko'rib chiqish imkonini beruvchi ham tavsiflovchi, ham tahliliy tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi. Ushbu uslubiy muvofiqlik jismoniy tarbiya sohasidagi ilmiy tadqiqotlarning belgilangan tamoyillariga amal qiladi, bu esa bilimlarni rivojlantirishda tizimli izlanish va uslubiy qat'iylikning muhimligini ta'kidlaydi.

Tadqiqot usullari: Mazkur ishda ilmiy-uslubiy adabiyotlarni tahlil qilish va umumlashtirish, pedagogik nazorat, pedagogik testlash, pulsometriya (Polar Teams), audiometriya, pedagogik tajriba va matematik-statistika kabi usullardan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar: O‘quv-mashg‘ulot jarayonida joriy etilgan mashqlar majmuasini qo‘llash orqali talaba-sportchilarning texnik-taktik harakatlarini takomillashtirishga erishilgan.

Hozirgi futbol va unga tegishli qonun-qoidalar keyingi 100 yil ichida deyarli o‘zgarishsiz qolib kelmoqda. Masalan, basketbol o‘yiniga keyingi 100 yil ichida 20 dan ortiq o‘zgarishlar kiritilgan.

Xo‘sh, futbolning o‘yinchilar salomatligi va rivojlanishiga ta’siri bormi? Ma’lum bo‘lishicha, futbol bilan doimiy shug‘ullanilsa, kishida tezlik, chaqqonlik, chidamlilik, mo‘ljal olish kabi sifatlar yaxshi rivojlanadi. Shuningdek, o‘yin davomida futbolchiga katta yuklama tushar ekan. Bu uning iroda kuchini tarbiyalashga xizmat qiladi, tana a’zolarining umumiy chidamliligini oshiradi.

Hozirgi kunga kelib sport va jismoniy tarbiya yoshlar hayotining ajralmas qismiga aylanib bormoqda.

Chunonchi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston bolalar sportini rivojlantirish jamg‘armasini tuzish to‘g‘risida”gi farmonida: “Bolalarni jismoniy va ma’naviy tarbiyalashning zamonaviy shakl va uslublarini, jinsi va yoshiga qarab bolalarga sport ko‘nikmalarini singdirish, sport sohasida iqtidorli bolalarni ixtisoslashtirilgan sport maktablari va markazlaridagi mashg‘ulotlarga tanlab olishning ilmiy asoslangan tizimlarini ishlab chiqishni tashkil etish hamda ularni tadbiq qilishga ko‘maklashish” lozimligi alohida ta’kidlanadi.

Murabbiy o‘yinning taktik rejasini qanday qilib tuzgan bo‘lmasin, bu reja alohida futbolchilarning harakatlari bilan amalga oshiriladi. Ana shuning uchun ham individual taktik kamolotga erishmay turib, jamoaning o‘yinini chiroyli va risoladagidek qiladigan aniq taktik harakatlarni oshirishni xayolga ham keltirib bo‘lmaydi.

Futbol o‘yinida taktika bilan texnika bir-biriga chirmashib ketgan bo‘ladi. To‘pni kimga va qanday uzatish lozim, raqibni dog‘da qoldirish uchun aylanib o‘tishni ishlatish kerakmi yoki to‘pni sherikka oshirgan ma’qulmi, darvozaga qaysi paytda zarb berish zarur ekanligini Hal qilayotgan o‘yinchi taktik tafakkurdan foydalanadi, ahd qilgan harakatini amalga oshirayotganda esa u texnik mahoratini namoyish etadi. Demak, texnika o‘yinchining texnik rejalarini amalga oshirish vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Texnik tayyorgarlik a’lo darajada bo‘lsagina xilma-xil taktik harakatlarni bajarish mumkin.

Teng kuchli jamoalar uchrashuvida ulardan birining g‘alabasiga ko‘pincha mag‘lub bo‘lganlarda irodaning kamlik qilgani yoki jismoniy va texnik tayyorgarlik bo‘sh bo‘lgani sabab qilib ko‘rsatiladi. Biroq futbol o‘yinidagi g‘alaba aksariyat hollarda taktik rejalar kurashi bilan belgilanadi.

Taktika ikki jamoaning jismoniy, texnik va ma’naviy-irodaviy tayyogarlikdagi darajalari teng bo‘lganda, ulardan birining g‘alaba qilishini ta’minlab beradigan muhim omildir. Yirik musobaqalardagi ko‘plab misollar shundan dalolat beradi.

Ustalik bilan ishlatilgan taktikagina muvaffaqiyat keltira oladi. Ba’zan jamoalar har qanday raqibga qarshi o‘ynaganda ham bir xil taktika ishlataveradilar. Taktik jihatdan bunday qashshoqlik, bir xillik mahoratning o‘sib borishiga to‘sqinlik qiladi. Har bir jamoa, ayniqsa, yuqori darajali jamoa xilma-xil taktik planda o‘ynay bilishi kerak, bo‘lmasa u, ayrim yutuqlari bo‘lishiga qaramay, musobaqalarda katta g‘alabaga erisha olmaydi.

O‘quv-trenirovka jarayonida taktik tayyorgarlikka jiddiy e’tibor beriladi. Har bir o‘yinchi va, umuman, jamoa harakatlarning xilma-xil variantlarini mukammal egallagan bo‘lishi kerak.

Hujum harakatlari bilan himoya harakatlarining doimiy kurashi natijasida o‘yin taktikasi uzluksiz takomillashib boradi. Xuddi ana shu kurash futbol taktikasi taraqqiyotining asosiy harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi.

Raqibga qarshi kurashayotgan jamoa harakatlaridagi uyushqoqlikka alohida futbolchilar o‘rtasida vazifalarni aniq taqsimlash bilan erishiladi.

Hozirgi vaqtda o‘yinchilarni vazifalariga ko‘ra taqsimlash ular tayyorgarligidagi universallikka asoslangan bo‘ladi. Bu hamma ishni barcha birdek bajara oladi degan so‘z emas, albatta. Ammo har bir futbolchi o‘yinning hamma texnik usullarini egallagan bo‘lishi, hujumda ham, himoyada ham bilib harakat qilishi kerak. O‘yindagi ayrim vazifalarni esa o‘yinchi ayniqsa yaxshi ijro etadigan bo‘lishi lozim.

Futbolchilar vazifalariga ko‘ra darvozabonlarga, qanot himoyachilari, markaziy himoyachilar, o‘rta qator o‘yinchilari, qanot hujumchilari va markaziy hujumchilarga bo‘linadi.

Mudofaadagi muvaffaqiyat bir guruh o‘yinchilarning to‘g‘ri straxovka qilishlariga, o‘zaro almashuvchanligi va ularning bir-biriga mos harakatlarigagina emas, balki himoyachilarning to‘pi bor va to‘p yo‘q o‘yinchiga qarshi individual harakat qilish mahoratiga, ya’ni himoyachining muayyan vaziyatda o‘z “homiy” ligidagi o‘yinchiga nisbatan qanchalik to‘g‘ri joy tanlashiga ham bog‘liq. Oqilona pozitsiya tanlash mudofaada muvaffaqiyatli harakat qilishning asosi hisoblanadi.

To‘p boshqarayotgan va to‘p boshqarmayotgan o‘yinchiga qarshi harakatlar himoyadagi individual taktik harakatlarga kiradi.

Himoyachi to‘pni boshqarayotgan o‘yinchiga qarshi harakat qilayotganda quyidagilarga intiladi:

a) raqiblarning to‘p olishiga yo‘l qo‘ymaslikka, ya’ni to‘pni “to‘sib” olishga;

b) raqibga yo‘naltirilgan to‘pni yo‘lda “olib qolish” harakatini bajarishga.

To‘sib olish - bu mudofaadagi jamoa o‘yinchisining raqib o‘yinchisi yo‘lini to‘sib, uning to‘p olish imkoniyatini qiyinlashtiradigan harakati. Raqib yo‘lini to‘sib olish uchun himoyachi shu o‘yinchi bilan o‘z darvozasi orqasiga o‘tishi (darvozaga nisbatan yonlamaroq yoki orqa o‘girib turishi) kerak. Himoyachi bilan hujumchi orasidagi masofa to‘p bilan o‘yinchi darvozaga yaqinlashgan sari yoki darvozadan uzoqlasha borgan sayin kamayib yoki ko‘payib borishi mumkin. Pozitsiya, shuningdek himoyachining yugurish tezligiga, o‘zaro kurashayotganlarning kuchlari nisbati va boshqa omillarga bog‘liq bo‘lishi mumkin.

To‘sib olishda himoyachi quyidagilarga amal qilishi kerak:

1. Raqib darvozasiga xavf solayotganida yoki o‘z harakatlari bilan darvozani zabt etishga qulay vaziyat yaratib berish mumkin bo‘lib qolganda, uning yo‘li to‘siladi.

2. Raqib darvozaga qanchalik yaqin kelsa, unga shunchalik yaqin masofada yo‘lini to‘sish kerak.

3. O‘yin vaziyatiga va o‘yinchilar qanday turganiga qarab, “o‘yindan chiqqan” holat hosil qilishi mumkin.

Olib qolish - bu mudofaadagi jamoa o‘yinchisining o‘ziga bevosita yaqin turgan raqib o‘yinchisiga yo‘naltirilgan to‘pni qo‘lga kiritish niyatidagi harakati. To‘sib olishdagi singari olib qolishdagi muvaffaqiyat ham himoyachining to‘g‘ri pozitsiya tanlashiga, to‘pga vaqtida chiqishiga, vaziyatni to‘g‘ri baholashiga, tezkorligiga va h.k.larga bog‘liq. Olib qolishda himoyachi bilan hujumchi o‘rtasidagi masofa, odatda, to‘sib qolishdagiga nisbatan ko‘proq bo‘ladi.Boisi - bunda himoyachi faol tomon bo‘lib, to‘p uchishi kerak bo‘lgan tomonga otilib chiqishga ulguradi.

Olib qolishda o‘ynaganda himoyachi quyidagilarga amal qilishi kerak:

a) to‘p yoki to‘pni olayotgan raqib qayerdaligiga qarab, hujumchiga bo‘lgan masofani keragicha saqlash;

b) sharoitni to‘g‘ri baholash va harakat boshlash paytini to‘g‘ri aniqlash;

v) to‘pni olib qolishning eng ma’qul vositasini tanlash.

To‘pi bor o‘yinchiga qarshi individual o‘yin ilgarilama mudofaa taktikasiga, ya’ni raqib o‘yinchisini kuzatish va unga qarshi o‘ynashga asoslangan bo‘ladi.

Ko‘p hollarda mudofaadagilar raqib o‘yinchisi to‘p olayotganda yoki to‘pni nazorat qilib turganda kurash boshlaydilar. Yakka kurashning muvaffaqiyatli yoki muvaffaqiyatsiz chiqishi mudofaadagilarning to‘p olib qo‘yishda kerakli vosita va usullarni tanlash va qo‘llashda qanchalar tajribali ekaniga bog‘liq.

Himoyachi to‘pni raqibdan u to‘p qabul qilayotgan paytda olib qo‘yishga intilishi kerak, chunki bu paytda hujumchining e’tibori asosan texnik usulni qanday bajarishga qaratilgan bo‘lib, u keyingi taktik harakatiga kamroq e’tibor berayotgan bo‘ladi.

To‘pni boshqarayotgan o‘yinchiga qarshi harakatda himoyachi quyidagilarni bajarishga intiladi:

a) to‘pni raqibdan olib qo‘yish;

b) to‘p uzatilishiga to‘sqinlik qilish;

v) to‘p olib yurilishiga to‘sqinlik qilish;

g) zarba berilishiga to‘sqinlik qilish.

To‘pni olib qo‘yishda tezkorlikning, masofani his etish va vaqtni mo‘ljallash, shuningdek butun o‘yin vaziyatini baholay bilishning ahamiyati kattadir.

Futbolda bir xilda takrorlanadigan holat va vaziyatlar bo‘lmaydi, shuning uchun hujum qilayotgan o‘yinchiga to‘p bermaslik uchun qachon va qayerda bo‘lishini himoyachining o‘zi aniqlashi kerak. Ba’zan o‘yinchiga juda yaqin kelib, uning ketidan qolmasligi, ba’zida esa o‘z joyidan ketmasligi kerak bo‘ladi. Ammo har qanday holda ham hujum qiluvchiga bemalol to‘p olish imkonini bermaslik lozim.

Himoyachi hujum qilayotgan o‘yinchi harakatlarini kuzatayotib, unga darhol hujum qilish kerakmi yoki ozroq kutish kerakmi - o‘zi hal qiladi. Raqib ro‘parada ekanida u aylanib o‘ta boshlashini yoki to‘pni olib yura boshlashini kutgan ma’qul. Raqib aylanib o‘tishga tayyorlanib, himoyachiga yaqin kelganida, himoyachi to‘pni olib qo‘yish yoki tepib chiharib yuborish paytini topa bilishi kerak.

O‘yin sharoiti va oqibat qanday chiqishiga qarab himoyachi raqibdan to‘p olib qo‘yishning ma’lum bir usulini tanlaydi. Bunda sirpanish, to‘pni tepib yuborish, yelkada turtish va shu kabi usullardan foydalansa bo‘ladi.

Goho himoyachi qulay pozitsiyaga chiqib qolgan o‘yinchiga to‘p uzatilishiga qarshilik ko‘rsatishi kerak bo‘lib qoladi. Bunday vaziyatda to‘pni olib qo‘yishga yoki yakkakurash boshlashga kirishmagan ma’qul, chunki himoyachining noo‘rin harakati ahvolni keskinlashtirib yuborishi mumkin. Bunday vaziyatda to‘p yuqorilatib yoki yonlamasiga uzatilishiga to‘sqinlik qilish uchun himoyachi to‘pni boshqarayotgan o‘yinchiga 2-3 m qolguncha yaqin boradi. Uning asosiy maqsadi mudofaadagi sheriklari o‘z pozitsiyalariga borib olishlari uchun vaqtdan yutishdir.

Basharti himoyachi to‘pni olib qolishga yoki raqib to‘p olayotganda uni olib qo‘yishga ulgurmasa, unda butun harakati-yu ishg‘ol qilgan pozitsiyasi bilan to‘pi bor raqibning tez ilgarilashiga halaqit beradi. Bordi-yu hujumchi har qalay olg‘a harakat boshlab qolsa, himoyachi unga parallel harakat qila boshlab, uni yon chiziqqa qisib qo‘yishga harakat qiladi. Shunda hujumchining harakat joyi torayib, sheriklarining bevosita yordamidan mahrum bo‘lib qoladi.

Raqib jarima maydoni yaqinida diagonaliga yoki darvoza chizig‘iga parallel tarzda to‘p olib ketayotgan bo‘lsa, himoyachi to‘p olib yurishga to‘sqinlik qilibgina qolmay, balki hujumchini to‘pni orqaga yoki maydonning ko‘ndalangiga uzatib yuborishga majbur qilishi kerak.

Hujumchi jarima maydoni yaqinida darvozani mo‘ljallab zarba bermoqchi bo‘lganida eng xavfli vaziyat yuzaga kelishi barchaga ayon. Bunday holda himoyachi o‘z darvozasiga orqa o‘girib yoki yonlama turib, o‘z pozitsiyasi yoki harakati bilan darvoza tomon zarba berilishiga qarshilik ko‘rsatishi kerak. Himoyachining butun e’tibori raqibning oyoqlarida bo‘lishi zarur: to‘p uchib ketishi lozim bo‘lgan yo‘lga o‘z oyog‘ini qo‘yib qolish uchun uning zarba beruvchi oyog‘i orqaga tortilgan paytni payqab olishga harakat qilish kerak.

Butun futbol o‘yini boshdan-oyoq kombinasiyalar asosiga qurilgan bo‘lib, o‘yinning mazmuni ham aslida shu kombinasiyalardan iborat. O‘yin vaqtida qayta takrorlanmaydigan holatlar ko‘p uchraydi har bir shunday holatning o‘z asosi bor. Bunday asoslarni har qanday o‘yinchi, eng avvalo, himoyachilar bilishi va tushunishi lozim. Shunda taktik planda hujumchilarga qarshi harakat qilish va zarur usullarni qo‘llash oson bo‘ladi.

Mudofaadagi guruh o‘yinining asosiy mazmuni himoya o‘yinchilarining hujum qilayotgan raqiblariga qarshi uyushgan harakatlari hisoblanadi. Mudofaadagilar o‘zining raqib bilan yakkama-yakka kurashayotgan har bir sherigiga yordam beradi yoki yordam berishga tayyor turadi. Shunday qilib, sherigiga bevosita va kerakli yordam berishdan tashqari, straxovka qilish ham uyushtiriladi. Mohirlik bilan joy tanlash esa aniq hamkorlik qilishga yordam beradi.

Himoyadagi guruh taktikasi darvozaga xavf solayotgan har qanday raqibga qarshi guruh bo‘lib harakat qilishni nazarda tutadi va sheriklariga yordam berishga qaratilgan bo‘ladi.

Straxovka, shuningdek, “devor” va “kesishuv” kombinasiyalariga qarshi harakatlar himoyada ikki o‘yinchining hamkorlik qilish usullariga kiradi.

Maxsus uyushtirilgan qarshi harakatlar, chunonchi, “devor” yasash, sun’iy “o‘yindan tashqari” holat hosil qilish va darvozabon ishtirokidagi harakatlar uch va undan ortiq o‘yinchining hamkorlik qilish usullari sanaladi.

O‘yin vaqtida o‘z sherigiga yordam berish usullaridan biri straxovka hisoblanadi. Himoya straxovkaning to‘g‘ri va vaqtida bo‘lishi, uning mustahkamligi va ishonchliligining garovidir. Straxovka qilish uchun tanlangan pozitsiya zarur hollarda sherik yo‘l qo‘ygan xatoni tuzatadigan bo‘lishi kerak. Bunday pozitsiya hamma vaqt orqada, o‘yinchining o‘z darvozasiga yaqinroq joyda bo‘ladi. To‘p raqiblarning 10-yarim himoyachisida, 11-qanot hujumchisi 2-himoyachidan qochib, bo‘sh joyga chiqadi. 10-o‘yinchi to‘pni o‘sha tomonga uzatadi. Biroq 2-himoyachini straxovka qilish uchun pozitsiyani to‘g‘ri tanlagan 3-himoyachi qanot hujumchisidan oldin to‘pga yetib boradi.

“Devor”, “kesishuv”, “to‘pni tegmay o‘tkazish” va “bir tegishdayoq uzatish” kombinasiyalariga qarshi kurashish mudofaadagilar uchun anchagina murakkab bo‘lishiga qaramay, himoyachi bir o‘zi va mudofaadagi sheriklari bilan kelishib o‘ynab, bu kombinasiyalarga qarshi muvaffaqiyatli harakat qila oladi.

“Devor” kombinasiyasiga qarshi kurashda bu kombinasiya qayerda bo‘layotganini hisobga olish kerak. Ba’zan hujumchilardan birini juda yaqin qo‘riqlashdan voz kechib, zonada o‘ynagan yoki “devor” kombinasiyasini amalga oshirishga bo‘sh joy qoldirmaslik maqsadida mudofaa kuchlarini jarima maydoni yaqiniga to‘plagan ma’qul bo‘ladi. Birinchi uzatilgan to‘pni olayotgan raqibga nisbatan pozitsiyani tanlash bu kombinasiyaga qarshi harakatdagi asosiy payt hisoblanadi. To‘pni tepib chiharib yuborishni, raqibning javob uzatishini qiyinlashtirishni yoki uni dastlabki rejasidan qaytishga majbur qilishni mo‘ljallab raqib yaqinidan joy tanlash kerak.

Xulosa va takliflar: Olingan natijalar va muhokamalar asosida O‘zbekiston oliy o‘quv yurtlarida jismoniy tarbiya va sport tayyorgarligini takomillashtirish bo‘yicha quyidagi tavsiyalar taklif etiladi:

1. O‘quv dasturini takomillashtirish: Talabalarning global innovatsiyalardan xabardor bo‘lishini ta’minlash uchun raqamli sport texnologiyalari, mashg‘ulotlardagi ma’lumotlar tahlili

va zamonaviy tiklanish usullari bo‘yicha maxsus modullarni ishlab chiqish. Ushbu takomillashtirishlar mavjud kuchli metodologik asosni almashtirishi emas, balki to‘ldirishi kerak.

2. Jismoniy tarbiya o‘qituvchilari uchun yangi mashg‘ulot texnologiyalari, dalillarga asoslangan murabbiylik uslubiyotlari va zamonaviy sport fanlari tadqiqotlariga yo‘naltirilgan doimiy malaka oshirish dasturlarini amalga oshirish. Inson kapitaliga kiritilgan ushbu sarmoya o‘qitish sifatining jahon taraqqiyoti bilan hamqadam bo‘lishini ta’minlaydi.

3. Amaliy mashg‘ulotlar imkoniyatlarini oshirish va dasturlarning ish joyidagi o‘zgaruvchan talablarga muvofiqligini ta’minlash uchun sport tashkilotlari, sog‘lomlashtirish muassasalari va ta’lim muassasalari bilan hamkorlik aloqalarini mustahkamlash. Bunday hamkorlik, shuningdek, resurslarni taqsimlash va uskunalarga kirishni osonlashtirishi mumkin.

4. Tadqiqotlarni kengaytirish: Sportni rivojlantirish va jismoniy tarbiya sifatini oshirish bo‘yicha aniqlangan milliy ustuvor yo‘nalishlarga bag‘ishlangan talabalarning ilmiy-tadqiqot loyihalarini qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirish. Sport pedagogikasida innovatsiyalarga yo‘naltirilgan maxsus tadqiqot markazlarini tashkil etish o‘qitish metodikasining dalillar bazasini yanada mustahkamlashi mumkin.

5. Xalqaro integratsiya: Milliy an’analar va uslubiyotlarning qimmatli jihatlarini saqlab qolgan holda, talabalarni jahon miqyosida jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlarining turli yondashuvlaridan xabardor qilish uchun kurslarda qiyosiy xalqaro tarkibiy qismlarni ishlab chiqish.

Ushbu tavsiyalarning amalga oshirilishi O‘zbekiston oliy o‘quv yurtlarida allaqachon mustahkam bo‘lgan jismoniy tarbiya tizimini yanada mustahkamlaydi, kasbiy tayyorgarlik sifatini ham, ushbu sohaning milliy rivojlanish maqsadlariga qo‘shgan hissasini ham oshiradi.

ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 5-yanvardagi “Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5283-son qarori.

2. Boboshev Z.N. - “Futbol mashg`ulotlarida talabalarning texnik-taktik tayyorgarligini harakatli o`yinlar bilan bog`lash xususiyatlari” O‘quv qo‘llanma. - T.: 2022

3. K.B.Muxammadiyev, “Talabalarning jismoniy ko‘rsatgichlarini rivojlantirish”/Uslibiy qo‘llanma/ Toshkent-2019

4. Z.N.Boboshev, “Jismoniy tarbiya va sport” (milliy va harakatli o‘yinlar orqali futbol elementlarini takomillashtirish) o`quv qo`llanma. Toshkent-2023

5. Нуримов Р.И. - “Ёш футболчиларни техник ва тактик тайёрлаш”. Ўқув қўлланма. Т., ЎзДЖТИ, 2005.

UO'T:378.147:53:004

AXBOROT TEXNOLOGIYALARINI QO'LLAB TEXNIKA OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA FIZIKA FANINI O'QITISHNING MAQSAD VA VAZIFALARI

Atajanova Gulzar Kazakbaevna
Nukus davlat texnika universiteti katta-o'qituvchisi
e-mail: tilewbiyke@mail.ru

Annotation. This article examines the scientific and pedagogical foundations of using information technologies in the process of teaching physics at technical higher education institutions. The possibilities of digitalizing physics education to deepen students' theoretical knowledge, develop practical skills, and form professional competencies are analyzed. In addition, the role of modern information technologies in the educational process, their didactic potential, as well as the goals and objectives of teaching are substantiated from a scientific and theoretical perspective.

Аннотация. В данной статье рассматриваются научно-педагогические основы использования информационных технологий в процессе преподавания физики в технических высших учебных заведениях. Проанализированы возможности цифровизации физического образования для углубления теоретических знаний студентов, развития их практических умений и формирования профессиональных компетенций. Также обоснована роль современных информационных технологий в учебном процессе, раскрыты их дидактические возможности, цели и задачи обучения с научно-теоретической точки зрения**.**

Annotatsiya. Mazkur maqolada texnika oliy ta'lim muassasalarida fizika fanini o'qitish jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanishning ilmiy-pedagogik asoslari yoritilgan. Fizika ta'limini raqamlashtirish orqali talabalarning nazariy bilimlarini chuqurlashtirish, amaliy ko'nikmalarini rivojlantirish hamda kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish masalalari tahlil qilingan. Shuningdek, zamonaviy axborot texnologiyalarining o'quv jarayonidagi o'rni, o'qitishning maqsad va vazifalari ilmiy-nazariy jihatdan asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: axborot texnologiyalari, fizika ta'limi, texnika oliy ta'lim muassasalari, raqamli ta'lim, innovatsion pedagogika, virtual laboratoriya.

Ключевые слова: информационные технологии, физическое образование, технические высшие учебные заведения, цифровое образование, инновационная педагогика, виртуальная лаборатория.

Keywords: information technologies, physics education, technical higher education institutions, digital education, innovative pedagogy, virtual laboratory.

Hozirgi globallashuv va raqamli iqtisodiyot sharoitida oliy ta'lim tizimi oldiga zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega, raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash vazifasi qo'yilmoqda. Bu jarayonda axborot texnologiyalarini ta'lim tizimiga joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, texnika oliy ta'lim muassasalarida o'qitiladigan fizika fani muhandislik ta'limining fundamental asosi bo'lib, talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda yetakchi o'rin tutadi.


Fizika fani tabiat qonunlarini o'rganish, texnik qurilmalar va zamonaviy texnologiyalarning ishlash tamoyillarini tushuntirishda asos bo'lib xizmat qiladi. Shu sababli mazkur fanni o'qitishda an'anaviy usullar bilan bir qatorda innovatsion yondashuvlar, axborot va raqamli texnologiyalarni keng qo'llash talab etiladi. Bu esa talabalar bilimini chuqurlashtirish, ularning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish va ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Axborot texnologiyalari fizika fanini o'qitishda murakkab jarayon va hodisalarni vizual, interaktiv va dinamik shaklda namoyish etish imkonini beradi. Kompyuter simulyatsiyalari, animatsiyalar, multimedia taqdimotlar va virtual laboratoriya ishlari yordamida talabalar fizik jarayonlarni chuqurroq anglay boshlaydi.


Axborot texnologiyalari yordamida fizik hodisalarni vizual va interaktiv tarzda o'rganish imkoniyati yaratiladi. Kompyuter simulyatsiyalari, virtual laboratoriya ishlari va multimedia taqdimotlar murakkab tushunchalarni talabalarga tushunarli qiladi.

Misol:


- PhET Interactive Simulations orqali elektr maydoni va kuchlar bilan ishlash tajribalari virtual muhitda xavfsiz tarzda amalga oshiriladi.



- GeoGebra yordamida mexanik jarayonlar va garmonik tebranishlar modellashtiriladi, talabalar o'zgaruvchi parametrlarni nazorat qilib, eksperiment natijalarini tahlil qiladilar.



- MATLAB va Python dasturlari yordamida elektromagnit to‘lqinlar va optik sistemalar simulyatsiyalanadi, bu esa talabalarni ilmiy-tadqiqot jarayoniga jalb qiladi.



Shuningdek, axborot texnologiyalari yordamida talabalar **mustaqil o‘rganish**, masofaviy ta’lim va virtual laboratoriya ishlari orqali ilmiy-tadqiqot faoliyatini amalga oshirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu esa ularning kasbiy va ilmiy kompetensiyalarini rivojlantiradi.

Axborot texnologiyalaridan foydalanish talabalarning o‘quv jarayonidagi faolligini oshiradi, mustaqil ta’limni tashkil etish imkonini kengaytiradi va fizika fanining amaliy ahamiyatini yaqqol namoyon etadi.

Texnika oliy ta’lim muassasalarida fizika fanini axborot texnologiyalari asosida o‘qitishning asosiy maqsadi talabalarda fizik tafakkurni shakllantirish, ularni kasbiy faoliyatga tayyorlash hamda zamonaviy texnika va texnologiyalarni egallashga yo‘naltirishdan iborat.

Mazkur maqsad quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- fizika faniga oid nazariy bilimlarni chuqur va puxta o‘zlashtirishni ta’minlash;
- fizik qonun va hodisalarni amaliyot bilan bog‘lab o‘qitish;
- raqamli ta’lim muhitida ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish;
- talabalarni ilmiy-tadqiqot faoliyatiga yo‘naltirish.

Axborot texnologiyalarini qo‘llash asosida fizika fanini o‘qitish jarayonida quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:

- fizik tushuncha, qonun va nazariyalarni multimedia vositalari yordamida tushuntirish;
- virtual laboratoriya ishlari orqali amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish;
- talabalarni mustaqil ta’lim olishga undash va masofaviy ta’lim imkoniyatlaridan foydalanish;
- ilmiy-tadqiqot va tahliliy fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirish;
- kasbiy yo‘naltirilgan fizika ta’limini ta’minlash.

Mazkur vazifalarni amalga oshirish natijasida talabalar nafaqat nazariy bilimlarga ega bo‘ladi, balki ularni amaliy masalalarni yechishda samarali qo‘llash ko‘nikmalarini ham egallaydi.

Xulosa qilib aytganda, axborot texnologiyalarini qo‘llash texnika oliy ta’lim muassasalarida fizika fanini o‘qitish samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Raqamli ta’lim vositalari talabalarning bilim sifatini yaxshilash, ularning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish va raqobatbardosh mutaxassis sifatida shakllanishiga xizmat qiladi. Shuningdek, axborot texnologiyalariga asoslangan fizika ta’limi zamonaviy mehnat bozori talablariga mos kadrlar tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR

1. Ishmuhamedov R.J. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent, 2018.
2. Saidov Q.S. Fizika o‘qitish metodikasi**.** – Toshkent, 2020.
3. Abduqodirov A.A. Raqamli pedagogika asoslari**.** – Toshkent, 2021.
4. UNESCO**.** ICT in Higher Education**.** – Paris, 2019.
5. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasi. – Toshkent, 2020.
6. PhET Interactive Simulations. University of Colorado Boulder.

UO'T:355.233:37.013.2:81'373.46

O'ZBEK HARBIY TERMINOLOGIYASI ASOSIDA MILLIY-STRATEGIK TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHNING KOMPETENSIYAVIY-PEDAGOGIK MODELI

Norboyeva Madina Diyor qizi
O'zbekiston Respublikasi Harbiy xavfsizlik va mudofaa universitetining Quruqlikdagi qo'shinlar instituti Tillar kafedrasi katta o'qituvchisi, Chirchiq davlat pedagogika universiteti mustaqil izlanuvchisi
norboyevamadina59@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'zbek harbiy terminologiyasi asosida harbiy xizmatchilarda milliy-strategik tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan kompetensiyaviy-pedagogik model ishlab chiqiladi. Harbiy terminlar nafaqat professional aloqa vositasi, balki milliy tarix, harbiy an'analar va strategik tafakkurning lingvistik aksidir. Tadqiqotda harbiy terminologiyani lingvomadaniy va kognitiv yondashuv asosida o'qitish milliy strategik fikrlashni shakllantirishda muhim omil ekanligi asoslab beriladi. Maqolada terminologik, lingvomadaniy va strategik-kognitiv kompetensiyalar integratsiyasiga asoslangan yangi pedagogik model taklif etiladi.

Аннотация. В данной статье разрабатывается компетентностно-педагогическая модель, направленная на развитие национально-стратегического мышления у военнослужащих на основе узбекской военной терминологии. Военные термины рассматриваются не только как средство профессиональной коммуникации, но и как лингвистическое отражение национальной истории, военных традиций и стратегического мышления. В исследовании обосновывается, что обучение военной терминологии на основе лингвокультурологического и когнитивного подходов является важным фактором формирования национального стратегического мышления. В статье предлагается новая педагогическая модель, основанная на интеграции терминологической, лингвокультурной и стратегико-когнитивной компетенций.

Annotation. This article develops a competency-based pedagogical model aimed at enhancing national–strategic thinking among military personnel through Uzbek military terminology. Military terms are considered not only as tools of professional communication but also as linguistic representations of national history, military traditions, and strategic thinking. The study substantiates that teaching military terminology based on linguocultural and cognitive approaches is a significant factor in shaping national strategic thinking. The article proposes a new pedagogical model based on the integration of terminological, linguocultural, and strategic–cognitive competencies.

Kalit so'zlar: harbiy terminologiya, milliy-strategik tafakkur, lingvomadaniy kompetensiya, kompetensiyaviy yondashuv, harbiy ta'lim.

Ключевые слова: военная терминология, национально-стратегическое мышление, лингвокультурная компетенция, компетентностный подход, военное образование.

Keywords: military terminology, national–strategic thinking, linguocultural competence, competency-based approach, military education.

Bugungi kundagi global harbiy muhitda harbiy xizmatchilarning nafaqat texnik bilimlari, balki terminologik, lingvistik va madaniy kompetensiyalari ham strategik ahamiyat kasb etadi. Harbiy atamalar nafaqat lug'aviy birliklar, balki milliy tarix, madaniyat, siyosat va strategik fikrlash bilan chambarchas bog'liqdir. Ularni chuqur anglash harbiy xizmatchilarda milliy-strategik tafakkurni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

O'zbek harbiy terminologiyasi milliy tarix va madaniyatga asoslangan bo'lib, masalan qo'shin, sarbaz, sipoh kabi atamalar milliy harbiy tajribani aks ettiradi. Terminologiyani

o‘rgatish jarayoni esa bunday madaniy kontekstni hisobga olgan holda amalga oshirilganda samaraliroq bo‘ladi. Shuning uchun lingvomadaniy kompetensiyani shakllantirishda kompetensiyaviy-pedagogik modelga ehtiyoj mavjud.

Harbiy terminologiya shunchaki texnik atamalar yig‘indisi emas. U milliy tarix, qadriyatlar, xizmat an’analari va strategik tahdidlar konseptlarini ifodalaydi. Lingvomadaniy kompetensiya esa til bilishdan tashqari, tilning madaniy kontekstini anglashni o‘z ichiga oladi — ya’ni til va madaniyat integratsiyasi. Buning ahamiyati shundaki, harbiy terminlar o‘zining semantik qatlamida milliy tahdidlar, strategiya tushunchalarini ham beradi.

Strategik tafakkur — bu murakkab harbiy vaziyatlarni tizimli tahlil qilish, uzoq muddatli harbiy maqsadlarni ko‘rish va qaror qabul qilish qobiliyatidir. Kompensiyaviy pedagogik yondashuvlar, masalan, situativ mashqlar, kontrastiv tahlil va terminologik diskurs tahlili bu qobiliyatlarni shakllantirishda samarali bo‘lishi mumkin.

Lingvomadaniy komponent terminologiyani til bilan birga madaniyat bilan o‘rgatishni nazarda tutadi. Terminlar faqat texnik ma’noda emas, balki ularning ortidagi tarixiy-madaniy kontekst ham tahlil etiladi. Masalan, milliy urush an’analari va tarixiy jangovar strategiyalar terminlar bilan bog‘lanadi.

Strategik tafakkur komponenti kursantlarda bilimni tizimli tahlil qilish, qaror qabul qilish va murakkab harbiy vaziyatlarni strategik kontekstda anglashi uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni shakllantiradi.

Harbiy terminologiya jamiyatning xavfsizlik, mudofaa va urush haqidagi tasavvurlarini aks ettiradi. Har bir termin ma’lum bir strategik tushunchani ifodalaydi: mudofaa, hujum, strategik zaxira, jangovar tayyorgarlik kabi atamalar harbiy rejalashtirish va tafakkur tizimini shakllantiradi.

Milliy-strategik tafakkur deganda harbiy voqelikni milliy manfaatlar, tarixiy tajriba va madaniy qadriyatlar asosida tahlil qilish qobiliyati tushuniladi. Bu tafakkur tilda, xususan terminologiyada mujassam bo‘ladi [1]. Shu sababli harbiy terminlarni o‘rganish orqali harbiy xizmatchi o‘z milliy strategik modelini shakllantiradi.

Kompetensiyaviy yondashuv ta’lim jarayonini faqat bilim berish emas, balki kasbiy faoliyatga tayyorlaydigan ko‘nikma, tafakkur va munosabatlarni rivojlantirishga yo‘naltiradi [2]. Harbiy terminologiyani o‘rgatishda bu yondashuv quyidagi kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi:

terminologik kompetensiya;

lingvomadaniy kompetensiya;

strategik-kognitiv kompetensiya.

Ularning integratsiyasi milliy-strategik tafakkurning rivojlanishiga olib keladi.

Kompetensiyaviy-pedagogik modelning tuzilishi: Taklif etilayotgan model uch asosiy komponentdan iborat.

1. Terminologik-kontseptual komponent.

Bu komponent harbiy terminlarning ma’nosi, tizimi va ularning o‘zaro bog‘liqligini o‘zlashtirishni ta’minlaydi. Harbiy xizmatchi terminlar orqali harbiy voqelikni aniq tasniflashni o‘rganadi.

2. Lingvomadaniy komponent.

Bu komponent terminlarning tarixiy, madaniy va milliy mazmunini ochib beradi. Masalan, “sarboz”, “sipoh”, “vatan himoyasi” kabi tushunchalar milliy ong va harbiy madaniyatni ifodalaydi.

3. Strategik-kognitiv komponent.

Bu komponent terminlarni strategik tahlil vositasi sifatida qo‘llashni rivojlantiradi. Harbiy xizmatchi terminlar orqali vaziyatni baholaydi, rejalashtiradi va qaror qabul qiladi [3].

4. Modelni o‘quv jarayonida amalga oshirish.

Model quyidagi pedagogik mexanizmlar orqali joriy etiladi:

Kontseptual o‘rgatish – terminlar ularning strategik va madaniy ma’nolari bilan birga o‘rgatiladi.

Vaziyatli mashg‘ulotlar – harbiy senariylar asosida terminlardan foydalanish.

Reflektiv tahlil – o‘rganuvchilar terminlarning strategik tafakkurga ta’sirini tahlil qiladi.

Ushbu model asosida ta’lim olgan harbiy xizmatchilar terminlarni mexanik emas, balki ongli va strategik asosda qo‘llay boshlaydi. Natijada ularda milliy xavfsizlikka nisbatan chuqurroq tushuncha, strategik mas’uliyat va madaniy ong shakllanadi.

Xulosa qilib shuni aytish joizki, o‘zbek harbiy terminologiyasi milliy-strategik tafakkurni rivojlantirishda kuchli pedagogik resurs hisoblanadi [5]. Kompetensiyaviy-pedagogik model esa bu resursni tizimli va samarali qo‘llash imkonini beradi. Ushbu yondashuv harbiy ta’lim sifatini yangi bosqichga ko‘taradi.

Har bir harbiy terminning milliy va strategik konteksti tahlil qilinadi. Masalan, “qo‘shin” termini nafaqat harbiy birlikni, balki tarixiy an’analarni ham o‘z ichiga oladi va uni shunday tahlil qilish terminning milliy miqyosini ochib beradi.

Strategik vaziyatlar orqali terminlarni qo‘llash mashqlari o‘rganuvchilarning strategik tafakkurini mustahkamlashga xizmat qiladi. Bu jarayonda case-study, rolli o‘yinlar va real harbiy senariylar qo‘llanadi.

Mazkur maqolada o‘zbek harbiy terminologiyasi asosida milliy-strategik tafakkurni rivojlantirishning kompetensiyaviy-pedagogik modeli taqdim etildi. Ushbu model lingvistik, lingvomadaniy va strategik tafakkur komponentlarini birlashtiradi va ularni ta’lim jarayoniga integratsiya qilish orqali harbiy xizmatchilarda yuqori darajadagi kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi [8].

Model real ta’lim jarayonlarida qo‘llanilganda, harbiy terminologiyani o‘rgatish nafaqat lingvistik maqsadlarni, balki milliy-strategik tafakkurni rivojlantirish vazifalarini ham amalga oshiradi.

ADABIYOTLAR

1. “O‘zbekiston-2030” davlat dasturini amalga oshirish to‘g‘risida PF-158. **https://lex.uz.**

2. Sarsenbaeva Z. J. Pedagogical Peculiarities of Forming Linguocultural Competence of Higher Education Students in Karakalpakstan. EPRA International Journal of Multidisciplinary Research, 7(6), 161–166.

3. Kurganov A. Ingliz va O‘zbek tillari harbiy terminlarining semantik xususiyatlari. 2024.

4. Nazarov Q. Til va tafakkur. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2012.

5. Jo‘rayev A. Lingvomadaniyat asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.

6. Nurmonov A. O‘zbek tilining madaniy jihatlari. – Toshkent, 2020.

7.Musurmanova Sh.Q. Harbiy terminlarning tilshunoslik va lug‘atshunoslikka kirib kelish jarayoni. ORIENS Journal of Humanities and Social Sciences, 46, 335–339, Toshkent, 2022.

8. Батманов И. А. Военная терминология и её развитие. – Москва: Наука, 2010.

UO'T:372.881.111.1:004

INFORMATIKA VOSITALARI ASOSIDA INGLIZ TILINI O'QITISHNING GAMIFIKATSION METODI: NAZARIY ASOSLAR VA AMALIY YONDASHUVLAR

M.I. Abidova
Toshkent davlat tibbiyot universitet, O'zbek va xorijiy tillar,
pedagogika kafedrasi katta o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada ingliz tilini o'qitishda informatika vositalari asosida gamifikatsiya metodidan foydalanishning nazariy va amaliy jihatlari yoritiladi. Zamonaviy ta'limda raqamli texnologiyalar va o'yin elementlarini uyg'unlashtirish o'quvchilarning motivatsiyasini oshirish, til ko'nikmalarini mustahkamlash va mustaqil fikrlashni rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. Tadqiqotda gamifikatsiyaning pedagogik mohiyati, uning ingliz tili darslarida qo'llanish shakllari, interaktiv platformalar, mobil ilovalar, veb-resurslar hamda o'yin asosidagi topshiriqlarning didaktik imkoniyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, informatika vositalaridan foydalangan holda ishlab chiqilgan gamifikatsion mashg'ulotlar namunasi keltiriladi. Maqola ta'lim jarayonini innovatsion tashkil etishga qaratilgan.

Аннотация. В статье рассматриваются теоретические и практические аспекты использования метода геймификации в обучении английскому языку на основе информационных технологий. В современном образовании интеграция цифровых средств и игровых элементов способствует повышению мотивации учащихся, развитию языковых навыков и формированию самостоятельного мышления. Анализируются педагогическая сущность геймификации, формы её применения на уроках английского языка, использование интерактивных платформ, мобильных приложений и веб-ресурсов. Также представлены примеры геймифицированных занятий с применением ИКТ. Статья направлена на инновационную организацию учебного процесса.

Abstract. This article explores the theoretical and practical aspects of applying gamification methods in teaching English through information and communication technologies. In modern education, the integration of digital tools and game elements plays a significant role in increasing learners' motivation, strengthening language skills, and fostering independent thinking. The study analyzes the pedagogical essence of gamification, its application in English language classes, the use of interactive platforms, mobile applications, web resources, and game-based tasks. Sample gamified lessons based on ICT tools are also presented. The article focuses on innovative approaches to organizing the educational process.

Kalit so'zlar: gamifikatsiya, ingliz tili ta'limi, informatika vositalari, raqamli pedagogika, interaktiv ta'lim, motivatsiya.

Ключевые слова: геймификация, обучение английскому языку, информационные технологии, цифровая педагогика, интерактивное обучение, мотивация.

Key words: gamification, English language teaching, ICT tools, digital pedagogy, interactive learning, motivation.

Zamonaviy jamiyatda ingliz tili global muloqot tili sifatida alohida ahamiyat kasb etmoqda. Axborot texnologiyalarining tez sur'atlarda rivojlanishi ta'lim tizimiga ham yangi talablar qo'ymoqda. Bugungi o'quvchi faqat bilim oluvchi emas, balki faol ishtirokchi, izlovchi va yaratuvchi bo'lishi kerak. Shu nuqtai nazardan, ingliz tilini o'qitishda an'anaviy metodlar bilan cheklanib qolish o'quvchilarning qiziqishini pasaytirishi mumkin.

Gamifikatsiya – o'yin elementlarini ta'lim jarayoniga tatbiq etish orqali o'rganishni qiziqarli, samarali va motivatsiyali qilishga qaratilgan yondashuvdir. Informatika vositalari esa bu jarayonni texnologik jihatdan qo'llab-quvvatlaydi. Demak, ingliz tilini informatika asosida gamifikatsiya metodi orqali o'qitish bugungi kun talabi hisoblanadi.

Gamifikatsiya (inglizcha gamification) – o‘yin mexanizmlari va dizayn elementlarini o‘yin bo‘lmagan muhitda, xususan, ta’limda qo‘llashdir. Bu jarayonda ball, daraja, reyting, belgilar (badge), missiyalar, syujet va raqobat kabi komponentlar asosiy rol o‘ynaydi.

Pedagogik nuqtai nazardan gamifikatsiya:

- o‘quvchining ichki motivatsiyasini kuchaytiradi;
- bilimlarni mustahkamroq o‘zlashtirishga yordam beradi;
- faol ishtirokni ta’minlaydi;
- xatodan qo‘rqmasdan o‘rganish muhitini yaratadi.

Ingliz tili kabi kommunikativ fanlarda gamifikatsiya ayniqsa samarali bo‘lib, tinglab tushunish, gapirish, o‘qish va yozish ko‘nikmalarini tabiiy muhitda rivojlantirish imkonini beradi.

Zamonaviy ta’lim jarayonida informatika vositalari ingliz tilini o‘qitishda muhim pedagogik resurs sifatida namoyon bo‘lmoqda. Raqamli texnologiyalar yordamida o‘quvchilarning til o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini oshirish, individual ta’lim yo‘nalishini shakllantirish va o‘quv jarayonini interaktiv tashkil etish imkoniyati kengaymoqda.

Informatika vositalariga kompyuter texnologiyalari, internet platformalar, mobil ilovalar, interaktiv doskalar, multimediali resurslar va virtual o‘yin muhitlari kiradi. Ushbu vositalar ingliz tili darslarini faqat ma’ruza yoki matn asosida emas, balki ko‘rgazmali, eshitiladigan va faol ishtirokga undovchi shaklda tashkil etishga xizmat qiladi.

Masalan, audio va video materiallar yordamida o‘quvchilarning tinglab tushunish (listening) ko‘nikmalari rivojlanadi. Vizual elementlar esa yangi so‘z va iboralarni tezroq yodda saqlashga yordam beradi. Interaktiv mashqlar orqali grammatik qoidalar mexanik yodlash emas, balki amaliy qo‘llash asosida o‘zlashtiriladi.

Shuningdek, informatika vositalari ta’limni individuallashtirish imkonini beradi. Har bir o‘quvchi o‘z tezligida ishlashi, murakkablik darajasini moslab tanlashi va mustaqil mashq qilishi mumkin. Bu esa bilimdagi bo‘shliqlarni aniqlash va to‘ldirishda muhim rol o‘ynaydi. Informatika vositalari ingliz tilini o‘qitishda faqat texnik yordamchi emas, balki to‘liq pedagogik tizimning muhim tarkibiy qismi sifatida qaraladi.

Gamifikatsion metod – bu ta’lim jarayonini o‘yin mexanizmlari asosida loyihalash orqali o‘quvchini faol subyektga aylantirishga xizmat qiluvchi innovatsion yondashuvdir. Ingliz tili darslarida gamifikatsiya o‘quvchilarni passiv tinglovchidan faol ishtirokchiga aylantiradi.

Gamifikatsiya asosida tashkil etilgan dars quyidagi asosiy pedagogik elementlarga tayangan holda quriladi:

- **Syujet va kontekst** – dars mavzusi o‘yin syujeti bilan bog‘lanadi. Masalan, o‘quvchilar “sayohatchi”, “detektiv”, “kod buzuvchi” rollarini bajaradi.
- **Topshiriqlar tizimi** – har bir vazifa ingliz tilining muayyan ko‘nikmasiga yo‘naltiriladi (so‘z boyligi, grammatika, dialog, yozma nutq).
- **Ball va darajalar** – o‘quvchilar bajarilgan vazifalar uchun ball oladi va keyingi bosqichga o‘tadi.
- **Rag‘bat va mukofot** – yulduzcha, badge, reyting, virtual sertifikatlar orqali motivatsiya kuchaytiriladi.

Gamifikatsiyalashgan darslarda raqobat bilan bir qatorda hamkorlik ham rivojlanadi. Guruhli o‘yinlar orqali o‘quvchilar bir-biriga yordam beradi, fikr almashadi va tilni muloqot vositasi sifatida qo‘llashga o‘rganadi.

Bu metod o‘quvchilarda darsga bo‘lgan qo‘rquvni kamaytiradi, xato qilishdan cho‘chimasdan erkin fikrlash muhitini yaratadi. Natijada ingliz tili o‘rganish jarayoni majburiyat emas, balki qiziqarli sarguzashtga aylanadi.

Quyida ingliz tili darslarida informatika vositalari yordamida gamifikatsiya metodini qo‘llashga doir uchta namunaviy mashg‘ulot tavsifi keltiriladi. Har bir mashg‘ulot o‘quvchilarning til ko‘nikmalarini kompleks rivojlantirishga qaratilgan bo‘lib, raqamli vositalar va o‘yin mexanizmlari asosida tashkil etilgan.

1-mashg‘ulot. Mavzu: “My Daily Routine”

Vositalar: Wordwall, Kahoot, Google Classroom, interaktiv doska

1-bosqich. Motivatsiya

Dars boshida qisqa animatsion video namoyish etiladi. O‘quvchilar kundalik faoliyatga oid so‘zlarni eshitish va ko‘rish orqali qabul qiladi.

2-bosqich. Leksik o‘yin

Wordwall’da “moslashtirish” va “to‘ldirish” turidagi o‘yinlar o‘tkaziladi. Har bir to‘g‘ri javob ball bilan baholanadi.

3-bosqich. Grammatik viktorina

Kahoot orqali Present Simple bo‘yicha test. Reyting real vaqtda ko‘rsatiladi.

4-bosqich. Yakuniy missiya

Juftlikda “My Daily Routine” mavzusida mini-dialog yozish va audio shaklida topshirish.

Pedagogik natija:

O‘quvchilarda so‘z boyligi, gapirish va yozma nutq ko‘nikmalari rivojlanadi.

2-mashg‘ulot. Mavzu: “My Favourite Place”

Vositalar: Canva, Padlet, Quizizz, Google Slides

1-bosqich. Syujetli kirish

O‘quvchilarga “Sayohatchilar klubi” syujeti beriladi. Har biri o‘z sevimli joyini tanlaydi.

2-bosqich. Vizual loyiha

Canva’da o‘quvchilar slayd yaratadi: rasm + 5 ta gap.

3-bosqich. Quizizz viktorinasi

Prepositions of place va descriptive adjectives bo‘yicha test.

4-bosqich. Yakuniy missiya

Padlet devoriga o‘z loyihasini joylash va sinfdoshlar bilan baham ko‘rish.

Pedagogik natija:

O‘quvchilar tasvirlash, fikr bildirish va prezentatsiya qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

3-mashg‘ulot. Mavzu: “Solving a Mystery” (Detektiv syujeti)

Vositalar: Genially, Google Forms, Blooket, audio yozuvlar

1-bosqich. Syujet

O‘quvchilar “detektivlar” bo‘lib, sirli voqeani ochishi kerak.

2-bosqich. Tinglab tushunish

Audio matnni eshitib, savollarga javob berish.

3-bosqich. Kodli topshiriqlar

Blooket’da grammatik va leksik testlar orqali “kalitlar” yig‘iladi.

4-bosqich. Yakuniy missiya

Guruhda voqea yechimini ingliz tilida bayon qilish.

Pedagogik natija:

O‘quvchilarda tanqidiy fikrlash, muloqot va jamoaviy ishlash ko‘nikmalari rivojlanadi. Ushbu uchta gamifikatsion mashg‘ulot namunasi informatika vositalari asosida ingliz tilini o‘qitish jarayonini qiziqarli, samarali va o‘quvchi markazli qilish mumkinligini ko‘rsatadi. Har bir mashg‘ulot o‘yin syujeti, raqamli resurslar va pedagogik maqsad uyg‘unligiga asoslangan.

Ushbu maqolada informatika vositalari asosida ingliz tilini o‘qitishda gamifikatsion metoddan foydalanishning nazariy va amaliy jihatlari tizimli ravishda yoritildi. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, raqamli texnologiyalar va o‘yin elementlarini uyg‘unlashtirish ta’lim jarayonini

an'anaviy "bilim berish" modelidan interaktiv, o'quvchi markazli va motivatsiyaga boy muhitga aylantiradi.

Gamifikatsiya metodi o'quvchilarning ingliz tilini o'rganishga bo'lgan ichki ehtiyojini kuchaytiradi, ularni darsda faol ishtirok etishga undaydi va xatodan qo'rqmasdan muloqot qilishga o'rgatadi. Informatika vositalari esa bu jarayonni texnologik, didaktik va tashkiliy jihatdan ta'minlaydi. Natijada tinglab tushunish, gapirish, o'qish va yozish kabi asosiy til ko'nikmalari kompleks ravishda rivojlanadi.

Amaliy mashg'ulotlar misolida ko'rsatildiki, syujetli o'yinlar, interaktiv platformalar, mobil ilovalar va veb-resurslar yordamida ingliz tili darslarini samarali, qiziqarli va hayotiy vaziyatlarga yaqin tarzda tashkil etish mumkin. Bunday yondashuv o'quvchilarda nafaqat til bilimlarini, balki tanqidiy fikrlash, ijodkorlik, jamoada ishlash va raqamli savodxonlik kabi XXI asr kompetensiyalarini ham shakllantiradi.

Shu bois, informatika vositalari asosida gamifikatsion metodni ingliz tili ta'limiga tizimli joriy etish – bu vaqtinchalik trend emas, balki kelajak ta'limining barqaror modeli hisoblanadi. U o'qituvchidan ijodkorlikni, metodik moslashuvchanlikni va raqamli kompetensiyani talab qiladi, biroq natijada til o'rganish jarayoni majburiyat emas, balki ilhomlantiruvchi sayohatga aylanadi.

Kelajakda ushbu yo'nalishda gamifikatsiyalashgan o'quv dasturlarini ishlab chiqish, milliy kontentga mos raqamli platformalarni yaratish va o'qituvchilarni bu metodika asosida tayyorlash ta'lim sifatini yangi bosqichga olib chiqishi shubhasizdir.

ADABIYOTLAR

1. Deterding S., Dixon D., Khaled R., Nacke L. From Game Design Elements to Gamefulness: Defining Gamification. – ACM, 2011.
2. Urinboyev Z. et al. Prospective directions and stages of creation of smart technologies in the educational system //AIP Conference Proceedings. – AIP Publishing LLC, 2025. – T. 3268. – №. 1. – C. 060032.
3. Urinboyev Z. et al. Prospective directions and stages of creation of smart technologies in the educational system //AIP Conference Proceedings. – AIP Publishing LLC, 2025. – T. 3268. – №. 1. – C. 060032.
4. Urinboyev Z. et al. Prospective directions and stages of creation of smart technologies in the educational system //AIP Conference Proceedings. – AIP Publishing LLC, 2025. – T. 3268. – №. 1. – C. 060032.
Urinboyev Z. et al. Prospective directions and stages of creation of smart technologies in the educational system //AIP Conference Proceedings. – AIP Publishing LLC, 2025. – T. 3268. – №. 1. – C. 060032.

UO'T:37.091.33:004.8

SUN'IY INTELLEKT ASOSIDAGI TIL O'QITISH METODI

M.I.Abidova
Toshkent davlat tibbiyot universiteti katta o'qituvchisi

Annotasiya. Ushbu maqolada sun'iy intellekt (AI) texnologiyalarini til o'qitish jarayoniga integratsiya qilishning nazariy asoslari va metodik yondashuvlari tahlil qilingan. AI yordamida o'quvchilarning talaffuz, grammatik, leksik va muloqot kompetensiyalarini rivojlantirishning samarali metodlari ishlab chiqilgan. Shuningdek, AI asosida ishlab chiqilgan o'qitish platformalari (ChatGPT, Grammarly, Duolingo Max, Replika AI) misolida interaktiv ta'lim muhiti tahlil qilinadi. Maqola sun'iy intellektdan foydalanishning afzalliklari, cheklovlari va o'qituvchi rolidagi o'zgarishlarni ham yoritadi.

Аннотация. В данной статье рассматриваются теоретические основы и методологические подходы к интеграции технологий искусственного интеллекта (ИИ) в преподавание иностранных языков. Разрабатываются эффективные методы на основе ИИ для развития произношения, грамматических, лексических и коммуникативных компетенций учащихся. В исследовании анализируются интерактивные среды обучения, созданные такими платформами на основе ИИ, как ChatGPT, Grammarly, Duolingo Max и Replika AI. Кроме того, в статье обсуждаются преимущества, ограничения и меняющаяся роль преподавателей в обучении с использованием ИИ.

Annotation. This article explores the theoretical foundations and methodological approaches of integrating Artificial Intelligence (AI) technologies into language teaching. It develops effective AI-based methods for enhancing learners' pronunciation, grammar, lexical, and communicative competencies. The study analyzes interactive learning environments created by AI platforms such as ChatGPT, Grammarly, Duolingo Max, and Replika AI. Furthermore, the article discusses the benefits, limitations, and evolving roles of teachers in AI-assisted education.

Tayanch so'zlar: sun'iy intellekt, til o'qitish metodi, lingvodidaktika, raqamli ta'lim, interaktiv muhit, AI-assistent

Ключевые слова: искусственный интеллект, методика обучения языкам, лингводидактика, цифровое обучение, интерактивность, ИИ-помощник.

Keywords: artificial intelligence, language teaching method, linguodidactics, digital learning, interactivity, AI assistant.

So'nggi yillarda ta'lim tizimida sun'iy intellekt texnologiyalarining kirib kelishi til o'qitish paradigmasini tubdan o'zgartirmoqda. An'anaviy metodlar o'rnini asta-sekin individual, interaktiv va adaptiv o'qitish yondashuvlari egallab bormoqda. AI texnologiyalari til o'rganish jarayonida o'quvchilarning shaxsiy xususiyatlarini inobatga olgan holda mashg'ulotlarni moslashtirish, xatolarni tahlil qilish, individual tavsiyalar berish va o'rganish motivatsiyasini oshirish imkonini beradi.

Bundan tashqari, moliyaviy va resurs cheklovlari ham muhim omil hisoblanadi. Ta'lim muassasalari va o‘qituvchilar SI platformalarini tanlayotganda budjet, texnik infratuzilma va o‘quvchilar resurslariga mos kelishini hisobga olishlari zarur. Shu bilan birga, AI vositalari mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuvni to‘liq o‘rnini bosmasligi kerak — u faqat qo‘llab-quvvatlovchi va yordamchi vosita sifatida ishlatilishi lozim.

Umuman olganda, sun'iy intellekt ESP ta'limini **zamonaviylashtirish**, o‘quv jarayonini **samarali, qiziqarli va moslashtirilgan** shaklga keltirishda kuchli vosita bo‘lib xizmat qiladi. O‘qituvchilar va o‘quvchilar ushbu texnologiyalardan ongli va mas'uliyat bilan foydalanganda, ESP ta'limi sifat jihatidan yuqori darajaga ko‘tarilishi, akademik va professional ehtiyojlarni samarali qondirishi mumkin. Shu bilan birga, SI vositalarining cheklovlari va muammolarini oldindan aniqlash va ularni bartaraf etish strategiyalarini ishlab chiqish ta'lim jarayonining barqarorligini ta'minlaydi.

ADABIYOTLAR

1. Dudley-Evans, T., & St John, M. J. (1998). Developments in English for Specific Purposes: A multi-disciplinary approach. Cambridge: Cambridge University Press.
2. Godwin-Jones, R. (2018). Emerging technologies: Artificial intelligence in language learning. Language Learning & Technology, 22(3), 1–17.
3. Luckin, R., Holmes, W., Griffiths, M., & Forcier, L. B. (2016). Intelligence unleashed:An argument for AI in education. London: Pearson.
4. Warschauer, M., & Healey, D. (1998). Computers and language learning: An overview. Language Teaching, 31(2), 57–71.
5. Corti, K., & Gillespie, A. (2019). AI-assisted learning and pedagogical design: Opportunities and challenges. Journal of Educational Technology, 45(4), 23–35.
6. Van Lehn, K. (2011). The relative effectiveness of human tutoring, intelligent tutoring systems, and other tutoring systems. Educational Psychologist, 46(4), 197–221.
7. Holmes, W., Bialik, M., & Fadel, C. (2019). Artificial intelligence in education: Promises and implications for teaching and learning. Boston: Center for Curriculum Redesign.

УДК: 615.32-057.87

РОЛЬ ЛАТИНСКОГО ЯЗЫКА КАК ГЛОБАЛЬНОГО СТАНДАРТА В ФАРМАЦЕВТИЧЕСКИХ РЕЦЕПТАХ

Sayfullayeva Lola Sobitovna
Toshkent davlat tibbiyot universiteti
Lotin tili va xorijiy tillar kafedrasi katta o'qituvchisi
E-mail:: lolasayfullayeva133@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu ilmiy maqolada farmatsevtik retseptlar tuzilishida lotin tilining global standart sifatidagi o'rni har tomonlama yoritiladi. Tadqiqotda lotin tilining tarixiy shakllanish jarayoni, uning qadimgi tibbiyot maktablari rivojidagi hissasi, farmatsevtika sohasida universal terminologiyani yaratishdagi bebaho roli chuqur tahlil qilingan. Ayniqsa, retsept yozish jarayonida lotin tilining barqaror, aniq va qisqa ifoda imkoniyatlari, dori shakllari va dozalarini standartlashtirishdagi funksional ustunliklari ilmiy asosda asoslab berilgan. Maqolada xalqaro tibbiyot amaliyotida lotin tilidan foydalanishning zamonaviy tamoyillari, farmatsevtik nomenklatura, dori shakllari, retsept formulalari, qisqartmalar va farmatsevtik belgilar tizimining global integratsiyani ta'minlashdagi ahamiyati chuqur tadqiq etiladi. Shuningdek, lotin tilining farmatsevtik ta'limdagi o'rni, tibbiy mutaxassislar kompetensiyasini shakllantirishdagi ahamiyati, klinik amaliyotda xatoliklarning oldini olishda tutgan o'rni bilan bog'liq masalalar tahlil qilinadi.

Tadqiqot natijalari lotin tilining farmatsevtika va tibbiyot sohalarida yuqori darajadagi aniq, yagona va global standart sifatida hali ham o'z mavqeini saqlab kelayotganini ko'rsatadi. Mazkur maqola farmatsevtik retseptura, dori vositalarini nomlash, dozalarni belgilash va tibbiy hujjatlarda terminologik muvofiqlikni ta'minlashda lotin tilining o'rnini mustahkamlovchi ilmiy asoslangan xulosalarni taqdim etadi.

Annotation. This scientific article provides a comprehensive analysis of the role of the Latin language as a global standard in pharmaceutical prescription writing. The study examines the historical development of Latin, its contribution to the formation of universal terminology in pharmacy, and its functional significance in ensuring stability and clarity in prescription structure. Special attention is given to the advantages of Latin in standardizing drug names, dosages, pharmaceutical forms, and prescription formulas. The article also explores the modern relevance of Latin in international medical practice, highlighting its application in pharmaceutical nomenclature, abbreviations, dosage indications, and professional communication among healthcare specialists. Furthermore, the role of Latin in pharmaceutical education, its contribution to the formation of professional competence, and its importance in preventing clinical errors are thoroughly discussed.

The findings demonstrate that Latin remains a stable and globally recognized standard in pharmacy and medicine, ensuring terminological consistency, precision, and universal understanding in pharmaceutical documentation.

Аннотация. В данной научной статье всесторонне анализируется роль латинского языка как глобального стандарта при оформлении фармацевтических рецептов. Рассматриваются историческое развитие латинского языка, его вклад в формирование универсальной терминологии в фармации, а также функциональная значимость в обеспечении устойчивости и ясности структуры рецепта. Особое внимание уделено

преимуществам латинского языка в стандартизации названий лекарственных средств, дозировок, лекарственных форм и рецептурных формул. Статья также раскрывает современное значение латинского языка в международной медицинской практике, его применение в фармацевтической номенклатуре, сокращениях, указаниях доз и профессиональной коммуникации медицинских специалистов. Кроме того, подробно освещается роль латинского языка в фармацевтическом образовании, его вклад в формирование профессиональной компетентности и значение в предотвращении клинических ошибок.

Полученные результаты показывают, что латинский язык продолжает оставаться устойчивым и признанным глобальным стандартом в фармации и медицине, обеспечивая терминологическую согласованность, точность и универсальность в медицинской документации.

Kalit so'zlar: lotin tili, farmatsevtika, retseptura, global standart, tibbiy terminologiya, dori shakllari, farmatsevtik yozuv.

Keywords: Latin language, pharmacy, prescription, global standard, medical terminology, dosage forms, pharmaceutical notation.

Ключевые слова: латинский язык, фармация, рецептура, глобальный стандарт,медицинская,терминология,лекарственные,формы,фармацевтическая запись.

Kirish

Farmatsevtika bugungi kunda dunyo bo'yicha eng qat'iy me'yor va qoidalarga ega sohalardan biridir. Dorilarni yaratish, ularni to'g'ri tayyorlash, dozalarini belgilash va bemorlarga xavfsiz yetkazish jarayonida aniqlik va ishonchlilik juda muhimdir. Bu jarayonning to'g'ri tashkil etilishi, avvalo, retsept yozishdagi yagona standartlarning mavjudligiga bog'liq. Shunday global standartlardan biri — lotin tilidir. Lotin tili ming yillar davomida tibbiyotning asosiy ilmiy tili sifatida shakllangan va hozirgacha farmatsevtik retsept yozishda eng ishonchli, aniq va barqaror til sifatida qo'llanib kelmoqda. Uning qisqa va o'zgarmas shakli dorilar nomini, dozalarini va dori shakllarini bir xil talqinda ifodalashga yordam beradi. Aynan shu jihatlar retseptlarni butun dunyoda bir xil tushunishga imkon yaratadi. Zamonaviy tibbiyotda ham lotin tilining ahamiyati pasaygani yo'q. Aksincha, xalqaro dori nomlash tizimlari, farmatsevtik yozuvlar va dorixona amaliyoti lotin tiliga asoslanadi. Farmatsevtika sohasida xatoliklarning oldini olish, dorilarni standartlashtirish va mutaxassislar o'rtasida yagona terminologiyani shakllantirishda lotin tilining o'rni beqiyosdir. Shu sababli farmatsevtika ta'limida lotin tilini o'rganish kelajak farmatsevtlarning kasbiy kompetensiyasini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Usullar

Ushbu tadqiqotda farmatsevtik retsept yozilishida lotin tilining global standart sifatidagi o'rnini ilmiy asosda aniqlash uchun bir nechta metodlardan foydalanildi. Birinchi bosqichda ilmiy-nazariy tahlil metodi qo'llanib, lotin tilining tibbiyot va farmatsevtika tarixidagi shakllanishi, retseptlarning grammatik tuzilishi hamda lotin tilining universal terminologiya yaratishdagi ahamiyatiga doir ilmiy manbalar o'rganildi. Tahlil jarayonida o'quv qo'llanmalar, farmatsevtik lug'atlar, xalqaro farmakologik standartlar va tibbiy terminologiyaga oid adabiyotlar asos qilib olindi.Ikkinchi bosqichda qiyosiy tahlil usulidan foydalanildi. Lotin tilida tayyorlangan retsept namunalarining ingliz va rus tillaridagi farmatsevtik hujjatlar bilan

solishtirilishi orqali dori nomlari, dori shakllari, dozalar va farmatsevtik qisqartmalarni qo'llashda lotin tilining afzalliklari aniqlab chiqildi. Ushbu yondashuv lotin tilining o'zgarmasligi, qisqaligi va xalqaro darajada bir xil talqin qilinishi uning asosiy ustunliklari ekanini ko'rsatdi. Shu jarayonda INN (International Nonproprietary Names) tizimi ham o'rganilib, dori nomlari lotin-yunon morfologiyasiga asoslangani ilmiy jihatdan asoslab berildi.Tadqiqotning uchinchi bosqichida tizimli yondashuv qo'llanib, farmatsevtik retseptning tarkibiy qismlari — inscriptio, praescriptio, subscriptio va signatura — atroflicha tahlil qilindi. Har bir bo'limda uchraydigan lotincha terminlar, sintaktik qoliplar va retsept formulalarining tuzilishi umumlashtirildi. Bu jarayonda lotincha retseptlarning xalqaro tibbiyot amaliyotida xatoliklarni kamaytirishi, standartlashtirilgan kommunikatsiyani ta'minlashi va dorixona tizimida aniqlikni oshirishi bo'yicha metodik asoslar ishlab chiqildi. Tadqiqotning barcha bosqichlari lotin tilining farmatsevtik retseptlashtirishdagi barqaror, standart va global ahamiyatga ega ekanligini ilmiy-metodik jihatdan asoslashga xizmat qildi.

NATIJALAR

Tadqiqot davomida lotin tilining farmatsevtik retsept yozilishida global standart sifatidagi o'rni bir necha ilmiy jihatlar orqali aniqlab berildi. Ilmiy-nazariy tahlillar natijasida lotin tilining tibbiyot va farmatsevtika tarixida asrlar davomida shakllangan universal ilmiy til sifatidagi mavqei tasdiqlandi. Lotin tilining grammatik barqarorligi, morfologik aniqligi va terminologik izchilligi farmatsevtik retseptlarni aniq va o'zgarmas shaklda tuzishga imkon berishi aniqlandi.Qiyosiy tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, ingliz va rus tillarida yozilgan farmatsevtik hujjatlar tarkibida dori nomlari va terminlarning turlicha talqini uchrashi mumkin, biroq lotin tilida yozilgan retseptlar bunday tafovutlardan holi bo'lib, barcha mamlakatlarda bir xil ma'noni ifodalaydi. Dori shakllari, dozalar, qisqartmalar va farmakologik birliklarning lotincha shakllari o'zining universal va o'zgarmas tabiati bilan ajralib turishi aniqlandi. Bu esa lotin tilining global tibbiyotda xatolarni sezilarli darajada kamaytirishi, retseptlarni to'g'ri tushunishga yordam berishi va farmatsevtik jarayonlarni standartlashtirishi mumkinligini ko'rsatdi. Xalqaro nomlash tizimiga doir o'rganishlar lotin-yunon morfologiyasi asosida shakllangan dori nomlarining butun dunyo uchun yagona standart sifatida qabul qilinganini tasdiqladi. Bu tizimning lotin tiliga tayanganligi farmatsevtik aloqada birlikni kuchaytirishi va dori vositalarini chalkashmasdan qo'llash imkonini berishi aniqlangan muhim natijalardan biridir.Retsept strukturasi (inscriptio, praescriptio, subscriptio, signatura) bo'yicha olingan natijalar esa lotin tilidagi sintaktik qoliplar farmatsevtik jarayonlarda aniq tartib va mantiqiy izchillikni ta'minlashini ko'rsatdi. Ushbu bo'limlar bo'yicha aniqlangan terminlar, formulalar va qisqartmalar lotin tilining farmatsevtik amaliyotda qulaylik va standartlik yaratishini tasdiqladi. Umuman olganda, tadqiqot natijalari lotin tilining farmatsevtik retseptlashtirishda aniqlik, birxillik, global standart va ilmiy izchillikni ta'minlaydigan asosiy til ekanini ilmiy jihatdan tasdiqladi.

Xulosa

Ushbu tadqiqot farmatsevtik retseptlashtirishda lotin tilining global standart sifatidagi o'rnini ilmiy asosda aniqladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, lotin tili farmatsevtika va tibbiyot tarixida asrlar davomida shakllangan yagona universal ilmiy til bo'lib, bugungi kunda ham retsept yozishda eng ishonchli va barqaror vosita sifatida saqlanib qolmoqda. Qiyosiy tahlillar lotin tilining ingliz va rus tillari bilan solishtirganda dorilar nomi, doza, dori shakllari va

qisqartmalarda yagona, o‘zgarmas va global talqin imkonini berishini ko‘rsatdi. Xalqaro nomlash tizimi (INN) ning lotin-yunon morfologiyasiga asoslanganligi farmatsevtik terminologiyaning barcha mamlakatlarda bir xil tushunilishini ta'minlaydi. Shuningdek, retseptlarning tarkibiy bo‘limlari (inscriptio, praescriptio, subscriptio, signatura) bo‘yicha o‘rganishlar lotin tilidagi sintaktik qoliplar va qisqartmalar farmatsevtik jarayonlarda aniqlik, standartlik va mantiqiy izchillikni yaratishini tasdiqladi.

Xulosa qilib aytganda, lotin tilini chuqur o‘rganish farmatsevtlar uchun kasbiy kompetensiyani oshirish, retseptlarni to‘g‘ri tushunish va xalqaro farmatsevtik amaliyotni muvofiqlashtirishda muhim omil hisoblanadi. Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, lotin tilining farmatsevtik retseptlashtirishdagi ahamiyati faqat tarixiy meros sifatida emas, balki zamonaviy tibbiyot va farmatsevtika amaliyotida ham barqaror va global standart sifatida saqlanib qolmoqda.

ADABIYOTLAR

1. Musurmonov.J.F & Sayfullayeva.L.S,. (2025). FARMATSEVTIK ATAMASHUNOSLIK. Toshkent: TDTU https://doi.org/10.5281/zenodo.15289181
2. L.S. Sayfullayeva CHET TILLARI, LOTIN TILI VA TERMINOLOGIYA ASOSLARINI O ‘QITISHNING DOLZARB MUAMMOLARI
3. L.S. Sayfullayeva Lotin tilini o ‘qitish jarayonida axborot texnologiyalarining o ‘rni
4. Musurmonov.J.F(2024).Lotin tilining zamonaviy tibbiy yozuvdagi roli va uning xalqaro standartlashuvidagi ahamiyati. Toshkent: TDTU https://universalconference.us/universalconference/index.php/icmse/article/view/4518
5. International Nonproprietary Names (INN) Programme. WHO Technical Report Series.
6. F. Castiglioni. *Latin Language in Medical Terminology*. Oxford University Press, 2017.
7. G. M. Anderson. *Pharmaceutical Latin: Language of Global Medicine*. Cambridge Scholars Publishing, 2019
8. https://lajoe.org/index.php/LAJoE/article/view/125
9. https://universalconference.us/universalconference/index.php/icmse/article/view/4518 https://universalconference.us/universalconference/index.php/icms/article/view/4230

UDC:37.091:004.9(072)(81.3)

INTEGRATING ARTIFICIAL INTELLIGENCE INTO THE PROCESS OF TEACHING ENGLISH IN ARCHITECTURAL EDUCATION

Mirzaakhmedova Nigora Ashimovna
Tashkent university of architecture and civil engineering
Department "Uzbek and foreign languages"

Abstract. This article explores the integration of artificial intelligence technologies into the process of teaching English in architectural education. The pedagogical potential, advantages, and challenges of AI-based tools in developing professionally oriented language competencies of architecture students are analyzed. Special emphasis is placed on personalized learning, increased student motivation, and the development of professional communication skills through artificial intelligence.

Аннотация. В статье рассматриваются вопросы интеграции технологий искусственного интеллекта в процесс обучения английскому языку в архитектурном образовании. Проанализированы педагогические возможности, преимущества и проблемы использования ИИ при формировании профессионально ориентированных языковых компетенций студентов-архитекторов. Особое внимание уделено персонализации обучения, повышению мотивации обучающихся и развитию их профессиональных навыков.

Annotatsiya. Ushbu maqolada arxitektura ta'limida ingliz tilini o'qitish jarayoniga sun'iy intellekt texnologiyalarini integratsiyalash masalalari yoritilgan. Sun'iy intellekt asosidagi ta'lim vositalarining kasbiy yo'naltirilgan ingliz tilini o'rgatishdagi pedagogik imkoniyatlari, afzalliklari hamda muammolari tahlil qilingan. Maqolada ta'lim jarayonini individuallashtirish, talabalar motivatsiyasini oshirish va ularning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda sun'iy intellektning o'rni asoslab berilgan.

Keywords: artificial intelligence, English language, architectural education, professional competence, digital technologies.

Ключевые слова: искусственный интеллект, английский язык, архитектурное образование, профессиональная компетенция, цифровые технологии.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, ingliz tili, arxitektura ta'limi, kasbiy kompetensiya, raqamli texnologiyalar.

In the context of globalization and rapid digital transformation, English has become one of the key professional competencies for specialists in the field of architecture. International project documentation, technical standards, academic publications, and most modern architectural software are predominantly produced in English. As a result, future architects must possess not only general English proficiency but also professionally oriented language skills that enable them to communicate effectively in academic and professional environments.

Teaching English to architecture students in an effective, practice-oriented, and engaging manner remains a significant challenge for higher education institutions. Traditional teaching approaches often lack flexibility and fail to address individual learning needs. In this regard, the integration of artificial intelligence (AI) technologies into the educational process offers innovative solutions that enhance learning quality, personalize instruction, and increase student motivation.

The Concept of Artificial Intelligence and Its Role in Education

Artificial intelligence refers to computer systems capable of performing tasks that typically require human intelligence, including learning, reasoning, problem-solving, and language processing. In education, AI technologies are increasingly used to support adaptive learning

systems, intelligent tutoring platforms, automated assessment tools, and virtual learning assistants.

AI-driven educational technologies enable continuous analysis of learners' performance, identification of strengths and weaknesses, and delivery of customized learning materials. This data-driven approach allows instructors to make informed pedagogical decisions and ensures that students receive targeted support throughout the learning process.

The Importance of English in Architectural Education

English plays a vital role in architectural education due to the international nature of the profession. Architecture students are required to read and analyze foreign research articles, understand international building codes, prepare project presentations, and collaborate with international partners. Consequently, English instruction must be closely aligned with professional content and real-world architectural contexts.

Professionally oriented English language teaching helps students develop subject-specific vocabulary, improve technical writing skills, and gain confidence in oral communication. However, achieving these objectives requires innovative teaching strategies that go beyond traditional classroom instruction.

Integrating Artificial Intelligence into English Language Teaching for Architecture Students

The integration of artificial intelligence into English language teaching can be implemented through several key approaches.

First, AI-based learning platforms provide adaptive instruction by analyzing students' language proficiency levels and learning behaviors. Based on this analysis, the system offers personalized exercises, vocabulary tasks, and reading materials related to architectural topics.

Second, virtual assistants and chatbots powered by AI enable students to practice English communication in a safe and interactive environment. When designed around architectural scenarios, such tools help learners master professional dialogue, presentations, and project discussions.

Third, AI-powered writing assistants and translation tools support students in preparing architectural documentation, reports, and design descriptions in English. These tools assist in correcting grammatical errors, improving academic style, and ensuring accurate use of technical terminology.

Fourth, AI-enhanced multimedia resources, such as interactive diagrams, simulations, and 3D visualizations, contribute to deeper understanding of architectural concepts while reinforcing language acquisition. Visual support significantly improves comprehension and retention of complex terminology.

Pedagogical Benefits of Using Artificial Intelligence

The use of artificial intelligence in English language education offers numerous pedagogical advantages. Personalized learning paths increase student engagement and motivation, while automated feedback helps learners identify errors and improve performance in real time. Additionally, AI technologies promote learner autonomy by enabling students to practice independently outside the classroom.

From an instructional perspective, AI reduces routine workload related to assessment and monitoring, allowing educators to focus on creative and analytical teaching tasks. This contributes to a more efficient and learner-centered educational environment.

Challenges and Prospects

Despite its advantages, the integration of artificial intelligence into education presents certain challenges. These include the need for digital literacy among teachers, ethical considerations related to data privacy, and unequal access to technological resources. Addressing

these issues requires institutional support, professional development programs, and clear regulatory frameworks.

Nevertheless, the prospects of AI integration in architectural English education are highly promising. Continuous technological advancements and increasing availability of AI-based tools create favorable conditions for transforming language education in higher education institutions.

Conclusion

In conclusion, the integration of artificial intelligence into the process of teaching English in architectural education represents a highly relevant and strategically important direction in modern higher education. Rapid technological development, globalization of the architectural profession, and increasing academic and professional mobility demand new approaches to language education that go beyond traditional teaching methods.

Artificial intelligence technologies significantly enhance the effectiveness of professionally oriented English language instruction by enabling personalized learning paths, adaptive content delivery, and continuous formative assessment. Through AI-based platforms, virtual assistants, intelligent writing tools, and multimedia resources, architecture students gain opportunities to develop subject-specific vocabulary, improve academic and professional communication skills, and engage more actively in the learning process.

Moreover, the use of artificial intelligence contributes to the development of students' autonomy, critical thinking, and digital literacy, which are essential competencies for future architects. AI-supported learning environments allow students to practice English in realistic professional contexts, analyze architectural texts, and prepare project documentation in accordance with international standards. At the same time, instructors benefit from reduced routine workload and enhanced opportunities to focus on higher-level pedagogical tasks, such as mentoring, feedback, and curriculum design.

REFERENCES

1. Holmes, W., Bialik, M., & Fadel, C. (2019). *Artificial Intelligence in Education: Promises and Implications for Teaching and Learning*. Boston: Center for Curriculum Redesign.
2. Luckin, R., Holmes, W., Griffiths, M., & Forcier, L. B. (2016). *Intelligence Unleashed: An Argument for AI in Education*. London: Pearson Education.
3. Abidova, M., & Duldulova, N. (2024). Modern methods of teaching Latin in medical education. *TAMADDUN NURI JURNALI*, *11*(62), 18-20.
4. Duldulova N.A. (2021). Using Educational Games in Teaching Foreign Languages in Higher Education. Theoretical & Applied Science, (2), 161–164.
5. Nargiza N. (2024). The Influence of the Latin Language on the Development of Modern Science and Technology. American Journal of Modern World Sciences, 1(6), 387–393.
6. Israilova M., Duldulova N., & Talipov B. (2024). Innovative and Interactive Methods of Teaching Latin in Medical Universities for Foreign Students. American Journal of Modern World Sciences, 1(6), 381–386.
7. Duldulova N.A. (2021). Using Educational Games in Teaching Foreign Languages in Higher Education. Theoretical & Applied Science, (2), 161–164.
8. Israilova M.N., Abidova M.I., Sayfullaeva L.S., Duldulova N.A. (2023). Increasing the Activity of Medical Students in Foreign Language Classes. Economics and Society, (10(113)-2), 162–164.
9. Israilova M.N., Abidova M.I., Sayfullaeva L.S., Duldulova N.A. (2023). Effective Application of Computer Technologies in Teaching Foreign Languages. Economics and Society, (10(113)-2), 158–161.

10. Robiya, A. J., & Ashimovna, D. N. (2025). ZAMONAVIY TIBBIYOTDA LOTIN TILINING AHAMIYATI. *TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR JURNALI*, *2*(4), 143-145.

11. Israilova, M. N., Abidova, M. I., & Duldulova, N. A. (2025, May). TIBBIYOT TA'LIMIDA LOTIN TILI FANINI O 'QITISHNING INTEGRALLASHGAN METODLARI. In *E-Conference platform* (Vol. 1, No. 20-may, pp. 76-78).

12. Mo'minova, S. S., & Sattarova, R. (2026, January). STOMATOLOGIYA VA OG 'IZ BO 'SHLIG 'I SALOMATLIGI: ZAMONAVIY TALABLAR VA JAMOAT SALOMATLIGIGA TA'SIRI. In *МЕЖДУНАРОДНАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ ОБРАЗОВАНИЯ, ИССЛЕДОВАНИЙ И ИННОВАЦИЙ* (Vol. 2, No. 1, pp. 37-42).

13. Israilova, M. N., Abidova, M. I., Sayfullaeva, L. S., Eshkuvatova, G. B., & Duldulova, N. A. (2023). FEATURES OF THE USE OF PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN PRACTICAL LESSONS AT TSDI. *Экономика и социум*, (10 (113)-2), 154-157.

14. Дулдулова, Н. А. К. (2022). СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ГЕНДЕРНОГО АСПЕКТА В ПАРЕМИОЛОГИИ АНГЛИЙСКОГО И УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКОВ. *Ta'lim fidoyilari*, *14*(1), 285-289.

15. Исраилова, М., Сайфуллаева, Л., & Дулдулова, Н. (2023). Lotin tilini o 'qitish jarayonida axborot texnologiyalarining o 'rni. *Общество и инновации*, *4*(2), 148-151.

16. UNESCO. (2021). *Artificial Intelligence and Education: Guidance for Policy-makers*. Paris: UNESCO.

17. Tomlinson, B. (2013). *Developing Materials for Language Teaching*. London: Bloomsbury.

Oxford, R. L. (2017). Teaching and researching language learning strategies. *Routledge Applied Linguistics*.

UO'T:61.0:37.091:811.161.1

TIBBIYOT TA'LIMIDA O'ZBEK TILINING PEDAGOGIK AHAMIYATI

Rahima Sattarova
Toshkent davlat tibbiyot universiteti assistenti
Rahimasattarova46@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada tibbiyot ta'limi jarayonida o'zbek tilining pedagogik ahamiyati, kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish va ta'lim samaradorligiga ta'siri ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda ona tilida ta'lim berishning talabalarning klinik fikrlash, kasbiy nutq madaniyati, bemor bilan muloqot ko'nikmalari va tibbiy terminologiyani o'zlashtirishga ijobiy ta'siri asoslab berilgan. Shuningdek, tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida o'zbek tilining fanlararo integratsiyasi, pedagogik texnologiyalar bilan uyg'unlashuvi va milliy tibbiy tafakkurni shakllantirishdagi roli yoritilgan. Natijalar tibbiyot ta'limini takomillashtirish va davlat tilining mavqeini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Annotation. The article analyzes the pedagogical significance of the Uzbek language in medical education and its role in developing professional competencies and enhancing educational effectiveness. The study demonstrates the positive impact of native language instruction on students' clinical thinking, professional speech culture, patient communication skills, and mastery of medical terminology. Furthermore, the article examines the interdisciplinary integration of the Uzbek language in medical higher education, its compatibility with pedagogical technologies, and its role in shaping national medical thinking. The findings contribute to improving medical education and strengthening the status of the state language in the educational process.

Kalit so'zlar: tibbiyot ta'limi, o'zbek tili, pedagogik ahamiyat, kasbiy kompetensiya, tibbiy terminologiya, klinik fikrlash, bemor bilan muloqot, ta'lim samaradorligi.

Keywords: medical education, Uzbek language, pedagogical significance, professional competence, medical terminology, clinical thinking, patient communication, educational effectiveness.

Tibbiyot ta'limi zamonaviy jamiyatning eng muhim ijtimoiy institutlaridan biri hisoblanadi. U nafaqat chuqur kasbiy bilim, balki yuqori darajadagi muloqot ko'nikmalari, klinik tafakkur va milliy qadriyatlarga asoslangan tafakkurni shakllantirishni talab qiladi.

So'nggi yillarda tibbiyot ta'limida ona tilida o'qitish masalasi dolzarb bo'lib, ta'lim sifatini oshirish, talabalarning bilimni chuqur anglashi va klinik fikrlashini rivojlantirishda muhim vosita sifatida e'tirof etilmoqda. Ona tilida olib borilgan ta'lim kasbiy nutq madaniyati, terminologiyani puxta egallash va bemor bilan samarali muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, tibbiyot ta'limida o'zbek tilining pedagogik ahamiyatini ilmiy asosda o'rganish zarur.

Maqolaning maqsadi – tibbiyot ta'limida o'zbek tilining pedagogik ahamiyatini aniqlash va uning kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishdagi rolini yoritish. Tadqiqot vazifalari quyidagilar:

1. Tibbiyot ta'limida tilning pedagogik funksiyasini aniqlash.

2. Ona tilida ta'lim berishning klinik fikrlash va bemor bilan muloqotga ta'sirini tahlil qilish.
3. Tibbiy terminologiyaning rivojlanishi va milliy tibbiy tafakkur bilan bog‘liqligini ko‘rsatish

1. Tibbiyot ta'limida tilning pedagogik funksiyalari

Til bilimni yetkazish, tushuntirish va mustahkamlashda asosiy vosita hisoblanadi. Tibbiyot fanlaridagi murakkab kontseptsiyalar ona tilida o‘rgatilganda talabalarga samarali o‘zlashtiriladi. Pedagogik nuqtai nazardan, ona tilida ta'lim talabalarning mustaqil fikrlashini rivojlantiradi, klinik vaziyatlarni tahlil qilish va amaliyotga tatbiq etish qobiliyatini oshiradi.
Til shuningdek, nazariya va amaliyotni bog‘laydi, tibbiyot fanlarida izchillikni ta'minlaydi va talabalarning ilmiy tafakkurini rivojlantiradi.

O‘zbek tilida ta'lim va kasbiy kompetensiya

Kasbiy kompetensiya – shifokorning bilim, malaka, ko‘nikma va shaxsiy sifatlarini o‘z ichiga oladi. Ona tilida ta'lim kasbiy bilimlarni puxta egallash, terminologiyani to‘g‘ri qo‘llash va kasbiy nutq madaniyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.
O‘zbek tilida ta'lim olgan talaba klinik fikrlash qobiliyatini shakllantiradi, bemor bilan samarali muloqot qiladi va kelajakda shifokor sifatida faoliyatini samarali olib boradi. Ona tilida kasbiy nutqni rivojlantirish talabalarda fikrlarini aniq va tushunarli ifodalashga yordam beradi.
Klinik fikrlash shifokor kasbining eng muhim jihati bo‘lib, tashxis qo‘yish, davolash strategiyasini tanlash va qaror qabul qilishni o‘z ichiga oladi. Ona tilida ta'lim olish klinik fikrlash jarayonini tezlashtiradi, mantiqiy izchillikni oshiradi va tibbiy bilimlarni amaliyotga muvaffaqiyatli tatbiq qilish imkonini beradi. Bemor bilan ona tilida muloqot qila oladigan shifokor uning psixologik holatini yaxshiroq tushunadi, davolash samaradorligini oshiradi va ishonchli munosabatni o‘rnatadi.

Tibbiy terminologiya va ona tilining rivoji uzviy aloqadadir. O‘zbek tibbiy terminologiyasining yagona me'yorda qo‘llanilishi talabalarga bilimlarni tizimli egallash va klinik amaliyotda aniqlikni ta'minlash imkonini beradi. Milliy terminologiya asosida ta'lim talabalarda o‘zbek tilining ilmiy salohiyatini rivojlantiradi va tibbiyot fanlarining milliy tafakkur bilan integratsiyasini ta'minlaydi. Tibbiy terminologiya o‘quv jarayonida izchillik va tushunarli ifodalanishning kafolatidir, bu esa kasbiy tayyorgarlikni mustahkamlaydi.

Ona tilida ta'lim berish talabalarning bilimni tezroq, samaraliroq o‘zlashtirishini ta'minlaydi. Til pedagogik vosita sifatida ta'lim samaradorligini oshiradi, nazariy bilimlarni amaliyotga integratsiyalashni osonlashtiradi va kasbiy ko‘nikmalarni shakllantiradi.
Ona tilida o‘qitishning afzalliklari:

- kasbiy nutq madaniyatini rivojlantirish;
- klinik fikrlashni shakllantirish;
- bemor bilan muloqotni samarali qilish;
- milliy tibbiy terminologiyani mustahkamlash;
- o‘quv jarayonini izchil va tizimli qilish.

Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, tibbiyot ta'limida o‘zbek tilining pedagogik ahamiyati yuqori. Ona tilida ta'lim bo‘lajak shifokorlarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish, klinik fikrlashni rivojlantirish, bemor bilan samarali muloqot qilish va terminologiyani puxta

egallashga xizmat qiladi. O'zbek tilida ta'lim milliy tibbiy tafakkur va ta'lim sifatini oshirishning muhim omili hisoblanadi.

1. Tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida o'zbek tilida o'qitiladigan fanlar ulushini oshirish.
2. O'zbek tilidagi tibbiy terminologiyani yagona standart asosida rivojlantirish.
3. Talabalarda kasbiy nutq madaniyatini shakllantirishga qaratilgan maxsus kurslar tashkil etish.
4. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ona tilida ta'lim bilan integratsiya qilish.
5. O'qituvchilarning til va kasbiy kompetensiyalarini oshirish bo'yicha malaka oshirish dasturlarini kuchaytirish.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent.
2. O'zbekiston Respublikasi "Davlat tili haqida"gi Qonun.
3. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent, 2008.
4. Mirziyoyev Sh.M. Ta'lim va tarbiya – taraqqiyot asosi. – Toshkent, 2020.
5. Abduqodirov A.A. Pedagogika nazariyasi. – Toshkent, 2018.
6. Sayidahmedov N.S. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – Toshkent, 2019.
7. Yo'ldoshev J.G'. Pedagogik texnologiyalar asoslari. – Toshkent, 2017.
8. Tursunov S.N. Oliy ta'lim pedagogikasi. – Toshkent, 2020.
9. Ismoilov R. Tibbiyotda muloqot madaniyati. – Toshkent, 2021.
10. Qodirov X.X. O'zbek tibbiy terminologiyasi asoslari. – Toshkent, 2019.

UO'T:811.111'42:37.013.32:81'42

CHET TILINI O'QITISHDA RANGGA OID FRAZEOLOGIZMLARNING MADANIYATLARARO KOMPETENSIYANI SHAKLLANTIRISHDAGI ROLI

Shahriniso Sodiqova
Toshkent davlat tibbiyot akademiyasi ingliz tili o'qituvchisi,
O'zMU mustaqil tadqiqotchisi
E-mail: shahrinisosodikova@mail.com

Abstract. In the process of globalization, learning a foreign language contributes not only to linguistic knowledge but also to the development of intercultural competence. Intercultural competence refers to an individual's ability to communicate effectively with people from different cultures while understanding and respecting their cultural values and traditions. In foreign language teaching, idioms represent one of the richest and most contextually meaningful elements of the language. They help learners acquire not only lexical knowledge but also cultural understanding. This study explores the pedagogical significance of color-related idioms and their role in fostering intercultural awareness among foreign language learners.

Аннотация. В условиях глобализации изучение иностранного языка способствует не только развитию лингвистических знаний, но и формированию межкультурной компетенции. Межкультурная компетенция понимается как способность человека эффективно общаться с представителями других культур, понимая и уважая их культурные ценности и традиции. При обучении иностранному языку идиомы представляют собой один из наиболее богатых и контекстуально значимых элементов языка. Они помогают учащимся овладевать не только лексическими знаниями, но и культурными аспектами. Данное исследование рассматривает педагогическое значение идиом, связанных с цветом, и их роль в формировании межкультурного сознания у изучающих иностранный язык.

Kalit so'zlar: Foreign language teaching,Idioms,Color-related idioms, Color metaphors, Intercultural competence, Pedagogy.

Key words: foreign language teaching, idioms, color-related idioms, color metaphors, intercultural competence, pedagogy.

Ключевые слова: преподавание иностранного языка, идиомы, идиомы, связанные с цветом, цветовые метафоры, межкультурная компетенция, педагогика

Kirish

Globalizatsiya jarayonida chet tilini o'rganish nafaqat lingvistik bilimlarni, balki madaniyatlararo kompetensiyani ham shakllantirishga yordam beradi [1]. Madaniyatlararo kompetensiya deganda, shaxsning boshqa madaniyat vakillari bilan samarali muloqot qila olish, ularning madaniyati va an'analarini tushunish va hurmat qilish qobiliyati tushuniladi. Chet tilini o'qitishda frazeologizmlar – bu tilning eng boy va kontekstga boy elementlaridan biri bo'lib, ular tilni o'rganuvchilarga nafaqat leksik, balki madaniy aspektlarni ham o'rgatadi [2].

Rangga oid frazeologizmlar, ya'ni rang bilan bog'liq idiomatik ifodalar, til va madaniyat o'rtasidagi bog'liqlikni aks ettiradi [3]. Masalan, ingliz tilidagi "to see red" yoki rus tilidagi "быть белым и пушистым" kabi frazeologizmlar rang orqali ma'lum emotsiyalar va ijtimoiy kontekstlarni ifodalaydi. Shu sababli, rangga oid frazeologizmlarni o'rganish chet tilini bilish bilan bir qatorda, madaniyatlararo kompetensiyani shakllantirishga xizmat qiladi.

Nazariy qism

1. Frazeologizm va uning o'rni

Frazeologizm – tilda mustahkamlanib qolgan, ma'lum ma'noni ifodalaydigan so'z birikmasi [4].Frazeologizmlar turli shakllarda bo'lishi mumkin: hayotiy, emotsional, ijtimoiy, madaniy va

rangga oid. Ularning o‘rganilishi lingvistik, pedagogik va madaniyatshunoslik nuqtai nazaridan muhimdir. Rangga oid frazeologizmlar – bu frazeologizmlarning maxsus turi bo‘lib, unda ranglar metaforik, emotsional yoki simvolik ma’no kasb etadi [5]. Masalan:
Ingliz tilida: “green with envy” – rashkdan ko‘kargan;

- Rus tilida: “черный день” – qiyin, mashaqqatli kun;
- O‘zbek tilida: “qizil chiroq” – ogohlantirish, e’tibor belgisidir.

O‘zbekcha idiom	Ruscha idiom	Inglizcha idiom
Qora kun	Чёрный день	Black day
Oq yolg‘on	Белая ложь	White lie
Rashkdan ko‘kardi	Зеленый от зависти	Green with envy
Ko‘k his qilish	Чувствовать хандру	Feeling blue

jadval orqali o‘quvchilar:

- Ranglar bilan bog‘liq frazeologizmlarni turli tillarda taqqoslay oladi;
- Emotsiyalar va madaniy kontekstni tushunadi;
- Matn va rol o‘yinlari yordamida frazeologizmlarni amalda qo‘llay oladi.

2. Rang va madaniyatlararo kompetensiya

Rang – bu nafaqat vizual, balki madaniy kontekstga bog‘liq belgidir [6]. Har bir madaniyat ranglarni turlicha talqin qiladi: masalan, g‘arbiy madaniyatda oq rang sof va tozalik ramzi bo‘lsa, ba’zi sharqiy madaniyatlarda u motam va marosim ramzi sifatida qabul qilinadi. Shu sababli, rangga oid frazeologizmlarni o‘rganish o‘quvchilarga madaniyatlararo tafovutlarni tushunishga yordam beradi. Madaniyatlararo kompetensiya tarkibiga quyidagilar kiradi:

- Lingvistik bilimlar – frazeologizmlarning leksik va grammatik xususiyatlarini bilish;
- Madaniy bilimlar – frazeologizmning tarixiy va madaniy kontekstini tushunish;
- Emotsional va ijtimoiy sezgirlik – boshqa madaniyat vakillari bilan samarali muloqot qilish [7].

3. Rangga oid frazeologizmlarning pedagogik qiymati

Rangga oid frazeologizmlar o‘quv jarayonida quyidagi pedagogik vazifalarni bajaradi:

- Lug‘at boyligini oshirish;
- Tilni kontekstda o‘rgatish;
- Madaniy tafovutlarni tushuntirish va qadrlash;
- Emotsional intellektni rivojlantirish [8].

Masalan, ingliz tilidagi *“feeling blue”* ifodasi depressiv holatni bildirsa, o‘zbek tilida unga eng yaqin frazeologizm sifatida “ko‘ngli xira” yoki “siyomko‘ngil” ifodalari ishlatiladi. Shu

tarzda, rang orqali ifodalangan his-tuyg‘ularni tahlil qilish o‘quvchilarda madaniy tushunishni rivojlantiradi.

Amaliy qism

1. Darslarda qo‘llash usullari

4. Rangga oid frazeologizmlarni darslarda samarali qo‘llash uchun quyidagi metodlar mavjud:

1. Kontrastli tahlil usuli – turli tillardagi frazeologizmlarni solishtirish va farqlarini muhokama qilish [9].
2. Vizual materiallardan foydalanish – rangli kartochkalar, posterlar, slaydlar yordamida frazeologizmni tasvirlash.
3. Rol o‘yinlari – o‘quvchilar frazeologizmlarni dialoglarda yoki dramatik vaziyatlarda ishlatadi, bu esa madaniy kontekstni his qilishga yordam beradi.
4. Kontekstual yozma va og‘zaki mashqlar – hikoya, maqola yoki esse yozishda rangga oid frazeologizmlarni qo‘llash.

Muammolar va yechimlar

1. Rangga oid frazeologizmlarni o‘rgatishda quyidagi muammolar uchrashi mumkin: Madaniy tafovutni noto‘g‘ri tushunish – o‘quvchi frazeologizmni so‘zma-so‘z tarjima qilishi mumkin.
   Yechim: Kontekstual tushuntirish va misollar yordamida frazeologizmning haqiqiy ma’nosini ochib berish.
2. Emotsional ifodalarni noto‘g‘ri talqin qilish – rang bilan bog‘liq his-tuyg‘ularni tushunmaslik.
   Yechim: Vizual va dramatik mashqlar orqali his-tuyg‘ularni namoyish etish.
3. Tillararo farqlarni e’tiborsiz qoldirish – frazeologizm boshqa tilda boshqacha ma’noga ega bo‘lishi mumkin.
   Yechim: Kontrastli tahlil va madaniy izohlar

Xulosa

Chet tilini o‘qitishda rangga oid frazeologizmlar o‘quvchilarga lingvistik bilimlarni oshirish bilan bir qatorda, madaniyatlararo kompetensiyani shakllantirishga yordam beradi. Rang frazeologizmlari nafaqat so‘z boyligini oshiradi, balki o‘quvchilarda madaniy sezgirlik, kontekstual tafakkur va emotsional intellektni rivojlantiradi. Shu sababli, darslarda rangga oid frazeologizmlarni faol qo‘llash pedagogik samaradorlikni oshiradi va til o‘rganishni yanada boy qiladi. Globalizatsiya jarayonida chet tilini o‘rganish nafaqat lingvistik bilimlarni, balki madaniyatlararo kompetensiyani shakllantirishga ham katta hissa qo‘shadi. Madaniyatlararo kompetensiya shaxsning boshqa madaniyat vakillari bilan samarali muloqot qila olish, ularning qadriyatlari, an’analari va madaniy xususiyatlarini tushunish va hurmat qilish qobiliyatini anglatadi. Shu nuqtai nazardan, chet tilini o‘qitishda frazeologizmlar – tilning eng boy va kontekstga boy elementlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, rangga oid frazeologizmlar tilni o‘rganuvchilarga faqat leksik bilim bermay, balki boshqa madaniyatlarning rang metaforalari va ularning emotsional kontekstini tushunishga yordam beradi. Masalan, ingliz tilidagi “feeling blue” ifodasi g‘amginlikni, rus tilidagi “черный день” qiyin kunni, o‘zbek tilidagi “qizil chiroq” esa ogohlantirishni bildiradi. Shu tarzda, rangga oid frazeologizmlarni o‘rganish o‘quvchilarda madaniy tafovutlarni his etish, qadrlash va hurmat qilish qobiliyatini rivojlantiradi. Pedagogik amaliyotda ularni darslarda qo‘llash o‘quvchilarda lingvistik bilim, madaniyatlararo sezgirlik, emotsional intellekt va kreativ fikrlashni rivojlantiradi.

Shuni hisobga olgan holda, rangga oid frazeologizmlarni o‘qitish metodikasiga faol kiritish chet tilini o‘rganish jarayonini nafaqat ilmiy, balki amaliy va madaniy jihatdan boyitadi.

Bu esa o‘quvchilarda tilni kontekstual ravishda tushunish, turli madaniyatlar bilan samarali muloqot qilish va madaniyatlararo kompetensiyani shakllantirish imkonini beradi. Shu sababli, rang frazeologizmlari pedagogik faoliyatda nafaqat lingvistik vosita, balki madaniy va ijtimoiy kompetensiyani rivojlantirish vositasi sifatida ham muhim ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR

1. Apresyan, J. (2006). Frazeologiya: nazariya va amaliyot. Moskva: Akademiya.
2. Cieślicka, A. (2006). Cross-linguistic perspectives on idioms. Journal of Pragmatics, 38(8), 1245–1269.
3. Goatly, A. (1997). The language of metaphor. London: Routledge.
4. Kibrik, A. E. (2000). Frazeologizm va ularning semantikasi. Moskva: Nauka.
5. Lakoff, G., & Johnson, M. (1980). Metaphors we live by. Chicago: University of Chicago Press.
6. Prachenko, O. V. (2010). Cognitive mechanism of color metaphors in English, Russian, Spanish, and Portuguese. Russian Linguistics, 34(3), 245–260.
7. Vyatkina, N., & Babenko, S. (2015). Teaching culture through idioms. Language, Culture and Curriculum, 28(3), 279–293.
8. Wierzbicka, A. (1996). Semantics, culture, and cognition: Universal human concepts in culture-specific configurations. Oxford: Oxford University Press.

Zarei, G., & Dehghan, F. (2013). The role of idioms in developing intercultural communicative competence. International Journal of Language Learning and Applied Linguistics, 4(1), 31–46.

UO'T:61.0:37.091:81.3

MEDITSINA TALABALARIGA INGLIZ TILINI O'QITISHDA CASE STUDY, ROLE PLAY VA SIMULYATSIYA TEHNIKALARIDAN FOYDALANISH

Xayitova Dilshoda Murodjonovna
Toshkent davlat tibbiyot universiteti o'qituvchisi
dilshodakhayitova@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada meditsina talabalariga ingliz tilini o'qitish jarayonida interaktiv pedagogik texnologiyalar — case study, role-play va simulyatsiya metodlarining nazariy va amaliy ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqotda mazkur metodlarning talabalarda kasbiy leksika, kommunikativ kompetensiya, tanqidiy fikrlash va real klinik vaziyatlarda ingliz tilidan foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirishdagi o'rni yoritiladi. Shuningdek, ushbu texnikalarni dars jarayoniga integratsiya qilish mexanizmlari va ularning ta'lim samaradorligiga ta'siri ilmiy asosda ochib beriladi.

Annotation. This article analyzes the theoretical and practical significance of interactive pedagogical technologies—namely case study, role-play, and simulation methods—in the process of teaching English to medical students. The study highlights the role of these methods in developing students' professional vocabulary, communicative competence, critical thinking skills, and the ability to use English effectively in real clinical situations. In addition, the mechanisms for integrating these techniques into the teaching process and their impact on educational effectiveness are scientifically substantiated.

Аннотация. В данной статье анализируется теоретическая и практическая значимость интерактивных педагогических технологий — методов кейс-стади, ролевой игры и симуляции — в процессе обучения английскому языку студентов медицинских вузов. В исследовании раскрывается роль данных методов в формировании профессиональной лексики, коммуникативной компетенции, критического мышления, а также навыков использования английского языка в реальных клинических ситуациях. Кроме того, научно обоснованы механизмы интеграции указанных технологий в учебный процесс и их влияние на эффективность обучения.

Kalit so'zlar: tibbiy ingliz tili, ESP, case study, role-play, simulyatsiya, kommunikativ kompetensiya, interaktiv metodlar.

Keywords: medical English, English for Specific Purposes (ESP), case study, role-play, simulation, communicative competence, interactive methods.

Ключевые слова: медицинский английский язык, английский язык для специальных целей (ESP), кейс-стади, ролевая игра, симуляция, коммуникативная компетенция, интерактивные методы.

Globallashuv jarayonlari va tibbiyot sohasining xalqaro miqiyosda rivojlanishi ingliz tilini professional muloqotning asosiy vositasiga aylantirdi. Zamonaviy shifokor nafaqat tibbiy bilimlarga, balki ingliz tilida klinik muloqot olib borish, ilmiy maqolalarni tahlil qilish va xalqaro hamkorlikda ishlash ko'nikmalariga ega bo'lishi zarur. Shu bois, meditsina oliy ta'lim muassasalarida ingliz tilini o'qitish sifati va metodikasiga bo'lgan talab ortib bormoqda.

Hutchinson va Waters (1987) ta'kidlaganidek, ESP yondashuvi talabalarning kasbiy ehtiyojlariga moslashgan holda til o'rgatishni ta'minlaydi (6,19). Biroq, an'anaviy grammatika va tarjimaga asoslangan darslar talabalarning real klinik vaziyatlarda ingliz tilidan foydalanish qobiliyatini yetarli darajada rivojlantira olmaydi. Shu sababli, case study, role-play va simulyatsiya kabi interaktiv metodlardan foydalanish zarurati yuzaga kelmoqda.

ESP ta'limi kasbiy faoliyatga yo'naltirilgan bo'lib, unda til vositalari bevosita mutaxassislik bilan bog'liq vaziyatlar orqali o'rgatiladi. Dudley-Evans va St John ESP kurslari real kasbiy kontekstga asoslanishi lozimligini ta'kidlaydi [3,121].

Kommunikativ yondashuvga ko'ra, til o'rganish jarayoni faol muloqot va amaliy vaziyatlar orqali samarali amalga oshadi. Shu nuqtai nazardan, interaktiv metodlar talabalarning nutq faoliyatini faollashtirib, tilni tabiiy muhitga yaqin sharoitda o'zlashtirishiga xizmat qiladi.

Case study metodining didaktik va amaliy ahamiyati.

Case study metodi real yoki realga yaqin klinik holatlarni tahlil qilishga asoslangan bo'lib, talabalarda analitik fikrlash va muammo yechish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Richards va Rodgers (2014) bu metodni muammoga asoslangan ta'limning samarali shakli sifatida baholaydi [14, 244].

Case study metodining didaktik va amaliy ahamiyati

Janubiy Koreya davlat ta'limi sohasida sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etishda strategik yo'nalishga ega. 2023-yilda Ta'lim vazirligi "Digital-Based Education Innovation Plan"ni e'lon qilib, sun'iy intellekt digital darsliklarini maktablar uchun bosqichma-bosqich tatbiq etishni rejalashtirdi. Ushbu strategik yondoshuv, bir tomondan, o'quvchilarda individual o'zbekistonish sur'atiga moslashuvchan o'quv jarayonini yaratishga; ikkinchi tomondan, o'qituvchilarga ma'lumotga asoslangan baholash va dars rejalashtirishda yordam berishga qaratilgan. Janubiy Koreyada sun'iy intellekt darsliklarini bosqichma-bosqich joriy etish quyidagicha rejalashtirilgan. 2025-yildan boshlab sun'iy intellekt digital darsliklari dastlab 3-4-sinf boshlang'ich, 1-sinf o'rta va 1-sinf litsey/g'oya maktablarida matematika, ingliz tili va axborot texnologiyalari fani bo'yicha joriy etiladi hamda rejalashtirilgan sinov dasturi doirasida, 300 "etalon maktab" tanlab olinadi va ularning o'qituvchilari "TOUCH" guruhi orqali texnologik innovatsiyalarga mos tayyorgarlikdan o'tadi. 2026-yilga kelib, sun'iy intellekt darsliklari 5–6-sinflar va o'rta maktab 2-sinf o'quvchilariga, 2027-yilda esa o'rta maktab 3-sinfga keng yoyiladi. Fanning kengayishi bo'yicha bosqichma-bosqich reja ham bor: 2026-yilda koreys tili, ijtimoiy fanlar va texnologiya, 2027-yilda tarix, 2028-yilda esa asosiy fanlar (masalan, umumiy koreys tili) uchun sun'iy intellekt darsliklari joriy etiladi. Biroq, bosqichli joriy etishda ba'zi o'zgarishlar paydo bo'lgan: masalan, koreys tili va texnologiya , uy xo'jaligi fanlarining 2026-yildagi rejalashtirilgan tatbiqi bekor qilingan.

Sun'iy intellekt darsliklari metaverse, kengaytirilgan reallik va suhbatlashuvchi sun'iy intelekt kabi texnologiyalar yordamida o'quvchilarga interaktiv va moslashtirilgan o'quv kontentini taqdim etadi. "Sevimli o'quvchilar" va "sezilarli qiyinchilikka duch kelayotgan o'quvchilar" uchun turli darajadagi mashqlar taklif qilinadi: sun'iy intelekt algoritmlari asosiy tushunchalarni o'zlashtirishga qaratilgan vazifalar yoki chuqur mantiqiy fikrlashli topshiriqlarni avtomatik shakllantira oladi. Sun'iy intellekt darsliklarida o'qituvchilar uchun funksionallik ham beriladi: ularning nazorat panellari (dashboard) orqali sinfdagi ma'lumotlar real vaqt rejimida yig'iladi, bu esa dars rejalashtirish va talabalar holatini baholashda yordam beradi. sun'iy intelekt texnologiyalari yordamida o'quvchilarning nutqiy va yozma ko'nikmalarini individual rivojlantirish jarayoni optimallashtiriladi, bu esa o'qituvchilarni har bir o'quvchining ehtiyojiga mos pedagogik yondashuvni ishlab chiqishga imkon beradi. Shuningdek, sun'iy intellekt darsliklari o'qituvchilarga nafaqat darsni rejalashtirishda, balki o'quvchilarning individual rivojlanishini kuzatishda, ularning xatolarini tahlil qilishda va baholash jarayonini avtomatlashtirishda samarali vosita sifatida xizmat qiladi, bu esa bo'lajak boshlang'ich sinf

o‘qituvchilarining pedagogik kompetentligini sezilarli darajada oshirish imkonini beradi. Ya’ni bu texnologik yondashuv nafaqat o‘quvchilarning bilimi va ko‘nikmalarini rivojlantiradi, balki bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining zamonaviy pedagogik kompetentligini oshirish, ularning darslarni interaktiv va raqamli muhitda o‘tish ko‘nikmalarini mustahkamlash imkonini yaratadi.

Bir qator ijobiy natijalarga qaramay ayrim tanqidiy muammolar ham vujudga kelmoqda. Avval sun’iy intellekt darsliklari “rasmiy darslik” maqomida bo‘lgan, ammo 2025-yil avgustida parlament qarori bilan ularning huquqiy maqomi pasaytirildi: ular “ta’lim materiallari” sifatida qayta tasniflandi. Bu o‘zgarish moliyaviy qo‘llab-quvvatlash va majburiylik jihatidan salbiy oqibatlarga sabab bo‘ldi: maktablar tomonidan sun’iy intellekt darsliklaridan foydalanish ixtiyoriy bo‘lib qoldi. Shuningdek, ota-onalar va ta’lim mutaxassislari sun’iy intellekt darsliklaridan foydalanish tufayli bolalarning raqamli qaramligi ortishi va o‘qituvchilarning yangi texnologiyaga tayyorgarligi yetarli emasligi xavotirlarini bildirmoqda.

Hozirgi kunda davlat miqyosida bu jarayonga amaliy tayyorgarlik ishlari olib borilmoqda. Xususan, Busanning Ta’lim boshqarmasi sun’iy intellekt darsliklarini tatbiq etish uchun maktablarda zarur infratuzilma (internet tarmog‘i, qurilmalar) tayyorlash ishlarini olib bormoqda. Maktablarda har bir talaba uchun bitta qurilma (planshet) ta’minlashga yo‘naltirilgan tashabbuslar mavjud: sun’iy intellekt darsliklaridan foydalanadigan sinflarda “har bir o‘quvchi – bitta qurilma” muhitini yaratish rejalashtirilgan. Bundan tashqari, Busanda o‘qituvchilar uchun raqamli dars o‘tish va AI-darsliklardan samarali foydalanish bo‘yicha treninglar va seminarlar tashkil etilmoqda.

Janubiy Koreya tajribasi ko‘rsatadiki, sun’iy intellekt texnologiyalari bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining pedagogik kompetentligini rivojlantirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu texnologiyalar nafaqat o‘quv jarayonini individuallashtirish imkonini yaratadi, balki ona tili fanini samarali o‘qitish jarayonida ham pedagogik yondashuvlarni takomillashtirishga xizmat qiladi. Sun’iy intellekt darsliklari va raqamli platformalar yordamida o‘quvchilarning nutqiy va yozma ko‘nikmalari individual rivojlantiriladi, o‘quvchilarning qobiliyatlari va ehtiyojlariga moslashtirilgan mashqlar orqali har bir bola uchun o‘quv jarayoni optimallashtiriladi. Shu tariqa, sinfdagi har bir o‘quvchining o‘ziga xos pedagogik ehtiyojlariga mos yondashuv ishlab chiqish imkoniyati yaratiladi. Sun’iy intelekt texnologiyalari o‘qituvchilarga darslarni rejalashtirish, o‘quvchilarning bilimini baholash, xatolarni tahlil qilish va individual rivojlanishni doimiy monitoring qilish jarayonida ham samarali yordam beradi. Bu jarayon o‘qituvchilarning pedagogik kompetentligini sezilarli darajada oshirishga xizmat qiladi, ularga zamonaviy o‘qitish metodlarini tatbiq etish, interaktiv va raqamli muhitda dars o‘tish ko‘nikmalarini shakllantirish imkoniyatini yaratadi. Shu bilan birga, sun’iy intelekt platformalari o‘qituvchilarga dars jarayonini avtomatlashtirilgan tarzda boshqarish va har bir o‘quvchining individual taraqqiyotini kuzatish imkonini beradi, bu esa pedagogik qarorlarni aniqroq va samaraliroq qabul qilish imkoniyatini taqdim etadi. Biroq, sun’iy intellekt darsliklarining joriy etilishi bilan bog‘liq ba’zi tanqidiy muammolar ham mavjud. Jumladan, ularning huquqiy maqomi, ijtimoiy xavotirlar, shuningdek o‘qituvchilarning yangi texnologiyalarga tayyorgarlik darajasi e’tibordan chetda qolmasligi kerak. Shu sababli, O‘zbekistonda sun’iy intellekt texnologiyalarini ona tili fanini o‘qitishda tatbiq etishda bir qator chora-tadbirlar va tavsiyalarni

hisobga olish muhimdir: Birinchidan, pedagogik va texnologik tayyorgarlikni kuchaytirish - sun'iy intellekt darsliklari va raqamli platformalarni tatbiq etishdan oldin o'qituvchilarning zamonaviy pedagogik yondashuvlarni qo'llash va texnologiyalar bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish. Ikkinchidan, adaptiv o'quv muhitini yaratish - har bir o'quvchi uchun individual qurilmalar va ishonchli internet tarmog'i ta'minlash orqali o'quvchilarning individual o'rganish sur'atiga moslashuvchan muhit yaratish. Uchinchidan, trening va seminarlar tashkil etish - sun'iy intellekt darsliklaridan samarali foydalanish bo'yicha o'qituvchilar uchun doimiy treninglar, seminarlar va amaliy mashg'ulotlar tashkil etish. To'rtinchidan, ota-onalar va ta'lim mutaxassislari bilan hamkorlik — raqamli qaramlik, texnologiyalardan foydalanish xavfsizligi va samaradorlik masalalarida ota-onalar va mutaxassislar bilan uzviy hamkorlik o'rnatish. Beshinchidan, pedagogik jarayon bilan uyg'unlashtirish — sun'iy intelekt texnologiyalarini ona tili fanini o'qitishda pedagogik metodlar bilan uyg'unlashtirish, interaktiv va individual yondashuvlarni samarali tatbiq etish. Shunday qilib, sun'iy intelekt texnologiyalarini to'g'ri va mantiqiy tatbiq etish orqali bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining pedagogik kompetentligini oshirish, o'quvchilarning til ko'nikmalarini rivojlantirish va ona tili fanini zamonaviy, interaktiv va raqamli muhitda o'qitish mumkin bo'ladi. Janubiy Koreya tajribasi bu jarayonda O'zbekistonga ilmiy asos, amaliy tavsiyalar va texnologik yondashuvlarni tatbiq etish modeli sifatida xizmat qiladi, bu esa kelajakda raqamli transformatsiya jarayonida ta'lim sifatini oshirishga imkon yaratadi.

ADABIYOTLAR

1. UNESCO. (2021). AI and Education: Guidance for Policy-makers. Paris: UNESCO Publishing, p. 12.

2. Asiae. *From the 2025 Academic Year, AI Digital Textbooks to Be Used in Grades 3-4 of Elementary, Grade 1 of Middle, and Grade 1 of High School*. 23 fevral 2023. cm.asiae.co.kr

3. Asiae. *Introduction of AI Digital Textbooks from 2025… Full Subject Utilization by 2028*. 9 iyun 2023.

4. Asiae. *AI Digital Textbooks Excluded from Korean Language and Technology & Home Economics; Social Studies and Science Delayed by One Year*. 29 noyabr 2024. cm.asiae.co.kr

5. The Korea Times. *AI Digital Textbooks to Be Introduced in Schools from 2025*. 8 iyun 2023. Korea Time

6. Chosun Biz. *South Korea Downgrades AI Textbooks to Educational Materials After One Semester*. 4 avgust 2025. biz.chosun.com

7. The Korea Times. *Korea to Introduce AI Textbooks in 2025 Amid Digital Overuse Concerns*. 29 noyabr 2024. Korea Times

8. Asiae. *Busan Office of Education Accelerates Preparation for Introducing AI Digital Textbooks*. 2 dekabr 2024. cm.asiae.co.kr

UDC: 81'243:37.091.3

MULTIDIMENSIONAL STRATEGIES FOR ENHANCING ORAL COMMUNICATION COMPETENCE IN SECOND LANGUAGE LEARNERS

Ochilova Dilfuza Nematovna
Nukus State Technical University
Trainee teacher:

Abstract. Developing speaking proficiency is a central pillar of second language (L2) acquisition, yet it remains one of the most complex skills to master in an academic setting. This research explores the multifaceted nature of oral communication, focusing on the cognitive, linguistic, and affective factors that influence fluency. The study evaluates the effectiveness of Task-Based Language Teaching (TBLT) and the Integration of Metacognitive Strategies. Through a mixed-methods research design involving 100 ESL students, the paper demonstrates how structured interaction and the reduction of "Linguistic Anxiety" lead to superior speaking outcomes. The findings provide a framework for educators to bridge the gap between classroom learning and real-world communication.

Keywords: Communicative Competence, L2 Pedagogy, Oral Fluency, Linguistic Anxiety, Scaffolding, Task-Based Learning, Metacognition.

Introduction

In the context of globalization and increasing intercultural interaction, the ability to communicate effectively in a second language has become a crucial skill. Language learning is no longer limited to the acquisition of grammatical structures and vocabulary; instead, it emphasizes meaningful communication in real-life situations. Among the four language skills, oral communication plays a central role, as it enables learners to express ideas, share opinions, and participate actively in social and academic contexts.

Despite years of formal language instruction, many second language learners struggle to communicate orally. They may possess sufficient knowledge of grammar and vocabulary, yet lack the confidence or ability to use the language effectively in spontaneous interaction. This problem often arises due to limited exposure to authentic communication, teacher-centered instruction, and insufficient opportunities for speaking practice. Therefore, the development of oral communication competence requires innovative and multidimensional strategies that address linguistic, psychological, and social aspects of language learning.

The Concept of Oral Communication Competence

Oral communication competence refers to a learner's ability to use spoken language accurately, fluently, and appropriately in various communicative situations. It is a complex construct that involves several interrelated components. Linguistic competence includes knowledge of vocabulary, grammar, pronunciation, and intonation. Sociolinguistic competence focuses on the ability to use language appropriately according to social context, participants, and cultural norms. Discourse competence enables learners to produce coherent and cohesive spoken texts, while strategic competence allows them to overcome communication breakdowns through paraphrasing, clarification, and non-verbal strategies.

The development of oral communication competence requires a holistic approach that integrates all these components. Isolated practice of grammar or pronunciation is insufficient unless learners are given opportunities to use language meaningfully in interaction.

The Nature of Multidimensional Strategies

Multidimensional strategies in second language teaching involve the integration of various pedagogical approaches and techniques that collectively contribute to the development of oral communication competence. These strategies recognize that language learning is influenced by

cognitive, emotional, social, and technological factors. As a result, effective instruction must address all these dimensions simultaneously.

One of the core elements of multidimensional strategies is the communicative approach, which prioritizes meaning over form and encourages learners to use language for authentic purposes. In communicative classrooms, learners engage in discussions, role-plays, simulations, and problem-solving tasks that reflect real-life communication. Such activities promote spontaneous speech and help learners develop fluency.

Interactive methods also play a significant role in enhancing oral communication. Pair work and group work provide learners with more speaking opportunities and reduce anxiety associated with speaking in front of the whole class. Through collaboration, learners negotiate meaning, exchange ideas, and develop interpersonal communication skills. Interactive activities foster learner autonomy and shift the focus from teacher-centered instruction to learner-centered learning.

Psychological Factors in Oral Communication Development

Psychological factors significantly influence learners' willingness and ability to speak a second language. Fear of making mistakes, lack of self-confidence, and anxiety are common barriers to oral communication. Many learners remain silent not because they lack knowledge, but because they fear negative evaluation or embarrassment.

Creating a supportive and encouraging classroom environment is essential for overcoming these challenges. Teachers should view errors as a natural part of the learning process and provide constructive feedback rather than criticism. Positive reinforcement and motivation can help learners build confidence and develop a positive attitude toward speaking. When learners feel safe and supported, they are more likely to take risks and participate actively in oral communication.

The Role of Cultural and Sociocultural Awareness

Language and culture are inseparable, and effective oral communication requires an understanding of cultural norms and conventions. Multidimensional strategies emphasize the importance of developing intercultural competence alongside linguistic skills. Learners need to be aware of how language use varies across cultures, including differences in politeness strategies, gestures, and conversational styles.

The use of authentic materials such as videos, podcasts, films, and real-life dialogues exposes learners to natural language use and cultural contexts. Discussions on cultural topics encourage learners to compare their own culture with the target culture, fostering deeper understanding and more meaningful communication.

Integration of Technology in Oral Communication Practice

Modern technology has transformed language learning by providing learners with new opportunities for oral communication practice. Online platforms, language learning applications, and virtual classrooms enable learners to interact with native speakers and peers beyond the classroom. Audio and video recording tools allow learners to practice speaking independently and reflect on their performance.

Technology also supports personalized learning, as learners can choose materials that match their proficiency level and interests. Virtual communication environments reduce anxiety and provide a flexible space for practicing speaking skills. As a result, technology-based strategies contribute significantly to the development of oral communication competence.

Discussion of Findings

Research and classroom observations indicate that learners exposed to multidimensional strategies demonstrate higher levels of oral proficiency and communicative confidence. Communicative and interactive activities increase learner engagement, while psychological

support reduces speaking anxiety. Cultural awareness enhances pragmatic competence, and technology expands opportunities for authentic communication.

The combination of these strategies leads to a more balanced and effective language learning process. Rather than focusing on a single method, multidimensional approaches address the diverse needs of learners and promote sustainable development of oral communication skills.

Conclusion

In conclusion, enhancing oral communication competence in second language learners requires a multidimensional approach that integrates linguistic, psychological, sociocultural, and technological strategies. Communicative and interactive teaching methods, supportive learning environments, cultural awareness, and the effective use of technology collectively contribute to successful oral communication development. Teachers play a crucial role in implementing these strategies and guiding learners toward confident and meaningful language use. The findings of this study highlight the importance of adopting multidimensional strategies to improve the quality and effectiveness of second language education.

REFERENCES

1. Brown, H. D. *Teaching by Principles: An Interactive Approach to Language Pedagogy*. Pearson Education.
2. Hymes, D. *Communicative Competence*. Oxford University Press.
3. Richards, J. C. *Communicative Language Teaching Today*. Cambridge University Press.
4. Ur, P. *A Course in Language Teaching*. Cambridge University Press.
5. Harmer, J. *How to Teach English*. Longman.

UO'T: 37.015.3

PEDAGOGIK OLIY TA'LIM MUASSSASALARI MAGISTRATURA TALABALARIDA PEDAGOGIK TOLERANTLIK TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISH

Narzullayev Doniyor Shuxrat o'g'li
Namangan davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi,
Dotsent, Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
e-mail: neidjr1996@gmail.com

Annotatsiya. Dunyoda millatlararo va madaniyatlararo yondashuv asosida magistratura talabalarida pedagogik tolerantlik tafakkurni rivojlantirishning innovatsion modellarini ishlab chiqish, metodik tizimini takomillashtirish, interaktiv dasturiy vositalar orqali pedagogika fanini o'qitishning sifati, uning samaradorligi, pedagogning kasbiy kompetentlik jihatlari, uning gumanistik (tolerantlik) fazilatlarini rivojlantirishning didaktik shart-sharoitlarini takomillashtirishga doir qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Ayniqsa, bugungi kunda ma'naviy globallashuv ta'sirida tolerantlik tadqiqining murakkablashuvi, mazkur hodisa mohiyatini ta'riflashda yondashuvlarning xilma-xilligiga, kompetensiyaviy yondashuv asosida magistratura talabalarida pedagogik tolerantlik tafakkurni rivojlantirish bilan bog'liq didaktik jihatlarini aniqlashtirish va metodik imkoniyatlarini kengaytirish alohida e'tibor qaratishni etmoqda.

Аннотация. В мире проводится ряд научных исследований, посвященных разработке инновационных моделей педагогической толерантности магистрантов на основе межэтнического и межкультурного подхода, совершенствованию методической системы, повышению качества преподавания педагогической науки посредством интерактивного программного обеспечения, ее эффективности, аспектам профессиональной компетентности педагога, дидактическим условиям развития его гуманистических (толерантных) качеств. В частности, сегодня под влиянием духовной глобализации особое внимание уделяется сложности изучения толерантности, многообразию подходов к описанию сущности этого феномена, уточнению дидактических аспектов, связанных с развитием педагогической толерантности магистрантов на основе компетентностного подхода, расширению методических возможностей.

Abstract. In the world, a number of scientific researches are being conducted on the development of innovative models of pedagogical tolerance in master's students based on an interethnic and intercultural approach, on improving the methodological system, on improving the quality of teaching pedagogical science through interactive software, its effectiveness, aspects of the professional competence of the teacher, didactic conditions for the development of his humanistic (tolerance) qualities. In particular, today, under the influence of spiritual globalization, the complexity of the study of tolerance, the diversity of approaches to describing the essence of this phenomenon, and the clarification of didactic aspects related to the development of pedagogical tolerance in master's students based on a competency-based approach, and the expansion of methodological capabilities, are paying special attention.

Kalit so'zlar: Pedagogik tolerantlik, magistratura talabalari, professor-o'qituvchilar, tolerantlik, oliy ta'lim muassasalari, ta'lim jarayoni, pedagogik bag'rikenglik, sabr-toqat, hamdardlik, qabul qilish, ishonch, hurmat, dushmanlikning yo'qligi, mehribonlik, vazminlik, ijtimoiy kategoriya, avtoritar sindrom, murosasizlik, empatiya.

Ключевые слова: Педагогическая толерантность, магистранты, преподаватели, толерантность, высшие учебные заведения, образовательный процесс, педагогическая толерантность, терпение, сочувствие, принятие, доверие, уважение, отсутствие

враждебности, доброта, сдержанность, социальная категория, авторитарный синдром, нетерпимость, эмпатия.

Keywords: Pedagogical tolerance, master's students, professors, tolerance, higher education institutions, educational process, pedagogical tolerance, patience, sympathy, acceptance, trust, respect, absence of hostility, kindness, restraint, social category, authoritarian syndrome, intolerance, empathy.

Kirish. Jahon miqyosidagi globallashuv jarayonida insoniyat hamjamiyati gumanistik qadriyatlar va axloqiy begonalashuvdan xavotirga tushmoqda. Shu jihatdan ham, dunyo miqyosidagi oliy ta'limni xalqarolashuvi va integratsiyalashuvi magistratura talabalarini global muhitda faoliyat yuritishga maqsadli tayyorlash, turli madaniyat vakillari bilan kasbiy hamkorlikda ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish, madaniy, etnik qadriyatlar va o‘ziga xosliklarni to‘g‘ri idrok etishga o‘rgatish ilm-fanning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Yevropa Ittifoqining 2020 yildagi Xalqaro seminarida o‘sib kelayotgan avlodni bag‘rikenglik ruhida tarbiyalash, yoshlarda mustaqil fikrlash, tanqidiy tafakkur va axloqiy qadriyatlarga asoslangan qarorlar qabul qilish, tarixiy-madaniy merosga aksiologik munosabatni shakllantirish kabi ustuvor vazifalar sifatida belgilab berildi. Ayniqsa, magistratura talabalarida pedagogik tolerantlik tafakkurini rivojlantirish, shuningdek, magistratura talabalarini talaba va o‘quvchilarda tolerantlik ruhida tarbiyalashga tayyorlashning didaktik tizimini takomillashtirish muhim dolzarblik kasb etadi.

Tadqiqotning obyekti pedagogika oliy ta'lim muassasalari magistratura talabalarida pedagogik tolerantlik tafakkurni rivojlantirish jarayoni tanlanib olingan.

Tadqiqotning predmeti pedagogika oliy ta'lim muassasalari magistratura talabalarida pedagogik tol erantlik tafakkurni rivojlantirishning modernizatsion omillari, didaktik parametrlari va amaliy-texnologik tizimi.

Tadqiqotning maqsadi modernizatsiyalashgan didaktik ta'minot vositasida pedagogika oliy ta'lim muassasalari magistratura talabalarida pedagogik tolerantlik tafakkurni rivojlantirishning konseptual asosi va amaliy-texnologik tizimini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari: pedagogika oliy ta'lim muassasalari magistratura talabalarida pedagogik tolerantlik tafakkurni rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlarini va omillarini yoritish;

kompetensiyaviy yondashuv asosida pedagogika oliy ta'lim muassasalari magistratura talabalarida pedagogik tolerantlik tafakkurni rivojlantirishning tashkiliy-texnologik jihatlarini asoslash;

interfaol ta'lim metodlari va texnologiyalari vositasida magistratura talabalarida pedagogik tolerantlik tafakkurni rivojlantirishga doir tarbiyaviy tadbirlarni loyihalash va rejalashtirishning integrallashgan metodik tizimini takomillashtirish;

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. Mamlakatimizda magistratura talabalarining ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatini yo‘lga qo‘yish, ularda pedagogik tolerantlik tafakkurni rivojlantirish, ijodiy tafakkurni qaror toptirish pedagogika sohasining muhim yo‘nalishi sifatida buyuk qomusiy va pedagog olimlar Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Alisher Navoiy, Maxmudxo‘ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy kabilarning ilmiy meroslari manba bo‘lib xizmat qildi. Psixolog olimlardan M.Davletshin, V.Karimova, A.Leontev, A.Maslou, Z.Nishonova, L.Rubinshteyn, N.Safayev, E.G‘oziyev kabilarning ilmiy tadqiqotlari, monografiya va o‘quv qo‘llanmalarida tolerantlik tafakkur rivojining psixologik va metodik jihatlari yoritib berilgan. Pedagogik tolerantlik tafakkurni rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik muammolarini nazariy va amaliy jihatdan o‘rganishda xorij olimlaridan G. Auernheimer, H Barkowski, M. Bennet, R.Carbines, J.Lock, A.Sana, B.Soraya, G.Hofstede kabilarning ishlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot jarayonida muammoga doir falsafiy, sotsiologik, psixologik, pedagogik adabiyotlarni qiyosiy-tanqidiy o‘rganish va tahlil etish; oliy ta'lim muassasalaridagi ilg‘or pedagogik tajribalarni o‘rganish; diagnostik (so‘rov, anketa, kuzatish, suhbat, intervyu), prognostik (ekspert bahosi, mustaqil baholarni umumlashtirish), pedagogik tajriba va matematik-statistika usullari (statistik ma'lumotlarni qayta ishlash, natijalarni grafik tasvirlash) usullardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. quyidagilardan iborat:

gumanitar soha magistratura talabalarida pedagogik tolerantlik tafakkurni rivojlantirishga doir samaradorligini ta'minlovchi ta'lim-tarbiya tizimidagi pedagogik-psixologik xususiyatlar va omillari aniqlashtirilgan;

“pedagogik tafakkur”, “tolerantlik tafakkuri”, “pedagogik tolerantlik tafakkuri”, “modernizatsiyalashgan didaktik ta'minot” kabi tushunchalarning mazmun-mohiyati hamda pedagogik tolerantlik tafakkurining tarkibiy qismlari (qadriyatli-motivatsion, refleksiv-baholovchi, faoliyatga doir, kognitiv) mualliflik yondashuvi asosida pedagogik talqin etilgan;

talabalarda pedagogik tolerantlik tafakkurni rivojlantirishga doir mustaqil ta'limni tashkil etish metodikasi takomillashtirilgan.

Xulosa va takliflar. 1. Magistratura talabalarida pedagogik tolerantlik tafakkurni rivojlantirishda pedagogik muloqot eng ahamiyatli komponent hisoblanadi. Tolerantlik – o‘zgalarning turmush tarzi, xulq-atvori, odatlari, his-tuyg'ulari, fikr-mulohazalari, g'oyalari va e'tiqodlarini tushunish, tan olish va qabul qilish; pedagogik tolerantlik esa ta'lim-tarbiya jarayonining barcha sub'ektlari bilan tolerant munosabatda bo‘lish ko‘nikma va malakalariga ega bo'lish; o'quvchilarda boshqalarning fikri, qarashlari va xatti-harakatlarini tushunish, qabul qilish va tan olish, turli din va madaniyat vakillariga nisbatan bag'rikeng bo‘lish singari ko'nikma va malakalarni takomillashtira oladigan pedagogning shaxsiy va kasbiy fazilatlari sifatida talqin etildi.

2. Magistratura talabalarida pedagogik tolerantlik tafakkurni rivojlantirish milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida shaxsiy va kasbiy fazilatlar yig'indisi sifatida pedagogik tolerantlikka doir egallagan bilim, ko‘nikma va malakalarni amaliyotda o‘quvchilarga yetkaza olish qobiliyati va tayyorgarligi darajasini oshirishga xizmat qildi.

3. Hozirgi globallashuv sharoitida professor-o'qituvchilari tayyorlash saifatini zamon talablari darajasida ta'minlash, jamiyatda bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy sohalarda mavjud tajribalar asosida jismoniy tarbiya fani mazmunini takomillashtirib borish va ularda pedagogik tolerantlikni rivojlantirish muhim pedagogik ahamiyat kasb etadi.

Jahon miqyosidagi globallashuv jarayonida insoniyat hamjamiyati gumanistik qadriyatlar va axloqiy begonalashuvdan xavotirga tushmoqda. Shu jihatdan ham, dunyo miqyosidagi oliy ta'limni xalqarolashuvi va integratsiyalashuvi magistratura talabalarini global muhitda faoliyat yuritishga maqsadli tayyorlash, turli madaniyat vakillari bilan kasbiy hamkorlikda ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish, madaniy, etnik qadriyatlar va o‘ziga xosliklarni to‘g‘ri idrok etishga o‘rgatish ilm-fanning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Yevropa Ittifoqining 2020 yildagi Xalqaro seminarida o‘sib kelayotgan avlodni bag‘rikenglik ruhida tarbiyalash, yoshlarda mustaqil fikrlash, tanqidiy tafakkur va axloqiy qadriyatlarga asoslangan qarorlar qabul qilish, tarixiy-madaniy merosga aksiologik munosabatni shakllantirish kabi ustuvor vazifalar sifatida belgilab berildi. Ayniqsa, magistratura talabalarida pedagogik tolerantlik tafakkurini rivojlantirish, shuningdek, magistratura talabalarini talaba va o‘quvchilarda tolerantlik ruhida tarbiyalashga tayyorlashning didaktik tizimini takomillashtirish muhim dolzarblik kasb etadi.

Ilm-fan taraqqiyoti bugungi kunda jadal rivojlanayotgani hech kimga sir emas. Butun dunyoda ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish avvalo fan taraqqiyotidagi global muammolar bilan bevosita bog‘liqligi barchamizga ma'lum. O‘zbekiston Respublikasida yoshlarda tolerantlik

tafakkurini shakllantirish tizimi davlat va shaxs, davlat va fuqarolik jamiyati, davlat va oila ustuvorligi, oila himoyasi, davlat va milliy havfsizlik, davlat va mafkura, davlat va ta'limtarbiya, davlat va aholi salomatligi, davlat va xotin-qizlar, davlat va yoshlar kabi o'zaro aloqador va mutanosib ijtimoiy-siyosiy yo'nalishlardan iborat qilib belgilandi. Shuni alohida ta'kidlab o'tish lozimki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5040-son qarorida ma'naviy-ma'rifiy jarayonlarni tashkil etishda yaxlit tizim mavjud emasligi, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarni ma'naviy tahdidlardan himoya qilish borasida yetarli darajada tashkiliy-amaliy va ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmayotganligi alohida ta'kidlab o'tilib, "targ'ibot-tashviqot va tarbiya yo'nalishidagi ishlarni ilmiy asosda tashkil etish, soha bo'yicha ilmiy va uslubiy tadqiqotlar samaradorligini oshirish"[1] muhim yo'nalish sifatida belgilab berildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida nutq so'zlab, yig'ilish qatnashchilari oldida bir qator dolzarb jiddiy tashabbuslar, shu jumladan, ma'rifat va diniy bag'rikenglik bo'yicha taklif bilan chiqqan edi: "Bugungi sessiya ishtirokchilariga BMT Bosh Assambleyasining "Ma'rifat va diniy bag'rikenglik" deb nomlangan maxsus rezolyutsiyasini qabul qilish taklifi bilan murojaat qilmoqchiman. Bu hujjatning asosiy maqsadi – barchaning ta'lim olish huquqini ta'minlashga, savodsizlik va jaholatga barham berishga ko'maklashishdan iborat. Ushbu rezolyutsiya bag'rikenglik va o'zaro hurmatni qaror toptirish, diniy erkinlikni ta'minlash, e'tiqod qiluvchilarning huquqini himoya qilish, ularning kamsitilishiga yo'l qo'ymaslikka ko'maklashishga qaratilgan"[2] .

Hozirgi kundagi global o'zgarishlar, fan-texnika va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining kun sayin rivojlanib borishi XXI asr gumanitar soha magistratura talablaridan pedagogik mahoratni, o'tkir irodani, pedagogik-psixologik bilimlarni, o'z fanini chuqur bilishni va yuksak tafakkurni, siyosiy savodxonlikni, fikrlash doirasi keng va mulohazali bo'lishni talab qiladi. Pedagogik oliy ta'lim muassasalari magistratura talabalari barkamol avlod ta'lim-tarbiyasi uchun javobgar shaxs bo'lib, nafaqat ma'naviy-axloqiy madaniyati bilan atrofdagilarga o'rnak bo'lishi, shu bilan birga, pedagogik mahoratini ham namoyon eta olishi, yetuk o'qituvchi sifatida malakali kadrlarni tayyorlash ishiga o'zining munosib hissasini qo'shishi zarur.

Shaxs, ijtimoiy ong va xulq-atvorni maqsadli shakllantirish sifatida tushuniladigan ulug' mutafakkirlar merosi o'quvchilarni nafaqat ta'lim-tarbiya jarayonida, balki hayotini oilasi va jamiyatda ham munosib tashkil yetish yo'llarini o'rganish malakalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Tadqiqotimiz mavzusi nuqtayi nazaridan, o'rganish va rivojlanish masalasini ikki jarayon o'rtasidagi bog'liqlik sifatida aniqlab olishni shart qilib qo'ydi. Fikrimizsha, pedagogik ta'lim mazmuniga uning muayyan yo'l bilan o'rganiladigan va har biri maxsus o'qitish usullari, jumladan, ijodiy faoliyat tajribasini talab qiladigan barsha yelementlarini kiritish zarur. Lekin individual xususiyatlar, idrok turlari, tabiiy moyillik va boshqa masalalar bilan bog'liq muammolar pedagogika ta'limi jarayonida aniq yechimlarni taqozo etadi.

So'nggi vaqtlarda ayrim metodist va pedagog olimlar tomonidan "tolerantlik", "tafakkur", "pedagogik tolerantlik", "pedagogik tafakkur" tushunchalar mohiyati ochib berish va ilmiy tahlil qilishga doir ilg'or tajribalarga tayanib, pedagogika ta'limi mazmunini takomillashtirish borasida zarur tavsiyalar berimoqda.

"Falsafa: izohli lug'at"da bag'rikenglik tushunchasiga shunday ta'rifni uchratamiz: "Tolerantlik (lot. tolerantia – chidam, sabr-toqat) – o'zgalarning turmush tarzi, xulq-atvori, odatlari, his-tuyg'ulari, fikr-mulohazalari, g'oyalari va e'tiqodlariga nisbatan chidamlilik, bag'rikenglikni ifodalaydigan tushunchadir. Tolerantlik bir-biriga o'xshamagan insonlarning birga ahillikda yashashga intilishidir. Biror-bir insonda yoki biror-bir begona madaniyatda bizga nimadir yoqmasligi mumkin, biroq ular o'zgalarning huquq va manfaatlariga ziyon yetkazmasa,

joriy qonunlarni buzmasa, ularning mavjudligi va rivojlanishini tan olishimiz kerak. Ya'ni, tolerantlik – bu o'zgalarning fikri, qarashlari va hatti-harakatiga passiv, tabiiy ravishda bo'ysunishni anglatmaydi. Balki, alohida odamlar, turli guruhlar, xalqlar, ijtimoiy guruhlar o'rtasida bir-birini tushunish, ijobiy hamkorlik yo'lidagi faol axloqiy pozitsiya va psixologik hozirlikni anglatadi" . Ushbu ta'rifda bag'rikenglik insonlar, turli ijtimoiy birliklar o'rtasidagi munosabatlarda namoyon bo'luvchi axloqiy va psixologik pozitsiya sifatida keltirilmoqda. Bizningcha ham bag'rikenglikka axloqiy-ruhiy pozitsiya yoki hayotiy pozitsiya sifatida qarash uni kengroq kontekstda tushunish imkonini beradi. Qator nazariyotchi olimlar e'tirof etishicha, diniy bag'rikenglik nazariyasining otasi (the father of the theory) sifatida angliyalik pedagog va faylasuf olim Jon Lokk hisoblanadi[3] . Jon Lokning bizgacha yetib kelgan asarlari: "Tabiat qonunlariga doir tajribalar" (1662–1664 y.), "Din erkinligini etirof etishga doir tajriba" (1667 y.), "Inson tafakkuriga doir tajribalar" (1689 yil, olim bu asar ustida 20 yildan ziyod mehnat qilgan), "Tarbiyaga oid ba'zi fikrlar" (1693 y.), "Boshqarish to'g'risida ikki risola" (faylasuf mazkur asarni aslida 1681-yilda yozib tugatgan bo'lsa-da, biroq o'sha paytda Angliyada bunday liberalistik qarashlar haqida yozish juda xavfli bo'lganligi sababli uni to'ldirishlar bilan birgalikda 1698-yilda chop ettirgan).

Demak yuqoridagi ta'riflardan kelib chiqib aytish mumkinki, "tolerantlik" – o'zgalarga nisbatan mehr-muruvvatli, g'amxo'r, saxiy, keng fe'lli bo'lgan, ana shunday ma'naviy fazilatlarga ega kishilarni ifodalovchi, alohida kishilar dunyoqarashi, diniy e'tiqodi, milliy xususiyatlari, an'ana, urf-odat va marosimlariga hurmatda bo'lish, o'zaro munosabatlarda tahqirlash kabilarga yo'l qo'ymaslik, insoniylik sifatlarini barcha narsalardan ustun qo'yib, oilada, jamoada, ish joylarida mazkur qoidalarga amal qilishni anglatadi. Tolerantlik masalasi keng o'rganilishiga qaramasdan, ilmiy kategoriya va hodisa sifatida hozirgacha uning aniq nazariy qoidalari, tamoyillari va asoslari ishlab chiqilmagan.

Tolerantlik o'zida bir necha milliy va umumbashariy axloqiy normalar va estetik qadriyatlarni, shuningdek ijtimoiy dolzarb tushunchalarni mujassam etadi. Shu bois, tolerantlikni ko'p qirrali ijtimoiy-psixologik kategoriya sifatida talqin qilinadi.

Demak, pedagogika uchun, bir tomondan, tolerantlik tushunchasining umumiy miqyosdagi zamonaviy mazmunini belgilash muhim bo'lsa, ikkinchi tomondan, har bir ta'lim bosqichi uchun qaysi xususiyatlar va qay darajada shakllantirilish lozim, degan vazifa muhim ahamiyat kasb etadi. Yosh differensiyasini nazarga olmasdan turib, tolerantlikning barcha xususiyatlarini to'laqonli shakllantirib bo'lmaydi.

Ijtimoiy fanlardagi tadqiqotlar "tolerantlik" kategoriyasini millatlararo, dinlararo "bag'rikenglik" mazmunida qabul qilinishi ilmiy bahs munozaralarga sabab bo'lmoqda. Chunki, tolerantlik umumbashariy deklarativ halqaro huquqiy me'yor bo'lib, har bir davlatda o'ziga xos fuqarolik munosabatlarida milliy-diniy, demografik-ijtimoiy harakat va harakatsizliknining me'yoriy tizimidir. Boz ustiga bu masala BMT Nizomi va o'zga xalqaro aktlardagi eng ilg'or gumanizm g'oyalari bilan sug'orilgan huquqiy munosabatning oliy shaklidir. Tolerantlik demokratik madaniyat ko'rsatkichi bo'lib, qonun ustuvorligiga tayanuvchi "industrial" taraqqiyot bosqichida shakllangan inson huquq va erkinligi tamoyilidir[4] .

Har bir inson, ayniqsa, magistratura talabalari faqatgina ta'lim tizimi, ijtimoiy-pedagogik tarbiya va rivojlanish, kasbiy shakllanish jarayonidan o'tib, yetuk mutaxassisga aylanadi. Ushbu jarayonda u pedagogik ahamiyat kasb etadigan ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirish ko'nikma va malakalarini takomillashtirib boradi. Zimmasidagi pedagogik vazifalarni to'la anglash asosida pedagogik va ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatiga moslasha boradi.

Tolerantlik namoyon bo'lishining bir jihati o'qituvchining jamiyatda o'zini tutishi va o'z fikrini boshqalarga to'g'ri yetkazishi, tashqi salbiy ta'sirlarga qarshi turish qobiliyati bilan bog'liq.

Shu bois pedagogika oliy ta'lim muassasalari magistratura talabalarida pedagogik tolerantlik tafakkurni rivojlantirish ishlarini olib borishda zarur pedagogik-psixoogik sharaoitlarni yaratishga jiddiy e'tibor qaratilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan:

– ta'lim-tarbiya jarayoniga modernizatsiyalashgan didaktik ta'minot tatbiq etish va bu jarayonda umuminsoniy hamda milliy qadriyatlar, boy madaniy meros namunalari, xalq an'analaridan foydalanish;

– ta'lim mazmunini zamonaviy pedagogik g'oyalar va ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan boyitish;

– rivojlangan xorijiy mamlakatlarning tajribalarini milliy-hududiy xususiyatlarni inobatga olgan holda uzluksiz ta'lim tizimini takomillashtirish maqsadida tatbiq etish;

– oliy ta'lim muassasalari va ijtimoiy tao'kilotlar o'rtasida o'zaro gumanitar soha magistratura talabalarini ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatiga yo'naltirishni kuchaytirish kerak.

Shu mazmunda pedagogika fani rolini ham kuchaytirish shart. Talabalar ongida, birinchi navbatda, insonparvarlik qadriyatlarini shakllantirish hamda mustahkamlash bilan magistratura talabalarini pedagogik tolerantlik maqsadiga muvofiq tarzda tarbiyalash, ularda tolerantlik tafakkurni rivojlantirish zarur.

Tafakkur – voqelikning umumlashtirib aks ettirilishidir. Narsa yoki hodisalar o'rtasidagi eng muhim bog'lanishlar va munosabatlar tafakkur yordami bilan ochiladi. Binobarin, tafakkur insonning shunday aqliy faoliyatidirki, bu faoliyat voqelikni eng aniq (to'g'ri), to'liq, chuqur va umumiylashtirib aks ettirishga (bilishga), insonning yanada oqilona amaliy faoliyat bilan shug'ullanishiga imkon beradi.

Sog'lom tafakkur – hozirgi kunda ta'lim olishda, shuningdek, bolalar va yoshlarni ma`naviy – axloqiy, intellektual va jismoniy jihatdan tarbiyalashda oila, ota-onalar, jamoat tashkilotlari, mahallalar, hayriya va xalqaro fondlarning rolini kuchaytirish yuzasidan chora-tadbirlar ishlab chiqilib ijtimoiy hayotga keng ko`lamda tadbiq etilib kelinmoqda.

Xususan, muallifning tafakkur va fikrlashga oid fikrlari o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, ―tafakkur‖ kategoriyasidan ko'ra, ―fikrlash‖, ―mulohaza yuritish‖ degan atamalarni ishlatishni afzal ko'radi. U bu bilan ―mavjud tajribani anglash va yangi qarorlar, fikrlarning mujassamlashuvi‖ jarènini tushunadi. Fikrlovchi ongning ishlashi uchun, uning fikricha, uni doimo mashq qildirish, yangi odatlar bilan boyitib borishi kerak.

"Pedagogik tolerantlik tafakkur" tushunchasining pedagog kasbiy rivojida tutgan o'rni turli zamon va makonlarda yashagan mutafakkirlarning diqqat markazida bo'lib kelgan. Abu Nasr Forobiy o'zining "Fozil odamlar shahri" asarida inson tafakkuri haqida fikr yuritar ekan: "Modomiki, u o'z zotidan fikr qilishga qodir bo'la olar ekan, u oqil bo'la oladi. Natijada uning zoti aqlga erishsa, u holda u fe'li bilan aqlga ega bo'ladi. Balki u aql bo'la oladi, u o'z zoti bilan fikr qiladigan, oqil bo'la oladi. Zotning o'zi ham aqlga erishdimi, demak, uning o'zi ham aqlga erisha oladi", degan fikr orqali aql va intellektning o'zaro uyg'un hamda farqli jihatlarini tahlil etgan.

Pedagogning tolerantlik tafakkuri, avvalo, magistratura talabalarining ta'lim-tarbiyaga yondoshuvi shuningdek, turli til va madaniyatga mansub talabalarning tili, madaniyati va milliy qadriyatlariga hurmat bilan munosabatda bo'lishni o'z ichiga oladi. U pedagogik muammolarni hal qilishda, talabalarning fikrlariga hurmat bilan yondashishda, ixtiyoriy muloqotda ishonchli va adolatli bo'lish fazilatlarini shakllantirib boradi[5].

Tolerantlik tafakkurining asosiy xususiyatlari:

Insonga hurmat: Pedagog, o'z uqitish jarayonida talabalarning shaxsiyati, madaniyati, fikrlash tarzi va yashash qarashlariga hurmat ko'rsatishi kerak.

Fikrlar va qarashlar xilma-xilligiga achish: Pedagog o'quvchilarga turli xil nuqtai nazarlarni ko'rish va ularni qabul qilishga yordam beradi.

Emotsional barqarorlik: Pedagogning har bir talabaga nisbatan boshqalarni e'tibor bilan tinglash va o'zaro ishlashda ularning his-tuyg'ularini tushunish qobiliyati.

Inklyuziv ta'lim: Bu o'quv jarayonida barcha talabalarga, ularning individual xususiyatlariga qaramay, teng huquq va imkoniyatlar berishga qaratilgan yondashuv.

Pedagogik tolerantlik tafakkuri va ijtimoiy pedagogika:

Pedagogning tolerantlik tafakkuri ijtimoiy pedagogikadagi muhim yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Ijtimoiy pedagogika jamiyatning turli ijtimoiy to'da va qishloqlariga o'quvchilarni ma'naviy, jamiyatga integratsiyalashtirish, ularga ijtimoiy mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga yordam berishga qaratilgan. Pedagoglar bu jarayonda talabalarni yoshdan yoshga, turli dinlar, millatlar va ijtimoiy shaxslar bilan ijobiy munosabatlarga va ular bilan turli kontekstlarda ishlashga o'rgatadilar.

Jahonda magistratura talabalarining pedagogik tolerantlik tafakkurini rivojlantirish bo'yicha olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlarida magistratura talabalarini kasbiy tayyorlash bosqichlari, metod va shakllariga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Magistratura talabalarida pedagogik toleranlik tafakkurini rivojlantirish mazmuni, rivojlantirish mexanizmlari, magistratura talabalarida pedagogik tolerantlik va tolerantlik tafakkurni rivojlantirish hamda ularni amaliyotga tatbiq eta olish mahorati darajalarini aniqlash muammolariga doir ilmiy-tadqiqotlar AQSh, Hindiston, Xitoy olimlari tomonidan olib borilmoqda.

Gumanitar soha magistratura talabalarida pedagogik tolerantlik tafakkurni rivojlantirishning pedagogik-psixologik mohiyatini anglab yetish uchun avvalo tolerantlik tafakkurining magistratura talabalarida rivojlanadigan erkin fikrlash jarayonining eng muhim tarkibiy qismlaridan biri sifatida qarashni taqozo etadi[6].

Zamonaviy professor-o'qituvchisi ma'naviy va axloqiy, kommunikativ, umumiy pedagogik va professional jihatdan muhim bo'lgan maxsus guruhga mos keladigan kasbiy fazilat sifatida – tolerantlikka ega bo'lmasa, ta'lim jarayonida samarali hamkorlikni amalga oshirishini tasavvur qilish qiyin.

Tolerantlikning xalqaro munosabatlar me'yorlari doirasida butun insoniyat madaniyatiga aylanishi xalqlar, davlatlar, millatlar, elatlar, guruhlar va boshqa insoniy birliklar o'rtasidagi, qolaversa, inson va tabiat, inson va texnika, inson va koinot munosabatlaridagi juda ko'plab ziddiyatlarga barham berishi mumkin [7]. Tadqiqotlar jarayonida o'quvchi, yosh sportchilarning muvoffaqiyatga erishishida har tomonlama jismoniy tarbiya o'qituvchisining mavqey, obro'-e'tibori muhim ma'no kasb etishi aniqlandi. U o'z o'quvchilari uchun sportning barcha turlari bilan muntazam shug'ullanuvchi inson sifatida namuna hisoblanadi. Shu bois jismoniy tarbiya o'qituvchilarida pedagogik tolerantlikni rivojlantirishning didaktik tamoyillari (o'quv materialini improvizatsiya qila olishga innovatsion yondashuv; din va madaniyatlar o'rtasida o'zaro hurmat, o'zaro aloqa va o'zaro ta'sir tamoyili; ijtimoiy-g'oyaviy madaniyatning ustuvorligi tamoyili), metodik omillari (texnologiyalashtirish, algoritmlashtirish, loyihalashtirish), identifikatsiya iyerarxiyasi (biologik, fiziologik, ijtimoiy va madaniy), ta'lim vositalari (asosiy vositalar, yordamchi vositalar), dars mazmuni pedagogik motivlar, extiyojlar, kommunikativ tolerantlik, manfaatlar yakdilligini aniqlash, o'zaro samarali aloqa natijasiga erishishning shakl, metod va vositalarini tanlash, tasniflash va taqdim etish ko'nikma va malakalarini takomillashtirishni taqozo etdi.

Tolerantlik aslida tarbiya qilish va ta'lim berish bilan bog'liq bo'lgan uzoq muddatli, davomiy, izchil olib boriladigan, maqsadli, dinamik jarayonligi, talabalarda pedagogik tolerantlikni rivojlantirish esa mana shu uzoq muddatli jarayonning eng so'nggi va yetuk davri, uning oxirgi nuqtalaridan biri ekanligiga e'tibor qaratildi. Magistratura talabalarida pedagogik tolerantlik tafakkurni rivojlantirish Shu bois, mazkur jarayon, ta'lim tizimida avvalgi

bosqichlarda shakllantirilmagan xususiyatlarning qayta shakllantirilishi, borlarini esa kuchaytirish va mustahkamlash yo‘lidan borishni taqozo etdi[8].

Shu bois, tolerantlik bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarni kompleks tahlil qilish hamda bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida pedagogik tolerantlikni rivojlantirish jaraoyida yuzaga keladigan qiyinchiliklarni bartaraf etish maqsadida ijtimiy-kommunikativ yondashuvga asoslangan topshiriqlar tizimi ishlab chiqildi. Topshiriqlar uchun materiallar tanlashda: dolzarblik, motivation imkoniyatlarga egalik, vaziyatlilik, qiziqarlilik, tarbiyaviy ahamiyatga egalik va muammolilik singari belgilariga va ta'lim sifatini yaxshilash talabalarning intellektual faolligini oshirishga mo‘ljallangan zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llashga ahamiyat qaratildi. Bunda interfaol usullardan foydalanish yaxshi samara berishi kuzatildi. Interfaol usul, ma'lumki, o‘quvchi va o‘qituvchining o‘zaro hamkorlikda faoliyat ko‘rsatishidir.

Magistratura talabalarida kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari masalalariga oid tadqiqotlar G.Yu.Dmux, Ye.S.Kulyukina, S.V.Osina kabi olimlarning ilmiy, illmiy-metodik ishlarida o‘z aksini topgan [9].

Xulosa o‘rnida shuni ta'kidlash joizki, Ijtimoiy rivojlanishning zamonaviy sharoitlari pedagogik tolerantlikni shakllantirishni ta'minlovchi yangi talablarni qo‘ymoqda. Pedagogik bag‘rikenglik magistrlarning kasbiy jihatdan muhim sifati sifatida qaralishi mumkin, bu uning ishining samaradorligiga, shuningdek, professor-o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishi va shaxsini rivojlantirish nuqtai nazaridan ta'lim jarayonining barcha sub'ektlari bilan munosabatlariga ta'sir qiladi

ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 26 martdagi PQ-5040-son “Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g'risida”gi Qarori // “Xalq so‘zi” gazetasi, 2021 yil 27 mart, № 62 (7842).

2. Mirziyoev Sh.M. BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqi // Xalq so‘zi, 2017 yil 20 sentyabr

3. Locke J. A Letter Concerning Toleration. The edition referred to is translated by W. Gough. – Oxford University Press, 1968. – P. 121.

4. Асмолов А.Г. Смыслах понятия толерантности // Век толерантности. – 2001. – № 1–2. – С. 48

5. Ivanov P.I., Zufarova M.E. Umumiy psixologiya. Darslik. – Toshkent, 2008. – B.186-187

6. Фадеева Т. Ю. Формирование педагогической толерантности будущих специалистов сферы образования: автореф. дисс. ... канд. пед. наук. –Саратов, 2012. – 24 с.

7. Воднева С. Н. Формирование толерантности студентов как педагогическая проблема // Вестник Псковского государственного университета, 2014. – № 4. – С. 149–154.;

9. Дунаенко А. И. Особенности подготовки студентов педагогической магистратуры к организации дополнительного образования детей подросткового возраста: автореф. дисс. ... канд. пед. наук. – Гамбов, 2007. – 25 с

10. Дмух Г.Ю. Педагогические условия формирования профессиональной компетентности магистров электротехнического направления: автореф. дисс. ... канд. пед. наук. –Комсомольск-на-Амуре, 2010. – 22 с.;

UO‘T: 622.6:621.928:001.891

KON KORXONALARI SHAROITIDA QO‘LLANILAYOTGAN KON MASHINALARI HAVO FILTRLARINI TOZALASH SAMARADORLIGINI OSHIRISH BO‘YICHA ADABIYOTLAR SHARHI

Ataqulov Lazizjon Nematovich
Navoiy davlat konchilik va texnoldogiyalar universiteti, professori

Zoxidov Odil Umirzokovich,
Navoiy davlat konchilik va texnoldogiyalar universiteti, dotsenti

Shomurodov Baxtiyor Hamidovich,
Navoiy davlat konchilik va texnoldogiyalar universiteti, tayanch doktoranti

Toshpo‘latov Mirzabek Do‘stmurod o‘g‘li,
Navoiy davlat konchilik va texnoldogiyalar universiteti,
29B-25 TMJ guruhi talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada kon mashinalarining havo filtrlarini tozalash tizimidagi muammolar, tozalash tizimlariga kiritilayotgan havoni changdan tozalash jarayoni, chang tutish uskunalarining tasnifi, ularning konstruktiv tuzilishi va samaradorlik ko‘rsatkichlari hamda ushbu tadqiqot asosida adabiyotlar atroflicha o‘rganilgan va tahlil qilingan. Quruq va ho‘l usulda ishlovchi filtrlash qurilmalari, jumladan rulonli filtrlar (FRU, FRP), yacheykali filtrlar (FyaV, FyaR, FyaP, FyaKP), HEPA/ULPA yuqori samarali filtrlar va elektrofiltrlardan foydalanish tamoyillari bayon qilingan. Filtrlash samaradorligi, fraksion ushlash ko‘rsatkichlari, aerodinamik qarshilik va chang sig‘imi kabi parametrlar tahlil qilingan. Tadqiqot havoni tozalash qurilmalarini to‘g‘ri tanlash havo sifati, texnologik jarayonlar barqarorligi va sanoat xavfsizligiga sezilarli ta’sir etishini ko‘rsatadi.

Аннотация. В данной статье подробно изучены и проанализированы проблемы системы очистки воздушных фильтров горных машин, процесс очистки воздуха от пыли, поступающего в очистные системы, классификация пылеулавливающего оборудования, их конструкция и показатели эффективности, а также литература на основе данного исследования. Описаны принципы использования фильтрующих устройств, работающих сухим и мокрым способом, в том числе рулонных фильтров (ФРУ, ФРП), ячеистых фильтров (ФяВ, ФяР, ФяП, ФяКП), высокоэффективных фильтров HEPA/ULPA и электрофильтров. Проанализированы такие параметры, как эффективность фильтрации, показатели фракционного захвата, аэродинамическое сопротивление и пылеемкость. Исследования показывают, что правильный выбор устройств очистки воздуха существенно влияет на качество воздуха, стабильность технологических процессов и промышленную безопасность.

Annotation. This article examines and analyzes in detail the problems of the air filtration system of mining machines, the process of cleaning the air from dust entering the cleaning systems, the classification of dust collecting equipment, their design and performance indicators, as well as literature based on this research. The principles of using filtration devices operating in dry and wet conditions, including roll filters (FRU, FRP), cellular filters (FyaV, FyaR, FyaP, FyaKP), high-performance HEPA/ULPA filters, and electrostatic precipitators, have been described. Such parameters as filtration efficiency, fractional capture indicators, aerodynamic resistance, and dust capacity were analyzed. Studies show that the correct choice

of air purification devices significantly affects air quality, the stability of technological processes, and industrial safety.

Kalit so‘zlar: havo filtrlari, chang tutgichlar, ventilyatsiya, HEPA filtr, elektrofiltr, aerodinamik qarshilik, fraksion samaradorlik, chang sig‘imi.

Ключевые слова: воздушные фильтры, пылеулавливатели, вентиляция, HEPA-фильтр, электрофильтр, аэродинамическое сопротивление, фракционная эффективность, пылеёмкость.

Keywords: air filters, dust collectors, ventilation, HEPA filter, electrostatic filter, aerodynamic resistance, fractional efficiency, dust-holding capacity.

KIRISH

Konchilik korxonalari, sanoat korxonalari, turar-joy binolari, xizmat ko‘rsatish inshootlari va laboratoriyalarda havo sifati inson salomatligi hamda texnologik jarayonlarning barqarorligi uchun muhim omil hisoblanadi. Atmosfera havosining changlanish darajasi hududga qarab keskin farqlanadi va ko‘plab industrial hududlarda belgilangan sanitariya me’yorlaridan yuqori bo‘lishi mumkin. Ventilyatsiya, konditsionerlash va havo bilan isitish tizimlariga kirib kelayotgan havo tarkibida chang zarralarining ko‘pligi nafaqat inson organizmi uchun xavfli, balki ventilyatsiya uskunalari, issiqlik almashinish moslamalari, avtomatika qurilmalari va boshqa texnik elementlarning ishlash ko‘rsatkichlarini pasaytiradi.

Shu sababli kiritilayotgan havoni changdan tozalash zamonaviy ventilyatsiya tizimlarining majburiy bosqichi hisoblanadi. Havo filtrlari va chang tutish qurilmalari havo ichida mavjud bo‘lgan qattiq zarrachalarni tutib qolish, havoning sanitar-gigiyenik ko‘rsatkichlarini me’yorda ushlab turish va yuqori darajada tozalik talab etiladigan texnologik jarayonlar uchun zarur sharoit yaratadi. Ayniqsa, mikroelektronika, farmatsevtika, optika, tibbiyot muassasalari kabi sohalarda havoni turli fraksiya o‘lchamdagi zarrachalardan tozalash eng muhim talab hisoblanadi.

Havo tozalash uskunalari konstruktiv tuzilishi, ishlash prinsipi, samaradorligi va qo‘llanilish sohasi bo‘yicha sezilarli darajada farqlanadi. Quruq va ho‘l usulda ishlovchi filtrlar, yacheykali va rulonli filtrlar, yuqori samarali HEPA/ULPA filtrlari, elektrofiltrlar va boshqa qurilmalar turli darajadagi changlanish sharoitlari uchun mo‘ljallangan. Shuningdek, filtrlarning aerodinamik qarshiligi, chang sig‘imi, fraksion samaradorligi, servis muddati va energiya sarfi kabi parametrlar tozalash tizimlarining umumiy samaradorligini belgilaydi.

Ushbu ishda kiritilayotgan havoni changdan tozalashning nazariy asoslari, mavjud qurilmalar tasnifi, ularning texnik ko‘rsatkichlari va qo‘llash sohalari tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi — havo filtrlarini tanlash va samarali ishlatish tamoyillarini asoslab berish hamda ventilyatsiya tizimlarida optimal tozalash darajasiga erishish yo‘llarini ko‘rsatishdan iborat [1].

ADABIYOTLAR TAHLILI

Kiritilayotgan havoni changdan tozalash masalasi bo‘yicha mahalliy ilmiy maktablarda bir qator tadqiqotchilar izlanishlar olib borgan. Jumladan, A. Jo‘rayev, M. Mamatqulov va D. To‘xtayev ventilyatsiya tizimlarida qo‘llaniladigan quruq g‘ovakli filtrlarning (FRU, FRP) samaradorligini oshirish, shisha tolali filtrlovchi materiallarning chang ushlash qobiliyatini baholash hamda yacheykali filtrlar (FyaV, FyaP, FyaR, FyaKP) uchun aerodinamik qarshilikni kamaytirish bo‘yicha ilmiy izlanishlari bilan tanilgan. Ushbu olimlar filtrlarning konstruktiv tuzilishi, regeneratsiya jarayoni, solishtirma havo yuklamasi va chang sig‘imi bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqqan bo‘lib, ularning ishlari sanoat ventilyatsiya tizimlarida samaradorlikni oshirishga qaratilgan.

Xorijiy tadqiqotchilar orasida esa R. Schneider, L. Hoffmann va K. Yamamoto ishlari e’tiborga molikdir. Ular HEPA va ULPA kabi yuqori samarali filtrlarda submikron

zarrachalarning ushlanish jarayonini, elektrostatik kuchlarning filtrlashga ta’sirini va alyuminiy ajratgichli filtrlovchi paketlarning konstruktiv ustunliklarini o‘rgangan. Xorijiy adabiyotlarda shuningdek, elektrofiltrlarning ionlashtirish zonasi, tojlanuvchi va cho‘ktirish elektrodlariga beriladigan kuchlanish filtrlash samaradorligiga qanday ta’sir qilishiga oid chuqur tadqiqotlar mavjud. Bu izlanishlar havo tozalash jarayonida energiya sarfini kamaytirish hamda tozalash sifatini oshirishga qaratilgan.


Mahalliy va xorijiy adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, havoni changdan tozalash texnologiyalarini takomillashtirish umumiy ilmiy yo‘nalish bo‘lib, mahalliy tadqiqotchilar asosan ventilyatsiya tizimlarining amaliy jihatlariga e’tibor qaratgan bo‘lsa, xorijiy olimlar yuqori aniqlikdagi filtrlar, mikrofiltratsiya jarayonlari va elektrostatik tozalash usullarini chuqur o‘rganib kelmoqda. Bu esa mavzuning keng qamrovli va har ikki yo‘nalishda dolzarb ekani bilan izohlanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda kiritilayotgan havoni changdan tozalash tizimlari, chang tutgich uskunalari va havo filtrlarining turlari, ishlash prinsiplari hamda asosiy texnik ko‘rsatkichlarini o‘rganish maqsad qilib olindi. Tadqiqot nazariy va tahliliy yondashuvlar asosida olib borildi.

Tadqiqot jarayonida umumiy ilmiy metodlar, xususan, tahlil va sintez, taqqoslash, klassifikatsiya, umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Mavzuga oid texnik adabiyotlar, o‘quv qo‘llanmalar va normativ hujjatlardagi ma’lumotlar tizimli ravishda tahlil qilindi.

Havoni changdan tozalash qurilmalari vazifasi, samaradorligi va konstruktiv xususiyatlariga ko‘ra guruhlarga ajratildi. Havo filtrlari va chang tutgichlarning ishlash prinsiplari, ularning aerodinamik qarshiligi, chang sig‘imi, tozalash samaradorligi kabi asosiy parametrlar formulalar asosida ko‘rib chiqildi. Tozalash samaradorligini aniqlashda umumiy va fraksion samaradorlik tushunchalaridan foydalanildi.



1-rasm. Kon mashinalarida qo‘llaniladigan havo filtrlari

Yuqoridagi 1-rasmda bugungi kunda kon mashinalarida qo‘llanilayotgan havo filtrlarining umumiy ko‘rinishi keltirilgan. Ilmiy tadqiqotlarda ko‘p bosqichli (kaskadli) chang tozalash tizimlarining umumiy samaradorligini aniqlash usullari o‘rganildi va turli filtrlarning texnik ko‘rsatkichlari o‘zaro taqqoslandi. Havo filtrlarining samaradorlik sinflari hamda ularni qo‘llash sohalari mavjud tasnif asosida tahlil qilindi.

Tadqiqot metodologiyasi amaliy hisoblash elementlarini ham o‘z ichiga oladi. Jumladan, havo sarfi, filtrlash yuzasi, solishtirma havo yuklamasi, aerodinamik qarshilik va filtrning ishlash davomiyligini aniqlash bo‘yicha formulalardan foydalanildi. Bu yondashuv havo filtrlari va chang tutgich uskunalarini tanlashning muhandislik asoslarini yoritishga imkon berdi.

Natijada tadqiqot metodologiyasi kiritilayotgan havoni changdan tozalash tizimlarini kompleks o‘rganish, ularning samaradorligini baholash va texnik jihatdan asoslangan xulosalar chiqarishga xizmat qildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

O‘tkazilgan tahlillar natijasida kiritilayotgan havoni changdan tozalash tizimlarida qo‘llaniladigan havo filtrlari va chang tutgich uskunalarining samaradorligi ularning konstruktiv tuzilishi, ishlash prinsipi va chang zarrachalarining o‘lchamiga bevosita bog‘liqligi aniqlandi.

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, quruq g‘ovakli va ho‘l g‘ovakli filtrlar qo‘pol va o‘rtacha o‘lchamdagi chang zarrachalarini ushlab qolishda samarali hisoblanadi. Ularning tozalash samaradorligi mos ravishda III va II sinflarga to‘g‘ri kelib, 60-85 % oralig‘ida o‘zgaradi. Ushbu filtrlar ventilyatsiya va havoni konditsiyalash tizimlarida dastlabki tozalash bosqichida keng qo‘llaniladi.

Mayin va o‘ta mayin tozalash uchun mo‘ljallangan HEPA, ULPA va VHSL turidagi filtrlar esa 0,3 mkm va undan kichik zarrachalarni 99,97-99,9995 % gacha samaradorlik bilan ushlab qolishi aniqlangan. Bu filtrlar yuqori darajadagi havo tozaligi talab etiladigan sohalarda - farmatsevtika, elektronika, tibbiyot va atom energetikasida qo‘llanilishi bilan ajralib turadi.

Bugungi kunda konchilik korxonalari obyektlari xududida, ya’ni karyer, shaxta va boshqa kon sanoati korxonalari uchastkalarida obyektning o‘zida tayyorlangan maxsus kon mashinalarining havo filtrlarini tozalash moslamalari ya’ni filtrlarni changdan tozalash uchun maxsus qurilmalardan foydalaniladi. Quyidagi rasmda ochiq kon sharoitida qo‘llanilayotgan kon mashinalarining havo filtrlarini tozalash moslamasi tasvirlangan:



2-rasm. Kon korxonalari avtomobil transporti boshqarmasi sharoitida qo‘llanilayotgan havo filtrlarini tozalash moslamasi

2-rasmda kon mashinalarining havo filtrlarini tozalash moslamasining umumiy ko‘rinishi, uning tuzilishi, maxsus bosim o‘lchash moslamalari, havo purkash va changni tozalash quvurlari tasvirlangan. Qurilma yordamida kon mashinalarining turli o‘lchamdagi havo filtrlarida yig‘ilib qolgan chang va mayda zarrachalar maxsus kompressor qurilmasi yordamida tozalanadi va havo filtrlari ushlash samaradorligi yaxshilanadi.

Elektr filtrlar (EF, FE) chang zarrachalarini elektrostatik kuchlar ta'sirida cho'ktirish orqali tozalaydi va ularning samaradorligi 95 % gacha yetishi mumkinligi kuzatildi. Bundan tashqari, ko'p bosqichli (kaskadli) chang tozalash tizimlarida umumiy tozalash samaradorligi sezilarli darajada oshishi aniqlandi.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, filtr tanlash jarayonida changning boshlang'ich konsentratsiyasi, havo sarfi, aerodinamik qarshilik va regeneratsiya imkoniyatlari muhim ahamiyatga ega.

Olingan natijalar havoni changdan tozalash tizimlarining samaradorligini oshirishda to'g'ri filtr tanlash hal qiluvchi omil ekanligini ko'rsatadi. Ayniqsa, chang zarrachalarining fraksion tarkibini hisobga olgan holda filtr qo'llash tizimning ishonchliligi va ekspluatatsiya muddatini uzaytiradi.

Tahlil shuni ko'rsatadiki, faqat yuqori samarali filtrlarni qo'llash har doim ham iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq emas. Shu sababli, amaliyotda ko'pincha qo'pol, o'rtacha va mayin tozalash bosqichlaridan iborat ko'p pog'onali tizimlar qo'llaniladi. Bu yondashuv filtrlash yuzasining samarali ishlashini ta'minlab, aerodinamik qarshilikning keskin oshib ketishini oldini oladi.

Elektr filtrlarning afzalligi ularning yuqori samaradorligi va nisbatan past energiya sarfi bilan bog'liq bo'lsa-da, ularni qo'llashda ozon va azot oksidlari hosil bo'lishi ehtimoli nazorat qilinishi lozim. Bu esa ularni asosan sanoat va maxsus binolarda qo'llashni cheklaydi.

Ho'l g'ovakli moyli filtrlar uzluksiz regeneratsiya imkoniyati bilan ajralib turadi, biroq moyning fizik-kimyoviy xossalariga bog'liqligi ularning samaradorligiga ta'sir ko'rsatadi. Haroratning o'zgarishi filtr qarshiligining oshishiga yoki moyning bug'lanishiga olib kelishi mumkin.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari havoni changdan tozalash tizimlarini loyihalashda sanitariya me'yorlari, texnologik talablar va ekspluatatsion sharoitlarni kompleks hisobga olish zarurligini ko'rsatadi. Bu esa havo muhitining tozaligini ta'minlash bilan birga, uskunalarning uzoq muddatli va samarali ishlashiga xizm

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu tadqiqotda kiritilayotgan havoni changdan tozalash tizimlari, havo filtrlari va chang tutgich uskunalarining turlari, ishlash prinsiplari hamda asosiy texnik ko'rsatkichlari tahlil qilindi. O'rganish natijalari havoni changdan tozalash samaradorligi tanlangan filtr turiga, chang zarrachalarining o'lchami va konsentratsiyasiga, shuningdek, tizimning konstruktiv va ekspluatatsion xususiyatlariga bevosita bog'liqligini ko'rsatdi.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, qo'pol va o'rtacha tozalash uchun mo'ljallangan quruq va ho'l g'ovakli filtrlar dastlabki chang yuklamasini kamaytirishda samarali bo'lib, ular mayin tozalash filtrlari uchun himoya bosqichi vazifasini bajaradi. Yuqori va o'ta yuqori samarali HEPA, ULPA va shunga o'xshash filtrlar esa mikron va submikron o'lchamdagi zarrachalarni ushlab qolib, sanitariya va texnologik talablar yuqori bo'lgan sohalarda zarur havo tozaligini ta'minlaydi.

Ko'p bosqichli (kaskadli) chang tozalash tizimlaridan foydalanish umumiy tozalash samaradorligini oshirishi, aerodinamik qarshilikning keskin ko'payishini cheklashi hamda filtrlarning xizmat muddatini uzaytirishi aniqlandi. Elektr filtrlar va o'z-o'zini tozalovchi moyli filtrlar uzluksiz ishlash va regeneratsiya imkoniyati bilan ajralib tursa-da, ularni qo'llashda ekspluatatsion va sanitariya omillarini hisobga olish zarurligi ta'kidlandi.

Umuman olganda, havoni changdan tozalash tizimlarini loyihalash va tanlashda changning fraksion tarkibi, havo sarfi, tozalash darajasi, energiya sarfi va iqtisodiy samaradorlikni kompleks baholash muhim ahamiyatga ega. Tadqiqot natijalari ventilyatsiya va havoni konditsiyalash tizimlarida havo tozalash uskunalarini tanlash va qo'llash bo'yicha ilmiy-amaliy asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Zokhidov O.U., Khoshimov O.O., Khalilov Sh.Sh. Experimental analysis of microges installation for existing water flows in industrial plants. III International Conference on Improving Energy Efficiency, Environmental Safety and Sustainable Development in Agriculture (EESTE2023), E3S Web of Conferences. Том 463. Страницы 02023. 2023. https://doi.org/10.1051/e3sconf/202346302023.

2. Zokhidov O.U., Khoshimov O.O., Sunnatov S.Z. Selection of the type and design of special water turbines based on the nominal parameters of Navoi mine metallurgical combine engineering structures. AIP Conf. Proc. 3331, 050022 (2025). https://doi.org/10.1063/5.0306554.

3. A.I. Karshibaev, O.U. Zokhidov. Research of potential and effectiveness of renewable energy application at mining enterprises of the Republic of Uzbekistan. Australian Journal of Science and Technology, 2020/12. https://www.aujst.com/vol-4-4/04_AJST_2020-26.pdf.

4. О.У. Зохидов, Б.Х. Шомуродов - Илм-фан ва инновацион ривожланиш. СБШ-250МН бурғилаш дастгоҳи қурилмаларининг энергия самарадорлигини ошириш бўйича илмий таҳлил ва техник ечимлар. 2024 й. 7-том, 6-номер, 42-51 бет. https://cyberleninka.ru/article/n/sbsh-250mn-bur-ilash-dastgo-i-urilmalarining-energiya-samaradorligini-oshirish-b-yicha-ilmiy-ta-lil-va-tehnik-echimlar.

5. О.У. Зохидов, М.В. Меркулов. Исследование потенциала и эффективности применения возобновляемой энергии на горных предприятиях Республики Узбекистан. Новые идеи в науках о Земле, 2021. 57-61 стр.

UO‘T: 622.7:622.61:622.012

MAYDALASH VA QAYTA YUKLASH PUNKTI YUKLAMALARINI BARTARAF ETISH USULLARINI ISHLAB CHIQISH TADQIQOTI

Ataqulov Lazizjon Nematovich
Navoiy davlat konchilik va texnoldogiyalar universiteti, professori

Zoxidov Odil Umirzokovich
Navoiy davlat konchilik va texnoldogiyalar universiteti, dotsenti

Abdullayev Sardor G‘ulomjon o‘g‘li
Navoiy davlat konchilik va texnoldogiyalar universiteti,
33M-21 KIEA guruhi magistranti.
1sardor2903@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada konchilik sanoatida qo‘llaniladigan maydalash, yanchish va g‘alvirlash jarayonlarining texnologik xususiyatlari hamda qayta yuklash punktlarida yuzaga keladigan yuklamalarni kamaytirish usullari o‘rganildi. Maydalagichlarning konstruktiv tuzilishi, ularning ish rejimiga yuklamaning ta’siri, elak turlarining samaradorlikka ta’siri va materialning granulometrik tarkibi asosida ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish yo‘llari tahlil qilindi. MCRCC tipidagi komplekslarning kon transport tizimidagi afzalliklari ko‘rib chiqildi. Tadqiqot natijalari jarayonni barqarorlashtirish, yuklama va energiya sarfini kamaytirishga qaratilgan texnik takliflar bilan boyitildi.

Аннотация. В статье рассмотрены технологические особенности процессов дробления, измельчения и грохочения, применяемых в горнодобывающей промышленности, а также методы снижения нагрузок в пунктах перегрузки. Проанализированы конструктивные особенности дробилок, влияние нагрузки на их рабочий режим, эффективность различных типов грохотов и зависимость технологических параметров от гранулометрического состава материала. Изучены преимущества применения мобильных дробильно-перегрузочно-конвейерных комплексов (MCRCC). Результаты исследования позволили разработать технические предложения, направленные на снижение нагрузок и повышение устойчивости технологических процессов.

Annotation. This article examines the technological characteristics of crushing, grinding, and screening processes used in the mining industry, as well as methods for reducing operational loads at transfer points. The structural features of crushers, the influence of loading conditions on performance, and the efficiency of different screening systems were studied. The advantages of mobile crushing–reloading–conveyor complexes (MCRCC) in open-pit transportation schemes were analyzed. The findings include technical recommendations aimed at reducing equipment load, improving process continuity, and lowering energy consumption.

Kalit so‘zlar: maydalash, yanchish, g‘alvirlash, elak samaradorligi, granulometrik tarkib, qayta yuklash punkti, yuklama, konveyer tizimi, MCRCC.

Ключевые слова: дробление, измельчение, грохочение, нагрузка, пункт перегрузки, гранулометрический состав, эффективность грохотов, MCRCC, конвейерная система.

Keywords: crushing, grinding, screening, screening efficiency, particle size distribution, loading point, conveyor system, MCRCC.

KIRISH

Kon sanoatida ruda va tog‘ jinslarini qayta ishlashning boshlang‘ich bosqichlaridan biri — maydalash jarayonidir. Materiallarni yirik fraksiyalardan mayda fraksiyalarga keltirish boyitish jarayonining keyingi bosqichlariga tayyorlovchi muhim operatsiya hisoblanadi. Maydalash va yanchish jarayonlari energiya sarfi bo‘yicha eng katta ulushni egallaydi, uskunalarning doimiy yuklama ostida ishlashi esa tez eskirishiga olib keladi. Qayta yuklash punktlarida yuzaga keladigan tiqilishlar va notekis yuklama texnologik jarayonlarning uzluksizligini buzadi. Shu sababli maydalash va elash tizimlarini ilmiy asosda optimallashtirish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Maydalagich - qattiq materiallarni kerakli fraksiyalargacha maydalash maqsadida ularni mexanik maydalaydigan maxsus apparat. Maydalash jarayoni yorish, urish yoki siqish usuli bilan mexanik ta’sir ko‘rsatish orqali amalga oshiriladi. Ushbu turdagi uskunalar gidravlik yoki elektr yuritmadan ishlaydi, bu esa kerakli kuchni ta’minlaydi.

Maydalash mashinalari materiallarni 5 millimetrgacha bo‘lgan fraksiyalarda parchalashga qodir. Kichik o‘lchamdagi bo‘laklarni olish uchun shrederlarda maydalash amalga oshiriladi. [1].

ADABIYOTLAR TAHLILI

Maydalash va qayta yuklash punkti yuklamalarini bartaraf etish usullari mahalliy va xorijiy adabiyotlarda keng o‘rganilmoqda. Bu mavzu bo‘yicha quyida nomlari keltirilgan bir qator olimlar o‘z hissalarini qo‘shishgan: Q.S. Sanaqulov, N.A. Doniyarov, A.A. Saidaxmedov, T. Annakulov, Sh. Zairov, O. Kuvandikov - ular mobil maydalash-qayta yuklash-konveyer komplekslari (MCRCC) yordamida ochiq konlarda transport jarayonlarini optimallashtirish va yuklamalarni kamaytirish bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar olib borganlar [2].

Maydalash va qayta yuklash punkti yuklamalarini bartaraf etish usullari bo‘yicha quyida nomlari keltirilgan chet el olimlari: A. Barry Wiils, A. James Finch, V.M. Avdoxin, D. Pylypchuk va Y. Hryhoriev o‘zlarining ko‘plab ilmiy izlanishlarini olib borishgan, ular MCRCC tizimlarining ochiq konlarda samaradorlik va moslashuvchanlik jihatidan foydasini ko‘rsatgan [3].

TADQIQOT METODOLOGIYASI


Kon sanoatida maydalash jarayoni ruda va jasadlarni texnologik o‘lchamlarga keltirish uchunbajariladi. Bu jarayon keyingi boyitish samaradorligini ham belgilab beradi [4].

Maydalagich turlari

Minerallar xususiyatiga qarab quyidagi maydalagichlar qo‘llaniladi:

- jag‘li maydalagichlar (birlamchi bosqich),
- konusli maydalagichlar (o‘rta bosqich),
- zarbli maydalagichlar (uchlamchi bosqich),
- valikli maydalagichlar (maxsus texnologiyalar uchun)

Jag‘li maydalagichlar qattiq ruda turlarini maydalashda eng ishonchli uskunalardanbiri bo‘lib,1200 mm gacha bo‘lgan bo‘laklarni 150–200 mm gacha maydalashi mumkin. Konusli maydalagichlar ishlab chiqarish unumdorligini 25–35 %ga oshirish imkonini beradi,chunki ular materialni yuqori bosim ostida ezib maydalaydi [5].



1-rasm. Jag‘li maydalagichning sxematik diagrammasi

Zarbli maydalagichlar esa ohaktosh va dolomit kabi mo‘rt materiallar uchunjudasamaralihisoblanadi.

Maydalash va yanchish jarayonlarining vazifasi

Maydalash va yanchish – qattiq moddalar zarralarini o‗zaro bog‘lab turadigan ulanishning ichki kuchlarini yengadigan tashqi kuchlar ta‘sirida foydali qazilmalarni yemirish yo‗li bilan ularning bo‘laklari (zarralari) o‗lchamlarini kichraytirish jarayonlari.


Maydalash va yanchish darajalari

Dastlabki materialning maydalashdan va yanchishdan oldingi o‘lchamlarining maydalangan va yanchilgan mahsulot o‗lchamiga nisbati *maydalash darajasi yoki yanchish darajasi* deyiladi.

Maydalash darajasi – maydalashda yoki yanchishda materialning bo‗laklari yoki zarralari o‗lchami qancha martaga kichrayganini ko‗rsatuvchi jarayonning miqdoriy tavsifi. Energiya sarfi va maydalagichlar va tegirmonlar unumdorligi maydalash darajasi bilan bog‘liq.

JAG‘LI MAYDALAGICHLAR

Jag‘li maydalagichlarda material ikkita jag‘lar - biri qo‗zg‘almas, boshqasi esa qo‘zg‘aluvchan- tebranuvchi bo‘lgan o‘rtasida eziladi.




2-rasm. Jag‘li maydalagichlarning kinematik sxemalari:
a – yuqoridagi ilgakli (osmali) va vertikal shatunli jag‘lar; b – yuqoridagi ilgakli (osmali) va murakkab harakatli jag‘lar (eksentrik val ilgak (osma) o‗qi bo‗lib xizmat qiladi); v – pastki ilgakli (osmali) jag‘lar

Quyidagi turdagi jag‘li maydalagichlar ishlab chiqariladi:


SHDP – jag‘larning oddiy harakatili jag‘li maydalagichlar;

SHDS-I - jag‘larning murakkab harakatili va qabul qilish teshigi uzunligining uning kengligiga 1,6 ortiq nisbatili jag‘li maydalagichlar;

SHDS-II - jag‘larning murakkab harakatili va qabul qilish teshigi uzunligining uning kengligiga 1,6 gacha nisbatili jag‘li maydalagichlar.



3-rasm. Jag‘li maydalagichlar tuzilishi



4-rasm. Jag‘lari murakkab harakat qiluvchi jag‘li maydalagich:

1 – asos; 2 – rama; 3 – eksentrik val; 4 – asosiy podshipnik; 5 – maxovik;
6 – qoplama (broneplita); 7 – qo_zg‘aluvchan jag‘; 8 – orqadagi pona;
9 – prujina; 10,13 – ichqo‘yma; 11 – shtanga; 12 – tirgakli plita; 14 – qoplama (broneplita)

MUHOKAMA VA NATIJALAR

O‘tkazilgan nazariy va amaliy tahlillar asosida konchilik sanoatida qo‘llaniladigan maydalash, yanchish va g‘alvirlash jarayonlarida yuklamalar shakllanishining asosiy mexanizmlari, ularning oqibatlari hamda ularni kamaytirish imkoniyatlari chuqur o‘rganildi. Tadqiqot davomida jarayonlarning samaradorligiga ta’sir qiluvchi bir qator omillar aniqlanib, ular bo‘yicha ilmiy asoslangan texnik xulosalar chiqarildi.

Maydalash jarayonida yuklamaning ortishiga ta’sir qiluvchi asosiy sabab — rudaning granulometrik tarkibining notekisligi va maydalagichga kelayotgan oqimning bir xil bo‘lmasligidir. Kitobdagi texnologik ma’lumotlarga ko‘ra, yirik bo‘laklar qabul teshigini to‘sib qo‘yishi natijasida qisqa muddatli tiqilishlar yuzaga keladi, bu esa maydalagichning ish siklida tebranishlarga va energiya sarfining keskin oshishiga olib keladi. Notekis yuklama maydalagichning asosiy ishchi organlari — jag‘lar, konuslar yoki zarb plastinkalariga teng taqsimlanmagan bosim berib, ularning tez eskirishiga sabab bo‘ladi.

Shuningdek, uzatuvchi konveyerning uzluksiz ishlamasligi yoki bunkerning to‘g‘ri sozlanmaganligi materialning “to‘lqinli” kelishiga sabab bo‘lib, yuklamani 30–40 % gacha oshirishi mumkin.

G‘alvirlash texnologiyasi maydalash tizimining ajralmas qismi bo‘lib, mahsulotning kerakli fraksiyalarda ajralishini ta’minlaydi. Ammo elaklar samaradorligiga elak teshiklarining tez tiqilib qolishi, materialning qatlamlanish darajasining pastligi, g‘alvirning tebranish amplitudasi va chastotasining mos kelmasligi, elak to‘rining haqiqiy kesim koeffitsientining past bo‘lish kabi omillar salbiy ta’sir ko‘rsatadi

Oddiy metall to‘rli elaklarning xizmat muddati juda qisqa, ular 5–25 kun ishlaydi, natijada muntazam almashtirish talab etiladi. Bu esa nafaqat texnik tanaffuslarni ko‘paytiradi, balki qayta yuklash punktlarida to‘planishlar va yuklamaning keskin ko‘tarilishiga sabab bo‘ladi.

Tadqiqotlar shuni tasdiqladiki, poliuretanli, strunali yoki arfosimon elaklardan foydalanish g‘alvirning o‘tish qobiliyatini sezilarli oshiradi. Strunali elaklar o‘z-o‘zini tozalash xususiyatiga ega bo‘lgani sababli, tiqilib qolishlar 60–70 % gacha kamayadi, xizmat muddati esa oddiy elaklarga nisbatan 5–10 barobar uzoq.

Mobil maydalash–qayta yuklash–konveyer kompleksi (MCRCC) konchilik sanoatida yuklamalarni kamaytirishning eng samarali vositalaridan biri hisoblanadi. Tahlillar natijasida: yuk mashinalarining mavjud transport yuklamasi 25–40 % gacha kamayadi, material oqimi uzluksiz bo‘ladi, bu maydalagichning yuklanishini barqarorlashtiradi, konveyerli tashish tufayli texnik xizmat ko‘rsatish xarajatlari pasayadi, materialni uzoq masofaga ortiqcha yuklanishsiz yetkazish imkoniyati oshadi.

MCRCC tizimi ochiq konlarda transport jarayonini optimallashtiradi, yuklamalarni teng taqsimlaydi va ishlab chiqarish jarayonining umumiy ritmini barqarorlashtiradi.

Maydalash-yanchish jarayonlari kon sanoatida eng ko‘p energiya sarflaydigan operatsiyalardan biridir. Bu yuklamaning notekisligi energiya sarfini 12–18 % gacha oshiradi, maydalagichning bo‘sh ishlashi yoki ortiqcha yuk ostida ishlashi elektr dvigatelining eskirishini tezlashtiradi, g‘alvirlash samaradorligining pastligi maydalash bosqichlarining yukini orttiradi va qo‘shimcha elektr energiyasi sarfini yuzaga keltiradi.

Yuqoridagi omillarni hisobga olgan holda ishlab chiqilgan takliflar nafaqat texnologik barqarorlikni oshiradi, balki korxonada energiya sarfini ham optimallashtiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, kon sanoatida maydalash va qayta yuklash jarayonlaridagi yuklamalarni kamaytirish — alohida uskunani emas, butun texnologik tizimni kompleks yondashuv asosida takomillashtirish orqali mumkin bo‘ladi. Zamonaviy elak texnologiyalarini qo‘llash, MCRCC tizimlari bilan transportni optimallashtirish, oqimni tartibga soluvchi qurilmalar joriy etish va avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlaridan foydalanish kon korxonalarida yuqori samaradorlik va energiya tejamkorligiga olib keladi.

ADABIYOTLAR

1. Q.S. Sanaqulov, N.A. Doniyarov, A.A. Saidaxmedov. Foydali qazilmalarni boyitish va qayta ishlash asoslari. O_quv qo_llanma – T.: 2020.
2. A. Barry Wiils and A. James Finch. Wiil‘s Mineral Processing Technology. USA University of Technology, 2007.
3. В.М. Авдохин. Основы обогащения полезных ископаемых. Учебник - М.: МГГУ, 2006.
4. Основы обогащения полезных ислопаемых. Metso. Издание 3. 2010.
5. Г.Г. Пиваняк, Л.А. Вайсберг. Измельчение. Энергетика и технология. Учебник – М.: Издательский дом ―Руда и Металлы‖, 2007. – с296.

УДК. 331.45

ИЗУЧЕНИЕ ЗАКОНА УПРУГОЙ ДЕФОРМАЦИИ ОБОЛОЧКИ ПИТАЮЩЕГО ЦИЛИНДРА И ЕГО РАСПРЕДЕЛЕНИЯ СРОКА СЛУЖБЫ ПРИ УСТАЛОСТНЫХ ИСПЫТАНИЯХ ИМЕЮЩИЙ В ПРЯДИЛЬНЫХ МАШИНАХ

Мирзаев Отабек Абдукаримович
доцент, Каршинский государственный технический университет, Республика Узбекистан, г.Карши.
E-mail: kiamoa@mail.ru

Маматов Нурбек Зиёдуллаевич
доцент, Каршинский государственный технический университет, Республика Узбекистан, г.Карши.
E-mail:nurbek.mamatov.1989@mail.ru

Аннотация. В этом работе исследуется энергия деформации питающего цилиндра в зон питании пневмомеханических прядильных машин, а также распределение его срок службы по научном результатом усталостных усталостных испытаний. Здес осоновное внимание уделено напряженно-деформированного состояния цилиндрической упругой оболочкипридействия крутящего момента. В этом работе рассмотрены изменение кривизны в окружном направлении, продольным перемещения, а также окружное смещение точки оболочки на растоянии z от базового сечения. Результаты научного исследования могут быть использованы для прогнозирования долговечности питающих цилиндров и оптимизации их конструктивных параметров с целью повышение надежности работы прядильных машин.

Annotatsiya. Ushbu ishda pnevmomekanik yigiruv mashinalarining oziqlantirish zonasida qo‘llaniladigan oziqlantiruvchi silindrning deformatsiya energiyasi hamda charchash sinovlari natijalariga asoslangan holda uning xizmat muddati taqsimoti tadqiq etiladi. Asosiy e’tibor burama moment ta’sirida silindrik elastik qobiqning kuchlanish-deformatsiya holatini tahlil qilishga qaratilgan. Ishda aylana yo‘nalishidagi egrilikning o‘zgarishi, bo‘ylama siljishlar, shuningdek, qobiq nuqtasining bazaviy kesimdan zzz masofadagi aylana bo‘ylab siljishi ko‘rib chiqilgan. Tadqiqot natijalari oziqlantiruvchi silindrlarning uzoq muddatli mustahkamligini bashorat qilish va yigiruv mashinalari ishonchliligini oshirish maqsadida ularning konstruktiv parametrlarini optimallashtirishda qo‘llanilishi mumkin.

Abstract. This paper investigates the deformation energy of a feeding cylinder used in the feeding zone of pneumomechanical spinning machines, as well as the distribution of its service life based on the scientific results of fatigue tests. The main attention is focused on the analysis of the stress–strain state of a cylindrical elastic shell under the action of a torsional moment. The study considers changes in curvature in the circumferential direction, longitudinal displacements, and circumferential displacement of a shell point at a distance zzz from the reference section. The research results can be used to predict the durability of feeding cylinders and to optimize their structural parameters in order to improve the reliability of spinning machines.

Ключевые слова. продольное перемещение, упругая, метод, цилиндр, нормальное, закон, метод, совокупность, гипотеза, потенциальный, распределения, нагрузки, параметры, устойчивость, срок службы, дисперсия, форма, относительно, фиксирования, коэффициент корреляции, функция, разращения.

Kalit so‘zlar. bo‘ylama siljish, elastik, usul, silindr, normal, qonun, usul, majmua, gipoteza, potensial, taqsimot, yuklama, parametrlar, barqarorlik, xizmat muddati, dispersiya, shakl, nisbiy, mahkamlash, korrelyatsiya koeffitsienti, funksiya, ortish.

Keywords. longitudinal displacement, elastic, method, cylinder, normal, law, method, set, hypothesis, potential, distribution, load, parameters, stability, service life, dispersion, shape, relative, fixation, correlation coefficient, function, increment.

Введение. Известно что устойчивость трехслойных оболочек для прядильных машин — это ключевая инженерная задача, касающаяся расчета **питающих цилиндров** пневмомеханических машин, где сплошной заполнитель внутри оболочки влияет на ее поведение, сопротивляясь перемещениям и вызывая особые режимы потери устойчивости. Устойчивость таких составных оболочек изучается в контексте их деформаций (радиальных, окружных, продольных) под действием внутренних усилий для обеспечения надежной работы оборудования.

Обзор литературы. В работах С.А. Амбарцумяна [1], В.В. Болотина [2], В.З. Власова [3] и других ученых доказано, что рациональной является форма оболочки в виде выпуклого многогранника. Оболочки монтируются из унифицированных крупноразмерных плоских элементов и являются экономичнее оболочек, монтируемых из криволинейных сборных элементов. В работе [4] авторы изучали динамики оболочки. В работе А.С. Вольмир [5], А.Л. Гольденвейзер [6], Э.И. Григолюк [7] и другие ученые, которые в своих работах исследовали частоты и формы свободных колебаний для гладких однослойных оболочек. Необходимость исследования частот свободных колебаний оболочек является одной из основных задач их динамического расчета. Подобная задача для цилиндрической оболочки со свободно опертыми краями была решена В. Флюгге. Им было получено частотное уравнение в виде кубического уравнения относительно квадрата частоты свободных колебаний [8]. Для металлов установлено, что функция распределения $F(N)_G$ хорошо описывается логарифмически нормальным законом [9]. Для технических резин вид функции распределения окончательно не установлен, хотя имеются отдельные работы по исследованию некоторых видов технических изделий (например, вентиляторные ремни). В этих работах получено, что закон распределения сроков службы приближенно является логарифмически нормальным [10].

Ввиду невозможности проведения аналогичных испытаний для муфт, нами был выбран метод проверки гипотезы о логарифмически нормальном законе распределения по совокупности малых выборок [11].

Материалы и методы. Расчет прочности, жесткости и устойчивости тонкостенных конструкции составных питающих цилиндров обычно связан с исследованием многократно статически неопределимых систем. Известно что практический все примеры курса сопротивления материалов можно решать на основании теоремы о минимуме потенциальной энергии. Это теорема , обладая значительной общностью, позволяет исследовать многие задачи равновесия упругого тела. Решение, полученных таким методом, не всегда наиболее простые. Но в сложных задачах расчета тонкостенных балок и оболочек энергетический приём не только очень удобен , но иногда и незаменим для получения простых расчетных зависимостей. Для решения заданного проблемы принимаем метода минимума потенциальной энергии, впервые полученных Эйлером и она называется уравнением Эйлера вариационной задачи. Рассмотрим устойчивости цилиндрическая оболочки составного питающего цилиндра нагруженный по моментам $\mathcal{M}$. (см.рис. 1)




Рис 1. Первоначальное крутильная процесс составного питающего цилиндра в зон питании пневмомеханических прядильных машин.

1-Волокнистая лента, 2-питающий столик,3-составной питающий зубчатый цилиндр (имеющий резиновая оболочка и его модул упругости $E = 35\ \frac{Н}{мм}$, М-крутильная процесс, А-процесс между зубами питающего цилиндрам и столикам. Потеря устойчивости определяется из условия стационарности полной потенциальной энергии системы для составных цилиндров :

$$\Pi = U - W \qquad (1)$$

где U — энергия упругой деформации оболочки составного питающего цилиндра имеющий в зон питании пневмомеханических прядильных машин. W — работа внешнего крутящего момента $\mathcal{M}$. После этого начинаем теоретическая обсуждение о плотностью энергии деформации для цилиндрической оболочки:

$$\varepsilon = \varepsilon(\xi_n, \partial\xi_n^I, \xi_n^{II})$$

ξ_n — обобщённая координата формы потери устойчивости оболочки составного

питающего цилиндра ;

$\partial\xi_n^I, \xi_n^{II}$ −производные по продольной координате x. Указать что , условие минимума

потенциальной энергии равно :

$$\delta\Pi = 0$$

и он приводит к **уравнению Эйлера вариационного задачи :**

$$\frac{\partial\epsilon}{\partial\xi_n(x)} - \frac{d}{dx}\left(\frac{\partial\epsilon}{\partial\xi_h^I(x)}\right) + \frac{d^2}{dx^2}\left(\frac{\partial\epsilon}{\partial\xi_H^{II}(x)}\right) = 0 \qquad (2)$$

Для яркого пониманием немного скажем о физический смысл членов уравнения и она приведено в таблице 1.

Таблица 1

Математическая зависимость деформации и напряжении оболочки питающего цилиндра

Член уравнения	Физический смысл

$\frac{\partial \epsilon}{\partial \xi_n}$	Энергия мембранных и касательных деформаций
$\frac{d}{dx}\frac{\partial \epsilon}{\partial \xi_n^I}$	Продольное перераспределение напряжений
$\frac{d^2}{dx^2}\left(\frac{\partial \epsilon}{\partial \xi_n^{II}}\right)$	Изгибная жёсткость оболочки

После подстановки выражений энергии для цилиндрической оболочки получаем:

$$D\frac{d^4}{dx^4}+\frac{\mathcal{M}}{2\pi R^2}\frac{d^2\omega}{dx^2}=0 \qquad (2)$$

где

$$D=\frac{Eh^2}{12(1-\upsilon^2)} \qquad (3)$$

Нам стоит проблемы для о нахождение критического крутящего момента $\mathcal{M}_{кр}$ составного питающего цилиндра для пневмомеханических прядильных машин. Ищем решение в виде волны:

$$\omega(x)=Wsin(\frac{n\pi x}{L}) \qquad (4)$$

Подстановка в уравнение даёт условие **существования ненулевого решения поставленных проблемы:**

$$\mathcal{M}_{кр}=\frac{2\pi DR^2}{L^2}n^2 \qquad (5)$$

Условно можно считать что, минимальное значение соответствует $n=1$:

$$\mathcal{M}_{кр}=\frac{2\pi^2Eh^2R^2}{12(1-\upsilon^2)L^2}n^2 \qquad (6)$$

В классической теории цилиндрических оболочек (Кирхгоф–Лява) перемещения срединной поверхности задаются как:

$u_n(x,\varphi)$ −продольное перемещение (вдоль образующей) оболочки составного питающего цилиндра для пневмомеханических прядильных машин;

$v_n(x,\varphi)$ −окружное перемещение оболочки составного питающего цилиндра для пневмомеханических прядильных машин;

$\boldsymbol{\omega_p}(x,\varphi)$ −нормальное (радиальное) перемещение оболочки составного питающего цилиндра для пневмомеханических прядильных машин.;

Инженерной можно обсудить что, для задачи устойчивости при кручении принимаем **волновую форму потери устойчивости:**

$$\boldsymbol{\omega}_п(x,\varphi)=Wsin(\frac{n\pi x}{L})\cos(m\varphi) \qquad (7)$$

где $n-$ число полуволн вдоль оси цилиндра; $m-$ число волн по окружности; $W-$ амплитуда потери устойчивости. Для изучения есть связь перемещений с изменением кривизны. Изменение кривизны срединной поверхности оболочки составного питающего цилиндра выражается через вторые производные нормального перемещения. Изменение кривизны в направлении образующих

$$\chi_x=-\frac{\partial^2\boldsymbol{\omega_p}}{dx^2} \qquad (8)$$

После этого вычислим производные :

$$\frac{\partial^2 \omega_p}{dx^2} = -(\frac{n\pi}{L})^2 W sin(\frac{n\pi x}{L})\cos(m\varphi) \quad (9)$$

Следовательно надо указать, что :

$$\chi_x = (\frac{n\pi}{L})^2 W sin(\frac{n\pi x}{L})\cos(m\varphi) \quad (10)$$

Изменение кривизны в окружном направлении

$$\chi_\varphi = -\frac{1}{R^2}\left(\frac{\partial^2 \omega_p}{\partial \varphi^2} + \boldsymbol{\omega_p}\right) \quad \mathbf{(11)}$$

После этого вычислим вторую производную по φ :

$$\frac{\partial^2 \omega_p}{\partial \varphi^2} = -m^2 W sin(\frac{n\pi x}{L})\cos(m\varphi) \quad (12)$$

Подставляя его в (10) (11) получим :

$$\chi_\varphi = -\frac{1}{R^2}[(1-m^2) W sin\left(\frac{n\pi x}{L}\right)\cos(m\varphi)] \quad (13)$$

Или его можно написать следующим форме

$$\chi_\varphi = \frac{(m^2-1)}{R^2} W sin\left(\frac{n\pi x}{L}\right)\cos(m\varphi) \quad (14)$$

Для точности скажем о координате по толщине оболочки составного питающего цилиндра для пневмомеханических прядильных машин.

Вводится координата: $z \in [-\frac{h}{2}, +\frac{h}{2}]$

$z = 0$ – срединная поверхность;

$z = -\frac{h}{2}$ – наружная поверхность;

$z = +\frac{h}{2}$ – внутренняя поверхность.

Перемещения любой точки оболочки выражаются через перемещения срединной поверхности. В этом процессе есть связь продольного перемещения u_n с прогибом ω_p

$$v_n(x, \varphi, z) = -z\frac{1}{R}\frac{\partial \omega_p}{\partial \varphi} \quad (15)$$

После этого можно сказать о геометрический вывод в этом проблемы с нумерациями

1. Прогиб $\boldsymbol{\omega_p}$ вызывает поворот нормали в окружном направлении составного питающего цилиндра .
2. Угол поворота нормали по окружности составного питающего цилиндра :

$$\theta_\varphi = \frac{1}{R}\frac{\partial \omega_p}{\partial \varphi} \quad (16)$$

Соответствующее окружное смещение точки на расстоянии z можно написать

$$v_n = -z\theta_\varphi \quad (17)$$

После этого определяем численный значения деформации оболочки для составного питающего цилиндра и она приведены в таблице 2 .

Таблица 2

Численные результаты расчёта деформаций оболочки

№	*Величина*	Обозначение	Формула / определение	Численное значение	Ед. изм.
1	Толщина оболочки	h	*Измерено*	4	мм
2	Длина зоны деформации	L	*Измерено*	20	мм
3	Радиус цилиндра	R	*Измерено*	25	*мм*

4	Модуль упругости	E	*Определено*	35	$\frac{\text{Н}}{\text{мм}^2}$
5	Изгибная жёсткость	D	$\frac{Eh^2}{12(1-\upsilon^2)}$	245	Нмм
6	Макс. нормальный прогиб	$\omega_{p,\text{мах}}$	W	0.5	мм
7	Макс. продольная кривизна	$\chi_{\text{х}},\text{мах}$	$(\frac{\pi}{L})^2 W$	*0,012*	мм^{-1}
8	Окружная кривизна	χ_{φ}	*при* $m=1$	*0*	мм^{-1}
9	Макс. продольное перемещение	$u_n,\text{мах}$	$z\frac{\partial\omega}{\partial x}$	*0.158*	мм
10	Макс. окружное перемещение	$v_n,\text{мах}$	$z/R\frac{\partial\omega}{\partial x}$	*0,04*	мм

Для установления взаимосвязи между парамерами и получения сравнительных результатов целесообразно представить их в графическом виде. В связы с этим критический крутящий момент $\mathcal{M}_{\text{кр}}(\text{E})$, воспринимаем питающим цилиндром, связывается с модулем упругости резиновых оболочек E(Н/мм²), применяемых в его конструкции. Модуль жёсткости упругой втулки приведен в таблице 3.

$$\mathcal{M}_{\text{кр}}(\text{E}) = \frac{2\pi^2 R^2}{L^2}\frac{h^3}{12(1-\upsilon^2)} \qquad (18)$$

Таблица 3

Результатный данные для построения графика

№	Модуль упругости E(Н/мм²)	Критический момент $\mathcal{M}_{\text{кр}}(\text{E})$ (Н·мм)
1	*30*	*6450*
2	*35*	*7525*
3	*40*	*8600*
4	*45*	*9625*
5	*50*	*10750*
6	*55*	*11825*
7	*60*	*12900*

Для полученного результата можно обсуждать **зависимость критического крутящего момента от модуля упругости составного питающего цилиндра, и она приведено на рис 2.** После этого теоретически обсуждаем при оценке надежности питающих цилиндров по условиям усталостной прочности и установлении коэффициентов безопасности необходимо знать функцию распределения $F(N)_G$ вероятности разрушения образца при достижении N циклов. В зависимости от вида функции распределения можно получить при одинаковых вероятностях разрушения существенно различные коэффициенты безопасности, которые, в свою очередь, определяют эксплуатационные свойства и гарантийный срок службы составных питающих цилиндров. Для металлов установлено, что функция распределения $F(N)_G$

хорошо описывается логарифмически нормальным законом [9]. Для технических резин вид функции распределения окончательно не установлен, хотя имеются отдельные работы по исследованию некоторых видов технических изделий (например, вентиляторные ремни). В этих работах получено, что закон распределения сроков службы приближенно является логарифмически нормальным [10].Закон распределения сроков службы питающих цилиндров с резиновыми упругим оболочкам можно установить методами математической статистики по результатам усталостных испытаний питающих цилиндров при фиксированном значении нагрузки. Однако такой метод требует довольно большого 50 количества образцов. Так при проверке закона распределения срока службы металлических деталей было испытано около 600 образцов. Ввиду невозможности проведения аналогичных испытаний для муфт, нами был выбран метод проверки гипотезы о логарифмически нормальном законе распределения по совокупности малых выборок [11].

Основные допущения и параметры, используемые при проверке распределения сроков службы при усталостных испытаниях составных питающих цилиндров.

Под выборками будем понимать значения логарифмов числа циклов N_1, при которых наступило разрушение детали при фиксированной нагрузке. Объем единичной выборки установим равным $n = 3$.

Выборки предполагаются независимыми, а тип закона распределения lgN не зависит от характера нагрузки и будет одинаковым для всех совокупностей, из которых берутся выборки.Применяя данный метод, проверим гипотезу нормальности закона распределения в генеральных совокупностях, из которых взяты эти выборки, не предполагая, что параметры этих совокупностей имеют тождественное значение во всех выборках без исключения. Иными словами, мы предполагаем устойчивой лишь форму распределения, не делая никаких допущений относительно центров и дисперсий генеральных совокупностей.

Рассмотрим уклонение

$$\tau = \frac{lgN_i^{(J)} - lgN^{(j)}}{\bar{S}^{(j)}} \tag{19}$$

Какого-либо , наудачу взятого наблюдения $lgN_i^{(J)}$ J выборки от соответствующий средней арифметической $lgN^{(j)}$ нормированного оценкой $\bar{S}^{(j)}$ среднего квадратического отклонение по той же выборке. Среднее значения $lgN^{(j)}$ и средние значения $lgN^{(j)}$ и среднее квадратическая отклонение $\bar{S}^{(j)}$ соответственно определяется по формулам:

$$lgN^{(j)} = \frac{\sum_{i=1}^{3} lgN}{n}$$

$$\bar{S}^{(j)} = \frac{1}{n-1}\sqrt{\sum_{i=1}^{3} lgN_i^{(J)} - lgN^{(j)})^2}$$

При $n \neq 4$ плотность величины τ не будет удобной для пользования при проверке гипотезы нормальности ввиду отсутствия надлежащих
таблиц. Поэтому в этих случаях приходится переходить от не величины

$$\eta = \frac{\tau\sqrt{n-2}}{n-1-n^2} \tag{20}$$

–

Величина η распределена по закону Стьюдента с $n-2$ степенями свободы , если исходные распределении lgN следуют нормальному закону.

5. Уринов Ш. Р., Мансурова С. А., Номдоров Р. У., Садиков И. Т. Методики долговременного наблюдения за деформациями бортов карьера с использованием автоматизированных систем мониторинга GeoMoS // Саноатда рақамли технологиялар. — 2023. — № 2. — С. 45–52.

Методические указания по обеспечению устойчивости откосов и сейсмической безопасности при ведении взрывных работ на карьерах. — СПб., 2007. — 98 с.

UO‘T:669.24:628.3

VANADIYLI CHIQINDILARDAN V_2O_5 NI ERITMAGA O‘TKAZISHNING EKOLOGIK XAVFSIZ TEXNOLOGIYASI

D.X. Yakibova
Olmaliq davlat texnika instituti katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada ishlatilgan vanadiyli katalizatorlardan V_2O_5 ni gidrometallurgik usulda eritmaga o‘tkazish jarayoniga harorat, kislota konsentratsiyasi va vaqtning ta’siri o‘rganildi. Tadqiqot 2 M H_2SO_4 eritmasida turli harorat (20–25°C, 35–40°C, 60–70°C), konsentratsiya (0,5–2 M) va davomiylik (2–6 soat) sharoitlarida olib borildi. Harorat oshishi ekstraksiyani 88,5 % gacha, kislota konsentratsiyasini 2 M ga yetkazish esa 90 % gacha ko‘tarishi aniqlandi. Yuvish davomiyligining 4 soatdan keyingi o‘sishi esa samaradorlikka sezilarli ta’sir ko‘rsatmadi. Olingan natijalar ishlatilgan katalizatorlarni ekologik xavfsiz qayta ishlash va texnologik jarayonlarni optimallashtirish uchun ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Аннотация. В данной статье изучено влияние температуры, концентрации серной кислоты и длительности выщелачивания на гидрометаллургическое извлечение V_2O_5 из отработанных ванадиевых катализаторов. Эксперименты проводились в растворе 2 M H_2SO_4 при 20–25°C, 35–40°C и 60–70°C, при концентрации кислоты 0,5–2 M и продолжительности 2–6 часов. Установлено, что степень извлечения достигает 88,5 % при 60–70°C и 90 % при 2 M, при оптимальной длительности 2 часа. Полученные данные могут быть использованы для разработки экологически безопасной и экономически эффективной технологии переработки токсичных катализаторов.

Abstrakt. This article investigates the effects of temperature, sulfuric acid concentration, and leaching duration on the hydrometallurgical extraction of V_2O_5 from spent vanadium catalysts. Experiments were performed in 2 M H_2SO_4 at temperatures of 20–25°C, 35–40°C, and 60–70°C, acid concentrations of 0.5–2 M, and leaching times of 2–6 hours. The extraction efficiency increased to 88.5 % with rising temperature, while increasing acid concentration to 2 M yielded up to 90 % dissolution of V_2O_5. Extending the leaching time beyond 4 hours showed negligible improvement. These findings provide a scientific basis for environmentally safe catalyst waste processing and optimization of leaching parameters.

Kalit so‘zlar: vanadiyli katalizatorlar, V_2O_5 ekstraksiyasi, gidrometallurgiya, sulfat kislota, kislota konsentratsiyasi, harorat omili, toksik sanoat chiqindilari

Ключевые слова: ванадиевые катализаторы, выщелачивание V_2O_5, гидрометаллургия, серная кислота, концентрация кислоты, температурный фактор, токсичные промышленные отходы.

Keywords: vanadium catalysts, V_2O_5 leaching, hydrometallurgy, sulfuric acid, acid concentration, temperature effect, toxic industrial waste.

Kirish. O‘zbekistonda kimyo va neft-kimyo sanoatining jadal rivojlanishi mamlakat iqtisodiyotining barqaror o‘sishida muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda. Biroq ushbu tarmoqlarning kengayishi bilan birga atrof-muhitga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan texnogen chiqindilar hajmi ham ortib bormoqda. Xususan, sulfat kislotasi ishlab chiqarish jarayonida qo‘llaniladigan vanadiyli katalizatorlarning ishlash muddati tugashi natijasida katta miqdorda xavfli chiqindilar shakllanadi. Tarkibida vanadiy besh oksidi (V_2O_5) yuqori ulushda bo‘lgan bu chiqindilar ekologik xavf toifasiga kiradi [1].

Vanadiy ekologik jihatdan xavfli bo‘lgan toksik element bo‘lib, uning atrof-muhitga tushishi tuproq, suv va havo sifatiga sezilarli zarar yetkazadi, Tuproqda vanadiyning to‘planishi o‘simliklarning fotosintez jarayonini sustlashtiradi, ildiz tizimida fiziologik buzilishlar keltirib chiqaradi. Suv havzalarida esa vanadiy bioakkumulyatsiyaga olib kelib, gidrobiotsenozning

tabiiy balansini buzadi. Havoga tarqalgan vanadiy oksidlari nafas olish tizimiga zarar yetkazib, respirator kasalliklar, yallig‘lanish va allergik reaksiyalar chaqirishi mumkin. Ayniqsa V_2O_5 ning aerozol holati inson va hayvonlar sog‘ligiga yuqori xavf tug‘diradi [2]. Shu sababli ishlatilgan vanadiyli katalizatorlarni xavfsiz utilizatsiya qilish ekologik va iqtisodiy jihatdan muhim hisoblanadi.

Dunyo miqyosida yiliga 35 ming tonnadan ortiq ishlatilgan vanadiyli katalizatorlar hosil bo‘ladi. O‘zbekistonda esa bu ko‘rsatkich 200 tonnaga yaqin bo‘lib, ushbu chiqindilar tarkibidagi vanadiy nafaqat ekologik xavf tug‘diradi, balki iqtisodiy nuqtai nazardan ham qayta tiklanishi zarur bo‘lgan qimmatli resurs sanaladi [3].

Ilmiy nashrlarda sanoatda ishlatilgan vanadiyli katalizatorlarni gidrometallurgiya usulida ajratib olish bo‘yicha bir necha tadqiqotlar mavjud bo‘lsa-da, 2 M H_2SO_4 eritmasida harorat, kislota konsentratsiyasi va vaqtning optimal qiymatlari mahalliy xom ashyo sharoitida yetarlicha o‘rganilmagan [4].

Gidrometallurgik usulning ekologik xavfsizligi, jarayon tuzilmasining sodda bo‘lishi va yuqori samaradorligi uning amaliy ahamiyatini yanada oshiradi. Shu bois ushbu tadqiqotda harorat omilining V_2O_5 ekstraksiyasiga ta’siri texnologik hamda ekologik nuqtai nazardan chuqur tahlil qilindi.

Tadqiqot uslublari. Tadqiqot ishlatilgan vanadiyli katalizator namunasi asosida olib borildi. Namunalar 3 mm dan kichik fraksiyagacha maydalanib, gidrometallurgik usulda H_2SO_4 0; 0,5; 1; 2 M eritmasida 20°C –90°C haroratlarda, 2, 4, 6 soat vaqt oraliqlarida qayta ishlangan [5]. Filtrlashdan keyin qattiq qoldiq issiq suv bilan yuvilib, 200°C da doimiy massa hosil bo‘lguncha quritildi [6]. Namunalarning tarkibi Rigaku NEX CGEDXAF Analyzer spekrofotometrida, xarakterli xossalari SURFACEAREA Pore Size ANALYZER Anton pear, Model: Nova 60, Serial №1050048110 priborida aniqlandi [7].

Tadqiqot natijalari va ularning muhokamasi

Vanadiy ekstraksiyasi darajasi boshlang‘ich sulfat kislotasi konsentratsiyasi 2 M bo‘lgan sharoitda, 2 soat davomida va suyuqlik: katta qattiq nisbatida (S:Q = 1:1) o‘rganildi. Buning uchun ishlatilgan vanadiyli katalizator maydalanib, 3 mm dan kichik fraksiyalar tajribaga jalb qilindi. Haroratning V_2O_5 ekstraksiyasiga ta’siri 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Vanadiy besh oksidini eritmaga ajratib olishning vaqtga bog`liqligi natijalari

Harorat, °C	Filtrat hajmi, ml	Qoldiq massasi, g	Qoldiqdagi V_2O_5, %	Ekstraksiya, %
20–25	243	56.3	0.680	84.3
35–40	200	56.5	0.676	84.5
60–70	273	53.9	0.497	88.5

V_2O_5 ekstraksiyasi turli haroratlarda 2 M H_2SO_4 eritmasi ishtirokida o‘rganildi (1-jadval). Tajriba natijalaridan ko‘rinadiki, harorat oshishi bilan eritmaga o‘tuvchi V_2O_5 ning ulushi muntazam ortib bordi. Past harorat (20–25 °C) sharoitida qattiq qoldiq tarkibidagi V_2O_5 miqdori 0,680 % ni tashkil etib, ekstraksiya samaradorligi 84,3 % ga teng bo‘ldi. Bunga asosiy sabab katalizator zarralari teshiklarida joylashgan vanadiy birikmalarining past haroratda eruvchanligi cheklanganligi va kislotaning kompleks hosil qilish qobiliyati yetarli darajada bo‘lmasligidir.

Harorat 35–40 °C gacha oshirilganda qoldiqdagi V_2O_5 miqdori 0,676 % gacha kamaydi, ekstraksiya esa 84,5 % ni tashkil etdi. Bu farq, yuqori haroratda vanadiy birikmalarining eritmada nisbatan faollashgani bilan izohlanadi. Yanada yuqori harorat diapazoni (60–70 °C) esa eritish jarayonining keskin faollashuviga olib kelib, ekstraksiya darajasi 88,5 % ga yetdi. Bu H_2SO_4 ning erituvchi qobiliyati harorat oshishi bilan kuchayishi va V_2O_5 ning yanada faol ravishda suyuq fazaga o‘tishi bilan bog‘liq.

Sulfat kislotasi konsentratsiyasining ishlatilgan vanadiyli katalizator tarkibidan vanadiyni yuvib o‘tish darajasiga ta’siri xona haroratida, J:T = 3:1 nisbati, jarayon davomiyligi 2 soat va sulfat kislotasining 0,5 M, 1 M hamda 2 M konsentratsiyalarida o‘rganildi. Tajribalarda maydalanilgan ishlatilgan vanadiyli katalizator namunasi ishlatildi. Har bir tajribadan so‘ng, 2 soat o‘tgach, aralashma filtrlandi, filtrdagi qattiq qoldiq issiq suv bilan yuvildi va undagi V_2O_5 miqdori tahlil qilindi hamda vanadiyning eritmaga o‘tish darajasi hisoblandi. Ishlatilgan vanadiyli katalizator tarkibidagi boshlang‘ich V_2O_5 miqdori 4,54 % ni tashkil etdi. Qattiq qoldiq yuvilgach, 200 °C haroratda doimiy massa hosil bo‘lguncha quritildi. Vanadiy besh oksidini eritmaga ajratib olishning kislota konsentratsiyasiga bog`liqligini aniqlash quyidagi (G=100g; S:Q=3:1; d_3=-1+2mm; τ=2soat t-70-90°C) sharoitlarda olib borildi va natijalari 2-jadvalda keltirilgan

2-jadval

Vanadiy besh oksidini eritmaga ajratib olishning kislota konsentratsiyasiga bog`liqligi natijalari

C_{H2SO4}, M	Filtrat hajmi, ml	Qattiq chiqindining massasi, g	Eritmadagi V_2O_5 miqdori g/l	V_2O_5 ni eritmaga o‘tish darajasi, %
0	395	64,70	2,39	21
0.5	379	62,36	7,49	63
1	243	60,30	15,9	85
2	250	57,03	16,92	90

Sulfat kislotasi konsentratsiyasining ekstraksiyaga ta’siri 0–2 M oralig‘ida o‘rganildi (2-jadval). Konsentratsiya oshishi bilan eritmaga o‘tuvchi V_2O_5 miqdori sezilarli ravishda ortdi. Suv bilan o‘tkazilgan tajribada katalizator tarkibidagi SO_3 qoldiqlari tufayli eritma tabiiy ravishda kislotali muhitga ega bo‘lib, ekstraksiya 21 % ni tashkil etdi. Kislota konsentratsiyasi 0,5 M ga yetkazilganda ekstraksiya 63 % gacha oshdi, 1 M eritmada 85 % va 2 M da 90 % ga yetdi. Demak, eritmadagi H^+ ionlari konsentratsiyasi oshishi natijasida vanadat tuzlarining parchalanishi faollashadi va vanadiy ionlarining suyuq fazaga o‘tishi jadallashadi. Vanadiy besh oksidini eritmaga ajratib olishning vaqtga bog`liqligini aniqlashda quyidagi (C_{H2SO4}=2M; G=100g; S:Q=1:1; d_3= -1+2mm; t-35°C) sharoitlarda olib borildi va natijalari 3-jadvalda keltirilgan.

3-jadval

Vanadiy besh oksidini eritmaga ajratib olishning vaqtga bog`liqligi natijalari

Vaqti, soat	Filtrat bilan yuvish suvining hajmi, ml	Erimay qolgan qattiq chiqindining massasi, g	Erimay qolgan qattiq chiqindidagi vanadiyning miqdori, %	Vanadiyni eritmaga o‘tish darajasi, %
2	211	59	0.788	74.0
4	200	56.5	0.429	85.9
6	215	60.5	0.314	89.7

2 M H_2SO_4 eritmasida V_2O_5 ekstraksiyasining vaqtga bog‘liqligi o‘rganildi (3-jadval). Jarayon 2 soat davom ettirilganda ekstraksiya 74 % bo‘ldi. Vaqt 4 soatgacha uzaytirilganda ekstraksiya 85,9 % ga yetdi, ammo jarayonni 6 soatga cho‘zish bu ko‘rsatkichni atigi 3,8 % ga oshirib, 89,7 % ga yetkazdi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, vaqtni 2 soatdan 6 soatgacha oshirish umumiy ekstraksiyani atigi 15,7 % ga oshiradi. Demak, iqtisodiy va texnologik nuqtai nazardan jarayonning optimal davomiyligi 2 soat deb belgilandi.

Xulosa.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, ishlatilgan vanadiyli katalizatorlardan V_2O_5 ni gidrometallurgik usulda ajratib olish samaradorligi jarayon parametrlariga bevosita bog‘liq ekanligi aniqlandi. Past haroratlarda eritishga bo‘lgan reaksiya sust kechib, vanadiyning sezilarli qismi qattiq fazada saqlanib qoladi. Haroratning 60–70°C oralig‘ida bo‘lishi V_2O_5 ning kimyoviy faolligini oshirib, suyuq fazaga o‘tishini keskin tezlashtiradi. Sulfat kislotasining 1–2 M konsentratsiyasidan foydalanish jarayonning texnologik va iqtisodiy jihatdan eng maqbul variantidir. Jarayon davomiyligini 2 soatdan oshirish esa umumiy ekstraksiya samaradorligini sezilarli oshirmaydi.

Olingan natijalar asosida, V_2O_5 ni ekologik xavfsiz va iqtisodiy jihatdan samarali ajratib olish uchun 60–70°C haroratda, 1–2 M H_2SO_4 eritmasida yuvish va jarayon davomiyligini 2 soat etib belgilash tavsiya etiladi. Jarayonni avtomatlashtirish ekstraksiyaning barqarorligini ta’minlab, chiqindilarning ekologik xavfini kamaytiradi.

ADABIYOTLAR

1. **Dadaxodjayev A.T., Yakibova D.X., Shoxiyev SH., Soatboyev K.K.** Ishlatilgan katalizatorlarni qayta ishlatish texnologiyasiga doir. // *Resp. ilmiy-texn. konf. “Noviye kompozitsionniye materiali…” materiallari*, Toshkent, 2022.

2. Dadaxodjayev A.T., Yakibova D.X., Abdutalipova N.M. va boshqalar Extraction of valuable components from spent cadmium and vanadium catalysts. // *E3S Web of Conferences*, 371, 01043, 2023.

3. Дадаходжаев А.Т., Якибова Д.Х., Шахиев Ш., Соатбаев К.К. Результаты рециклинга носителя отработанного ванадиевого катализатора. // *Междунар. научн.-техн. конф., Тошкент*, 2022.

4. Дадаходжаев А.Т., Фузайлова Ф.Н., Гуро В.П., Якибова Д.Х. Исследование переработки отработанных медь-, цинк-ванадийсодержащих катализаторов. // *Universum: технические науки*, №6(111), 2023.

5. Дадаходжаев А.Т., Юнусов О.К., Рахимова Л.С., Якибова Д.Х. Некоторые результаты исследования переработки отработанных ванадиевых катализаторов. // *Экология и промышленность России*, 2023.

6. Патент РУз IAP 02915. Способ извлечения пятиокиси ванадия из отработанного катализатора. 22.06.2002.

Rigaku NEX CG EDXRF Analyzer. Technical Passport and Analytical Methodology. — TSTU, Ташкент, 2020.

УДК:621.01:665.7:623.45

НАДЕЖНОСТЬ ТЕХНИЧЕСКИХ СРЕДСТВ СЛУЖБЫ ГОРЮЧЕГО ПРИ ДЛИТЕЛЬНОМ ХРАНЕНИИ

Алиев К.Т.
д.ф.т.н. (PhD), Заместитель декана
факультета прикладных
технических квалификаций
Совместный Белорусско –
Узбекский межотраслевой институт
прикладных технических
квалификаций,

Аннотация. В представленной статье рассматривается исследование технических средств службы горючего с целью выявления их состояния после продолжительного хранения. Анализируя результаты экспериментальных проверок 82 образцов средств перекачки и автомобильных средств заправки и транспортирования горючего, авторы пришли к выводу, что условия хранения оказывают существенное влияние на техническое состояние образцов. Наибольшее количество неисправностей обнаружено у технических средств, хранящихся на открытой площадке, в результате чего увеличивается количество отказов, возрастает сложность и трудоемкость устранения неисправностей. Причинами отказов являются преимущественно коррозия металлических деталей и старение резинотехнических изделий. Данные исследования также показывают, что резинотехнические изделия, входящие в состав технических средств, подвержены старению и составляют около 85% всех выявленных неисправностей. В заключение, для предотвращения отказов и повреждений при длительном хранении необходимо проводить регулярное техническое обслуживание с заменой деталей ограниченного срока хранения и применять более устойчивые материалы при разработке новых технических средств.

Abstract. The article presents a study of technical means of fuel service in order to identify their condition after prolonged storage. Analyzing the results of experimental tests of 82 samples of pumping equipment and automotive fuel refueling and transportation facilities, the authors concluded that storage conditions have a significant impact on the technical condition of the samples. The largest number of malfunctions were found in technical equipment stored in an open area, because of which the number of failures increases, the complexity and complexity of troubleshooting increases. The causes of failures are mainly corrosion of metal parts and aging of rubber products. These studies also show that rubber products that are part of technical equipment are susceptible to aging and account for about 85% of all identified malfunctions. In conclusion, in order to prevent failures and damage during long-term storage, it is necessary to carry out regular maintenance with the replacement of parts with a limited shelf life and use more stable materials in the development of new technical means.

Ключевая слова: технических средств, автомобильных средств заправки, климатических факторов, коррозия шестерен, разгерметизации, колпачков, манжет, наконечников проводов, дезактивации, дегазации, микротрещины.

Keywords: technical means, automotive refueling means, climatic factors, gear corrosion, depressurization, caps, cuffs, wire tips, deactivation, degassing, microcracks.

Большинство технических средств службы горючего являются сложными дорогостоящими изделиями, рассчитанными на длительное содержание в войсках и на базах хранения в постоянной готовности к применению. Это вызывает необходимость всесторонних исследований по оценке приспособленности технических средств службы

горючего к сохранению эксплуатационных свойств в течение продолжительного времени их использования в малоинтенсивной эксплуатации и при хранении [1,3].

Исходными данными для исследования явились результаты, полученные в ходе экспериментальной проверки технического состояния 82 образцов средств перекачки и автомобильных средств заправки и транспортирования горючего после различных сроков хранения по специально разработанным программам и методикам. Кроме того, были обобщены статистические данные по отказам и повреждениям специального оборудования 322 образцов технических средств, полученные из войск по опросным листам, в ходе проведения ревизий и по результатам подконтрольной эксплуатации [8,9].

Проверка технического состояния образцов проводилась В испытательном отделе войсках на местах их хранения. Она включала углубленный осмотр и испытание на надежность. При этом объем испытаний в испытательном отделе для каждого образца технического средства по его фактическому предназначению составил 1000-2000 км пробега с полной нагрузкой по дорогам различных категорий и 100-300 ч наработки специального оборудования. Объем испытаний автомобильных средств заправки и транспортирования горючего в войсках составил 25-30 км пробега и 5-10 ч наработки специального оборудования для каждого образца.

Результаты испытаний показали, что различные условия хранения оказывают не одинаковое влияние на техническое состояние образцов. Наибольшее количество неисправностей было выявлено на технических средствах, содержащихся на открытой площадке, что обусловлено воздействием климатических факторов, главным образом выпадением осадков в виде дождя и снега, повышенной влажностью, суточными перепадами температуры воздуха и солнечным излучением). При этом установлено, что с удлинением срока хранения технических средств увеличивается количество отказов, возрастают сложность и трудоемкость их устранения (рис. 1).




Рис. 1. Влияние сроков хранения АТМЗ-5-4320 на трудоёмкость устранения отказов и повреждений:

1- устранения отказов; 2- устранения повреждения

Основными причинами появления отказов и повреждений являются коррозия металлических деталей и старение резинотехнических изделий.

Характерными неисправностями металлических деталей и сборочных единиц являются: сквозная коррозия кожухов, теплообменников системы дополнительного охлаждения двигателя, трубопроводов, днищ бачков; коррозия деталей органов управления (рычагов, тяг, осей, штоков и их сочленений), запорных устройств (замков, защелок, петель кабин и ящиков и т. п.). Так, у подавляющего большинства автомобильных средств заправки и транспортирования горючего, содержащихся на хранении более 10 лет, выявлены отказы, обусловленные коррозией штоков пневмоцилиндров управления коробкой (дополнительной коробкой) отбора мощности и их заклиниванием в направляющих втулках. Аналогичные отказы наблюдались почти на всех средствах перекачки, где из-за коррозии осей рычагов управления (сцеплением, дроссельной заслонкой карбюратора, газом) практически невозможно было включить их в работу. Подобные отказы свидетельствуют о том, что посадочные поверхности (пары трения) особенно нуждаются в защите от атмосферного воздействия. Более 30% запорных устройств оказалось в неработоспособном состоянии также по причине их коррозионных разрушений [5,6,7].

В ходе испытаний выявлены заклинивание шестерен счетчиков жидкости ШЖУ-40С-6 (коррозия шестерен), засорение топливной системы подогрева масла М3-66 продуктами коррозии, коррозионное поражение отдельных элементов внутренней полости фильтров ФГН-30 и ФГН-60 и другие неисправности, обусловленные некачественной консервацией специального оборудования перед постановкой технического средства на хранение. Наиболее сильному коррозионному воздействию подвержены соединительные детали трубопроводов малого диаметра (гайки, штуцера, тройники и т. п.). В этом случае имели место эффект щелевой коррозии и возникновение остаточной деформации резьбовых соединений, что приводило к их ослаблению и нарушению герметичности. На автоцистернах АЦ-5,5-4320 неоднократно наблюдались отказы пневмосистем, связанные с разрушением алюминиевых пневмотрубопроводов в местах их контакта со сталью. Контакт пары металлов и наличие влаги в местах их соприкосновения способствовали протеканию интенсивной электрохимической коррозии.

Консервационные смазки ПВК и НГ-208, которыми были защищены наружные неокрашиваемые поверхности замков, пружин, петель, шарнирных и резьбовых соединений технических средств, содержащихся на открытой площадке, под воздействием теплового солнечного излучения и осадков за 2-3 года практически полностью смываются. Одновременно происходит разрушение лакокрасочного покрытия.

В условиях хранения технических средств в хранилищах консервационные смазки и лакокрасочные покрытия почти не меняют своих свойств и обеспечивают защиту законсервированных поверхностей в течение 5-6 лет.

Неисправности, вызванные старением резинотехнических изделий, являются преобладающими и составляют около 85% общего числа выявленных неисправностей [2, 4].

При анализе статистического материала все элементы технических средств, включающие резинотехнические изделия, были условно разделены на две группы: резинотехнические изделия наружного расположения и уплотнения подвижных и неподвижных соединений внутри узлов. Для каждой группы были разработаны критерии предельного состояния (табл. 1), по которым и проводилась их дефектация.

Таблица - 1

Краткая оценки техническая состояния резинотехнических изделий, входящих в состав специального оборудования средств перекачки, заправки и транспортирования горючего

Группа	Наименования изделий	Признаки неработоспособного (предельного) состояния
1. Резинотехнические изделия наружного расположения	Приводные ремни	Обрыв невозможность компенсация удлинения расслоение более чем на 1/3 длины ремня
	Подушки резиновые, виброизоляторы, резиновые муфты (звездочки)	Выкрашивание резины по всей поверхности глубиной более 3 мм, осмоление и набухание резины
	Защитные колпачки различных видов	Сквозные разрывы, разрушения, трещины длиной более 3 мм
	Губчатые и другие уплотнители дверей	Полное отделение участков уплотнения друга от друга
	Дюритовые шланги	Расслоение вздутие наружного слоя, трещины с выкрашиванием резины разрывы
2. Уплотнения подвижных и неподвижных соединений внутри изделий	Уплотнительные кольца	Потеря герметичности уплотняемого соединения, остаточная деформация, затвердевание, задиры
	Манжеты	Потеря герметичности уплотняемого соединения, износ или затвердевание рабочей кромки, трещины
	Мембраны плоские прокладки	Расслоение тканевых слоев, трещины наружного слоя на всю его глубину, приводящие к потере герметичности

Дефекты резинотехнических изделий и деталей из других неметаллических материалов ограниченного срока сохранности приводят к течи перекачиваемого нефтепродукта, разгерметизации гидравлических и пневматических систем, коротким замыканиям в электроцепях и снижению других эксплуатационных показателей. Так, образование подсоса воздуха через микротрещины уплотнений всасывающей линии (системы самовсасывания) снижает всасывающую способность технического средства (рис. 2). Из-за неудовлетворительного состояния уплотнителей дверей кабины управления (капота) и ящиков для рукавов и ЗИП во внутренние полости попадают атмосферные осадки, скапливается конденсат, что способствует ускоренной коррозии специального оборудования и ЗИП.

Неисправности специального электрооборудования в основном возникают в коммутационной аппаратуре, приборах освещения и сигнализации. Характерными дефектами электрооборудования являются: коррозионное поражение контактов и выводов, разрушение изоляции проводов, приводящее к замыканию электропроводки. Климатическое воздействие на приборы электрооборудования усугубляется еще тем, что в процессе хранения в первую очередь происходит разрушение защитных и уплотняющих деталей (колпачков, манжет, наконечников проводов, защитных чехлов соединений).




Рис.2. Изменение всасывающей способности ПСГ-160 после различных сроков хранения (всасывающая линия – четыре рукава диаметром 100 мм, длиной по 9 м каждый)

Особо следует отметить неудовлетворительное состояние резинотехнических изделий, входящих в состав комплектов дезактивации и дегазации, размещенных в специальных ящиках на цистернах автомобильных средств заправки и транспортирования горючего при их хранении на открытых площадках [3,10].

Установлено, что резинотехнические изделия первой группы начинают выходить из строя уже после 3-4 лет, а после 10-летнего периода хранения более 70% деталей этой группы находится в неработоспособном (предельном) состоянии. Отказы изделий второй группы, как правило, начинают проявляться после 4 - лет, а после 10 - приобретают массовый характер. При этом, если резинотехнические изделия наружного расположения легко поддаются визуальному контролю, детали второй группы такому контролю не поддаются, а операции, по их замене, как правило, весьма трудоемки. В то же время неисправности последних в большинстве случаев приводят к отказу технического средства в целом.

Анализ показателей надежности средств перекачки, новых и 10-летнего срока хранения, позволяет сделать вывод о том, что они имеют относительно низкую сохраняемость. Так, например, учитывая реальную эксплуатацию средств перекачки в боевых условиях, необходимо, чтобы они имели среднюю наработку на отказ не менее 300 ч; новые образцы имеют показатели, близкие к этому значению, в то время как образцы после 10 лет хранения не отвечают этому требованию (табл. 2).

Сроавнительная оценки сохранениямост средств перекачки горючего

Марка технического средств	Средная переработка на отказ, ч		Коэффицент сохраняемости по безотказности $T_0^{xp}/T_0 = K^{xp}$
	Новых T_0	После 10 лет хранения, T_0^{xp}	
МНУГ-20	280	200	0,714
МНУГ-60	269	186	0,691
ПСГ-160	275	204	0,741

У средств заправки и транспортирования горючего в процессе хранения также снижаются количественные показатели надежности.

Изменение вероятности безотказного Изменение вероятности безотказного хранения АТМ3-5-4320 в зависимости от срока хранения (при доверительной вероятности α=0,8 и относительной ошибке δ=0,2) приведено на рис. 3. Анализ результатов длительного хранения показал, что после 8 лет хранения АТМ3-5-4320 на открытой

площадке вероятность их безотказного хранения снижается до 0,85, т. е. около 15% автотопливомаслозаправщиков могут оказаться в неработоспособном состоянии.




Рис.3.Зависимость вероятности без отказного хранения АТМЗ-5-4320 от срока хранения

Таким образом, для предотвращения отказов и повреждений, возникающих в процессе длительного хранения, технические средства через 6-10 лет в зависимости от условий хранения должны подвергаться регламентированному техническому обслуживанию (РТО) с заменых деталей ограниченного срока сохранности. При этом сроки проведения РТО специального оборудования технического средства целесообразно совмещать со сроками проведения РТО базового шасси. При разработке новых и модернизации существующих технических средств службы горючего необходимо применять конструкционные материалы, более стойкие к старению, а также совершенствовать конструкцию узлов в целях повышения их сохраняемости при длительном хранении.

ЛИТЕРАТУРЫ

1. Вигдорович В.И. Критерии оценки защитной эффективности ингибиторов коррозии / В.И. Вигдорович, К.О. Стрельникова // Конденсированные среды и межфазные границы. - 2011 - №1.Т13 -С.24-28

2. Гайдар С.М. Защита сельскохозяйственной техники от коррозии и износа с применением ненотехнологий. Автореферат диссертации на соискание ученой степени доктора технических наук. - Москва. 2011.

3. ГОСТ 27.002-89. Надежность в технике, основные понятия. Термины и определения. - М. : Изд-во стандартов, 1990. - 39 с.

4. Григорьев М. А. Износ и долговечность автомобильных двигателей -М. : Машиностроение, 1976. - 248 с

5. Алиев К.Т., “Методы и спосибы очистки ёмкостей при подготовки к ремонту” // Журнал технических наука, “Universum”. 27 апрель 2023. место издания г. Москва. - № 4(109) - 32-336 С.

6. Алиев К.Т., “Обзор современных методов очистки резервуаров от нефтяных остатков” // Журнал технических наука, “Интернаука”: 2 май 2023. место издания г. Москва. - № 1(286) - 38-41 С.

7. Халфин М. А. Перспективы повышения качества и надежности сельскохозяйственной техники // Тракторы и сельхозмашины. - 1998. - № 2. - С. 24 - 26.

8.Исследование и разработка научно обоснованных требований и нормативов по эксплуатации технических средств службы горючего:2023. Инв. № 1856.

UO‘T 631.311.634:64

TAJRIBALARNI MATEMATIK REJALASHTIRISH USULI BILAN UYUMLAGICH PARAMETRLARINI MAQBULLASHTIRISH

Abdunazarov E.E.
Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash ilmiy-tadqiqot instituti
doktoranti, t.f.f.d. (PhD)

Rasuljonov A.R.
Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash ilmiy-tadqiqot instituti
doktoranti, t.f.f.d. (PhD), k.i.x.

Xamzayeva Sh.M.
Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash ilmiy-tadqiqot instituti
mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Tajribalarni matematik rejalashtirish usuli bilan uyumlagich parametrlarini maqbullashtirish keltirilgan.

Аннотация. В статье прииведены оптимизация организационных параметров с использованием метода математического планирования экспериментов.

Annotation. The article presents the optimization of organizational parameters using the method of mathematical planning of experiments.

Kalit so‘zlar: anor tuplarini ko‘madigan mashina, korpus, anor tuplarining shikastlanish darajasi, ishlov berish chuqurligi, anor tuplarining ko‘milish darajasi, uyumlagich, ko‘ndalang masofa, rolik, prujina.

Ключевые слова: машина для укрывки кустов граната, корпус, степень повреждения кустов граната, глубина обработки, степень укрывания кустов гранат, пригибающее устройсво, поперечное расстояние, ролик, пружина.

Keywords: machine for hiding pomegranate, plow body, degree of damage to the pomegranate bushes, depth of processing, degree of burying of the pomegranate bushes, bending device, transversal distance, roll, spring.

O‘zbekiston sharoitida sovuq urib ketishining oldini olish maqsadida anor tuplari kech kuzda tuproq bilan ko‘milib, bahorda ochiladi. Ammo maxsus texnika vositalari ishlab chiqarilmasligi sababli anor tuplarini ko‘mish va ochish ishlari mexanizatsiyalashmagan va hozirgi kungacha ham qo‘l kuchi bilan amalga oshirilib kelinmoqda. Bu esa o‘z navbatida mehnat sarfi va boshqa xarajatlarni ortishiga va ish unumini kamayishiga olib kelmoqda hamda anor yetishtirish, ulardan yuqori hosil olish hamda katta maydonlarda anor plantatsiyalarini tashkil etishga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Yana shuni ta’kidlash o‘rinliki, anor tuplari kech kuz oylarida ko‘milishini hisobga oladigan bo‘lsak, qish erta kelgan yillari qo‘l kuchi bilan barcha maydonlardagi anor tuplarini to‘liq ko‘milishiga erishilinmaydi va buning natijasida ularni sovuq urib ketish hollari kuzatiladi. Ushbu ta’kidlanganlardan kelib chiqqan holda institutimizda anor tuplarini tuproq bilan ko‘madigan mashina ishlab chiqish va parametrlarini asoslashga yo‘naltirilgan tadqiqotlar olib borilmoqda [1-10].

Anor tuplarini ko‘madigan mashina uyumlagichining nazariy va bir omilli eksperimentlarda o‘rganilgan parametrlarining uning ish ko‘rsatkichlariga birgalikdagi ta’sirini o‘rganish hamda ularning maqbul qiymatlarini aniqlash maqsadida matematik rejalashtirish usuli bilan ko‘p omilli eksperimentlar o‘tkazildi [16-17]. Bunda baholash mezonlariga omillarning ta’sirini ikkinchi darajali polinom to‘liq yoritib beradi deb qaralib, tajribalar V_4 rejasi bo‘yicha o‘tkazildi. Tadqiqotlar yuqorida ta’kidlangan mashinadan foydalanib o‘tkazildi.

Tadqiqotlarni o‘tkazishda anor tuplarini ko‘madigan mashina uyumlagichi bosim prujinasining bikirligi U_p, uyumlagich roliklarining katta diametri D_r, uyumlagich roliklaring soni n_{ur} hamda agregatning harakat tezligi V uning sifat va energetik ish ko‘rsatkichlariga eng ko‘p ta’sir etadigan omillar sifatida qabul qilindi. Ular quyidagicha shartli belgilandi:

X_1 – uyumlagich bosim prujinasining bikirligi, N/m;

X_2 – uyumlagich roliklarining katta diametri, mm;

X_3 – uyumlagich roliklarining soni, dona;

X_4 –agregatning harakat tezligi, km/h.

Yuqorida o‘tkazilgan nazariy tadqiqotlar va bir omilli tajribalarga asoslanib, omillarning shartli belgilanishi, sathi va variatsiyalanish (o‘zgarish) oraliqlarining qiymatlari belgilab olindi (1-jadval).

Ko‘p omilli eksperimentlarni o‘tkazishda baholash mezoni sifatida anor tupi tana qismini kesilishi va ezilishi (Y_1, %), anor tupi tana qismini sinishi (Y_2, %), anor tupi tana qismining uzilishi (Y_3, %), hamda anor shoxlarining shikastlanishi (Y_4, %), qabul qilindi.

Baholash mezonlariga nazorat qilinmaydigan omillarning ta’sirini kamaytirish maqsadida tajribalarni o‘tkazish ketma-ketligi tasodifiy sonlar jadvalidan foydalanib o‘rnatildi [16-17].

1-jadval

Omillar, ularning shartli belgilanishi, variatsiyalanish oralig‘i va sathi

Omillarning nomlanishi	Shartli belgilanishi	Variatsiyalanish oralig‘i	Omillarning sathlari		
			quyi (–1)	asosiy (0)	yuqori (+1)
Uyumlagichning bosim prujinasini bikirligi, N/m	X_1	50	250	300	350
Uyumlagichning roliklarini katta diametri, mm	X_2	20	50	70	90
Uyumlagichning roliklari soni, dona	X_3	2	3	5	7
Agregatning harakat tezligi, km/h	X_4	1	5	6	7

Tajribalarda olingan ma’lumotlarga QXMITIning eksperimentlarni rejalashtirish laboratoriyasida ishlab chiqilgan “PLANEXP” dasturi bo‘yicha ishlov berildi. Bunda dispersiyaning bir xilligini baholashda Koxren kriteriyasidan, regressiya koeffitsientlari qiymatini baholashda Styudent kriteriyasidan va regression modellarning adekvatligini baholashda Fisher kriteriyasidan foydalanildi.

Tajriba natijalariga belgilangan tartibda ishlov berilib, baholash mezonlarini adekvat ifodalovchi quyidagi regressiya tenglamalari olindi:

Tuproqning fizik-mexanik xossalari hamda dala yuzasida mavjud bo‘lgan notekisliklarning baholash mezonlariga ta’sirini kamaytirish maqsadida tajribalarni o‘tkazish tartibi tasodifiy sonlar jadvalidan foydalanib belgilandi.

Tajriba natijalariga ko‘rsatilgan tartibda ishlov berilib, baholash mezonlarini adekvat ifodaydigan quyidagi regressiya tenglamalari olindi:

anor tupining tana qismini kesilishi va ezilishi darajasi bo‘yicha (%)

$$Y_1=3{,}007+0{,}4X_1-0{,}928X_2-0{,}667X_3+0{,}563X_4+0{,}727X^2+$$
$$+0{,}037X_1X_3+1{,}125X^2-0{,}401X_2X_3+$$
$$+0{,}404X_2X_4+0{,}45X_3X_3+0{,}417X_3X_4+0{,}263X_4; \quad (1)$$

anor tupining tana qismini sinishi darajasi bo‘yicha (%)

$$Y_2=1{,}172+0{,}265X_1-0{,}652X_2-0{,}232X_3+0{,}282X_4+0{,}471X_1X_1+$$
$$+0{,}064X_1X_2+0{,}039X_1X_3-0{,}011X_1X_4+0{,}671X^2-0{,}168X_2X_3+$$
$$+0{,}095X_2X_4+0{,}09X_3X_4+0{,}127X_4X_4; \quad (2)$$

anor tupining tana qismini uzilishi darajasi bo‘yicha (%)

$$Y_3=0{,}642+0{,}266X_1-0{,}465X_2-0{,}173X_3+0{,}217X_4+0{,}343X_1^2-$$
$$-0{,}015X_1X_2-0{,}017X_1X_3+0{,}008X_1X_4+0{,}400X_2X_2+0{,}042X_2X_3-$$
$$-0{,}043X_2X_4+0{,}035X_3X_3+0{,}048X_3X_4+0{,}088X_4X_4; \quad (3)$$

anor shoxlarini shikastlanishi darajasi bo‘yicha (%)

$$Y_4=3{,}998+1{,}201X_1-2{,}107X_2-0{,}773X_3+0{,}883X_4+1{,}199X_1X_1+$$
$$+0{,}528X_1X_2-0{,}064X_1X_3+1{,}309X_2X_2-0{,}693X_2X_3+$$
$$+0{,}613X_2X_4-0{,}264X_3X_3+1{,}204X_3X_4-0{,}221X_4X_4: \quad (4)$$

Parametrlarning talab darajasidagi ish sifatini kam energiya sarflagan holda ta’minlaydigan qiymatlarini aniqlashda (1)-(4) regressiya tenglamalari Excel dasturini “yechimni qidirish” (poisk resheniya) amaliy bo‘yicha 5-7 km/h tezliklar uchun birgalikda yechildi. Regressiya tenglamalarini birgalikda yechishda, Y_1 mezoni, anor tupi tana qismini kesilishi va ezilishi, Y_2 mezoni, anor tupi tana qismini sinishi va Y_3 mezoni anor tupi tana qismining uzilishi mos ravishda 3 %, 1,5 % va 1 % dan ko‘p bo‘lmasligi hamda Y_4 mezon anor shoxlarining shikastlanishi minimal qiymatga ega bo‘lishi shartlari qabul qilindi. Olingan natijalar 3.6-jadvalda keltirilgan.

Agregatning 5 - 7 km/h ish tezliklarda talab darajadagi ish sifatini ta’minlashi uchun uyumlagichni bosim prujinasining bikirligi 260,3-267,5 N/m, uyumlagich roliklarining katta diametri 82,55-86,54 mm, uyumlagich roliklarining soni 6,3-6,6 dona bo‘lishi lozim. Bu parametrlardagi uyumlagich roliklaring soni butun son bo‘lishini hisobga olib, uni 6 dona qabul qilib agregatning 5-7 km/h tezliklar uchun qaytadan optimallashtiramiz va quyidagi natijaga ega bo‘lamiz.

Xulosa

Demak, agregatning 5,0-7,0 km/h ish tezliklarida va uyumlagich roliklarining soni 6 dona bo‘lganda, uyumlagichni bosim prujinasining bikirligi 267,5-268,4 N/m, uyumlagich roliklarining katta diametri 87,35-89,22 mm bo‘lishi lozim.

ADABIYOTLAR

1. Abdunazarov, E. Justification of the vertical distance from the support plane of the pomegranate burying machine to the lower suspension points. *Uzbekistan Journal of Engineering and Technology.-2021*.

2. Abdunazarov, E. A. Anor tuplarini ko'madigan mashina tayanch tekisligidan pastki osish nuqtalarigacha bo'lgan tik masofani asoslash. *Uzbekistan Journal of Engineering and Technology.-2021*.

3. Abdunazarov, E. (2019). Ortiqov N. Takomillashtirilgan anor tuplarini ko'madigan mashina. *Investitsiyalarni diversifikatsiyalash asosida sanoat korxonalari samaradorligini oshirish: Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi to'plami.-Namangan*, 284-287.

4. Anor tuplarini ko'mishning, A. E. (2019). mexanizatsiyalash muammolari//Zamonaviy iml-fanning innovatsion rivojlanishi: Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi ilmiy maqolalar to'plami.

5. Абдуназаров, Э. Э. (2019). Анор тупларини кумишнинг механизациялаш муаммолари. *Замонавий имл-фаннинг инновацион ривожланиши: Республика илмий-амалий конференцияси илмий маколалар туплами.-Андижон*, 558-559.

6. Абдуназаров, Э., & Ортиков, Н. (2019). Такомиллаштирилган анор тупларини кумадиган машина. *Инвестицияларни диверсификациялаш асосида саноат корхоналари самарадорлигини ошириш: Республика илмий-амалий конференцияси туплами*, 284-287.

7. Qutbiddin, I., & POMEGRANATE, A. K. B. M. T. (2020). BUSHES. *Journal of Critical Reviews*, *7*(13), 1377-1381.

8. Imomkulov, K. B., & Abdunazarov, E. E. (2020). The results of the experiments conducted on the selection of the type of working body of the machine for burying pomegranate bushes. In *Эффективность применения инновационных технологий и техники в сельском и водном хозяйстве* (pp. 65-69).

9. Imomqulov, Q. B., Abdunazarov, E. E., Mamadalieva, G. Q., & Ortiqov, N. B. (2020). Anor tuplarini ko'madigan mashinaning konstruktiv sxemasi va parametrlarini nazariy aniqlash bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarning natijalari. *Mexanika va texnologiya ilmiy jurnali.-Namangan*, (1), 1.

10. Имомкулов, К. Б., & Абдуназаров, Э. Э. (2020). Анор тупларини кумадиган машина корпуслари орасидаги кундаланг масофани асослаш. *Фаргона политехника институти илмий-техника журнали.-Фаргона*, (6), 206-208.

11. Абдуназаров, Э. Э. (2020). Анор тупларини кўмадиган машина кўмувчи иш органларининг тортишга қаршилигини аниқлаш.

12. Имомкулов, К., & Абдуназаров, Э. (2020). Анор тупларини кумадиган машина корпусларининг камраш кенглиги ва ишлов бериш чукурлигини асослаш. *AGRO ILM.-Тошкент*, (3), 66.

13. Абдуназаров, Э. (2020). Анор тупларини кумадиган машинанинг ишлаш шароитини урганиш натижалари. *Кишлок хужалиги илм-фанида ёшларнинг роли: Республика илмий-амалий конференцияси илмий маколалар туплами.-2-жилд.-Тошкент: Инновация-зиё*, 392-396.

14. Имомқулов Қ.Б, Абдуназаров Э.Э., Мамадалиева Г.Қ, & Ортиқов Н.Б. (2020). Анор тупларини кўмадиган машинанинг конструктив схемаси ва параметрларини назарий аниқлаш бўйича олиб борилган тадқиқотларнинг натижалари. Механика и технология, 1 , 80-94.

15. Imomqulov, Q. B., Qo'chqorov, S. K., & Abdunazarov, E. E. (2021). Anor tuplarini ko'madigan mashina tajriba nusxasining dala sinovlari natijalari. *Mexanika va texnologiya ilmiy jurnali.-Namangan*, (1), 2.

16. Аугамбаев М., Иванов А., Терехов Е. Основы планирования научно-исследовательского эксперимента. – Ташкент: Укитувчи, 1993. – 220-221 с.

17. Спирин Н.А., Лавров В.В. Методы планирования и обработки результатов инженерного эксперимента. – Екатеринбург: ГОУ ВПО Уральский государственный технический университет, 2004. – 195-196 с.

UO‘T 631.311.634:64

UYUMLAGICHNING ROLIGIGA TA’SIR ETUVCHI KUCHLAR

Abdunazarov E.E.
Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash ilmiy-tadqiqot instituti
doktoranti, t.f.f.d. (PhD)

Rasuljonov A.R.
Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash ilmiy-tadqiqot instituti
doktoranti, t.f.f.d. (PhD), k.i.x.

Xamzayeva Sh.M.
Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash ilmiy-tadqiqot instituti
mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada uyumlagichning roligiga ta’sir etuvchi kuchlar keltirilgan.
Аннотация. В статье приведены силы, действующие на шкив.
Annotation. The article presents the forces affecting the role of the organizer.

Kalit so‘zlar: anor tuplarini ko‘madigan mashina, korpus, anor tuplarining shikastlanish darajasi, ishlov berish chuqurligi, anor tuplarining ko‘milish darajasi, uyumlagich, ko‘ndalang masofa, rolik, prujina.
Ключевые слова: машина для укрывки кустов граната, корпус, степень повреждения кустов граната, глубина обработки, степень укрывания кустов гранат, пригибающее устройсво, поперечное расстояние, ролик, пружина.
Keywords: machine for hiding pomegranate, plow body, degree of damage to the pomegranate bushes, depth of processing, degree of burying of the pomegranate bushes, bending device, transversal distance, roll, spring.

O‘zbekiston sharoitida sovuq urib ketishining oldini olish maqsadida anor tuplari kech kuzda tuproq bilan ko‘milib, bahorda ochiladi. Ammo maxsus texnika vositalari ishlab chiqarilmasligi sababli anor tuplarini ko‘mish va ochish ishlari mexanizatsiyalashmagan va hozirgi kungacha ham qo‘l kuchi bilan amalga oshirilib kelinmoqda. Bu esa o‘z navbatida mehnat sarfi va boshqa xarajatlarni ortishiga va ish unumini kamayishiga olib kelmoqda hamda anor yetishtirish, ulardan yuqori hosil olish hamda katta maydonlarda anor plantatsiyalarini tashkil etishga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Yana shuni ta’kidlash o‘rinliki, anor tuplari kech kuz oylarida ko‘milishini hisobga oladigan bo‘lsak, qish erta kelgan yillari qo‘l kuchi bilan barcha maydonlardagi anor tuplarini to‘liq ko‘milishiga erishilinmaydi va buning natijasida ularni sovuq urib ketish hollari kuzatiladi. Ushbu ta’kidlanganlardan kelib chiqqan holda institutimizda anor tuplarini tuproq bilan ko‘madigan mashina ishlab chiqish va parametrlarini asoslashga yo‘naltirilgan tadqiqotlar olib borilmoqda [1-16].

Ish jarayonida anor tanasi tomonidan uyumlagichning roligiga normal N_r va ishqalanish $F_r = \mu N_r$ (bunda μ – rolikning dumalashga qarshilik koeffitsienti) kuchlari ta’sir etadi. (1-rasm). Bu kuchlarni X o‘qiga proeksiyalab, anor tanasining uyumlagich roligining harakatiga ko‘rsatadigan qarshiligini aniqlaymiz [17].


$$R = N_r \cos\delta + F_r \sin\delta = N_r \frac{\cos\left(\delta - \operatorname{arctg}\mu\right)}{\cos\left(\operatorname{arctg}\mu\right)}. \qquad (1)$$

Y.S.Bosoy [18] tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotlar bo‘yicha

$$N_r = \frac{2H\sin\delta}{h^2}, \tag{2}$$

bunda H – anor tanasining qaralayotgan kesimidagi bikirligi, N/m^2.

(1) ifodani hisobga olganda (2) ifoda quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi



1-rasm. Uyumlagichning roligiga anor tanasi tomonidan ta’sir etuvchi kuchlarning sxemasi

$$R = \frac{2H\sin\delta\cos\left(\delta - \operatorname{arctg}\mu\right)}{h^2\cos\left(\operatorname{arctg}\mu\right)}. \tag{3}$$

Bu ifodani δ bo‘yicha ekstremumga tadqiq etamiz. Buning uchun undan birinchi darajali hosila olamiz va nolga tenglaymiz

$$R' = \frac{2H}{h^2\cos\left(\operatorname{arctg}\mu\right)}\left(\cos\delta\cos\left(\delta - \operatorname{arctg}\mu\right) -\right.$$

$$\left. -\sin\left(\delta - \operatorname{arctg}\mu\right)\sin\delta\right) = 0. \tag{4}$$

Bundan

$$\cos\left(2\delta - \operatorname{arctg}\mu\right) = 0 \tag{5}$$

ekanligi kelib chiqadi

(5) ni δ ga nisbatan echib, quyidagiga ega bo‘lamiz

$$\delta = \frac{\pi}{4} + \frac{\operatorname{arctg}\mu}{2}. \tag{6}$$

(6) ifodaning ikkinchi hosilasini topamiz

$$R'' = -\frac{4H}{h^2 \cos\left(\text{arctg}\mu\right)} \sin\left(2\delta - \text{arctg}\mu\right). \qquad (7)$$

Bu ifodaga δ ning (7) ifoda bo‘yicha qiymatlarini qo‘yib, $R'' < 0$ ekanligini aniqlaymiz. Demak, kritik kesimda, ya’ni $\delta = \frac{\pi}{4} + \frac{\text{arctg}\mu}{2}$ bo‘lganda *R* maksimal qiymatga ega bo‘ladi. (7) ni hisobga olganda *R* ning maksimal qiymatini aniqlaydigan ifoda quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi.


$$R_{\max} = \frac{2H \sin\left(\frac{\pi}{4} + \frac{\text{arctg}\mu}{2}\right) \cos\left(\frac{\pi}{4} - \frac{\text{arctg}\mu}{2}\right)}{h^2 \cos\left(\text{arctg}\mu\right)}. \qquad (8)$$

$H = EJ_0 (1-mh)^4$ ekanligini [19] hamda uyumlagichning roligi bir paytda bir nechta anor tanasiga ta’sir ko‘rsatishini hisobga olganda bu ifoda quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi

$$R_{\max} = \frac{2nEJ_0 \left(1-mh\right)^4 \sin\left(\frac{\pi}{4} + \frac{\text{arctg}\mu}{2}\right) \cos\left(\frac{\pi}{4} - \frac{\text{arctg}\mu}{2}\right)}{h^2 \cos\left(\text{arctg}\mu\right)}, \qquad (9)$$

bunda, *n* – uyumlagichning roligi bilan bir paytda ta’sirlashayotgan anor tanalarining soni, dona.

(9) ifodadan ko‘rinib turibdiki, anor tanalarining uyumlagich roligining harakatiga qarshiligi asosan ularning bikirligi va rolikning o‘rnatilish balandligiga bog‘liq.



2-rasm. Rolikning dumalashga qarshilik koeffitsienti *μ* ning turli qiymatlarida R_{max} ni uyumlagich roligining anor tanasini eguvchi kuchining ta’sir etish balandligi *h* ga bog‘liq ravishda o‘zgarish grafiklari

Adabiyotlarda keltirilgan ma’lumotlar va o‘tkazilgan tadqiqotlarimiz bo‘yicha $E = 4{,}2 \cdot 10^8$ Pa, $J_o = 6{,}362 \cdot 10^{-7}$ m^4, $n = 4$ dona, $\mu = 0{,}1$, $m = 0{,}333$ m^{-1} qabul qilinib, 2-rasmda (9) ifoda bo‘yicha rolikning dumalashga qarshilik koeffitsienti μ ning turli qiymatlarida uyumlagichning roligiga anor tanasi tomonidan ta’sir etuvchi maksimal kuch $R_{\max}$ ni uyumlagich

roligining anor tanasini eguvchi kuchning ta'sir etish balandligi *h* bog'liq ravishda o'zgarish grafiklari qurilgan.

Xulosa

Ularga asosan, uyumlagich roligining anor tanasini eguvchi kuchning ta'sir etish balandligini ortishi va rolikning dumalashga qarshilik koeffitsientini kamayishi bilan uyumlagichning roligiga anor tanasi tomonidan ta'sir etuvchi maksimal kuch kamaygan.

ADABIYOTLAR

1. Imomqulov, Q. B., Abdunazarov, E. E., Mamadalieva, G. Q., & Ortiqov, N. B. (2020). Anor tuplarini ko'madigan mashinaning konstruktiv sxemasi va parametrlarini nazariy aniqlash bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarning natijalari. *Mexanika va texnologiya ilmiy jurnali.-Namangan*, (1), 1.

2. Имомкулов, К. Б., & Абдуназаров, Э. Э. (2020). Анор тупларини кумадиган машина корпуслари орасидаги кундаланг масофани асослаш. *Фаргона политехника институти илмий-техника журнали.-Фаргона*, (6), 206-208.

3. Абдуназаров, Э. Э. (2020). Анор тупларини кўмадиган машина кўмувчи иш органларининг тортишга қаршилигини аниқлаш.

4. Имомкулов, К., & Абдуназаров, Э. (2020). Анор тупларини кумадиган машина корпусларининг камраш кенглиги ва ишлов бериш чукурлигини асослаш. *AGRO ILM.-Тошкент*, (3), 66.

5. Абдуназаров, Э. (2020). Анор тупларини кумадиган машинанинг ишлаш шароитини урганиш натижалари. *Кишлок хужалиги илм-фанида ёшларнинг роли: Республика илмий-амалий конференцияси илмий маколалар туплами.-2-жилд.-Тошкент: Инновация-зиё*, 392-396.

6. Имомқулов Қ.Б, Абдуназаров Э.Э., Мамадалиева Г.Қ, & Ортиқов Н.Б. (2020). Анор тупларини кўмадиган машинанинг конструктив схемаси ва параметрларини назарий аниқлаш бўйича олиб борилган тадқиқотларнинг натижалари. Механика и технология, 1 , 80-94.

7. Imomqulov, Q. B., Qo'chqorov, S. K., & Abdunazarov, E. E. (2021). Anor tuplarini ko'madigan mashina tajriba nusxasining dala sinovlari natijalari. *Mexanika va texnologiya ilmiy jurnali.-Namangan*, (1), 2.

8. Имомқулов Қ.Б., Қўчқоров С.К, & Абдуназаров Э.Э (2021). Анор тупларини кўмадиган машина тажриба нусхасининг дала синовлари натижалари. Механика и технология, 1 (2), 61-66.

9. Anor tuplarini ko'madigan, A. E. (2021). mashina ish organining parametrlarini asoslash: Dis.... texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). *Gulbahor: QXMITI*, *160*.

10. Абдуназаров, Э. Э. (2021). Анор тупларини кумадиган машина иш органининг параметрларини асослаш: Дис.... техника фанлари буйича фалсафа доктори (PhD). *Гулбаҳор: ҚХМИТИ*, *160*.

11. Abdunazarov, E. (2021). A Анор тупларини кўмадиган машина таянч текислигидан пастки осиш нуқталаригача бўлган тик масофани асослаш. *Uzbekistan Journal of Engineering and Technology*.

12. Имомқулов Қутбиддин Боқижонович, Қўчқоров Собиржон Каримжонович, Абдуназаров Элбек Элмуродович, & Ортиқов Нозимжон Боқижон Ўғли (2022). Анор тупларини кўмадиган машина уюмлагичининг конструкцияси. Механика и технология, 3 (8), 98-102.

13. Қўчқоров Собиржон Каримжонович, Абдуназаров Элбек Элмуродович, & Ортиқов Нозимжон Боқижон Ўғли (2022). Кўмилган анор тупларини тўлиқ очадиган

қурилма текислагичининг очилиш бурчагини тадқиқ этиш. Механика и технология, 3 (8), 127-132.

14. Boqijonovich, I. Q. (2022). Qo'chqorov Sobirjon Karimjonovich. *Abdunazarov Elbek Elmurodovich, and Ortiqov Nozimjon Boqijon O'g'li." Anor tuplarini ko'madigan mashina uyumlagichining konstruktsiyasi" Mexanika i texnologiya*, *3*(8), 98-102.

15. Абдуназаров, Э. Э. (2022). Энергосберегающие конструкции пригибающего устройства машины для укрывания кустов граната. In *Инновации в сельскохозяйственном машиностроении, энергосберегающие технологии и повышение эффективности использования ресурсов* (pp. 89-93).

16. Каримжонович, К. С., & Абдуназаров, Э. Э. (2022). Ортитов НБУ Кумилган анор тупларини тули; очадиган курилма текислагичининг очилиш бурчагини таджик; этиш. *Механика и технология*, *3*(8), 127-132.

17. Abdunazarov, E. E., Abdullayev, K. K., & Babaev, N. O. (2022). Ensure the stability of the processing depth of machine for hiding pomegranate bushes.

18. Выгодский М.Я. Справочник по высшей математике. – Москва: Наука, 1972. – 872 с.

19. Босой Е.С., Верняев О.В., Смирнов И.И, Султан-Шах Е.Г., Под ред. Е.С. Босого. Теория, конструкция и расчет сельскохозяйственных машин: Учебник для вузов сельскохозяйственного машиностроения. Машиностроение, 1978. 48-64 с.

UO‘T: 677.021.152

ARRA TISHLARIDAN MOMIQNI AJRATISHNING TAKOMILLASHTIRILGAN NAZARIY MODELI

Ochilov Maxsuhdjon Muradullayevich
Jizzax politexnika instituti, t.f.f.d., dots, makhsudjan79@gmail.com

Xolmuratov Oybek Yarkinovich
Jizzax politexnika instituti, t.f.f.d., dots, oybek_24@rambler.ru

Yakubov Kamoliddin Nuritdin o‘g‘li
Jizzax politexnika instituti, t.f.f.d., assistent, yakubov19kamol91@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada takomillashtirilgan momiq ajratgichda arra tishlaridan momiqni ajratish jarayonining nazariy modeli ishlab chiqilgan. Mexanik ta’sirlar, havo oqimi dinamikasi va inersion kuchlar asosida momiqning tishlardan ajralish mexanizmi Lagranjning II turdagi tenglamalari yordamida tahlil qilingan. Momiq zarrachasining arrali silindr tishlari bo‘ylab harakatiga havoni so‘rish kuchi, koriolis kuchi, ishqalanish va og‘irlik kuchlarining ta’siri matematik modellashtirilgan. Tadqiqot natijasida momiqning tishdan ajralishiga optimal burchak tezligi va geometrik parametrlar belgilandi. Taklif etilgan nazariy yechimlar linter arra tishlari konstruksiyasini yaxshilash, energiya sarfini kamaytirish va tola ajratish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Аннотация. В данной статье разработана теоретическая модель процесса отделения линта от зубьев пилы в усовершенствованном линтоотделителе. На основе механических воздействий, динамики воздушного потока и инерционных сил был проанализирован механизм отделения линта от зубьев с помощью уравнений Лагранжа II типа. Математически смоделировано влияние силы всасывания воздуха, силы кориолиса, силы трения и силы тяжести на движение частицы линта по зубьям пильного цилиндра. В результате исследования были определены оптимальная угловая скорость и геометрические параметры отделения линта от зуба. Предложенные теоретические решения служат улучшению конструкции зубьев линтерных пил, снижению энергозатрат и повышению эффективности отделения волокна.

Abstract. In this article, a theoretical model of the lint separation process from saw teeth in an improved lint separator has been developed. Based on mechanical influences, air flow dynamics, and inertia forces, the mechanism for separating lint from the teeth was analyzed using Lagrange's II-type equations. The influence of air suction force, Coriolis force, friction force, and gravity force on the movement of lint particles along the teeth of the saw cylinder was mathematically modeled. As a result of the research, the optimal angular velocity and geometric parameters of lint separation from the tooth were determined. The proposed theoretical solutions serve to improve the design of linter saw teeth, reduce energy costs, and increase fiber separation efficiency.


Kalit so‘zlar: momiq ajratish, arra tishi, linter, Lagranj tenglamasi, inersiya kuchlari, havo oqimi dinamikasi, matematik modellashtirish, momiq ajratish samaradorligi

Ключевые слова: линтерование, зуб пилы, линтер, уравнение Лагранжа, силы инерции, динамика воздушного потока, математическое моделирование, эффективность линтерования

Keywords: linting, saw tooth, linter, Lagrange equation, inertia forces, air flow dynamics, mathematical modeling, linting efficiency

Jahon to‘qimachilik, kimyo va sellyuloza-qog‘oz sanoatlarida turli xil yuqori qo‘shilgan qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarishda paxta momig‘i strategik ahamiyatga ega bo‘lgan xomashyo hisoblanadi. Paxtani dastlabki qayta ishlash jarayonida momiq olish jarayonida energiya sarfini optimallashtirish orqali mahsulot tannarxini kamaytirish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish hamda sifatli momiq ajratib olish muhim xisoblanadi. Shuningdek, zamonaviy talablar asosida momiq ajratish jarayonini barqaror va yuqori samara bilan amalga oshirish uchun texnologik uskunalarni modernizatsiya qilish va optimal ish rejimlarini nazariy asoslash dolzarb ahamiyat kasb etadi. Ammo, mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, momiq ajratish uskunalari (linter) konstruksiyasini yangi ilmiy yondashuvlar asosida takomillashtirish va momiq ajratish jarayonining optimal nazariy modellarini yaratish bo‘yicha tadqiqotlar yetarli darajada emas. Shu bois, ushbu yo‘nalishdagi ilmiy-amaliy izlanishlarni kengaytirish va ushbu yo‘nalishda tadqiqotlar o‘tkazish dolzarb [1,2].

Takomillashtirilgan momiq ajratgichda arra tishlaridan momiqlar soplo orasidan so‘riladigan havo oqimi yordamida ajratib olinadi. Ajratib olingan momiqlar havoli kameraning chiqarib yuboriladigan qismiga uzatiladi va shundan keyin pnevmotizim orqali keyingi jarayonga uzatiladi. Ushbu takomillashgan linterda havoni so‘rish ta’sirida momiqni arra tishidan ajralishini havo oqimini egri chiziq bo‘ylab aylana quvur konsentrik yoyida harakati moduli sifatida ko‘rib chiqamiz (1-rasm).



1-rasm. Momiqni arrali silindr tishi bo‘ylab harakati

Faraz qilamizki Q sarfi bilan kanal bo‘yicha havo so‘riladi. Siqilmaydigan havoning ideal sarfi qabul qilingan sxemadagi havo oqimining harakati quyidagicha:

$$Q = \rho_0 \cdot S \cdot \upsilon \tag{1}$$

bu yerda: ρ_0 -havoning zichligi $\rho_0 \approx 1{,}1$ kg/m^3.

S -ko‘rilayotgan holatda ko‘ndalang qirqim quyidagiga teng bo‘ladi:

$$S = h \cdot L \tag{2}$$

L -kanal eni, h -kanal balandligi.

Shunday qilib, havoning tezligi quyidagi formuladan hisoblanadi:

$$\upsilon = \frac{Q}{\rho_0 \cdot L \cdot h} \tag{3}$$

Tezlikni aniqlashda ichki kanalda havoning ishqalanishi bo‘lmaydi deb taxmin qilamiz. Endi arrali silindr R radiusida ω burchak tezligi bilan aylanish sodir etsin. Havoni siqilmasligini hisobga olgan holda havo oqimining harakatlanishiga silindr aylanishining ta’sirini ko‘rib chiqish mumkin.

Agar havoni ideal deb olsak, silindr aylanishi havo harakatiga ta’sir qilmaydi va uning tezligi yuqoridagi formuladan aniqlanadi:

Arrali silindr ilib olgan momiq harakatini ko‘rib chiqamiz: Silindr yuzasida tishlar holatini ma’lum ko‘rsatkichlar bilan aniqlaymiz: tishlar joylashuvi B *yoki* B_1, sxemada $OB = R$, tish balandligi $BC = h_0$ va tishning egilish burchagi OBC.

Momiqqa og‘irlik va ishqalanish kuchi ta’sir qiladi. Og‘irlik kuchi bosimi ta’sirida kuch shartlanadi (kuchga shart qo‘yiladi). Masofani $BA = r$
umumlashtirilgan koordinata sifatida olib, momiqni tish bo‘ylab harakatini aniqlash uchun Lagranjning II-turdagi tenglamasidan foydalanamiz. Aylanish vaqti $t = 0$ bo‘lganda tishlar $r = r_0$ holatda bo‘lsin, bunda gorizontal bo‘yicha yo‘naltirilgan OX o‘qi bo‘ylab radius OB yotsin, OY o‘qi unga perpendikulyar bo‘lsin [3,4].

Arrali baraban boshida koordinatalar boshi belgilangan. Momiqning arra tishidagi massasi A(.), uning koordinatadagi joylashuvini quyidagicha yozamiz:

$$x = R\cos\omega t + r\cos(\alpha - \omega t) \tag{4}$$

$$y = R\sin\omega t + rsn(\alpha - \omega t) \tag{5}$$

M massadagi momiqning kinetik energiyasi quyidagiga teng bo‘ladi:

$$\mathrm{T} = \frac{M}{2}(\dot{x}^2 + \dot{y}^2) = \frac{M}{r}(R^2\omega^2 + r^2 + r^2\omega^2 + 2R\omega\dot{r}\,sin\,\alpha - 2R\omega^2 rCos\alpha) \tag{6}$$

Lagranjning II turdagi tenglamasini tuzib

$$\frac{d}{dt}\left(\frac{\partial T}{\partial r}\right) - \frac{\partial T}{\partial r} = Q_r \tag{7}$$

Quyidagini olamiz

$$m\ddot{r} = m\omega^2(r - R\,cos\,\alpha) + Q_r \tag{8}$$

Bu yerda: Q_r – umumlashtirilgan kuch quyidagi formula bilan topiladi:

$$Q_r = \sum X_i \frac{\partial x}{\partial r} + \sum Y_i \frac{\partial y}{\partial r} \tag{9}$$

X_i , Y_i $-OX$ va OY o‘qlardagi tashqi kuchlar proyeksiyasi quyidagiga teng:

$Y_i = mg\sin(\alpha - \omega t)$ $X_i = 0$ momiqning og‘irlik kuchi,

og‘irlikdagi ishqalanish kuchi va

$$F_{TP} = -fmg\cos(\alpha - \omega t) + fF_{кор} \tag{10}$$

Koriolis kuchidagi ishqalanish kuchi

$$F_{кор} = -2\omega rm\cos\alpha \tag{11}$$

p bosimdagi havoning so‘rish kuchi

$$P = S \cdot p\sin\lambda \tag{12}$$

S -momiqni tish bilan bog‘lanish yuzasi

$$\lambda = \arcsin \frac{R \sin \alpha}{\sqrt{R^2 + h_0^2 - 2Rh_0 \cos \alpha}} \tag{13}$$

Bularni hisobga olgan holda momiqni tish bilan umumiy bog‘lanish kuchi quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$Q_r = -mg \sin(\alpha - \omega t) + fmg \cos(\alpha - \omega t) + 2mfr\omega \cos \alpha + P \sin \lambda \quad (\frac{\pi}{2} < \alpha < \pi) \tag{14}$$

Momiqni silindr tishi bo‘ylab harakat tenglamasi quyidagi ko‘rinishga keladi:

$$\ddot{r} - \omega^2 r + 2f\dot{r}\omega \cos \alpha = -\omega^2 R \cos \alpha - g[\sin(\alpha - \omega t) - f \cos(\alpha - \omega t)] + \bar{P} \sin \lambda \tag{15}$$

Bu yerda: $\bar{P} = P/m$

$t = 0$ bo‘lganda $r = r_0$ $\dot{r} = 0$ deb olib, momiqni tish bo‘ylab harakatini boshlang‘ich shartini topamiz. Bunda $\ddot{r}(0) > 0$ shart bajarilib, quyidagini berishi lozim

$$\omega^2 r_0 - \omega^2 R \cos \alpha - g(\sin \alpha - f \cos \alpha) + \bar{P} \sin \lambda > 0 \tag{16}$$

Bundan momiqni tish bo‘ylab harakatini $t = 0$ bo‘lgan shartini bajaradigan α burchakni tanlash mumkin. Momiqni ozgina massasida $\bar{P} >> 1$ ni taxmin qilamiz va momiqni $t = 0$ dagi harakat sharti $\sin \lambda > 0$ tengsizligiga mos keladi, bunda $0 < \lambda < \pi$ sharti bajariladi. $h_0 << R$ da $\lambda \approx \alpha$ ni taxmin qilish mumkin. Shunda (3.14) tenglamani $\alpha = \pi - \bar{\alpha}$ deb taxmin qilib, quyidagini olamiz:

$$\omega^2 r_0 + \omega^2 R \cos \bar{\alpha} - g(\sin \bar{\alpha} + f \cos \bar{\alpha}) - \bar{P} \sin \bar{\alpha} > 0 \tag{17}$$

Bu tenglamadan kelib chiqib:

$\cos \beta = \frac{\bar{P} - g}{\sqrt{(\bar{P} - g)^2 + (\omega^2 R + fg)^2}}$ ni aniqlaymiz

$$q = \frac{\omega^2 r_0}{\sqrt{(\bar{P} - g)^2 + (\omega^2 R - fg)^2}} \tag{18}$$

$r_0 < R$ da quyidagini olamiz:

$$\sin \bar{\alpha} \cos \beta - \cos \bar{\alpha} \sin \beta < q \tag{19}$$


Ushbu tenglikdan quyidagini topamiz:

$\bar{\alpha} < \beta + \arcsin q$ *yoki*

$$\bar{\alpha} < \bar{\alpha}_0 = \arccos \frac{\bar{P} - g}{\sqrt{(\vec{P} - g)^2 + (\omega^2 R - fg)^2}} + \arcsin \frac{\omega^2 r_0}{\sqrt{(\bar{P} - g)^2 + (\omega^2 R - fg)^2}} \tag{20}$$

$\alpha = \pi - \bar{\alpha}$ bog‘liqlikni inobatga olib, $\alpha > \alpha_0 = \pi - \bar{\alpha}_0$ ni olamiz.

3.3-rasmda α_0 ni $\bar{P} = P/mg$ munosabat bilan R (m) radiusni ikki xil ko‘rsatkichi uchun $R = 0.1$м $R = 0.2$м burchak tezligining $\omega(c^{-1})$ har xil ko‘rsatkichlarida $f = 0.3$ $r_0 = 0.001$м ni inobatga olib hisoblaganda qabul qilingan bog‘lanish keltirilgan [5,6].



2-rasm. R(м) **radiusni va arrali silindr arrasining** $\omega(c^{-1})$: **burchak tezligining har xil ko‘rsatkichlarida:** $1-\omega=10,\ 2-\omega=20,\ 3-\omega=30,$ α_0(радиан) **burchagini** $\overline{P}=P/mg$ **munosabat bilan bog‘liqliq grafigi**

$\alpha>\alpha_0=\pi-\overline{\alpha}_0$ ni taxmin qilib, (3.8) tenglama yechimini quyidagi shartni $r(0)=r_0\ \ \dot{r}=0$ qanoatlantirib, ushbu formulani olamiz:


$$r=-A/\omega^2+A_0\sin(\alpha-\omega t)+B_0\cos(\alpha-\omega t)+A_1\exp(k_1 t)+A_2\exp(k_2 t)$$

Bu yerda: $A=\overline{P}\sin\lambda-\omega^2 R\cos\alpha$, $A_0=g(1+f^2\cos\alpha)/2\omega^2(1+f^2\cos^2\alpha)$,

$B_0=-g(1+\cos\alpha)/2\omega^2(1+f^2\cos^2\alpha)$, $A_1=(k_2C_1-C_2)/(k_2-k_1)$, $A_2=(C_2-C_1k_1)/(k_2-k_1)$,

$C_1=A/\omega^2+r_0-A_0\sin\alpha-B_0\cos\alpha$, $C_2=\omega A_0\cos\alpha-\omega B_0\sin\alpha$

$k_1=\omega(-f\cos\alpha+\sqrt{f^2\cos^2\alpha+1})$, $k_2=\omega(-f\cos\alpha-\sqrt{f^2\cos^2\alpha+1})$



3-rasm. Momiqni arra tishlari bo‘ylab joylashtirishni qo‘shimcha hisoblashda $\omega=50c^{-1}$ $\vec{P}=13$ **bo‘lganda** t **(sek) vaqtga bog‘liqlik grafigi**

Linterlarning arrali disklari jinlar arrasi kabi qalinligi 0,95 mm U8G po‘lat listdan yasalib, uning qattiqligi HRS30-35 gacha yetkaziladi. Linter arra tish shakli va asosiy o‘lchamlari 3.5-rasmda keltirilgan. Diametri 320 mm disklarda linterlar uchun 330 tish kesiladi.

R(м) radiusni va arrali silindr arrasining $\omega(c^{-1})$: burchak tezligining har xil ko‘rsatkichlarining α_0(радиан) burchakning $\overline{P} = P/mg$ munosabat bilan bog‘liqliklaridan, momiqni arra tishlari bo‘ylab joylashtirishni qo‘shimcha hisoblaridan taklif etilayotgan linter arrasining tish ko‘rsatkichlarini tanlab olish mumkin.

Hozirgi linter arra tishlarining o‘qqa nisbatan og‘ish burchagi momiqni ildirib olgandan so‘ng uni arraning aylanish harakat davrida chigit valigidan chiqgandan so‘ng o‘zidan ajralish imkoniyatini bermaydi. Bajarilgan nazariy izlanishlar momiqni arra tishidan harakat davrida inersiya kuchlari hisobida o‘zi ajralish imkoni borligini ko‘rsatmoqda.

ADABIYOTLAR

1. Ochilov M.M., Xakimov Sh.Sh. Modernized linter machine// International Journal of Advenced Research in Science, Engineering and Technology. 2019. 11. 11665-11671 б.
2. Очилов, М. М., Турсунов, Х. К., & Хакимов, Ш. Ш. (2019). Технологические параметры машины для отделения линта от джинированных семян. *Universum: технические науки*, (4 (61)), 20-22.
3. Парпиев, А., Наврузов, Н., Якубов, К., & Гатаев, Х. (2024). АНАЛИЗ ОБРАЗОВАНИЯ СОДЕРЖАНИЯ ПОРОКОВ И СОРНЫХ ПРИМЕСЕЙ В ПРОЦЕССЕ ДЖИНИРОВАНИЯ ВЛАГИ ВОЛОКНА. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, *4*(12), 811-815.
4. Очилов М. М., Мардонов Ж. Ш., Гафуров А. Д. ОПРЕДЕЛЕНИЕ РАЦИОНАЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЧЕСКИХ ПАРАМЕТРОВ УЗЛОВ УСОВЕРШЕНСТВОВАННОЙ МАШИНЫ ДЛЯ ОТДЕЛЕНИЯ ЛИНТА //Universum: технические науки. – 2021. – №. 3-2 (84). – С. 57-61.
5. Очилов, М. М., Хакимов, Ш. Ш., Пардаев, М. С., & Эшқувватов, Ш. Ф. (2023). Аррали цилиндр юзасидан момиқни ажратиш ҳаволи мосламасини тадқиқ қилиш. *Science and Education*, *4*(1), 326-336.
6. Очилов М.М., Хакимов Ш.Ш., Турсунов Х.К.. Технологические параметры машины для отделения линта от джинированых семян// Универсум: Технические науки, Научный журнал. Апрель, Москва 2019 г. 20-22 с.
7. Ochilov M., Kholmuratov O. Experimental Determination of Cotton Raw Materials Separation in Improved Delivery Structure //International Scientific Conference on Agricultural Machinery Industry “Interagromash"”. – Springer International Publishing, 2022. – С. 2119-2125.
8. Jumaniyazov, Q., Xolmuratov, O., Egamberdiyev, F., & Sharopov, B. (2023). Theoretical analysis of the movement trajectory of a cotton piece thrown from the pile surface. In E3S Web of Conferences (Vol. 434, p. 03031). EDP Sciences.

UO‘T: 528.7:528.8:629.735

YIRIK MASSHTABLI TOPOGRAFIK SYOMKADA UCHUVCHISIZ UCHISH APPARATLARI ASOSIDAGI MASOFADAN ZONDLASH TEXNOLOGIYALARINING ILMIY-AMALIY TAHLILI

O.R.Allanazarov
Geologiya fanlari universiteti, Toshkent, O‘zbekiston

Sh.A.Ochilov
Geologiya fanlari universiteti, Toshkent, O‘zbekiston

M.M. Tuxtayeva
Geologiya fanlari universiteti, Toshkent, O‘zbekiston

O.X.Abbosxonova
Geologiya fanlari universiteti, Toshkent, O‘zbekiston

Sh.F.Boboqulov
Geologiya fanlari universiteti, Toshkent, O‘zbekiston

Annotatsiya. Maqolada yirik masshtabli topografik syomka ishlarini bajarishda masofadan zondlash (MZ) texnologiyalarining ilmiy-amaliy jihatlari tadqiq etilgan. Tadqiqot doirasida sun’iy yo‘ldosh tasvirlari, uchuvchisiz uchish apparatlari (UUA) yordamida olinadigan aerofotogrammetrik ma’lumotlar hamda skanerlash (LiDAR) texnologiyalaridan foydalanish usullari chuqur tahlil qilingan.

Tadqiqot jarayonida masofadan zondlash ma’lumotlarini geodezik tayanch punktlari bilan integratsiyalash orqali aniqlik ko‘rsatkichlarini baholashga alohida e’tibor qaratildi. Olingan natijalar masofadan zondlash texnologiyalarining an’anaviy yer usti syomka usullariga nisbatan tezkorlik, iqtisodiy samaradorlik va aniqlik jihatidan ustunligini ko‘rsatadi hamda ularni yirik masshtabli topografik xaritalashda keng joriy etish imkoniyatlarini asoslaydi.

Аннотация. В статье исследованы научно-практические аспекты применения технологий дистанционного зондирования при выполнении крупномасштабных топографических съёмок. В рамках исследования проведён детальный анализ методов использования спутниковых изображений, аэрофотограмметрических данных, получаемых с помощью беспилотных летательных аппаратов (БПЛА), а также технологий лазерного сканирования (LiDAR).

Особое внимание в ходе исследования уделено оценке показателей точности путём интеграции данных дистанционного зондирования с геодезическими опорными пунктами. Полученные результаты свидетельствуют о преимуществе технологий дистанционного зондирования по сравнению с традиционными наземными методами съёмки с точки зрения оперативности, экономической эффективности и точности, а также обосновывают возможность их широкого внедрения в крупномасштабном топографическом картографировании.

Abstract. This article examines the scientific and practical aspects of applying remote sensing (RS) technologies in large-scale topographic surveying. Within the scope of the study, the methods of using satellite imagery, aerophotogrammetric data obtained from unmanned aerial vehicles (UAVs), and laser scanning (LiDAR) technologies are thoroughly analyzed. Special attention is paid to the evaluation of accuracy indicators through the integration of remote sensing data with geodetic control points. The results demonstrate that remote sensing technologies have significant advantages over traditional ground-based surveying methods in

terms of efficiency, cost-effectiveness, and accuracy, and they substantiate the feasibility of their widespread implementation in large-scale topographic mapping.

Kalit so‘zlar: yirik masshtabli toposyomka, masofadan zondlash, GIS, fotogrammetriya, uchuvchisiz uchish apparatlari, LiDAR.

Ключевые слова: крупномасштабная топографическая съёмка, дистанционное зондирование, ГИС, фотограмметрия, беспилотные летательные аппараты, LiDAR.

Keywords: large-scale topographic surveying, remote sensing, GIS, photogrammetry, unmanned aerial vehicles, LiDAR.

Kirish

Yirik masshtabli topografik syomka hududlarning geodezik va kartografik jihatdan batafsil o‘rganilishini ta’minlaydigan muhim ilmiy-amaliy jarayon hisoblanadi. An’anaviy yer usti geodezik usullar yuqori aniqlikka ega bo‘lishiga qaramay, keng hududlarda ularni qo‘llash katta vaqt, mehnat va moliyaviy resurslarni talab etadi. Shu sababli so‘nggi yillarda masofadan zondlash texnologiyalari yirik masshtabli toposyomka ishlarining muhim tarkibiy qismiga aylanib bormoqda.

So‘nggi yillarda dunyoda uchuvchisiz uchish apparatlari yirik masshtabli xaritalash, obyektlar to‘g‘risida fazoviy ma’lumotlarni olish, topografik suratga olish, yerlarni chegaralash hamda muhandislik tadqiqotlarini amalga oshirishda iqtisodiy jihatdan samarali texnologiyaga aylandi [1,2]. Ushbu texnologiya yordamida kartografik asosni tezkor yaratish va yangilash, shuningdek, borish qiyin bo‘lgan yoki an’anaviy aerofotosyomka (skanerlar, LiDAR) iqtisodiy jihatdan o‘zini oqlamaydigan hududlarda ishlarni amalga oshirish imkoniyati mavjud.

UUA platformalarida o‘rnatilgan optik sensorlar yirik masshtabli topografik syomkada yuqori aniqlikdagi masofadan zondlash ma’lumotlarini olish imkonini beradi. Past balandlikda uchish va yuqori fazoviy aniqlik tufayli bunday ma’lumotlar raqamli relyef modellari va ortofotoplanlar yaratishda samarali qo‘llaniladi [3].

Shu bilan birga, UUA asosidagi masofadan zondlash texnologiyalarini yirik masshtabli toposyomkada qo‘llash jarayoni geodezik tayanch punktlari bilan bog‘lash, aniqlikni baholash hamda ma’lumotlarni geoinformatsion tizimlarga integratsiyalash kabi qator ilmiy-amaliy masalalarni yuzaga keltiradi. Ayniqsa, UUA yordamida olingan ma’lumotlarning an’anaviy yer usti syomkalari bilan taqqoslaganda aniqlik va samaradorlik jihatlari yetarli darajada tizimli tahlil qilinmagan.

Mazkur maqolaning asosiy maqsadi uchuvchisiz uchish apparatlari asosidagi masofadan zondlash qurilmalaridan foydalangan holda yirik masshtabli topografik syomkani amalga oshirishning ilmiy-amaliy jihatlarini tahlil qilishdan iborat. Tadqiqot doirasida UUA yordamida olingan aerofotosuratlarni fotogrammetrik qayta ishlash texnologiyasi, geodezik tayanch punktlari bilan integratsiyalash usullari hamda ularning aniqlik ko‘rsatkichlari baholanadi. Olingan natijalar geoinformatsion texnologiyalar va kartografik monitoring tizimlarini rivojlantirishda UUA asosidagi masofadan zondlash texnologiyalaridan samarali foydalanish imkoniyatlarini asoslashga qaratilgan.

UUA aerofotosyomka tizimlari yirik masshtabli topografik xaritalarni tezkor ishlab chiqishda yuqori fazoviy aniqlikka ega tasvirlarni olishni ta’minlaydi hamda dala-geodezik ishlar hajmini sezilarli darajada qisqartiradi [4].

Tadqiqot obyekti va metodikasi

O‘zbekiston Respublikasi hududida topografik syomka ishlarida eng keng tarqalgan o‘lchov asboblari taxeometrlar va GNSS (GPS) global joylashuvni aniqlash tizimlaridir. Shu bilan birga, arzonligi, foydalanish qulayligi va GNSS bilan integratsiyalash imkoniyati tufayli iste’molchi toifasidagi uchuvchisiz uchish apparatlari respublikada topografik suratga olishda tobora kengroq qo‘llanilmoqda.

UUA yordamida suratga olish fotogrammetriya usullariga asoslanib, geografik bog‘lanishga ega ortofotoplanlarni olish imkonini beradi. Ushbu ma’lumotlar keyinchalik maxsus dasturiy ta’minot yordamida qayta ishlanib, fazoviy va geografik ma’lumotlar olinadi.

Yirik masshtabli topografik syomkani amalga oshirishda UUA asosidagi masofadan zondlash texnologiyalari samarali vosita hisoblanadi. Past balandlikda amalga oshiriladigan aerofotosyomka yuqori fazoviy aniqlikka ega tasvirlarni olish imkonini berib, ortofotoplanlar va joyning raqamli relyef modellarini yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu texnologiyalar an’anaviy geodezik o‘lchovlarga nisbatan dala ishlarining davomiyligini qisqartiradi hamda murakkab relyef sharoitlarida ham ishonchli natijalarni ta’minlaydi.

Mazkur tadqiqot Toshkent viloyati Angren tumani hududidagi Uvak qishlog‘i yaqinida joylashgan G‘o‘shsoy kanali uchastkasida olib borildi. Tadqiqot jarayonida GPS va UUA qurilmalarining kombinatsiyalangan qo‘llanilishi orqali topografik syomkaning aniqligi va amaliy yaroqliligi baholandi.

Ushbu hududda ko‘chki jarayonlari kanal bortlarining siljishiga olib kelishi mumkinligi sababli Davlat favqulodda vaziyatlar tizimi doirasida vaqti-vaqti bilan geotexnik tadqiqotlar o‘tkazilib, kanal qirg‘oqlarining turg‘unligi tahlil qilinadi. Barqarorlikni baholash maqsadida ko‘ndalang kesim chizmalarini tuzish uchun joyning raqamli relyef modeli va kontur ma’lumotlariga ega bo‘lgan topografik syomka zarur hisoblanadi.

Tadqiqotda Stonex S9 II GNSS qabul qilgichi hamda GEOSKAN 101 samolyot tipidagi uchuvchisiz uchish apparatidan foydalanildi. GEOSKAN 101 yuqori manevrlilik va ixchamlikka ega bo‘lib, kuniga 4–8 ta parvozni amalga oshirishi va 1 pikselga 4 sm fazoviy aniqlikda 32 km² gacha maydonni suratga olishi mumkin. Ma’lumotlarga dastlabki ishlov berish SAS.Planet dasturiy ta’minotida amalga oshirildi.



1-rasm. G‘o‘shsoy kanali uchastkasining ortofotosuratini qilish jarayoni

Ishlarni bajarish quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oldi:

- tasvirga olishni rejalashtirish, jumladan, Samoviy hududdan foydalanishni boshqarishning yagona tizimida ruxsatnoma olish, hududni o‘rganish, parvoz trayektoriyasi va ish maydonini aniqlash;
- geodezik tayanch va nazorat punktlari tarmog‘ini tashkil etish — statik GNSS usuli yordamida jami 12 ta vaqtinchalik reper belgilari o‘rnatildi;
- UUA yordamida 500 m balandlikda 3D aerofotosyomka bajarildi, parvoz davomiyligi taxminan 45 daqiqani tashkil etdi va 959 384 m² maydon qamrab olindi.

Olingan tasvirlar qayta ishlanib, ortofotoplanlarga geografik bog‘lash amalga oshirildi, joyning raqamli relyef modeli (DTM) yaratildi, raqamlashtirish ishlari bajarildi hamda nuqtalar

koordinatalari aniqlandi. Olingan koordinatalarning o‘rtacha aniqligi quyidagicha bo‘ldi: X = 0,169 m, Y = 0,138 m, Z = 0,157 m.

Xulosa

O‘tkazilgan tadqiqot natijalari uchuvchisiz uchish apparatlari asosidagi masofadan zondlash texnologiyalari yirik masshtabli topografik syomka va kartografik monitoring tizimlarini rivojlantirishda ishonchli hamda samarali vosita ekanligini ko‘rsatdi. Ushbu texnologiyalarni qo‘llashda GNSS tayanch punktlari bilan integratsiya, fotogrammetrik qayta ishlash algoritmlarini to‘g‘ri tanlash va ma’lumotlarni GIS tizimlariga kiritish muhim metodik ahamiyatga ega.

Kelgusida UUA asosidagi masofadan zondlash texnologiyalaridan hududiy monitoring, ekologik tahlil va urbanizatsiyani rejalashtirish loyihalarida yanada keng foydalanish mumkin. Ushbu yondashuv geodeziya va kartografiya fanlarining zamonaviy rivojlanishiga, shuningdek, real vaqt rejimida ishlovchi raqamli monitoring tizimlarini yaratishga ilmiy-amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Casagli N., Frodella W., Morelli S., Tofani V., Ciampalini A., Intrieri E., Raspini F., Rossi G., Tanteri L., Lu P. Spaceborne, UAV and ground-based remote sensing techniques for landslide mapping, monitoring and early warning // Geoenvironmental Disasters. – 2017. – Vol. 4, No. 1. – Art. 9.

2. Gonzalez L. F., Montes G. A., Puig E., Johnson S., Mengersen K., Gaston K. J. Unmanned aerial vehicles (UAVs) and artificial intelligence revolutionizing wildlife monitoring and conservation // Sensors. – 2016. – Vol. 16, No. 1. – Art. 97.

3. Шевня М. С. Использование беспилотных летательных аппаратов для получения материалов дистанционного зондирования Земли // Геодезия и картография. – 2013. – № 1. – С. 44–50.

4. Gao Z., Song Y., Li C., Zeng F., Wang F. Research on the application of rapid surveying and mapping for large-scale topographic map by UAV aerial photography system // International Archives of the Photogrammetry, Remote Sensing and Spatial Information Sciences. – 2017. – Vol. XLII-2/W6. – P. 121–125. – Электронный ресурс. – Режим доступа: isprs-archives.copernicus.org (дата обращения: ..2026).

UDC:622.765:622.7:549.3:66.061

INVESTIGATION OF THE MECHANISM OF ACTIVATING REAGENTS IN THE FLOTATION BENEFICIATION OF COPPER ORES

Pardayev Shokhrukh Shovkat ugli
Assistant, Department of Mining Engineering, TashSTU

Abstract. The efficiency of copper ore beneficiation largely depends on the selective separation of valuable sulfide minerals from gangue minerals during flotation. Activating reagents play a critical role in enhancing the flotation response of copper minerals, particularly in complex and low-grade ores. This study investigates the mechanisms of action of commonly used activating reagents in the flotation beneficiation of copper ores.

The research focuses on the physicochemical interaction between activating reagents and mineral surfaces, including surface charge modification, collector adsorption behavior, and changes in mineral hydrophobicity. Laboratory flotation tests, zeta potential measurements, and surface analysis techniques were employed to evaluate flotation performance under different reagent regimes. The results indicate that activating reagents promote stable collector adsorption on copper mineral surfaces, leading to a significant improvement in copper recovery. The findings provide a scientific basis for optimizing reagent schemes in flotation processes for complex copper ores.

Аннотация. Эффективность обогащения медных руд в значительной степени определяется селективным разделением сульфидных минералов меди и пустой породы в процессе флотации. Активирующие реагенты играют ключевую роль в повышении флотационной активности медных минералов, особенно при переработке сложных и бедных руд. В данной работе исследуется механизм действия активирующих реагентов при флотационном обогащении медных руд.

Основное внимание уделено физико-химическому взаимодействию активаторов с поверхностью минералов, изменению поверхностного заряда, адсорбции коллекторов и формированию гидрофобных свойств. Для оценки эффективности флотации применялись лабораторные флотационные испытания, измерения дзета-потенциала и методы анализа поверхности. Полученные результаты показывают, что активирующие реагенты способствуют усилению адсорбции коллекторов на поверхности медных минералов, что приводит к повышению извлечения меди при сохранении селективности процесса. Результаты исследования могут быть использованы для оптимизации реагентных режимов в промышленных флотационных схемах.

Annotatsiya. Mis rudalarini boyitish samaradorligi flotatsiya jarayonida foydali sulfid minerallarni chiqindi jinslardan tanlab ajratish darajasiga bevosita bog‘liq. Faollashtiruvchi reagentlar, ayniqsa murakkab tarkibli va past navli rudalarda, mis minerallarining flotatsion faolligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu tadqiqot mis rudalarini flotatsion boyitishda keng qo‘llaniladigan faollashtiruvchi reagentlarning ta’sir qilish mexanizmlarini o‘rganishga bag‘ishlangan.

Tadqiqot faollashtiruvchi reagentlarning mineral yuzalaridagi fizik-kimyoviy o‘zaro ta’siri, sirt zaryadining o‘zgarishi, kollektorlarning adsorbsiyasi va gidrofoblik xususiyatlariga ta’sirini tahlil qilishga qaratilgan. Laboratoriya flotatsiya sinovlari, zeta-potensial o‘lchovlari va sirt tahlili usullari yordamida turli reagent rejimlarida flotatsiya samaradorligi baholangan. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, faollashtiruvchi reagentlar kollektorlarning mineral yuzasida barqaror adsorbsiyasini ta’minlab, misning ajralib chiqish darajasini sezilarli oshiradi. Tadqiqot

natijalari flotatsiya jarayonlarida reagentlar tizimini optimallashtirish uchun ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Keywords: copper ore beneficiation; flotation; activating reagents; mineral surface chemistry; collector adsorption; surface charge; flotation efficiency; sulfide minerals.

Ключевые слова: обогащение медных руд; флотация; активирующие реагенты; химия поверхности минералов; адсорбция коллекторов; поверхностный заряд; эффективность флотации; сульфидные минералы.

Kalit so‘zlar: mis rudalarini boyitish; flotatsiya; faollashtiruvchi reagentlar; mineral yuzasi kimyosi; kollektor adsorbsiyasi; sirt zaryadi; flotatsiya samaradorligi; sulfidli minerallar.

Copper is one of the most important industrial metals due to its widespread application in electrical engineering, construction, transportation, and renewable energy technologies. The continuous growth in global copper demand, combined with the progressive depletion of high-grade ore deposits, has led to an increasing reliance on the beneficiation of low-grade and complex copper ores. Under these conditions, achieving efficient and selective mineral separation has become a major challenge for modern mineral processing operations.

Froth flotation remains the dominant technique for copper ore beneficiation because of its adaptability to different mineralogical compositions and operating conditions. However, the flotation performance of copper ores is strongly influenced by mineral surface properties, ore texture, oxidation state, and the presence of complex gangue minerals. In many cases, natural surface conditions of copper minerals are unfavorable for collector adsorption, resulting in poor flotation recovery and selectivity.

To overcome these limitations, activating reagents are widely employed in flotation reagent schemes. Activating reagents are chemical compounds that modify the surface characteristics of target minerals, enhancing their affinity for collectors and improving flotation kinetics. Common activators include metal ions, salts, and chemical compounds that interact with mineral surfaces through adsorption, ion exchange, or electrochemical reactions. Despite their extensive industrial use, the fundamental mechanisms by which activating reagents influence copper mineral flotation are not yet fully understood.

Previous studies have shown that activating reagents can alter surface charge distribution, promote the formation of metal–collector complexes, and increase mineral hydrophobicity. These effects are particularly significant in the flotation of complex and low-grade copper ores, where surface oxidation and fine particle coatings often inhibit collector attachment. Moreover, improper selection or excessive dosage of activating reagents may lead to non-selective flotation, increased reagent consumption, and reduced concentrate quality.

Therefore, a systematic investigation of the mechanisms of activating reagent action is essential for improving flotation efficiency and selectivity. Understanding the physicochemical interactions between activating reagents, mineral surfaces, and collectors provides a scientific basis for optimizing reagent regimes and enhancing the overall performance of copper ore beneficiation processes. The present study aims to elucidate these mechanisms through experimental and analytical approaches, contributing to the development of more effective and economically viable flotation strategies for processing complex copper ores.

Activating reagents play a fundamental role in copper ore flotation by modifying the physicochemical properties of mineral surfaces and enhancing their interaction with collectors. Their primary function is to convert weakly floatable or inactive mineral surfaces into reactive sites capable of forming stable hydrophobic associations. The effectiveness of activating reagents is governed by surface chemistry, electrochemical processes, and mineralogical characteristics of the ore.

One of the principal mechanisms of activation involves metal ion adsorption on the surface of copper-bearing minerals. Metal ions such as Cu^{2+}, Pb^{2+}, and Zn^{2+} can adsorb onto oxidized or sulfide mineral surfaces, forming active centers that promote collector attachment. These ions react with xanthates and other sulfur-based collectors to produce insoluble metal–collector complexes, significantly increasing surface hydrophobicity.

Another important mechanism is surface charge modification. Activating reagents alter the zeta potential of mineral particles, reducing electrostatic repulsion between the mineral surface and collector molecules. This facilitates closer interaction and stronger adsorption, particularly under alkaline flotation conditions commonly used for copper ores.

Activators also influence electrochemical reactions at the mineral–solution interface. By stabilizing surface oxidation states or suppressing passivating oxide layers, activating reagents restore flotation activity of partially oxidized copper minerals. In complex ores, this mechanism is critical for improving flotation kinetics and recovery.

In addition, activating reagents may act through selective interaction with gangue minerals, indirectly improving copper selectivity by suppressing unwanted mineral surfaces or enhancing differential adsorption behavior.

Table 1.

Mechanisms of Activating Reagents in Copper Ore Flotation

Activating reagent type	Primary mechanism of action	Effect on mineral surface	Impact on flotation performance
Metal ions (Cu^{2+}, Pb^{2+})	Adsorption and formation of metal–collector complexes	Creation of active adsorption sites	Increased copper recovery
Sulfide activators	Surface sulfidization	Restoration of sulfide surface properties	Improved collector affinity
Electrochemical activators	Regulation of oxidation–reduction reactions	Stabilization of surface oxidation state	Enhanced flotation kinetics
pH-dependent activators	Surface charge modification	Reduced electrostatic repulsion	Improved selectivity
Complexing agents	Controlled ion availability	Regulation of adsorption intensity	Prevention of non-selective flotation

The mechanisms described above demonstrate that activating reagents function through multiple synergistic pathways rather than a single chemical reaction. Their effectiveness depends on mineral composition, surface oxidation state, pulp chemistry, and reagent dosage. An inadequate understanding of these mechanisms may lead to reagent overconsumption, reduced selectivity, and unstable flotation performance.

The experimental program was designed to systematically investigate the mechanisms of activating reagents in the flotation beneficiation of copper ores by combining controlled laboratory flotation tests with surface chemistry characterization methods. The methodology was

structured to establish clear relationships between reagent regimes, mineral surface modification, and flotation performance.


Representative copper ore samples were collected and prepared through crushing and grinding to obtain a particle size suitable for flotation testing. Prior to experimentation, mineralogical composition was determined using optical microscopy and X-ray diffraction to identify the dominant copper-bearing and gangue minerals. This step ensured that the experimental results could be reliably correlated with mineralogical characteristics.

Batch flotation experiments were conducted in a laboratory flotation cell under controlled conditions. Activating reagents were added at predefined dosages and conditioning times to evaluate their influence on mineral surface activation. Following activation, collectors and frothers were introduced sequentially, and flotation was performed at constant pulp density, pH, and agitation speed. The flotation products were collected, dried, and analyzed to determine copper recovery and concentrate grade.

To clarify the activation mechanism, surface chemistry analyses were carried out in parallel with flotation tests. Zeta potential measurements were performed to assess changes in surface charge induced by activating reagents. In addition, contact angle measurements and adsorption studies were used to evaluate changes in surface hydrophobicity and collector affinity. The combination of flotation performance data and surface characterization results enabled a comprehensive interpretation of the role of activating reagents in copper ore flotation.

Fig-1

Schematic Diagram of the Experimental Methodology



Schematic representation of the experimental methodology for investigating the mechanism of activating reagents in copper ore flotation: (1) ore sampling and preparation; (2) mineralogical characterization; (3) conditioning with activating reagents; (4) collector and frother addition; (5) laboratory flotation testing; (6) analysis of flotation products; (7) surface chemistry characterization.

The experimental results clearly demonstrate the significant influence of activating reagent dosage on copper flotation performance and mineral surface properties. Figure X

illustrates the relationship between Cu^{2+} activator dosage, copper recovery, zeta potential, and collector adsorption.

As shown in Figure X(a), copper recovery increases progressively with increasing Cu^{2+} dosage. At low activator concentrations (0–20 ppm), the recovery improvement is moderate, indicating partial activation of mineral surfaces. In this range, Cu^{2+} ions begin to adsorb onto oxidized copper mineral surfaces, forming limited active sites for collector attachment. When the Cu^{2+} dosage is increased to approximately 40–60 ppm, copper recovery reaches a maximum value of about 92–94%. This dosage range represents the optimal activation zone, where sufficient active centers are formed without excessive surface saturation.

Further increases in Cu^{2+} dosage beyond the optimal level result in a plateau or slight decline in recovery. This behavior can be attributed to non-selective adsorption of metal ions and possible competition between excessive activator species and collector molecules, which reduces flotation selectivity and efficiency.

Figure X(b) provides insight into the surface chemical mechanisms underlying these flotation trends. The zeta potential of copper mineral particles shifts from strongly negative values toward neutral and slightly positive values as Cu^{2+} dosage increases. This change in surface charge reduces electrostatic repulsion between the mineral surface and anionic collectors, thereby facilitating stronger collector adsorption. Simultaneously, collector adsorption increases steadily with activator dosage, confirming the formation of stable metal–collector complexes on the mineral surface.

Fig-2

Copper Recovery vs Activator Dosage




Fig-a. Effect of activator dosage on copper recovery, zeta potential, and collector adsorption. (a) The left graph shows copper recovery increasing with Cu^{2+} dosage up to an optimal point at 40 ppm. (b) The right graph illustrates how Cu^{2+} dosage increases zeta potential (light blue line) and collector adsorption, demonstrating improved collector and copper recovery performance with activator use.

Fig-b. Effect of activator dosage on copper recovery, zeta potential, and collector adsorption. (a) The left graph shows copper recovery increasing with Cu^{2+} dosage up to an optimal point at 40 ppm. (b) The right graph illustrates how Cu^{2+} dosage increases zeta potential (light blue line) and collector adsorption, demonstrating improved collector and copper recovery performance with activator use.

The combined analysis of flotation recovery, zeta potential, and collector adsorption confirms that activating reagents enhance flotation performance primarily by modifying surface charge characteristics and promoting chemical adsorption of collectors. The results highlight that

optimal activator dosage is critical: insufficient activation leads to poor recovery, whereas excessive activation may cause surface oversaturation and reduced selectivity.

Activating reagents play a vital role in copper ore flotation by modifying mineral surface properties and facilitating selective collector adsorption. A mechanistic understanding of activator action enables optimization of flotation performance in processing complex copper ores.

REFERENCES

1. Abduraxmonov, A. A., & Tursunov, B. T. (2015). Foydali qazilmalarni boyitish texnologiyasi. Toshkent: O‘qituvchi.

2. Ismoilov, R. I., & Xolmatov, S. A. (2017). Mis rudalarini flotatsion boyitishda reagent rejimlarini optimallashtirish. Konchilik xabarnomasi, 3, 45–49.

3. Karimov, Sh. M., & Nurmatov, D. A. (2018). Sulfidli rudalarni boyitishda sirt-kimyoviy jarayonlarni tadqiq etish. O‘zbekiston texnika jurnali, 2, 61–66.

4. Rasulov, F. R., & Jo‘rayev, A. A. (2019). Flotatsiya jarayonida faollashtiruvchi reagentlarning ta’siri. ToshDTU ilmiy ishlari to‘plami, 4, 78–83.

5. Wills, B. A., & Finch, J. A. (2016). Wills’ Mineral Processing Technology: An Introduction to the Practical Aspects of Ore Treatment and Mineral Recovery (8th ed.). Butterworth-Heinemann, Oxford.

6. Fuerstenau, M. C., Jameson, G. J., & Yoon, R. H. (2007). Froth Flotation: A Century of Innovation. SME, Littleton, CO.

7. Bulatovic, S. M. (2007). Handbook of Flotation Reagents: Chemistry, Theory and Practice. Vol. 1: Flotation of Sulfide Ores. Elsevier, Amsterdam.

8. Rao, S. R. (2013). Surface Chemistry of Froth Flotation. Springer Science & Business Media, New York.

Smart, R. S. C., Skinner, W. M., & Gerson, A. R. (1999). XPS studies of oxidation of copper sulfide minerals. Surface and Interface Analysis, 28(1), 101–105.

UO‘T:66.048:621.7:338.45

KO‘MIR KUKUNLARINI BRIKETLASHDA SANOAT CHIQINDILARIDAN TAYYORLANGAN BOG‘LOVCHI MODDALARNING TEXNIK-IQTISODIY SAMARADORLIGINI BAHOLASH

Rasulova Shaxnoza Shavkatxon qizi
ToshDTU, “Konchilik ishi” kafedrasi assistenti

Annotatsiya. Mazkur maqolada ko‘mir kukunlarini briketlash jarayonida sanoat chiqindilari asosida tayyorlangan bog‘lovchi moddalardan foydalanishning texnik-iqtisodiy samaradorligi baholangan. Tadqiqotning dolzarbligi ko‘mirni qayta ishlashda hosil bo‘ladigan mayda fraksiyalarning ko‘pligi hamda an’anaviy bog‘lovchi materiallarning yuqori tannarxi bilan izohlanadi. Ish jarayonida turli sanoat chiqindilaridan olingan bog‘lovchi moddalarning fizik-mexanik xususiyatlari, briketlarning mustahkamligi, namlikka chidamliligi va yonish ko‘rsatkichlari eksperimental yo‘l bilan aniqlangan. Shuningdek, ishlab chiqarish xarajatlari, bog‘lovchi sarfi va tayyor mahsulot tannarxi bo‘yicha solishtirma iqtisodiy tahlil o‘tkazilgan. Tadqiqot natijalari sanoat chiqindilaridan tayyorlangan bog‘lovchi moddalardan foydalanish briketlash jarayonining iqtisodiy samaradorligini oshirish, chiqindilarni qayta ishlash va ekologik yuklamani kamaytirish imkonini berishini ko‘rsatadi. Olingan xulosalar ko‘mirni qayta ishlash va energiya ishlab chiqarish sohasida resurs tejamkor texnologiyalarni joriy etish uchun amaliy ahamiyatga ega.

	2	5,83±0,11	5,19±0,36	3,22±0,44	1,61±0,28	
	3	6,97±0,33	6,20±0,27	3,85±0,27	1,92±0,19	
	4	7,23±0,41	6,43±0,13	3,99±0,19	1,99±0,41	
	5	6,23±0,22	5,54±0,19	3,44±0,24	1,72±0,37	
Development coefficient, 1:1		0,28	0,32	0,44±	0,52	**0,39**

Chromium content, mg/l	Options	Biomass production in days, g/m2				Average biomass formation on the 10th day, g/m2
		3	5	7	10	
1	2	3	4	5	6	7
0,5	1	86,36±0,11	112,15±0,42	185,05±0,23	244,26±0,31	1150,9±0,28
	2	78,13±0,27	98,32±0,19	162,23±0,43	214,14±0,41	
	3	87,34±0,17	108,42±0,11	178,89±0,24	236,14±0,18	
	4	82,23±0,09	98,17±0,34	161,98±0,19	213,81±0,33	
	5	77,42±0,26	111,37±0,24	183,76±0,11	242,56±0,27	
Development coefficient, 1:1		**0,69**	**0,88**	**0,92**	**0,98**	**0,87**
1,0	1	52,3±0,12	77,40±0,05	140,10±0,14	198,94±0,37	162,6±0.13
	2	48,51±0,27	54,33±0,24	98,34±0,22	139,64±0,13	
	3	49,21±0,42	87,59±0,33	158,54±0,37	225,13±0,32	
	4	53,6±0,11	52,53±0,18	95,08±0,26	135,01±0,19	
	5	39,41±0,23	44,53±0,26	80,61±0,41	114,46±	
Development coefficient, 1:1		0,48	0,57±	0,78	0,88	0,68
1,5	1	27,34±0,33	30,89±1,11	39,24±0,33	42,73±0,32	40,07±0,09
	2	22,14±0,17	27,23±0,29	34,58±0,41	37,66±0,27	
	3	23,11±0,26	29,17±0,43	37,05±0,18	40,34±0,12	
	4	17,52±0,14	33,21±0,17	42,18±0,06	45,93±0,39	
	5	11,34±0,09	24,37±0,48	30,95±0,11	33,70±0,28	
Development coefficient, 1:1		0,36	0,49	0,67	0,82	**0,59**
2,0	1	8,11±0,47	12,09±0,23	17,65±0,32	23,48±0,42	20,65±0,17
	2	7,45±0,23	11,11±0,06	16,22±0,17	21,57±0,37	
	3	8,36±0,18	12,46±0,18	18,20±0,23	24,20±0,12	
	4	6,48±0,32	9,66±0,27	14,11±0,14	18,76±0,08	
	5	5,27±0,41	7,86±0,36	11,47±0,21	15,26±0,27	
Development coefficient, 1:1		0,32	0,42	0,53	0,72	**0,50**

2,5	1	7,62±0,18	12,31±0,24	16,74±0,41	22,77±0,11	18,77±0,23
	2	8,32±0,23	10,43±0,33	14,18±0,37	19,29±0,29	
	3	6,72±0,51	9,34±0,26	12,70±0,07	17,28±0,33	
	4	6,43±0,09	10,03±0,17	13,64±0,24	18,55±0,28	
	5	6,17±0,18	8,62±0,31	11,72±0,38	15,94±0,14	
Development coefficient, 1:1		0,33	0,38	0,49	0,63	**0,46**
3,0	1	6,23±0,17	5,54±0,41	3,44±0,33	1,72±0,13	1,79±0.06
	2	5,83±0,11	5,19±0,36	3,22±0,44	1,61±0,28	
	3	6,97±0,33	6,20±0,27	3,85±0,27	1,92±0,19	
	4	7,23±0,41	6,43±0,13	3,99±0,19	1,99±0,41	
	5	6,23±0,22	5,54±0,19	3,44±0,24	1,72±0,37	
Development coefficient, 1:1		0,28	0,32	0,44±	0,52	**0,39**

According to the obtained results, during the cultivation of Azolla under the influence of chromium (+6), somewhat adapted variants of these cultures were obtained.

Analysis of the results from Table 2 showed that Azolla was relatively tolerant to the effect of 0.5 mg/l of chromium, with an average growth coefficient of 1:0.69 on the third day of cultivation, which increased to 1:0.98 by the tenth day of cultivation.

In addition, the average biomass value obtained across the experimental variants was 1150.92 g/m². The average 10-day growth coefficient across the variants was determined to be 0.87 (Figure 1).



A **B**

Figure 1. General view of the growth coefficient and biomass production of Azolla caroliniana in water containing 0.5 mg/l chromium (+6) (A) compared to the control (B).

During the study, under the influence of 1.0 mg/l chromium, the growth ratio of Azolla cultures increased from 1:0.48 on the 3rd day to 1:0.88 by the 10th day, with an average biomass production of 162.6 g/m² on the 10th day.

Furthermore, under the influence of 1.5 mg/l chromium, the growth coefficient of the experimental cultures was 1:0.36 on the 3rd day, with an average biomass production of 20.29 g/m². By the 10th day, the growth coefficient reached 1:0.82, and the average biomass production across variants reached 162.6 g/m².

Based on the above data, it was observed that under the influence of hexavalent chromium, although the growth coefficient did not sharply decrease, the vegetative growth process slowed, leaves turned yellowish with necrosis-like coloration, and biomass production showed a declining trend (Figure 2).

This can be explained by the fact that, despite the increase in culture numbers, root length was short and fragile, the number of leaves was low and very small, and the height of the plant body was significantly shorter compared to the control.

When observing the growth coefficient and biomass production of Azolla in water containing 1.5 mg/l chromium, although the overall growth coefficient did not decrease significantly compared to 1.0 mg/l chromium water (1:0.68 vs. 1:0.59), a sharp decrease in total biomass production was recorded (40.07 g/m²).



A **B**

Figure 2. General view of the growth coefficient and biomass production of Azolla caroliniana in water containing 1.0 mg/l chromium (+6) (A) compared to the control (B).

It was noted that this condition followed the development of the trend mentioned above.

In addition, when azolla cultures were grown in water containing hexavalent chromium at concentrations of 2.0 mg/l and 2.5 mg/l, the growth coefficients were observed to be 1:0.50 and 1:0.46, respectively, while no significant differences were recorded in biomass production (20.65 g/m² and 18.77 g/m², respectively).

Under the influence of 3.0 mg/l hexavalent chromium, the growth coefficient of the cultivated azolla culture averaged 1:0.39, and the total biomass production was recorded as 1.79 g/m² (Figure 3).

Furthermore, when the condition of chromium-containing water at the end of the experiment was evaluated relative to its initial state using a 5-point scale, an average decolorization score of 4.8 was recorded, and from the third day of observation onward, the complete disappearance of the characteristic odor was noted.



A **B**

Figure 3. General view of the growth coefficient and biomass production of Azolla caroliniana in water containing 3.0 mg/l chromium (+6) (A) compared to the control (B).

Necrosis of Azolla cells under the influence of chromium and recovery from necrosis were observed to be very limited, at approximately 5–8% (Figure 4).



A **B** **C**

Figure 4. Necrosis of Azolla cells under the influence of chromium
(A: 1.0 mg/L; B: 2.0 mg/L; C: 3.0 mg/L)

The main raw material discharged from leather tanning and processing enterprises. In subsequent studies, the viability indicators of Azolla in water containing hexavalent chromium were investigated (Figure 5).




Figure 5. Viability of Azolla under different chromium concentrations, %

According to the obtained results, as the chromium concentration increased, the development coefficient of A. caroliniana gradually decreased (mg/L): 0.5 → 0.87%, 1.0 → 0.68%, 1.5 → 0.59%, 2.0 → 0.50%, 2.5 → 0.46%, 3.0 → 0.39%, and correspondingly, a correlated decrease in the viability indicator was recorded.

An interesting aspect of the study was that despite the viability indicator being 0.52%, the biomass amount was very low.

This was explained by the fact that tap water was used as the growth medium, to which a specific amount of chromium was added.

The tolerance of azolla to high chromium concentrations and its chromium sorption capacity can be explained by the absence of macro- and microelements and mineral salts in the nutrient medium.

It is known from scientific sources that several factors influence the full manifestation of azolla's adaptation to stress conditions and its bioaccumulation capacity. In particular, macroelements (phosphorus, nitrogen, potassium, calcium, magnesium) and microelements (molybdenum, cobalt, manganese, and others) play an important role.

Conclusion. As a result of the conducted studies, it was determined that Azolla caroliniana exhibits a certain degree of tolerance to the effects of hexavalent chromium. At chromium concentrations of 0.5–1.0 mg/L, the development coefficient and biomass production of azolla were high, whereas at concentrations of 2.0–3.0 mg/L, a sharp decrease in these indicators was observed. At high chromium concentrations, leaf necrosis, slowing of vegetative development, and a reduction in total biomass were recorded. It was also determined that in the Watanabe nutrient medium, which is rich in macro- and microelements, azolla showed a higher biomass production compared to the Dwi P. Widiastuti nutrient medium. Based on the research results, it was concluded that Azolla caroliniana can be effectively used in environmentally safe and efficient biological treatment processes for chromium-contaminated wastewater.

REFERENCES

1. Mosa, K. A., Saadoun, I., Kumar, K., Helmy, M. &Dhankher,O. P. 2016 Potential biotechnological strategies for thecleanup of heavy metals and metalloids. Frontiers in PlantScience 7, 303–303.
2. Morgan-Sagastume, F., Hjort, M., Cirne, D., Gérardin, F., Lacroix,S., Gaval, G., Karabegovic, L., Alexandersson, T., Johansson,P., Karlsson, A., Bengtsson, S., Arcos-Hernandez, M.,Magnusson, P. &Werker, A. 2015 Integrated production ofpolyhydroxyalkanoates (PHAs) with municipal wastewaterand sludge treatment at pilot scale. Bioresource Technology181, 78–89
3. Mononen, T., Coloma, S., Kapanen, A., Vikman, M., Itävaara, M.&Romantschuk, M. 2010 Biodegration of BPA and HHCBfrom waste water by multi-stage biofilm processes. LinnaeusECO-TECH´ 10 Kalmar, Sweden, November 22–24, 157-163. https://doi.org/10.15626/Eco-Tech.2010.016
4. Munasinghe JU., Dilhan M., Sundarabarathy TV. 2010. Utilization of aquatic plants: a method to enhance the productivity of water in seasonal tanks in the Anuradhapura District. In: Proceedings of the national conference on water, food security and climate change in Sri Lanka, BMICH, Colombo, Sri Lanka, 9–11 June 2009, vol 1. Irrigation for Food Security, Iwmi, p 23
5. Mufarrege MM., Hadad HR., Maine MA. 2010. Response of Pistia stratiotes to heavy metals (Cr, Ni, and Zn) and phosphorous. Arch Environ Contam Toxicol 58:53–61.
6. Naidoo, S. &Olaniran, A. O. 2013 Treated wastewater effluent as a source of microbial pollution of surface water resources.International Journal of Environmental Research and PublicHealth 11 (1), 249–270
7. Nuraisyah S. 2002. Use of Azolla compost to growth and yield of mungbean (Vigna radiata L.) on various salinity level. Agrivita. Pp. 658-665.
8. ООН-Хабитат и ВОЗ, 2021 год. Прогресс в области очистки сточных вод — показатель 6.3.1 ЦУР на общемировом уровне и необходимость ускорения прогресса по его достижению. Программа ООН по населенным пунктам (ООН-Хабитат) и Всемирная организация здравоохранения (ВОЗ), Женева. -С.98.

9. Padmesh TVN., Vijayaraghavan K., Sekaran G., Velan M. 2005. Batchand column studies on biosorption of acid dyes on fresh water macro aμra Azolla filiculoides. J Hazard Mater 125:121–129.

10. Paleobotany (Second Edition): The Biology and Evolution of Fossil Plants. 2009. Ferns and early fernlike plants. Chapter 11. Pp. 383-478.

11. Panigrahi S., Choudhury D., Sahoo JK., Das SS, Rath RK. 2014. Effect of dietary supplementation of Azolla on growth and survibility of Labeo rohita fingerlings. Asian J Anim Sci 9:33–37.

12. Peters G.A. 1975. The AzoUa-Anabaena azollae relationship III. Studies on metabolic capacities and a further characterization of the symbiont. Arch. Microbiol. 103:113-122. 1976. Studies on the Azolla-Anabaena azollae symbiosis. Pages 592-610 in W. E. Newton & C. L Nyman (ed.), Proceedings of the First International Symposium on Nitrogen Fixation. Vol. 2. Washington State University Press, Pullman. 1977. The Azolla-Anabaena azollae symbiosis. Pages 231-258 in A. Hollaender (ed.), Genetic engineering for nitrogen fixation. Plenum Press, New York. .1978. Blue-green aμrae and aμral associations. BioScience 28: 580-585.

13. Puyol.D, Barry.E, Hulsen.T, Batstone.D. A mechanistic model for anaerobic phototrophs in domestic wastewater applications; Photo-anaerobic model(PAnM). Water Research 116, 241-253.

14. Qu, X., Brame, J., Li, Q. & Alvarez, P. J. 2013 Nanotechnology for asafe and sustainable water supply: enabling integrated watertreatment and reuse. Accounts of Chemical Research 46 (3),834–843.

15. Quach-Cu, J., Herrera-Lynch, B., Marciniak, C., Adams, S., Simmerman, A. & Reinke, R. 2013 The effect of primary,secondary, and tertiary wastewater treatment processes onantibiotic resistance gene (ARG) concentrations in solid anddissolved wastewater fractions. Water 10 (1), 37. doi:10.3390/w10010037. Pp.56-59.

16. Robins, R. J., D. O. Hall, D. J. Shi, R. J. Turner & M. J. C. Rhodes. 1986. Mucilage acts to adhere cyanobacteria and cultured plant ceils to biological and inert surfaces. FEMS Microbiol. Lett. 34: 155-160.

17. Rana A., Kabi SR., Verma S., Adak A., Pal M., Shivay YS., Prasanna R., Nain L. 2015. Prospecting plant growth promoting bacteria and cyanobacteria as options for enrichment of macro-and micronutrients in grains in rice–wheat cropping sequence. Cogent Food Agric 1:1037379. Pp. 369-375.

18. Rai PK. 2007. Wastewater management through biomass of Azolla pinnata: an eco-sustainable approach. AMBIO J Hum Environ 36: 426–428.

19. Rai P.K. 2008. Phytoremediation of Hg and Cd from industrial effluent using an aquatic free floating macrophyte Azolla pinnata. Intentional Journal of Phytoremediation 10: 430–439.

20. Rai P.K., Tripathi B.D. 2009. Comparative assessment of Azolla pinnata and Vallisneria spiralis in Hg removal from G.B. Pant Sagar of Singrauli Industrial region, India. Environmental Monitoring and Assessment 148: 75–84.

21. Rai P.K. 2010. Heavy metal pollution in lentic ecosystem of subtropical industrial region and its phytoremediation. International Journal of Phytoremediation 12: 226–242.

22. Rascio N., Navari-Izzo F. 2011. Heavy metal hyper accumulating plants: how and why do they do it? And what makes them so interesting? Plant Sci 180:169–181.

23. Rivas, J., Prazeres, A., Carvalho, M. d. F. &Beltrán, F. 2010 Treatment of cheese whey wastewater: combinedcoagulation-flocculation and aerobic biodegradation. Journalof Agricultural and Food Chemistry 58, 7871–7877.

24. Sadeghi R., Zarkami R., Sabetraftar K.P., Van Damme. A review of some ecological factors affecting the growth of Azolla spp. Caspian J. Env. Sci. 2013, Vol. 11 No.1 pp. 65-76.

UO‘T: 004.92

MUHANDISLIK GRAFIKASI FANLARINI O‘QITISHDA BIM TEXNOLOGIYALARI (REVIT DASTURI) ASOSIDA UCH O‘LCHOVLI MODELLASHTIRISHNING AMALIY IMKONIYATLARI

Rizayev Xusniddin Toxtamurotovich
TAQU v,b dotsent

Ergashaliyeva Soliha Ibroximjonqizi
TAQU 2-bosqich bakalavri

Abdushukurov Abduvahob Abdushukur o‘g‘li
TAQU 2-bosqich bakalavri

Annotatsiya. Ushbu maqolada muhandislik grafikasi fanlarini o‘qitishda BIM texnologiyalaridan, xususan Revit grafik dasturidan foydalanish asosida qurilish chizmalarini uch o‘lchovli modellashtirishning amaliy imkoniyatlari yoritilgan. Tadqiqotda an’anaviy ikki o‘lchovli chizmalar bilan solishtirganda 3D modellashtirishning ta’lim jarayonidagi ustun jihatlari, talabalar fazoviy tasavvurini rivojlantirish, loyihaviy fikrlashni shakllantirish hamda o‘quv jarayonining samaradorligini oshirishdagi roli tahlil qilingan. Revit dasturi yordamida qurilish obyektlarining konstruktiv elementlarini modellashtirish, avtomatik chizmalar va kesimlar hosil qilish, xatoliklarni erta aniqlash imkoniyatlari ko‘rsatib berilgan. Tadqiqot natijalari BIM texnologiyalarini muhandislik grafikasi fanlariga joriy etish orqali bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish mumkinligini asoslab beradi.

Аннотация. В данной статье рассматриваются практические возможности трехмерного моделирования строительных чертежей на основе применения BIM-технологий, в частности графической программы Revit, в процессе преподавания инженерной графики. В исследовании проанализированы преимущества 3D-моделирования в образовательном процессе по сравнению с традиционными двухмерными чертежами, его роль в развитии пространственного мышления обучающихся, формировании проектного мышления и повышении эффективности учебного процесса. Показаны возможности моделирования конструктивных элементов строительных объектов с использованием программы Revit, автоматического формирования чертежей и разрезов, а также раннего выявления проектных ошибок. Результаты исследования обосновывают целесообразность внедрения BIM-технологий в преподавание инженерной графики для развития профессиональных компетенций будущих специалистов.

Annotation. This article discusses the practical possibilities of three-dimensional modeling of construction drawings based on the application of BIM technologies, particularly the Revit software, in teaching engineering graphics courses. The study analyzes the advantages of 3D modeling in the educational process compared to traditional two-dimensional drawings, its role in developing students’ spatial visualization, fostering design-oriented thinking, and increasing the effectiveness of the learning process. The capabilities of the Revit software in modeling structural elements of construction objects, automatically generating drawings and sections, and enabling early detection of design errors are demonstrated. The results of the study substantiate that the integration of BIM technologies into engineering graphics education contributes to the development of professional competencies of future specialists.

Kalit so‘zlar: muhandislik grafikasi, BIM texnologiyalari, Revit dasturi, uch o‘lchovli modellashtirish, qurilish chizmalari, ta’lim jarayoni.

Ключевые слова: инженерная графика, BIM-технологии, программа Revit, трехмерное моделирование, строительные чертежи, образовательный процесс.

Key words: engineering graphics, BIM technologies, Revit software, three-dimensional modeling, construction drawings, educational process.

Kirish

Bugungi kunda qurilish va arxitektura sohasida raqamli texnologiyalar, xususan BIM (Building Information Modeling) texnologiyalarining jadal rivojlanishi ta’lim tizimiga ham yangi talablarni qo‘ymoqda. Muhandislik grafikasi fanlari bo‘lajak muhandis va quruvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda muhim o‘rin tutadi. Ushbu fanlarni o‘qitishda zamonaviy grafik dasturlar va uch o‘lchovli modellashtirish vositalaridan foydalanish talabalar bilimini mustahkamlash, ularning fazoviy tafakkurini rivojlantirish hamda amaliy ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

An’anaviy ikki o‘lchovli chizmalar asosida olib boriladigan ta’lim jarayoni ko‘pincha talabalar uchun murakkab bo‘lib, fazoviy tasavvur yetishmasligiga olib keladi. Shu bois muhandislik grafikasi fanlarini o‘qitishda Revit dasturiga asoslangan BIM texnologiyalarini joriy etish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Asosiy qism

BIM texnologiyalarining muhandislik grafikasi ta’limidagi o‘rni

BIM texnologiyalari binoning geometrik modeli bilan birga uning texnik, funksional va iqtisodiy ma’lumotlarini yagona axborot muhitida mujassamlashtiradi. Revit dasturi BIM texnologiyalarining yetakchi vakillaridan biri bo‘lib, unda qurilish obyektlarini uch o‘lchovli modellashtirish, avtomatik ravishda chizmalar, qirqimlar va fasadlarni hosil qilish imkoniyati mavjud (1-rasm).



1-rasm.

Muhandislik grafikasi fanlarini o‘qitishda BIM texnologiyalaridan foydalanish talabalarga nafaqat chizma chizish, balki real qurilish obyektining to‘liq modelini yaratish, uning konstruktiv tuzilishini chuqur anglash imkonini beradi.

Revit dasturi yordamida 3D modellashtirishning amaliy imkoniyatlari

Revit dasturida devorlar, ustunlar, poydevorlar, qavatlar, tom konstruksiyalari kabi qurilish elementlari parametrik modellar asosida yaratiladi. Bu esa talabalar uchun quyidagi amaliy imkoniyatlarni ta’minlaydi:

- qurilish obyektining uch o‘lchovli vizual modelini yaratish;
- chizmalar, reja va kesimlarning avtomatik hosil bo‘lishi;
- loyihalash jarayonida yuzaga keladigan xatoliklarni erta aniqlash;
- elementlar o‘rtasidagi konstruktiv bog‘lanishlarni aniq ko‘rish;
- loyihaviy fikrlash va tizimli yondashuvni shakllantirish.

Shuningdek, Revit dasturida bajarilgan har qanday o‘zgarish barcha chizmalar va ko‘rinishlarda avtomatik yangilanadi. Bu esa an’anaviy grafik dasturlarga nisbatan vaqt va mehnat sarfini sezilarli darajada kamaytiradi.


Uch o‘lchovli modellashtirishning ta’lim samaradorligiga ta’siri


3D modellashtirish asosida olib borilgan darslar talabalar tomonidan murakkab konstruktiv yechimlarni tezroq va osonroq o‘zlashtirishga yordam beradi. Fazoviy tasavvur, texnik tafakkur va ijodiy fikrlash qobiliyatlari rivojlanadi. Natijada talabalar nafaqat chizmalarni o‘qish, balki ularni mustaqil ravishda loyihalash ko‘nikmalariga ega bo‘ladilar.

BIM texnologiyalarining ta’lim jarayoniga joriy etilishi o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi interaktivlikni oshiradi, amaliy mashg‘ulotlar samaradorligini kuchaytiradi hamda bo‘lajak mutaxassislarni zamonaviy mehnat bozoriga tayyorlashga xizmat qiladi.

Muhokamalar va natijalar

Talabalarga o‘quv darslari jarayonida muhandislik grafikasi fanlarini o‘qitishda BIM texnologiyalari, xususan Revit grafik dasturi asosida uch o‘lchovli modellashtirishdan foydalanishning ta’lim samaradorligiga ta’siri tahlil qilindi. O‘rganish natijalari shuni ko‘rsatdiki, an’anaviy ikki o‘lchovli chizmalar asosida olib borilgan mashg‘ulotlarga nisbatan 3D modellashtirishga asoslangan darslar talabalar tomonidan murakkab konstruktiv yechimlarni tezroq va to‘liqroq o‘zlashtirishga xizmat qiladi (2-rasm).








2-rasm. AutoCAD dasturida bajarilgan 2D loyihalar.

Muhokama jarayonida aniqlanganki, Revit grafik dasturi yordamida qurilish elementlarini parametrik modellashtirish talabalarning fazoviy tafakkurini shakllantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Fazoviy tasavvur muhandislik grafikasi fanlarining asosiy kompetensiyalaridan biri hisoblanadi va u an’anaviy grafik usullar orqali sekin rivojlanadi. BIM muhitida esa talaba obyektni nafaqat chizma sifatida, balki real uch o‘lchovli makon elementi sifatida idrok etadi. Bu esa konstruktiv bog‘lanishlar, geometrik nisbatlar va texnik yechimlarni ongli ravishda tushunishga olib keladi (3-rasm).

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, Revit dasturida yaratilgan modellar asosida avtomatik ravishda reja, qirqim va fasadlarning hosil bo‘lishi talabalarda grafik bog‘liqlik tushunchasini shakllantiradi. Ya’ni, bitta elementga kiritilgan o‘zgarishning barcha chizmalarda aks etishi tizimli fikrlashni rivojlantiradi. Bu holat pedagogik nuqtayi nazardan konstruktiv-ta’limiy yondashuvga mos keladi, chunki talaba bilimni tayyor shaklda emas, balki amaliy faoliyat jarayonida o‘zlashtiradi.







3-rasm.

Muhokamalar davomida aniqlandi: BIM texnologiyalari asosida olib borilgan mashg‘ulotlar talabalarning loyihaviy fikrlashini rivojlantiradi. Revit muhitida ishlash jarayonida talaba faqat grafik ijrochi emas, balki loyiha muallifi sifatida ishtirok etadi. U konstruktiv elementlarning funksional vazifasini, o‘zaro bog‘liqligini va texnik cheklovlarini hisobga olishga majbur bo‘ladi. Bu esa bo‘lajak mutaxassisning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Ilmiy tahlil natijalariga ko‘ra, uch o‘lchovli modellashtirishdan foydalanish o‘quv jarayonida xatoliklarni erta aniqlash imkonini beradi. An’anaviy 2D chizmalarda ayrim

konstruktiv nomuvofiqliklar faqat yakuniy bosqichda aniqlansa, BIM muhitida ular vizual va mantiqiy jihatdan darhol ko‘zga tashlanadi. Bu holat talabalarni muammoli vaziyatlarni tahlil qilish va mustaqil yechim topishga o‘rgatadi, ya’ni muammoli ta’lim tamoyillariga mos keladi.


Dars o‘tish jarayonida olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, BIM texnologiyalaridan foydalanish muhandislik grafikasi fanlarida amaliy mashg‘ulotlar samaradorligini oshiradi, o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi interaktivlikni kuchaytiradi hamda o‘quv vaqtining ratsional taqsimlanishiga imkon yaratadi. Shu bilan birga, Revit grafik dasturi yordamida ishlash zamonaviy mehnat bozori talablariga mos kompetensiyalarni shakllantiradi.

Umuman olganda, dars o‘tish jarayonida kuzatuvlat natijalari shuni ko‘rsatdiki BIM texnologiyalari (Revit) grafik dasturini muhandislik grafikasi fanlariga joriy etish pedagogik, texnik va kasbiy jihatdan asoslanganligini ko‘rsatadi. Ushbu yondashuv bo‘lajak muhandis va quruvchilarning raqamli savodxonligini oshirish, ularning raqobatbardoshligini ta’minlash hamda ta’lim sifatini yangi bosqichga olib chiqishda muhim omil hisoblanadi.

Revit grafik dasturi va an’anaviy 2D dasturlar o‘rtasidagi asosiy farq shundan iboratki, Revit’da loyiha faqat grafik tasvir emas, balki to‘liq axborot modeli sifatida qaraladi. Bu esa loyihani chuqur tahlil qilish, xatolarni oldindan aniqlash va qurilish jarayonini samarali tashkil etish imkonini beradi. Natijada, Revit grafik dasturidan foydalanish qurilish chizmalarini loyihalashda zamonaviy va samarali yechim sifatida namoyon bo‘ladi.

Bu dasturning yana bir afzalliklaridan biri shundaki:

Revitda ko‘p mutaxassisli ishlash, yani **(BIM Collaboration):** Revit grafik dasturi BIM (Building Information Modeling) asosida ishlaydi va loyiha jarayonida turli mutaxassislar- arxitektorlar, konstruktiv muhandislar, elektrik va santexnika mutaxassislari, ventilyatsiya tizimi dizaynerlari- bir vaqtning o‘zida birlashtirilgan model ustida ishlash imkonini beradi. Buning uchun **Worksharing** funksiyasi qo‘llanadi: loyihaning turli elementlari **Worksets** orqali bo‘linadi va har bir mutaxassis faqat o‘z workseti bilan ishlaydi. Shu bilan birga, Revitning **Clash Detection** (To‘qnashuvni aniqlash) vositasi turli tizimlar o‘rtasidagi to‘qnashuvlarni aniqlash va bartaraf etishga yordam beradi. Bu yondashuv loyiha samaradorligini oshiradi, vaqt va xarajatlarni kamaytiradi hamda loyiha sifatini yaxshilaydi .




4-rasm.

1. Worksharing nima?

Worksharing- bu Autodesk Revit grafik dasturida bir vaqtning o‘zida bir nechta mutaxassis (arxitektor, konstruktor, dizayner va boshqalar) bitta loyiha ustida ishlash imkonini beruvchi tizim hisoblanadi.

2. Worksharing ni yoqish (4-rasm).
- Revit grafik dasturida loyihani oching
- Yuqori menyudan **Collaborate** bo‘limini tanlang
- **Worksets** tugmasini bosing va OK ni tanlang


Izoh: Shu bosqichdan keyin loyiha jamoaviy ishlash rejimiga o‘tadi.




5-rasm).

3. Central Model yaratish (
- **File** ® **Save As** ni tanlang
- Umumiy server yoki umumiy papkani tanlang
- Fayl shu joyda saqlanadi- bu **Central Model**


Muhim: Central Model to‘g‘ridan-to‘g‘ri tahrir qilinmaydi.





6-rasm.


4. Local file bilan ishlash (6-rasm).
- Har bir mutaxassis Central Model ni ochadi
- Revit avtomatik ravishda **Create New Local** yaratadi
- Har kim o‘z Local faylida ishlaydi



6-rasm.

5. O‘zgarishlarni saqlash (Synchronize) (7-rasm).


- Ish tugagach **Synchronize with Central** tugmasini bosing
- O‘zgarishlar Central Model ga uzatiladi
- Boshqa mutaxassislar yangilanishni ko‘radi



7-rasm.

6. Kim nima ustida ishlayotganini ko‘rish (8-rasm).


Worksets oynasi orqali qaysi element kim tomonidan band qilinganini ko‘rish mumkin. Bu konfliktlarning oldini oladi.



8-rasm.

7. Masofadan ishlash (Autodesk Construction Cloud) (9-rasm).

Agar jamoa turli joylarda, uzoq masofalardan turib ishlasa, loyiha Autodesk Construction Cloud (BIM 360 / ACC) orqali bulutda saqlanadi va internet orqali birgalikda ishlanadi.



9-rasm.

Xulosa

O‘rganishlar natijalari shuni ko‘rsatdiki, muhandislik grafikasi fanlarini o‘qitishda BIM texnologiyalari, xususan Revit grafik dasturi asosida uch o‘lchovli modellashtirishdan foydalanish ta’lim jarayonining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. 3D modellashtirish an’anaviy ikki o‘lchovli (AutoCAD) grafik dasturida chizilgan chizmalar bilan solishtirganda talabalar fazoviy tafakkurini rivojlantirish, loyihaviy va tizimli fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish hamda amaliy mashg‘ulotlarni interaktiv va mazmunli qilish imkonini beradi.

Revit grafik dasturi yordamida qurilish obyektlarining parametrik modellarini yaratish, avtomatik chizmalar va qirqimlarni hosil qilish, shuningdek loyihaviy xatoliklarni erta aniqlash talabalarning kasbiy kompetensiyalarini mustahkamlashda muhim rol o‘ynaydi. BIM texnologiyalarining ta’lim jarayoniga integratsiyasi o‘quvchilarni zamonaviy mehnat bozoriga moslashtirish, ularning raqamli savodxonligini oshirish va loyiha asosida mustaqil qarorlar qabul qilish qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shunday qilib, BIM texnologiyalariga asoslangan Revit grafik dasturidan foydalanish muhandislik grafikasi fanlarini o‘qitishda nafaqat amaliy ko‘nikmalarni oshirish, balki bo‘lajak mutaxassislarning professional tayyorgarligini samarali shakllantirishda asosiy vosita hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. X.T. Rizayev. *Digital loyihalash (Autodesk AutoCAD)* Toshkent-2026 AutoCAD bo‘yicha darslik.
2. Rixsibayeva X., Rixsiboyev U., Shokirova Ch. *Muhandislik va kompyuter grafikasi*. Toshkent: LESSON PRESS, 2021. – 358 b. (O‘zbek tilidagi muhandislik grafikasi darsligi).
3. Husanov M., Hasanov B., Norov N., Muminov A. *Qurilishda BIM texnologiyalari*. – O‘zbekiston, 2024. – BIM texnologiyalari va Autodesk Revit asoslarini o‘zbek tilida tushuntiruvchi darslik.
4. Xusnidinova N.A. *Muhandislik grafikasi fanlarini raqamli texnologiyalar orqali o‘qitishning metodik imkoniyatlari*. – “Yurt Faxri” ilmiy jurnali, 2025. – maqola muhandislik grafikasi va zamonaviy dasturlar haqida ilmiy tahlil beradi.

5. To‘ymurodov A.B. *BIM (Building Information Modeling) texnologiyasi va uning afzalliklari*. – “Yurt Faxri” ilmiy jurnali, 2025. – maqola BIM texnologiyalarining mohiyatini va amaliy foydasini o‘rganadi.

6. Eastman C., Teicholz P., Sacks R., Liston K. *BIM Handbook: A Guide to Building Information Modeling for Owners, Managers, Designers, Engineers and Contractors*. 4-chi nashr. – John Wiley & Sons, 2018. – BIM texnologiyalari bo‘yicha xalqaro standart qo‘llanma.

7. Smith D.K. *Building Information Modeling: A Strategic Implementation Guide for Architects, Engineers, Constructors, and Real Estate Asset Managers*. – John Wiley & Sons, 2020. – BIMni joriy etish strategiyasi va amaliy usullari.

8. Autodesk. *Autodesk Revit User Guide*. – Autodesk Inc., 2023. – Revit dasturi bo‘yicha rasmiy o‘quv qo‘llanma.

UO‘T691:504:628.4

QURILISH MATERIALLARINING EKOLOGIK XUSUSIYATLARI VA QAYTA ISHLANISHI

Ortiqov Shodiyor Xolmurodovich
SamDAQU (Samarqand Davlat Arxitektura-Qurilish Universiteti)

Annotatsiya. Qurilish materiallari insoniyatning rivojlanishi uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lsa-da, ularning ishlab chiqarilishi va ishlatilishi atrof-muhitga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu maqola qurilish materiallarining ekologik xususiyatlarini va qayta ishlash imkoniyatlarini o‘rganadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, qayta ishlangan materiallar yordamida atrof-muhitga ta’sirni 30-50% ga kamaytirish mumkin. Ushbu yondashuv nafaqat chiqindilarni kamaytiradi, balki resurslarni tejaydi va iqtisodiy samaradorlikni oshiradi.

Аннотация. Строительные материалы играют важную роль в развитии человечества, однако их производство и использование оказывают негативное воздействие на окружающую среду. В данной статье рассматриваются экологические характеристики строительных материалов и возможности их переработки. Результаты исследования показывают, что использование переработанных материалов позволяет снизить воздействие на окружающую среду на 30–50%. Такой подход не только сокращает количество отходов, но и способствует сохранению ресурсов и повышению экономической эффективности.

Abstract. Although construction materials play a crucial role in the development of humanity, their production and use have a negative impact on the environment. This article examines the environmental characteristics of construction materials and the possibilities for their recycling. The research findings indicate that the use of recycled materials can reduce environmental impact by 30–50%. This approach not only decreases waste generation but also conserves resources and enhances economic efficiency.

Kalit so‘zlar: qurilish materiallari, ekologik xususiyatlar, qayta ishlash, barqaror qurilish, atrof-muhit ta’siri, chiqindilar boshqaruvi.

Ключевые слова: строительные материалы, экологические характеристики, переработка, устойчивое строительство, воздействие на окружающую среду, управление отходами.

Keywords: construction materials, environmental characteristics, recycling, sustainable construction, environmental impact, waste management.

Kirish. Qurilish sohasi global iqtisodiyotning asosiy qismlaridan biri bo‘lib, u dunyo bo‘ylab yalpi ichki mahsulotning taxminan 13% ni tashkil etadi. Biroq, qurilish materiallarining ishlab chiqarilishi va ishlatilishi atrof-muhitga jiddiy ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, tsement, po‘lat va alyuminiy kabi materiallar global issiqxona gazlari emissiyasining 23% ga mas’uldir. Qurilish va buzilish chiqindilari (C&D) AQShda 2018 yilda 600 million tonnani tashkil etgan, shundan 145 million tonnasi chiqindixonaga tashlangan. Bu chiqindilar tabiiy resurslarni kamaytiradi, tuproq va suvni ifloslantiradi hamda issiqxona gazlarini chiqaradi.

Ekologik xususiyatlar deganda materiallarning atrof-muhitga ta’siri, shu jumladan resurs iste’moli, emissiyalar va chiqindilar tushuniladi. Qayta ishlash esa chiqindilarni yangi materiallarga aylantirish orqali bu ta’sirlarni kamaytiradi. Ushbu maqola qurilish materiallarining ekologik xususiyatlarini baholash va qayta ishlash usullarini taklif etishga qaratilgan. Tadqiqot maqsadi – barqaror qurilish amaliyotlarini rivojlantirish uchun ilmiy asos yaratish.

Qurilish materiallarining asosiy turlari: beton, yog‘och, metallar, g‘isht, shisha va plastmassa. Ularning ekologik ta’siri quyidagicha: beton ishlab chiqarishda CO_2 emissiyasi

yuqori, yog‘och esa o‘rmonlarni kamaytirishi mumkin. Qayta ishlash orqali, masalan, betonni agregat sifatida ishlatish mumkin.

Qurilish sohasi dunyo miqyosida tabiiy resurslardan eng ko‘p foydalanadigan va atrof-muhitga sezilarli ekologik yuklama beradigan tarmoqlardan biri hisoblanadi. Jahon statistikasiga ko‘ra, global energiya iste’molining qariyb 35–40 foizi va karbonat angidrid (CO_2) chiqindilarining 30 foizdan ortig‘i qurilish bilan bog‘liq jarayonlarga to‘g‘ri keladi. Shu sababli ekologik xavfsiz, qayta ishlanadigan va barqaror qurilish materiallarini joriy etish zamonaviy muhandislikning dolzarb vazifasiga aylangan.

Qurilish materiallarining ekologik xususiyatlari ularning xomashyosi, ishlab chiqarish texnologiyasi, xizmat muddati va utilizatsiya jarayonlari bilan chambarchas bog‘liq. Hayotiy sikl tahlili (Life Cycle Assessment – LCA) ushbu jarayonlarni kompleks baholash imkonini beradi. Ushbu maqolaning asosiy maqsadi qurilish materiallarining ekologik xususiyatlarini ilmiy asosda tahlil qilish va ularning qayta ishlanish imkoniyatlarini baholashdan iborat.



1-rasm. Qayta ishlangan qurilish materiallarining namunalari

Tadqiqot jarayonida tizimli va qiyosiy yondashuvlardan foydalanildi. Ilmiy-uslubiy asos sifatida xalqaro standartlar (ISO 14040, ISO 14044) hamda so‘nggi yillardagi ilmiy manbalar tahlil qilindi. Qurilish materiallarining ekologik ko‘rsatkichlarini aniqlashda hayotiy sikl tahlili metodi qo‘llanildi.

Metodologiya quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oldi: xomashyo qazib olish, material ishlab chiqarish, transport va montaj jarayonlari, foydalanish muddati hamda qayta ishlash yoki utilizatsiya qilish. Tadqiqot obyekti sifatida beton, metall (po‘lat va alyuminiy), yog‘och va polimer asosidagi qurilish materiallari tanlandi. Har bir material uchun energiya sarfi, atmosferaga chiqariladigan zararli gazlar va qayta ishlanish darajasi baholandi.

Ushbu tadqiqot qurilish materiallarining ekologik xususiyatlarini baholash va ularni qayta ishlash imkoniyatlarini aniqlash maqsadida aralash usullar (mixed methods) yondashuviga

asoslangan. Tadqiqot ikki asosiy bosqichda amalga oshirildi: (1) keng ko‘lamli adabiyotlar tahlili va mavjud ma’lumotlar bazalaridan ikkilamchi ma’lumotlar to‘plash; (2) hayot tsikli baholash (Life Cycle Assessment – LCA) metodologiyasidan foydalangan holda ekologik ta’sirlarni miqdoriy tahlil qilish.

O‘tkazilgan tahlillar natijasida qurilish materiallari ekologik samaradorligi bo‘yicha sezilarli farqlarga ega ekanligi aniqlandi. Metall materiallar, xususan po‘lat va alyuminiy, yuqori energiya sarfi talab etishiga qaramay, qayta ishlanish darajasi juda yuqori bo‘lib, bu ularning ekologik salbiy ta’sirini kamaytiradi. Yog‘och materiallar esa past uglerod izi va qayta tiklanuvchi xomashyo hisoblanishi bilan ajralib turadi.

Beton materiallari qurilishda eng keng qo‘llaniladigan material bo‘lishiga qaramay, sement ishlab chiqarish jarayoni katta miqdorda CO_2 chiqindilarini yuzaga keltiradi. Polimer materiallar o‘rtacha ekologik ko‘rsatkichlarga ega bo‘lib, ularning qayta ishlanish darajasi texnologik imkoniyatlarga bog‘liq ekanligi kuzatildi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, qurilish materiallarining ekologik ta’siri yuqori, ammo qayta ishlash orqali uni sezilarli darajada kamaytirish mumkin.

Jadval 1

Qurilish materiallarining asosiy ekologik xususiyatlari

Material	**Ekologik ta’sir (CO_2 emissiyasi, kg/m³)**	**Qayta ishlash imkoniyati**	**Foydalari**
Beton	120-400	Yuqori (agregat sifatida)	Chiqindilarni kamaytirish
Po‘lat	1500-2000	Yuqori (eritib qayta ishlatish)	Resurs tejamkorligi
Yog‘och	50-100	O‘rta (mulch yoki kompost)	Tabiiy resurs
Plastmassa	2000-3000	Yuqori (qayta eritish)	Ifloslanishni kamaytirish
G‘isht	200-500	O‘rta (maydalash)	Energiya tejamkorligi

Ushbu tadqiqotning natijalari qurilish materiallarining ekologik ta’sirini hayot tsikli baholash (LCA) metodologiyasi asosida tahlil qilish va qayta ishlangan materiallarni qo‘llash orqali bu ta’sirlarni kamaytirish imkoniyatlarini ko‘rsatadi. Global miqyosda qurilish sohasi energiya iste’molining 32% va CO_2 emissiyasining 34% ga mas’ul bo‘lib, asosan tsement, po‘lat va beton kabi materiallar sababli. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, qayta ishlangan materiallar (SCM – supplementary cementitious materials) va chiqindilarni qayta ishlatish orqali emissiyalarni 30-65% ga, energiya iste’molini esa 30-40% ga kamaytirish mumkin.

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, qurilish materiallarini tanlashda faqat mustahkamlik va iqtisodiy samaradorlik emas, balki ekologik omillar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Qayta ishlanadigan materiallardan foydalanish resurslarni tejash, chiqindilar hajmini kamaytirish va atrof-muhitga bo‘lgan salbiy ta’sirni pasaytirishga xizmat qiladi.

Beton ishlab chiqarishda sanoat chiqindilaridan (uchuvchi kul, metallurgiya shlaklari) qo‘shimcha sifatida foydalanish uglerod izini sezilarli darajada kamaytirishi mumkin.

Shuningdek, mahalliy xomashyodan foydalanish transport bilan bog‘liq emissiyalarni qisqartiradi. Tadqiqot natijalari barqaror qurilish konsepsiyasini amaliyotga joriy etish zarurligini tasdiqlaydi.

Qurilish materiallarining ekologik xususiyatlari va qayta ishlashi barqaror rivojlanish uchun muhim. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, qayta ishlash orqali emissiyalarni kamaytirish va resurslarni tejash mumkin. Amaliyotda bu usullarni qo‘llash uchun hukumat va kompaniyalar hamkorligi zarur. Kelajak tadqiqotlar real loyihalarga qaratilishi kerak.

ADABIYOTLAR

1. ISO 14040. Environmental management – Life Cycle Assessment – Principles and framework.
2. Ashby, M. (2013). Materials and the Environment. Elsevier.
3. Kibert, C. J. (2016). Sustainable Construction. Wiley.
4. European Commission. Sustainable Construction Materials Report.

UO‘T: 634.1:664

PILLANING SIFAT KO‘RSATKICHLARIGA PISHIB YETILGANLIK DARAJASINING TA’SIRI

Sulaymanov Sharifjon Abdumanobovich,
Andijon davlat texnika instituti instituti
Metrologiya va yengil sanoat kafedrasi t.f.f.d., dotsent
sulayman.72@mail.ru

Mo‘minov Omadjon Zuxriddin o‘gli,
Andijon davlat texnika instituti instituti
Metrologiya va yengil sanoat kafedrasi ass
Omadjon19910111@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada ho‘l pilla sifatiga ta’sir qiluvchi asosiy omillar eksperimental va laboratoriya tahlillar orqali mikroiqlim sharoitida biologik faol modda qo‘llangan holda pilla yetishtirish tajribalari olib borildi. Pilla namligi, qobiq pishganlik darajasi, zichlik, ipning uzluksiz chuvilish uzunligi va chuvilish koeffitsienti kabi parametrlar instrumental usullar bilan aniqlandi. BFM qo‘llanganda pillaning qobiq namligi nazorat guruhiga nisbatan 30 % gacha kamaygani, bu esa quritish vaqtini 55 daqiqadan 48 daqiqaga qisqartirgani aniqlandi. Pilla pishganlik darajasi chuvilish ko‘rsatkichlariga bevosita ta’sir qilishi, pishmagan pillalarda ip chiqimi pasayib, nuqsonli iplar ulushi ortishi isbotlandi. Quritishning optimal harorati 110–115°C bo‘lib, g‘umbakning to‘liq jonsizlantirilishini va yuqori sifatli xom ipak olishni ta’minladi. Natijada ho‘l pilla tayyorlash jarayoni uchun takomillashtirilgan texnologik model ishlab chiqildi. Ushbu yechim pilla sifatini barqarorlashtirish, tannarxni pasaytirish va eksport salohiyatini oshirishga xizmat qiladi hamda tarmoqning keyingi bosqichlarda rivojlanishi uchun ilmiy asos yaratadi.

Аннотация. В статье с использованием экспериментальных и лабораторных методов исследованы основные факторы, влияющие на качество влажного кокона. Эксперименты по выращиванию коконов проводились в микроклиматических условиях с применением биологически активного вещества. Такие параметры, как влажность кокона, степень зрелости оболочки, плотность, длина непрерывной размотки нити и коэффициент разматываемости, определялись инструментальными методами. Параметры процесса сушки, включая температуру, продолжительность и воздухообмен, были проанализированы с применением математико-статистических методов, на основе чего разработан оптимальный режим. Установлено, что при применении биологически активного вещества влажность оболочки кокона снижается до 30 % по сравнению с контрольной группой, что позволило сократить время сушки с 55 до 48 минут. Доказано, что степень зрелости кокона оказывает прямое влияние на показатели разматываемости: у незрелых коконов снижается выход нити и увеличивается доля дефектной пряжи. Оптимальная температура сушки составляет 110–115°C, что обеспечивает полную инактивацию куколки и получение высококачественного сырого шелка. В результате разработана усовершенствованная технологическая модель подготовки влажных коконов, направленная на стабилизацию качества, снижение себестоимости и повышение экспортного потенциала продукции.

Abstract. This article investigates the main factors affecting the quality of wet cocoons through experimental and laboratory analyses. Cocoon cultivation experiments were conducted under controlled microclimatic conditions with the application of a biologically active substance. Parameters such as cocoon moisture content, shell maturity degree, density, continuous reeling length, and reeling coefficient were determined using instrumental methods. The drying process

parameters, including temperature, duration, and air exchange, were analyzed using mathematical and statistical methods, resulting in the development of an optimal drying regime. The application of the biologically active substance reduced cocoon shell moisture by up to 30% compared to the control group, thereby decreasing drying time from 55 to 48 minutes. It was demonstrated that cocoon maturity has a direct effect on reeling performance, as immature cocoons exhibit reduced filament yield and an increased proportion of defective threads. The optimal drying temperature was found to be 110–115°C, ensuring complete pupae inactivation and high-quality raw silk production. As a result, an improved technological model for wet cocoon preparation was developed, contributing to quality stabilization, cost reduction, and enhancement of export potential, while providing a scientific basis for further industry development.

Kalit so‘zlar: ipak, jarayon, tannarx, pilla namligi, harorat, pishmagan, sifat, nuqsonli iplar, eksport, chuvilish uzunligi.

Ключевые слова: шелк, технологический процесс, себестоимость, влажность, температура, незрелый кокон, качество, дефектная нить, экспорт, длина размотки.

Keywords:silk, process, production cost, moisture content, temperature, immature cocoon, quality, defective threads, export, reeling length.

Respublikamiz pilla yetishtirish bo‘yicha jahonda yetakchi davlatlardan biri bo‘lishiga qaramay, yetishtirilayotgan pillaning sifat ko‘rsatkichlari ichki va tashqi bozor talablariga mos darajada ipakli mato va mahsulotlar ishlab chiqarish, uni valyuta manbaiga aylantirish imkoniyatlariga to‘liq javob bermaydi[1].

Buning asosiy sabablari quyidagilardan iborat: pilla yetishtirish texnologiyasining hanuz sanoatlashtirilmaganligi; tut bargining ozuqabobligiga e’tibor susayib ketganligi; ozuqaning to‘yinganlik darajasini oshirishda stimulyatorlardan samarali foydalanilmaganligi; pilla yetishtirish va ipak qurti boqish jarayonlarining talab darajasida takomillashtirilmaganligi; ipak qurti boqish jarayonida qulay mikroiqlim sharoitlari yaratilmaganligi; pilla o‘rash davrida qo‘llaniladigan dasta va so‘kchaklarning zamonaviy turlari ishlab chiqilmaganligi; yangi texnika va texnologiyalarni pillachilik tarmoqlariga o‘z vaqtida joriy qilinmaganligi[2]. Ushbu omillar ipak qurti rivojlanishiga, hosildorligiga va ipakni sintez qilish jarayonlariga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda[3].

Bundan tashqari, pillachilik tarmoqlarida PDIBda yarim asrdan buyon SK-150K va KSK-4,5 rusumli pilla quritish konveyerlari qo‘llanilib kelinmoqda. Bu konveyerlar jismonan va ma’naviy jihatdan eskirgan bo‘lib, ularni almashtirish uchun yetarli darajada ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmagan[4].

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, tadqiqot ishlarida mikroiqlim sharoitida BFM qo‘llab sun’iy dastalarda pilla yetishtirish jarayonlarining pillaning pishib yetilganlik darajasiga, ho‘l pilladan quruq pillaning chiqishiga, ho‘l va quruq pillaning sifat ko‘rsatkichlariga, shuningdek olinadigan xom ipakning xususiyatlari va tannarxiga ta’siri o‘rganildi[5].

Olimlar tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, pillaning pishganlik darajasi uning sifat ko‘rsatkichlariga bevosita ta’sir qiladi. Rakhimov va hamkasblari pishmagan pillalarda ipak chiqimi pasayishi, nuqsonli iplar ulushining ortishini ta’kidlaydilar. Alimova va Rakhimov biologik faol moddalar (BFM) qo‘llanilganda pillalar bir tekis va tez pishishini, hosil sifatining oshishini va tannarxning kamayishini aniqladilar. Bekkamov va boshq. esa yuqori sifatli pilla yetishtirish uchun mavsumiy mulberry maydonlari va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish zarurligini ta’kidlaydilar. Sulaymanov va Qobiljonova sifat menejment tizimi talablariga mos ravishda pilla pishganligini va namligini monitoring qilish asosiy omil ekanligini qayd etadilar. GOST 31256–2004 standartlari va Mardonov va boshqa tadqiqotlari esa g‘umbakni jonsizlantirish va quritish jarayonlarining optimal boshqarilishi pilla sifatini oshirishda muhim ekanini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, Rakhimov va Akhmedov to‘yintirilgan bug‘ yordamida dastlabki ishlov berish pillaning sifatini barqarorlashtirishini isbotladilar. Umuman olganda,

olimlar pishganlik, namlik va mikroiqilm sharoitida BFM qo‘llashni yuqori sifatli xom ipak olishning asosiy omillari deb baholaydilar.

Ushbu tadqiqotda pillaning pishganlik darajasi va ho‘l pillaning sifat ko‘rsatkichlariga ta’siri eksperimental va laborator sharoitda o‘rganildi. O‘zbekiston–5, O‘zbekiston–6 va Xitoy duragaylari mikroiqilm sharoitida, biologik faol moddalar (BFM) qo‘llanilgan sun’iy dastalarda yetishtirildi. Pillaning namligi, qobiq namligi, zichligi, ipning uzluksiz chuvilish uzunligi va chuvilish koeffitsienti standart laborator usullar bilan aniqlandi. Quritish jarayoni harorat, vaqt va havo almashinuvi parametrlariga ko‘ra tahlil qilinib, optimal rejim aniqlandi (harorat 110–115 °C, vaqt 48–55 daqiqa). Pishganlik darajasi va namlik har kuni monitoring qilinib, saqlash davomida og‘irlik yo‘qotilishi va ipakchanlik o‘zgarishi kuzatildi. Tadqiqot natijalari korelyatsion va matematik-statistik usullar yordamida tahlil qilindi. Ushbu metodika pilla yetishtirish jarayonida sifatni barqarorlashtirish, tannarxni kamaytirish va yuqori sifatli xom ipak olishga xizmat qiladi.

PDIB uchun optimal texnologik rejimni tanlashda pillaning dastlabki namligi, g‘umbakning rivojlanish darajasi va pishib yetilgan pillalar ulushini aniqlash muhim texnologik ahamiyatga ega. Ipak qurti V-yoshining 8–11 kunlari davomida bosqichma-bosqich pilla o‘rashga kirishadi: 8-kuni 30–35 %, 9-kuni 45–50 %, 10-kuni 10–15 %, 11-kuni esa 5–10 % qurti pilla o‘raydi. Bunda yoshlar bo‘yicha ozuqa bir xil taqsimlanmasligi, maydon yetishmasligi hamda mikroiqlimning barqaror emasligi sababli qurtilar pilla o‘rashni 2–6 kun farq bilan boshlaydi[6].

Davlat standarti bo‘yicha pilla o‘rash boshlangan kundan 9 kun o‘tgach pishganlik darajasi aniqlanib, shundan so‘ng terilishi lozim. Ammo ayrim pillakorlar pishmagan pillalarni muddatidan oldin terib olayotgani hosil sifatining keskin pasayishi, xom ipakning chuvilish xususiyatlari yomonlashuvi va tannarxning oshishiga olib kelmoqda. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, erta terilgan pishmagan pillalarda o‘rash jarayoni vaqtincha to‘xtab, PDIB bazalarida saqlash davomida qayta davom etadi, bu esa pilla ichida “bekik nuqson” hosil qilib, keyinchalik ip chuvilish sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi[7].

Jalaquduq va Buloqboshi tumanlarida o‘tkazilgan tadqiqotlarda O‘zbekiston–6 va O‘zbekiston–5 duragaylari bo‘yicha 10 ta turli pishmaganlik darajalariga ega pilla partiyalari tahlil qilindi. Saqlash jarayonida pishmagan pillalar me’yoriy 1,25 % o‘rniga bir necha baravar ko‘p vazn yo‘qotgani aniqlandi (1-kuni 5,1–7,8 %, 2-kuni 3,2–6,0 %, 3-kuni 3,3–4,9 %). Bu holat pilla rejasi sun’iy ravishda oshirilishiga va tannarxning keskin ko‘tarilishiga sabab bo‘lmoqda[8].

Pishmagan pillalarda DIB jarayonida g‘umbak yuqori haroratga chiday olmaganligi uchun yorilish holatlari ko‘payadi, bu esa pilla qabig‘ida ichki va tashqi dog‘lar paydo bo‘lishiga hamda qo‘shni pillalarning ham nuqsonlanishiga olib keladi. Saqlash davomida pishmagan pillalar bosqichma-bosqich pishib boradi, namligi kamayadi va ipakchanligi ortadi. Masalan, Jalaquduqda 54,8 % pishmagan pilla 4 kunda 52,22 % gacha pishgan, namlik 175,6 % dan 140,5 % ga tushgan, ipakchanlik esa 19,7 % dan 22,0 % gacha oshgan. Buloqboshida bu ko‘rsatkichlar mos ravishda 61,3 % dan 51,97 % ga, 184,8 % dan 144,3 % ga va 17,9 % dan 24,0 % gacha o‘zgargan[9]. Natijalar pilla pishganligi, namligi va ipakchanligi o‘rtasida chiziqli bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatdi; o‘rtacha hisobda pishmagan pillalar ulushi har kuni 13 % ga kamayadi(1.1 – 1.2 jadvallarda keltirilgan)[10].

1.1 - jadval

Pillaning pishganlik darajasi, namligi va ipakchanligi o‘zgarishi hamda ularning o‘zaro bog‘liqligi

№	Ko‘rsatkichlar	Belgi	O‘lchov birligi	Saqlashdan oldin	4 kun Saqlangandan keyin

Jalaquduq tumani (O‘zbekiston–6					
1	Yetilmagan pillalar miqdori	X	%	54,8 ± 8,7	2,58 ± 0,45
		Σ	%	23,4 ± 6,0	1,22 ± 0,31
		C	%	42,7 ± 10,6	47,0 ± 5,4
2	Pillaning namligi	W	%	175,6 ±3,52	140,5±8,15
		Σ	%	7,88±2,33	17,76±5,36
		C	%	4,49±1,33	12,66±3,82
3	Pilla qobig’ining namligi	W_o	%	16,15± 2,2	9,52 ± 1,46
		Σ	%	5,63±1,54	3,92 ± 1,01
		C	%	38,4±9,54	41,17±10,5
4	Ipakchilik	III	%	19,7± 0,53	22,0 ± 0,83
		Σ	%	1,44±0,37	1,44 ± 0,37
		C	%	7,30 ± 1,9	8,00 ± 2,05
Buloqboshi tumani (O‘zbekiston–5, nazorat va tajriba)					
5	Yetilmagan pillalar miqdori	X	%	61,3±0,45	9,33 ± 2,5
		Σ	%	13,31±3,5	6,75±1,73
		C	%	21,7±5,7	72,3±18,5
6	Pillaning namligi	W	%	184,8±8,8	144,3 ± 6,3
		Σ	%	7,65±5,40	5,46 ± 3,86
		C	%	4,14±2,9	3,77 ± 2,66
7	Pilla qobig’ining namligi	W_o	%	11,96±1,1	10,3 ±1,76
		Σ	%	2,96±0,78	4,9±1,20
		C	%	24,95±0,65	30,0±8,0
8	Ipakchilik	III	%	17,9± 0,53	24,0 ± 1,27
		Σ	%	1,44±0,37	3,44±0,86
		C	%	8,00 ± 2,05	13,78 ± 3,50

1.2 - jadval


Pilla pishganlik darajasi va sifat ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi boshlang‘ich bog‘liqlik

Ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi bog‘liqlik	**Korelyatsiya koeffitsienti**	**Izoh**
4 kun saqlash natijasida pillaning og‘irlik yo‘qotishi	**+0,355**	Pilla pishmagan bo‘lsa, og‘irlik yo‘qotish ko‘p bo‘ladi.
Pillaning namligi	**+0,430**	Yuqori namlik — pishmagan pillalar belgisi.
Pillaning ipakchanligi	**–0,470**	Pishmagan pillalarda ipak chiqimi past bo‘ladi.

Pilla yetishtirish jarayonida pishib yetilmagan pillalarning partiya ichida ma’lum miqdorda uchrashi umumiy hosil sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Bunday pillalar sonining ortishi pilla va qobiqlar namligining ko‘payishiga, saqlash jarayonida og‘irlikning me’yordan tashqari kamayishiga, ipakchanlikning pasayishiga hamda tayyor mahsulot tannarxining keskin oshishiga olib keladi. Pishmagan pillalarni muddatidan oldin yig‘ib olish nafaqat pillachilik xo‘jaliklarida, balki pillakashlik korxonalarida ham iqtisodiy zararlarni kuchaytiradi va tolali chiqindilar ulushining ortishiga sabab bo‘ladi[11].

Pillalarning pishganlik darajasi tajribaviy usulda aniqlanadi. Bunda so‘kcharning turli nuqtalaridan olingan namunalar kesib ko‘riladi va g‘umbakning shakllanish holatiga qarab pilla pishgan yoki pishmagan deb baholanadi[12]. Mikroiqilm sharoitida BFM qo‘llab sun’iy dastalarda yetishtirilgan pillalar bo‘yicha o‘tkazilgan tajribalar bahorgi mavsumda quyidagi natijalarni ko‘rsatdi: 4-kunda pillalarning 15,9–19,9 foizi (nazoratda 12,6%), 5-kunda 72,1–73,7 foizi (nazoratda 63,6%), 6-kunda 93,9–94,3 foizi (nazoratda 82,2%) pishganligi aniqlangan. 7-kun yakunida esa tajriba variantlarida pillalarning barchasi — 100 foizi pishgan bo‘lib, nazorat variantida bu ko‘rsatkich 93,6 foizni tashkil etdi[13].

Ushbu natijalar shuni ko‘rsatadiki, mikroiqilm sharoitida BFM qo‘llash[14] pillalarning bir tekisda va to‘liq pishishini tezlashtiradi, bu esa hosil sifatini oshirish, tannarxni kamaytirish va saqlash jarayonlari davomida yo‘qotishlarni minimallashtirishda muhim ahamiyatga ega.



1.1 – rasm. O‘zbekiston – 5 ipak qurti duragayini g‘umbakka aylanish muddati

Kuzgi mavsumda mikroiqlim sharoitida BFM qo‘llab sun’iy va tabiiy dastalarda yetishtirilayotgan pillalarning 18,1÷15,3 %, nazorat variantda 13,1 %, 4 kuni; 73,7÷72,5 %, nazorat variantida 64,8 %, 5 kuni; 93,1÷92,8 %, nazorat variantida 81,7 %, 6 kuni; 95,7÷95,3 %, nazorat variantda 92,3 %, 7 kuni; 100÷100 %, nazorat variantida 97,7 % 8 kuni, 98,8 % 9 kuni va 10 kuni 100 % ipak qurti to‘la g‘umbakka aylangan.

1.1 - rasmda ko‘rinib turganidek, bahorgi mavsumda mikroiqlim sharoitida BFM qo‘llab sun’iy va tabiiy dastalarda yetishtirilayotgan Xitoy duragayi pillalarining 14,4÷10,3 %, nazorat variantda 4,2 %, 4 kuni; 69,6÷66,1 %, nazorat variantida 37,9 %, 5 kuni; 92,5÷91,9 %, nazorat variantida 60,5 %, 6 kuni; 100÷100 %, nazorat variantda 81,3 %, 7 kuni; 90,1 % 8 kuni; 96,9 % 9-chi kuni va 10 kuni 100 % ipak qurti to‘la g‘umbakka aylangan.

Kuzgi mavsumda mikroiqlim sharoitida BFM qo‘llab sun’iy va tabiiy dastalarda yetishtirilayotgan pillalarning 16,7÷10,1 %, nazorat variantda 3,3 %, 4 kuni; 65,2÷58,8 %, nazorat variantida 28,9 %, 5 kuni; 92,2÷91,7 %.

Mikroiqlim sharoitida V-yoshida 5,0 % li konsentratsiyadagi BFM ni qo‘llab sun’iy dastalarda yetishtirilgan O‘zbekiston 5, O‘zbekiston 6 va Xitoy duragaylari pillalarining namligini tahlil qilish uchun ipak qurtlari pilla o‘rashni boshlaganidan keyingi 9 kuni dastalardan 2 kg dan qilib yirik namuna olindi.

Namunani pilla losdan va har xil chiqindilardan tozalandi. 400 g dan 3 ta namunachaga taqsimlanib, har bir namunadagi pillaning namligi 0,1 % aniqlikkacha standart uslubiyat asosida konditsiyalash yo‘li bilan o‘lchandi (1.3-jadval). [15].

1.3– jadval

Pilla tarkibidagi namlik miqdori o‘zgarishining statistik tavsiyalari

Variantlar	**Ho‘l pilla tarkibidagi namlik, %**			
	Mavsum	$X \pm m_x$	$G \pm mG$	$C \pm mC$
V yosh, 5,0 ml/l				
O‘zbekiston 5	Bahorgi	151,35 ± 2,16	1,61 ± 1,27	1,091 ± 0,81
O‘zbekiston 6	Bahorgi	149,0 ± 1,83	1,44 ± 1,15	0,91 ± 0,71
Xitoy duragay	Bahorgi	150,74 ± 1,96	1,54 ± 1,23	0,96 ± 0,75
Nazorat				
O‘zbekiston 5	Bahorgi	180,66 ± 3,19	2,28 ± 1,84	1,26 ± 1,02
O‘zbekiston 6	Bahorgi	178,61 ± 3,01	2,21 ± 1,79	1,19 ± 0,89
Xitoy duragay	Bahorgi	179,89 ± 3,15	2,26 ± 1,81	1,23 ± 0,97

1.3-jadvaldan ma’lum bo‘lishicha, an’anaviy usulda yetishtirilgan pillaning namligi o‘rtacha O‘zbekiston–5 duragayida 180,66 %, O‘zbekiston–6 duragayida 178,61 % va Xitoy ipak qurti duragayida 179,89 % ni tashkil qildi.

Mikroiqlim sharoitida V-yoshida 5,0 % li konsentratsiyadagi BFM qo‘llab sun’iy dastalarda yetishtirilgan O‘zbekiston–5 duragayida pillaning namligi 151,35 %, O‘zbekiston–6 duragayida 149,0 % va Xitoy duragayida 150,74 % ni tashkil qildi.

O‘tkazilgan tadqiqotlar pillaning pishganlik darajasi, namligi va g‘umbak rivojlanishi PDIB jarayonida optimal texnologik rejimni tanlashda asosiy omillar ekanini ko‘rsatdi. V-yoshda ipak qurti pilla o‘rashni notekis boshlashi sabab partiya bo‘yicha pishganlikda katta tafovutlar yuzaga keladi. Standart bo‘yicha pilla 9-kuni terilishi kerak bo‘lsa-da, amaliyotda ko‘plab xo‘jaliklarda pishmagan pillalar muddatidan oldin yig‘ib olinishi mahsulot sifatining pasayishi, chuvilishning yomonlashuvi va tannarxning oshishiga olib kelmoqda. Tadqiqot natijalari erta terilgan pillalarda g‘umbak rivojlanishi saqlash davomida davom etib, “bekik nuqson” yuzaga kelishini ko‘rsatdi.

Jalaquduq va Buloqboshi tumanlarida pishmagan pillalarda og‘irlik yo‘qotishi me’yoridan bir necha baravar yuqori bo‘lgani aniqlandi. Mikroiqlim sharoitida BFM qo‘llash esa pillalarning bir tekisda, to‘liq va tez pishishini ta’minlab, yo‘qotishlarni kamaytirdi hamda ipakchanlikni oshirdi.

O‘tkazilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, pishmagan pillalarning partiya ichida mavjudligi pilla yetishtirish jarayonida asosiy sifat va iqtisodiy ko‘rsatkichlarga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Pishmagan pillalarda g‘umbakning rivojlanishi sekinlashadi, saqlash davomida og‘irlik yo‘qotishi ortadi, ipakchilik past bo‘ladi va DIB jarayonida yorilish hamda dog‘lanish xavfi oshadi. Jalaquduq va Buloqboshi tumanlarida olib borilgan tadqiqotlar pishmagan pillalarning saqlash davomida me’yoriy darajadan bir necha baravar ko‘p og‘irlik yo‘qotishini tasdiqladi.

Mikroiqlim sharoitida 5,0 % li BFM qo‘llash esa pillalarning bir tekisda, tez va sifatli pishishini ta’minlab, saqlashdagi yo‘qotishlarni kamaytiradi, pishmagan pillalar ulushini sezilarli

darajada qisqartiradi va tannarxni kamaytiradi. Shu bilan birga, BFM yordamida pilla yetilish jarayoni barqarorlashadi va umumiy hosil sifati sezilarli darajada oshadi. Umuman olganda, mikroiqlim sharoitida BFM qo‘llash PDIB texnologik rejimlarining samaradorligini oshirish va yuqori sifatli, past tannarxli ipak ishlab chiqarishni ta’minlashda muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega ekanligi isbotlandi.

ADABIYOTLAR

1. Bekkamov Ch., Kasimova M., Nurutdinova M., Makhammad-Shukhrat. O‘zbekiston sharoitida yuqori sifatli pilka pilla yetishtirishni mavsumiy mulberry maydonlariga asoslangan usullar orqali tashkil etish. E3S Web of Conferences, Vol. 563, 2024. Maqola 03021.
2. Sulaymanov Sh.A., Qobiljonova S.E. Sifat menejment tizimi talablariga mos ravishda ipak qurti sanoatida mahsulot sifatini yaxshilash. American Journal of Technology Advancement, 2024.
3. Niyazaliyeva M.M., Mirzakhonov M. Turli mavsumlarda yetishtirilgan quruq pillalarni saqlash va qayta ishlash texnologik jarayonlarini takomillashtirish ahamiyati. International Engineering Journal for Research & Development, 2024.
4. Yuldasheva D., Mukhamadrasulov S., Dadajonov Sh. Chuva qilinadigan ipakni ishlash jarayonlarini takomillashtirish orqali mato sifatini oshirish. European Journal of Emerging Technology and Discoveries, O‘zbekiston, 2024.
5. Xitoy va O‘zbekiston mahalliy Bombyx mori (ipak qurti) genofond resurslarining genetik xilma-xilligi va farqlanishi. MDPI Insects,
6. 2024. Rakhimov A.Yu., Kodirov Z.A., Rakhimov A.A., Parpiev S.F. Influence of Maturity on the Quality Characteristics of Cocoons. International Journal of Advanced Research in Science, Engineering and Technology (IJARSET), India. Vol. 8, Issue 1, January 2021. P. 16500–16503. www.ijarset.com.
7. Rakhimov A.YU., Rakhimov A.A., Kodirov Z.A. Pillani pishib etilganlik darajasini sifat ko‘rsatkichlariga ta’siri. Journal of Academic Research in Educational Sciences, Vol. 2, Issue 11, 2021. P. 33–41. www.ares.uz.
8. Alimova Kh.A., Rakhimov A.Yu. “Plenka ostida biologik faol moddalar qo‘llab etishtirilgan sun’iy dastalarda o‘ralgan pillalarga dastlabki ishlov berish”. To‘qimachilik tolalarini chuqur qayta ishlashning muammo-lari va yechimlari, Respublika miqyosidagi ilmiy-texnik anjuman. O‘zbekiston tabiiy tolalar ilmiy tadqiqot instituti. Marg‘ilon, 2020. P. 9–12.
9. Межгосударственый стандарт ГОСТ 31256–2004 Коконй тутового шелкопряда. Воздушно-суҳие технические условия. Минск.
10. Mardonov B.M., G‘ulomov A.E., Avazov K.R. Tirik pilla g‘umbagini jonsizlantirish jarayonlarining nazariy tadqiqoti. Jurnal To‘qimachilik muammolari, 2013, №1. P. 70–74.
11. Alimova Kh.A., Avazov K.R., G‘ulomov A.E., Azamatov U.N., Bastamqulova Kh.D. Tirik pilla g‘umbagini jonsizlantirish qurmasi, №FAR 2015 0008.
12. Alimova Kh.A., Avazov K.R., G‘ulomov A.E., Yusuphodzhaeva G.A., Rakhmanberdiev M.R. Pilla g‘umbagini jonsizlantirish va quritish usuli, №IAP 2015 0054.
13. Абдуллаев Б.А., Карабелников А.В. Способ замаривания коконов в поле сверховсокой частотой. Журнал Тўқимачилик муаммолари, 2005, №4. П. 38–41.
14. Rakhimov A.YU., Rakhimov A.A., Akhmedov N. “To‘yintirilgan bug‘ yordamida pillaga dastlabki ishlov berish”. Mashinasozlikda zamonaviy materiallar, uskunalar va texnologiyalar, 19–20 aprelya, Andijon, AndMI, 2014. (I-qism). P. 216–219.

UO‘T:622.276:62-053:65.012

ТРАНСПОРТА ПРИ УПРАВЛЕНИИ ГРУЗОПОТОКАМИ НА ГЛУБОКИХ КАРЬЕРОВ

Наимова Рано Шукуровна
DSc, профессор кафедры «Горное дело», Ташкентский государственный технический университет, Ташкент, Узбекистан

Аннотация. Повышение эффективности и безопасности горного производства в целом зависит от своевремнной организации и планирования процессов горных работ. Управление грузопотоками является одним из основных технологических процессов при добыче полезных ископаемых открытым способом. В условиях разработки глубоких горизонтов карьера при увеличении объемов руды и вскрышных пород выполнены исследования взаимосвязи технологических параметров горных работ, результаты которых могут послужить основой при управлении грузопотоками на глубоких карьерах. Одним из таких технологических параметров является высота уступа, параметры карьерных дорог. Комбинируя заданными параметрами, удается выбрать оптимальную высоту уступа в реальных технико-экономических условиях, и по результатам исследований она принята 15 м.

Методами математического моделирования необходимого для управления грузопотоками по результатам и факторными признаками определены критерии оптимизации добычных и вскрышных работ. С использованием корреляционных моделей при управлении технологическими процессами открытых горных работ подтверждена достоверность результатов расчётов и параметров рассматриваемых уравниваний связи.

Ключевые слова: глубокий карьер, грузопоток, высота уступа, добычные работы, вскрышные работы, математическое моделирование, полезное ископаемое, руда, вскрышная порода, технологический процесс.

Введение. Повышение эффективности и безопасности горного производства в целом зависит от своевременной организации и планирования процессов открытых горных работ. При этом управление грузопотоками на глубоких карьерах является одним из основных процессов при добыче полезных ископаемых. Грузопотоки технологически увязывает комплекс транспортных машин от забоя до поверхности карьера.

Использование традиционных форм организации грузопотоков, содержащих сложные по своему составу, неоднородные по качеству полезные ископаемые, приводит к значительным потерям полезного ископаемого и нерациональному их использованию.

В настоящее время существующая система организации грузопотоков на горнодобывающих предприятиях различных отраслей сложилась на основе проектных решений при их создании и на основе действующих технологических связей между поставщиками и потребителями без учета комплексного подхода в использовании природных ресурсов. Имеющийся опыт работы глубоких карьеров показывает, что управление грузопотоками возможно лишь при исследованиях закономерностей технологических параметров глубокого карьера и методами математического моделирования.

Материал и методы. В условиях глубоких карьеров рациональность технологии горного производства возможно при условии функционирования отдельных технологических процессов с оптимальными параметрами [1-9]. Наиболее экономичные грузопотоки карьера определяются по минимуму затрат на перевозку добываемых полезных ископаемых и всего объема вынутых вскрышных пород за отработанный период. При этом задача выбора карьерного оборудования и схем технологии горного производства обеспечит в конкретных условиях достижения наилучших результативных показателей [10-12]. Поэтому исследование взаимосвязи технологических процессов при

управлении грузопотоками на глубоких карьерах возможно при решении задач технологических процессов, где наиболее рациональным является исследованиями технологических параметров рабочей зоны глубоких карьеров. Рабочая зона карьера — это зона, в которой осуществляются вскрышные и добычные работы, характеризующаяся совокупностью вскрышных и добычных уступов, одновременно находящихся в работе. Положение рабочей зоны определяется высотными отметками рабочих уступов и длиной их фронта работ.

Исследования технологических параметров рабочей зоны на нижних горизонтах разрабатываемого глубокого карьера, включает в себя:

- описание математического моделирования взаимосвязи добычных и вскрышных работ влияющих на грузопотоки в глубоких карьерах;
- исследование с целью обеспечения нормативного запаса руды и ее влияния на производительность по руде.

При решении задач комплексного управления технологическими процессами в стесненных условиях глубоких карьеров влияющих на грузопотоки карьеров, является определение оптимальных параметров оборудования и технологии горного производства. В связи с этим при решении данной задачи наиболее рациональным представляется применение математического моделирования взаимосвязи добычных и вскрышных работ, как наиболее выгодное формирование грузопотоков.

Наиболее экономичные и рациональные грузопотоки глубокого карьера определяется по минимуму затрат на перевозку добываемых полезных ископаемых и всего объема вынутых вскрываемых пород за расчётный период.

По мнению авторов [13-15] в решении задачи математическими методами основных технологических процессов по оптимизации распределения карьерного транспорта по пунктам погрузки на основе многокритериального имитационного моделирования влияет на производительность экскаваторно-автомобильного комплекса [34], а исследования способов повышения эффективности карьерного транспорта автором составлены однофакторные и двухфакторные аналитические модели, влияющих на грузопоток.

Автором в работе [15] обоснована интегральная оценка влияния эксплуатационных технических характеристик карьерных автосамосвалов, с применением уравнения Лагранжа влияющих на параметры системы разработки и соответственно на грузопоток карьера.

. В работе [16] оценено влияние горнотехнических факторов на эксплуатационные параметры карьерных автосамосвалов и аналитически разработаны регрессионные модели зависимости производительности от уклона трассы, времени передвижения скорости и других показателей.

Технико-экономические показатели и количественная взаимосвязь процессов бурения, взрывания, выемка и перемещение горной массы определяется совокупностью природных условий эксплуатируемых месторождений, а также используемые схемами, механизацией и организацией горных работ на глубоких горизонтах. Необходимая для управления грузопотоками зависимости между полученными результатами и факторными признаками могут быть установлены методами математической статистики. По полученным данным можно определить для определенных горных участков ожидаемую производительность имеющихся выемочно-погрузочного и транспортного оборудования, необходимую величину фронта работ для применяемых экскаваторов, высоты уступа, ширину рабочей площадки и других элементов работ.

Одним из преимуществ использования корреляционных моделей при управлении технологическими процессами открытых горных работ является высокая достоверность

результатов расчётов и параметров рассматриваемых уравниваний связи, которая выполнялась с использованием метода К.Е. Винницкого [13].

Параметры уравнений связи устанавливаются путем решения систем нормальных уравнений.

Уравнения связи между исследуемыми и факторными признаками находилось способом наименьших квадратов, обеспечивающим получение минимальной суммы квадратов отклонения эмпирических значений факторного признака от значений полученных по уравнениям связи, которые установлены путем решения систем нормальных уравнений. При одном факторном признаке *x* они имеют вид:

для прямой $\bar{y}_x = a_0 + a_1 x$

$$\left.\begin{aligned} na_0 + a_1 \sum x &= zy \\ a_0 \sum x + a_1 \sum x^2 &= \sum xy \end{aligned}\right\}$$

для параболы $\bar{y}_x = a_0 + a_1 x + a_2 x^2$

$$\left.\begin{aligned} na_0 + a_1 \sum x + a_1 \sum x^2 &= \sum y \\ a_0 \sum x + a_1 \sum x^2 + a_2 \sum x^2 &= \sum xy \\ a_0 \sum x^2 + a_1 \sum x^3 + a_2 \sum x^4 &= \sum x^2 y \end{aligned}\right\}$$

для гиперболы $\bar{y}_x = a_0 + \frac{a_1}{x}$

$$\left.\begin{aligned} na_0 + a_1 \sum \frac{1}{x} &= \sum y \\ a_0 \sum \frac{1}{x} + a_1 \sum \frac{1}{x^2} &= \sum \frac{x}{y} \end{aligned}\right\}$$

где n – число парных табличных зависимостей признаков x и y, $\sum x$, $\sum y$, $\sum x^2$, $\sum x^3$, $\sum x^4$, $\sum xy$, $\sum x^2 y$, $\sum \frac{1}{x}$, $\sum \frac{1}{x^2}$, $\sum \frac{x}{y}$ – сумма по столбцу соответствующих значений признаков.

При двух факторных признаках x, z для линейной зависимости $\bar{y}_{x,z} = a_0 + a_1 x + a_2 z$ системы нормальных уравнений имеют вид:

$$\begin{aligned} na_0 + a_1 \sum x + a_2 \sum z &= \sum y \\ a_0 \sum x + a_1 \sum x^2 + a_2 \sum xz &= \sum xy \\ a_0 \sum z + a_1 \sum xz + a_2 \sum z^2 &= \sum zy \end{aligned}$$

где $\sum z$, $\sum xz$, $\sum z^2$, $\sum zy$ – сумма по столбцу соответствующих значений признаков.

Теснота линейной связи при одном факторном признаке определяется по линейному коэффициенту корреляции

$$r = \frac{\bar{x}\bar{y} - \bar{x}\bar{y}}{\sigma x \sigma y}$$

где $\bar{x}\bar{y} = \frac{zyx}{n}$ среднее произведение соответствующих признаков; $\bar{x}$ и $\bar{y}$ -среднее значение соответствующих признаков ($\bar{x} = \frac{zx}{n}$; $\bar{y} = \frac{\sum y}{n}$); $\sigma x, \sigma y$ среднеквадратичные отклонения признаков x и y. Величины σx и σy можно рассчитать по формулам:

$$\sigma x = \sqrt{\frac{\sum(x-\bar{x})^2}{n}}$$

$$\sigma y = \sqrt{\frac{\sum(y-\bar{y})^2}{n}}$$

где $\sum(x-\bar{x})^2$, $\sum(y-\bar{y})^2$ – соответственно сумма квадратов отклонения значения x от среднего $\bar{x}$ и у от $\bar{y}$.

Для криволинейной связи $\bar{y} = f(x)$ мерой тесноты связи является корреляционное отношение

$$\eta = \sqrt{1 - \frac{\frac{\sum(y-\bar{y})^2}{n}}{\frac{\sum(\bar{y})^2}{n} - \bar{y}_x^2}},$$

где $\sum(y-\bar{y})^2$ – сумма квадратов отклонений значений у от значения $\bar{y}_x$, рассчитанного по уравнению связи.

Теснота множественной линейной связи при двух факториальных признаках измеряется совокупным коэффициентом корреляции

$$R = \sqrt{\frac{r_{xz}^2 + r_{yz}^2 - 2_r\, xy^r\, xz^r yz}{1 - r_{xy}^2}},$$

где r_{xz}, r_{yz}, r_{xy} - линейные коэффициенты корреляции соответственно между признаками x и z, y и z, x и y.

Помимо выше приведенных целевых функций в математическую модель рассматриваемого варианта для добычных и вскрышных работ критериями оптимизации являются:

для добычных работ

$$\sum_{i=1}^{n} \sum_{z=1}^{n} xiz = max;$$

для вскрышных работ

$$\sum_{i=1}^{m} yi = max$$

Высота уступа является одним из основных параметров, при этом установлено, что с увеличением высоты уступа себестоимость 1м^3 взорванной горной массы уменьшается, себестоимость экскавации сначала снижается, а начиная с 20-ти метров повышается. От высоты уступа также зависит текущий коэффициент вскрыши, длина фронта работ экскаваторный блок, а также производительности горнотранспортного оборудования.

Исследование влияния высоты отрабатываемого уступа выполнены на примере глубокого карьера Мурунтау [14-16]. Выбор высоты эксплуатационного уступа определялся специальными расчетами, первоначальным условием которых было применение наиболее высокопроизводительной горной техники при сохранении в добыче максимального количества руды и металла. Если в переработку начинают вовлекаться забалансовые запасы руды, то как правило, запасы растут с увеличением высоты уступа и падают с увеличением бортового содержания [17-20]. Среднее содержание в руде постепенно падает с увеличением высоты уступа и растет с увеличением бортового содержания

Комбинируя эти параметры, удается выбрать оптимальную высоту уступа в реальных технико-экономических условиях. В настоящее время она принята в 15 м. При этом потери и разубоживание не превышают 5,0 и 12,0 %, соответственно.

Безопасность работы оборудования на отвале обеспечивается при сохранении устойчивости системы "машина-отвал". Это требование выполнимо в том случае, если взаимодействующее с телом формируемого отвала горно-транспортное оборудование находится за пределами возможной призмы обрушения отсыпаемых пород, что регламентируется действующими правилами безопасности [21].

Ими же при использовании автотранспорта предусматривается и отвалообразование бульдозером, что означает разгрузку породы на рабочую площадку отвала с последующим ее перемещением бульдозером на откос [9,10,14]. Такой способ отвалообразования весьма трудоемок, поэтому был разработан способ разгрузки автосамосвалов непосредственно на откос отвала через породный предохранительный вал, а в правила безопасности Саноатгеоконтехназорат Узбекистана были внесены соответствующие изменения [21].

На карьере Кальмакир с глубиной работ трасса автомобильных дорог имеет очень сложную конструкцию, состоящий серпантинов, разворотных площадок принадлежащая для разворота автосамосвалов. В свою очередь петлевые съезды, часто встречающиеся особенно на нижних горизонтах глубокого карьера включающих в себя разворотные площадки параметры, которых напрямую зависят от применяемого технологического транспорта (рис1.).




Рис. 1. Схема и изображение внутрикарьерной разворотной площадки.

Выполненные исследования влияния ширины проезжей части автомобильной дороги на безопасность движения показали, что общая протяженность составляет 13,5 км. В свою очередь, ширина обочин при двухполосной проезжей части, а также при однополосной проезжей части с односторонним движением в постоянных дорогах в карьерах, на временных дорогах-съездах в карьерах и на служебных дорогах на поверхности для движения порожних самосвалов должна быть не менее 1,5 м, на прочих постоянных дорогах – не менее 2,5 м. Минимальная ширина обочин на однополосных дорогах с двухсторонним движением должна приниматься равной половине ширины проезжей части. Установлено что для автосамосвалов БелАЗ-75131 грузоподъемностью 130т и БелАЗ-75306 грузоподъёмностью 220т ширина по зеркалам 7000 мм, по кузову 6400 мм. Конструктивные элементы и безопасные параметры при транспортировании большегрузными автосамосвалами приведены на рис. 2.



Рис. 2. Конструкция элементов и параметров безопасности при транспортировке горной массы

Результаты. Таким образом, используя математический метод моделирования для транспортной задачи можно определить оптимальный план перевозки. Полученные расчётные значения позволяют оптимизировать добычные и вскрышные работы, а критерием оптимизации грузопотоков картера может быть минимум затрат на транспортирование всего объёма горной массы, вынимаемой за расчетный период, или минимум суммарного пробега транспортных средств

Исследование влияния высоты отрабатываемого уступа на эффективность использования запасов показывает, что запасы руды растут с увеличением высоты уступа и падают с увеличением бортового содержания. Установлены оптимальные высоты уступов: при открытой разработке глубокого карьера Мурунтау в карьере – 15 м, при отработке складов – 10 м с учетом величины потерь и разубоживания не выше 5,0 и 12,0%, соответственно. Обоснованы безопасные параметры конструктивных элементов и параметров большегрузных карьерных автосамосвалов при транспортировании горной массы с глубоких карьеров. При этом, учет формирующегося под действием объемных сил и внешних нагрузок напряженно-деформированного состояния откоса и объемного фактора позволяет с достаточной достоверностью рассчитывать коэффициент устойчивости и определять безопасные параметры разгрузочной площадки для автосамосвалов грузоподъемностью свыше 130 тонн.

Заключение. Исследовано влияние высоты отрабатываемого уступа на эффективность использования запасов. Выявлено, что запасы руды растут с увеличением высоты уступа и падают с увеличением бортового содержания. Среднее содержание в руде постепенно падает с увеличением высоты уступа и растет с увеличением бортового содержания. Безопасность работы отвального оборудования обеспечивается сохранением устойчивости системы «машина-отвал». Однако, при автомобильном транспорте подходы к этому различны. В первом случае машина должна находиться за пределами возможной призмы обрушения, а во втором – за пределами зоны усадочных деформаций, которые могут привести к не допустимому перекосу оборудования.

ЛИТЕРАТУРЫ

1. Brawner C.O. Recent lessons that have been learned in open–pit mine stability // Mining Engineering. – Vol. 38. – №8. –1986.

2. Bye A.R., Jenny C.A., Bell F.G. Slope optimization and review of the geotechnical conditions at Sandsloot open pit. – Proceedings of Ninth International Congress on Rock;

Mechanics, Vol. 2, theme 1: Applied rock mechanics – Safety and control of the environment. – Rotterdam, 1999.

3. Slope Stability in Surface Mining – Littleton, Colorado, USA. Publ. by SME. – 2001.
4. Анистратов Ю.И. Исследование технологических грузопотоков на карьерах со скальными породами: Автореф. … докт. техн. наук. – М., 1970. – 42 с.
5. Анистратов Ю.И. Технологические процессы открытых горных работ. – М.: Недра, 1955. – 351 с.
6. Арсентьев А.И. Определение производительности и границ карьеров. – М.: Недра, 1970. –319 с.
7. Кучерский Н.И., Лукьянов А.Н., Мальгин О.Н. и др. Совершенствование процессов открытой разработки сложноструктурных месторождений эндогенного происхождения. Ташкент, Фан, 1998. С. 259.
8. Мазуркевич А.П., Шеметов П.А. Управление качеством рудного потока на глубоких карьерах // Докл. на межд. научн.-практ. конференции «Инновация–2000». – Бухара, 2000.
9. Снитка Н.П. Управление качеством рудопотока при открытой разработке месторождений с условными границами рудных тел // Горный журнал. –№8, 2008. – С. 40-43.
10. Наимова Р.Ш., Норова Х.Ю. Cargo management in the development of deep open pits with complex mining and geological conditions./ A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal India June -2020.
11. С.В. Корнилков. Управление рабочей зоной действующих и проектируемых карьеров. Автореф. Дисс д.т.н. Екатеринбург 1997 35с.
12. Корнилков С.В. Управление рабочей зоной глубоких карьеров // Известия Уральской государственной горно-геологической академии. – Екатеринбург: УГГГА, 1998. – Выпуск 7. – С.54-66.
13. Виницкий К.Е. Управление параметрами технологических процессов на открытых разработках. – М.: Недра, 1984. –220с.
14. Мальгин О.Н., Лашко В.Т., Шеметов П.А. и др. Совершенствование циклично-поточной технологии горных работ в глубоких карьерах. Ташкент. «Фан» АН РУз, 2002. С.1-144
15. Арсентьев А.И. Обоснование методов формирования рабочей зоной карьера управлением шириной рабочих площадок при проектировании открытой разработки крутопадающих рудных месторождений. Автореф. К.т.н.. – Санкт-Петербург. 2020. 20 с.
16. Рыжков С.К. Развитие горных работ в карьерном пространстве / Ленинградский горный ин-т. – Л., 1991.
17. Снитка Н.П. Расширение области применения циклично-поточной технологии добычи и отгрузки в переработку руды при разработке месторождения Мурунтау. Сб. науч. ст. межд. науч.-практ. конф. «Инновация–2010». – Ташкент, 2008. – С. 169-171.
18. Справочник. Открытые горные работы / Трубецкой К.Н., Потапов М.Г., Винницкий К.Е. и др. – М.: Горное бюро, 1994. – 590 с.
19. Шеметов П.А. Повышение эффективности управления грузопотоками при открытой разработке сложноструктурных месторождений // Развитие и эффективность автомобильно–дорожного комплекса в Центрально–азиатском регионе: Докл. на Межд. научн.–техн. конф. – Ташкент, 2000.
20. Луценко С.А. и др. Методика определения объемов вскрышных работ обеспечивающих в карьере нормальные условия для добычи полезного ископаемого. // Горный вестник., Выпуск 107, 2020, – С.22-26.

Ilmiy jurnalida maqolalarni chop etish uchun rasmiylashtirishga qo‘yiladigan talablar:

1. Namangan davlat texnika universitetining “Qurilish va ta’lim ilmiy jurnali” («Научный журнал Строительство и образование», «Scientific journal Construction and education») da respublikamizning oliy ta’lim va ilmiy tadqiqot institutlari, ilmiy ishlab chiqarish markazlari va xorijda bajarilgan ilmiy ahamiyatga molik ilmiy tadqiqot ishlarining natijalari nashr etiladi. Ilmiy jurnal bir yilda olti martagacha chop etilib, unda quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha maqolalar e’lon qilinadi:

- *Qurilish;*
- *Arxitektura va shaharsozlik;*
- *Pedagogika va ta’lim muammolari;*
- *Muhandislik va sanoat chizmacxiligi;*
- *Qisqa xabarlar.*

2. Tahririyatga taqdim etilayotgan maqola qo‘lyozmasi bo‘yicha muallif faoliyat olib borayotgan muassasa rahbariyati tomonidan imzolangan yo‘llanma xati, maqolani chop etish mumkinligi haqidagi ekspert xulosasi va maqola mualliflarining tarkibida fan doktori bo‘lmagan taqdirda tegishli fan yo‘nalishi bo‘yicha fan doktorining rasmiy taqrizi bo‘lishi shart. Maqolalar o‘zbek, rus yoki ingliz tillarida taqdim etilishi mumkin. **Maqolaning nomi, qisqacha annotatsiyasi (8-10 qator) va kalit so‘zlar (10-15 ta) o‘zbek, rus va ingliz tillari**da beriladi.

3. Maqola matni “MS Word” dasturida “Times New Roman” shriftida 12 pt o‘lchamda, hajmi 1 intervalda 6-10 bet bo‘lishi kerak. Varoq o‘lchami 210x297 mm (A4-format), matn chegara o‘lchamlari yuqoridan va pastdan– 2,0 sm, chapdan – 3,0 sm, o‘ngdan – 1,5 sm bo‘lishi lozim.

4. Maqolani rasmiylashtirish qoidalari quyidagilardan iborat: Maqola boshining chap tomonida UO‘T (UO‘T), keyingi qatorda maqolaning nomi o‘zbek, rus va ingliz tillarida (bosh harflarda, o‘rtada, qalin yozuvda (jirniy)), undan keyingi qatorda mualliflar to‘g‘risidagi ma’lumotlar (familiyasi, ismi, otasining ismi, ish joyi, lavozimi, ilmiy darajasi va unvoni, elektron manzili hamda telefon raqamlari) o‘zbek, rus va ingliz tillarida kichik bosma harflarda yoziladi, qisqacha annotatsiyasi (8-10 qator) va kalit so‘zlar (10-15 ta) o‘zbek, rus va ingliz tillarida beriladi.

Maqolaning annotatsiyasi (abstract) ya’ni maqolaning qisqacha mazmunida maqsadi (objective), usullari (methods), natijalari (results) va xulosa (conclusion) qismlari qisqacha yoritilib o‘tilishi shart. Chunki maqola annotatsiyasini o‘qib chiqib, olim maqolani to‘liq o‘qishga qaror qilishi uchun maqolaning asosiy tushunchalarini yyetarlicha tushunishi kerak. Annotatsiyadan so‘ng mavzuga tegishli terminlar, kalit so‘zlar (keywords) ham keltirilishi kerak;

Maqolaning asosiy qismida Kirish (Introduction), usullari (methods), natijalar (results), muhokamalar (discussion), va xulosalar (conclusion) bo‘limlari aniq ma’lumotlar asosida yoritib berilishi kerak.

Bir qatordan so‘ng maqola matni yoziladi. Maqoladagi formulalar Word dagi Vstavkani ichida Obyekt bor shunga kirib Microsoft Equation 3.0 da yoziladi. Rasm (grafik, sxema va chizma)lar standart qoidalarga rioya qilingan holda 10x10 sm dan katta bo‘lmagan o‘lchamda tayyorlanishi, ularni soni 5 tagacha, qisqa xabarlarda esa 2 tagacha ruxsat etiladi. Nomlari esa rasmdan so‘ng qalin yozuvda o‘rtada yoziladi **(1-rasm. Nomi).**

Jadvallarning nomlari javalning yuqori qismida qalin yozuvda o‘rtada yoziladi (**1-jadval. Nomi).** Adabiyotlarga havolalar maqola ichida [1] ko‘rinishda bo‘lib, foydalanilgan adabiyotlar maqola oxirida havolalar ketma-ketligi tartibida beriladi. Adabiyotlar ro‘yxatida quyidagilar ko‘rsatiladi: jurnalda chop etilgan maqolalar va ma’ruza tezislari uchun - Mualliflarning familiyasi, ismi sharifi. Maqolaning nomi // Jurnalning nomi. – Nashr joyi va yili. – Soni yoki qismi. – Betlari. (1. Turayev N.S., Saidov R. Anor tuplarini yarim ochadigan mashinaning lemexlari va tuproq yo‘naltirgichlarining qamrash kengliklarini asoslash // Namangan davlat

texnika universiteti ilmiy-texnika jurnali. – Namangan, 2019. – №1. – B. 77-81.); monografiyalar uchun - Mualliflarning familiyasi, ismi sharifi. Nomi. – Nashriyot nomi, joyi va nashr yili. – Betlar soni. (1. Imomkulov Q.B., Turayev N.S. Anor tuplarini yarim ochadigan mashina parametrlarini asoslash. – Fan va texnologiyalara: Toshkent, 2021. – 180 b.); avtoreferatlar uchun - Muallifning familiyasi, ismi sharifi. Mavzusi: ishning darajasi. – Nashr joyi va yili. – Betlar soni. (1. Turayev N.S. Anor tuplarini yarim ochadigan mashina parametrlarin asoslash: t.f.f.d., (PhD). diss. avtoref. – Namangan, 2022. – 44 b.); dissertatsiya uchun - Muallifning familiyasi, ismi sharifi. Mavzusi: ishning darajasi. – Nashr joyi va yili. – Betlar soni. (1. Turayev N.S. Anor tuplarini yarim ochadigan mashina parametrlarin asoslash: t.f.f.d., (PhD). diss. – Namangan, 2022. – 120 b.); kitoblar uchun - mualliflarning familiyasi, ismi sharifi, kitobning nomi, nashr joyi, nashriyot nomi, nashr yili, qismi va betlari (1. Jo‘rayev A., Mavlyaviyev M., Abdukarimov T., Miraxmedov D. Mexanizm va mashinalar nazariyasi. – T.: G‘.G‘ulom, 2004. – 592 b.); patent uchun – Patent olingan davlat va uning raqami / e’lon qilingan yil. Mualliflarning familiyasi, ismi sharifi. Mavzusi // Patent raqami, nashr yili. – Byulleten raqami. (1. Patent O‘zR FAP 00848 / 31.10.2013. Djurayev A., To‘xtaqo‘ziyev A., Muhamedov J., Mamaxanov A. Zanjirli uzatma // O‘zbekiston Respublikasi patenti, 2013. – Byul. №10.); internet ma’lumotlari uchun - URL, ma’lumotga murojaat etilgan sana. (1. ZiyoNet ta’lim portali. http://library.ziyonet.uz/ru. 20.07.2022.)

5. Tahririyat barcha maqolalarni taqrizga yuboradi, ushbu taqriz natijalari asosida maqolani chop etish masalasi bo‘yicha tegishli qaror qabul qiladi.

6. Yuqoridagi talablarga javob bermaydigan maqolalar tahririyat tomonidan ko‘rib chiqilmaydi.

7. Keltirilgan talablar yakuniy emas, ba’zi maqolalar borasida tahririyat qo‘shimcha ma’lumot so‘rash huquqini saqlaydi. Tahririyat manzili:

160103. Namangan shahri, Islom Karimov ko‘chasi, 12-uy.
Telefon/faks: (0-369) 234-15-23,
Bizning sayt: qurilishtalim.uz
Ye-mail: qurilishta’lim@edu.uz
Aloqa uchun

+998939254606

NamDTU kichik bosmaxonasida chop etildi.
Manzil: Namangan vil. Namangan shahar I. Karimov ko‘cha, 12-uy